

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETINING  
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM FAKULTETI**

**“TASDIQLAYMAN”**

Buxoro davlat universitetining  
Pedagogika instituti o‘quv ishlari  
bo‘yicha direktor o’rinbosari  

---

E.M.Muxtorov  
“\_\_\_” 2022-yil

**“Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi ” kafedrasи**

**O‘QUV - METODIK MAJMUA**

**BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TARBIYA  
fanidan (kechki ta’lim uchun)  
2022-2023- o‘quv yili uchun**

Fanning kodi:

BTTar104

Bakalavriat yo‘nalishi:

60110500 – Boshlang‘ich ta’lim

Semestr:

2

Kreditlar soni:

4

**Buxoro – 2022**

Fanning ishchi o‘quv dasturi “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi” kafedrasining 2022-yil \_\_\_\_-avgustdagi 1–son yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri:** \_\_\_\_\_ M.J.Saidova

Fanning o‘quv-uslubiy majmuasi Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan. (2022-yil \_\_\_\_-avgustdagi № 1- sonli bayonnomaga)

**Fakultet kengashi raisi:** \_\_\_\_\_ O.R.Avezov

**Tuzuvchilar:**

**N.B.Adizova** -Buxoro Pedagogika instituti davlat universitetining “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi” kafedrasi dotsenti f.f.b.f.d.(PhD)

**G.E.Saidova** – Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

**N.O’Jo’rayeva** -Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti ”Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi ”kafedrasi o’qituvchisi

**Taqrizchilar:**

**A.R.Hamroyev** –Buxoro davlat universiteti “ Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori

**M.J.Saidova** –Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi” kafedrasi dotsenti, p.f.b.f.d.(PhD)

## MUNDARIJA

T/r	O‘quv-uslubiy majmua elementlari	Betlar
1.	Ma’ruza matni	4-90
2.	Amaliy va seminar mashg‘ulotlari materiallari	91-121
3.	Mustaqil ta’lim mavzularini o‘zlashtirish bo‘yicha zarur uslubiy ko‘rsatmalar	122-124
4.	Glossariy	125-126
	Ilovalar -fan dasturi -test topshiriqlari -baholash mezonlari va fanni o‘rganish bo‘yicha boshqa materiallar	127-136 137-149 150- 152



**MA'RUZALAR MATNI**  
**Ma'ruza 1**  
**MAVZU: TARBIYA IJTIMOIY-TARIXIY ZARURAT SIFATIDA.**

**R e j a :**

1. “Boshlang’ich ta’limda tarbiya” fani haqida tushuncha.
2. Tarbiyaviy ishlarning metodologik asoslari.
3. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari haqida ma’lumot berish.

**Tayanch tushunchalar:** tarbiya, metod, metodika, tarbiyaviy ishlar, ilmiy-tadqiqot metodlari.

**Mustaqil ta’lim topshirig’i**

Mavzu	Foydalaniladigan adabiyotlar	Amalga oshirish shakli
Boshlang’ich sinflarda matematika o’qitishda didaktik tamoyillar mohiyati va mazmuni.	1. Salayeva M.S. Umumiy pedagogika. Darslik. - Toshkent “Nodirabegim”. 2021. – 408 bet. 2. Ismatova Nargiza va boshalar. Tarbiya 1,2, 3,4. Darslik. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.: Toshkent – 2020.6-bet.	“Boshlang’ich ta’limda tarbiya” fanining maqsadi va vazifalari, asosiy tushuncha va tamoyillari haqida taqdimot tayyorlash.
Boshlang’ich sinf matematika darsligidan foydalanib, boshqa fanlar bilan aloqadorligi.	1.SarsenbayevaR.M. Tarbiyaviyishlar metodikasi.O’quv qo’llanma. - T.; 2019.13-bet. 2.Dexanova M.U. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O’quv qo’llanma. - T.; 2019	“Boshlang’ich ta’limda tarbiya” fanining mazmuni, mohiyati va shaxs tarbiyasidagi roli haqida ko’rgazmalar tayyorlash.



**O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati**  
**Asosiy darslik va o‘quv qo’llanmalar**

1. Salayeva M.S. Umumiy pedagogika. Darslik. Toshkent. “Nodirabegim” nashryoti. 2021-yil.8-b.
2. Abdullayeva Sh. Umumiy pedagogika. O’quv qo’llanma.Toshkent.O’qituvchi nashryoti. 2021-yil.209-bet.
3. Istamova N . va boshqalar. Tarbiya 1,2,3,4. Darslik. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2020-yil.203-bet.
4. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O’quv qo’llanma. Toshkent-2019-yil.17-bet.



**MA'RUZALAR MATNI**  
**Ma'ruza 1**  
**MAVZU: TARBIYA IJTIMOIY-TARIXIY ZARURAT SIFATIDA.**

**R e j a :**

1. “Boshlang’ich ta’limda tarbiya” fani haqida tushuncha.
2. Tarbiyaviy ishlarning metodologik asoslari.
3. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari haqida ma'lumot berish.

**Tayanch tushunchalar:** tarbiya, metod, metodika, tarbiyaviy ishlar, ilmiy-tadqiqot metodlari.

**Mustaqil ta'lim topshirig'i**

Mavzu	Foydalaniladigan adabiyotlar	Amalga oshirish shakli
Boshlang’ich sinflarda matematika o’qitishda didaktik tamoyillar mohiyati va mazmuni.	1. Salayeva M.S. Umumi pedagogika. Darslik. - Toshkent “Nodirabegim”. 2021. – 408 bet. 2. Ismatova Nargiza va boshalar. Tarbiya 1,2, 3,4. Darslik. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.: Toshkent – 2020.6-bet.	“Boshlang’ich ta’limda tarbiya” fanining maqsadi va vazifalari, asosiy tushuncha va tamoyillari haqida taqdimot tayyorlash.
Boshlang’ich sinf matematika darsligidan foydalanib, boshqa fanlar bilan aloqadorligi.	1.SarsenbayevaR.M. Tarbiyaviyishlar metodikasi.O‘quv qo’llanma. - T.; 2019.13-bet. 2.Dexkanova M.U. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo’llanma. - T.; 2019	“Boshlang’ich ta’limda tarbiya” fanining mazmuni, mohiyati va shaxs tarbiyasidagi roli haqida ko’rgazmalar tayyorlash.



**O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati**  
**Asosiy darslik va o‘quv qo’llanmalar**

1. Salayeva M.S. Umumi pedagogika. Darslik. Toshkent. “Nodirabegim” nashryoti. 2021-yil.8-b.
2. Abdullayeva Sh. Umumi pedagogika. O‘quv qo’llanma.Toshkent.O’qituvchi nashryoti. 2021-yil.209-bet.
3. Istamova N . va boshqalar. Tarbiya 1,2,3,4. Darslik. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2020-yil.203-bet.
4. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo’llanma. Toshkent-2019-yil.17-bet.
- 5.Dexqanova M.U.Tarbiyaviy ishlar metodikasi.O‘quv qo’llanma.Toshkent-2019 yil. 23-bet.

**Elektron ta’lim resurslari:**

- 1.w.w.w.tdpu.uz
- 2.w.w.w.pedagog.uz
- 3.w.w.w.ziyonet.uz
- 4.w.w.w.edu.uz
- 5.tdpu-INTRANET.Ped



**MA’RUZALAR MATNI  
Ma’ruza 1  
MAVZU: TARBIYA IJTIMOIY-TARIXIY ZARURAT SIFATIDA.**

**R e j a :**

1. “Boshlang’ich ta’limda tarbiya” fani haqida tushuncha.
2. Tarbiyaviy ishlarning metodologik asoslari.
3. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari haqida ma’lumot berish.

**Tayanch tushunchalar:** tarbiya, metod, metodika, tarbiyaviy ishlar, ilmiy-tadqiqot metodlari.

**Mustaqil ta’lim topshirig’i**

Mavzu	Foydalaniladigan adapiyotlar	Amalga oshirish shakli
Boshlang’ich sinflarda matematika o’qitishda didaktik tamoyillar mohiyati va mazmuni.	1. Salayeva M.S. Umumiy pedagogika. Darslik. - Toshkent “Nodirabegim”. 2021. – 408 bet. 2. Ismatova Nargiza va boshalar. Tarbiya 1,2, 3,4. Darslik. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.: Toshkent – 2020.6- bet.	“Boshlang’ich ta’limda tarbiya” fanining maqsadi va vazifalari, asosiy tushuncha va tamoyillari haqida taqdimot tayyorlash.

Boshlang'ich sinf matematika darsligidan foydalanib, boshqa fanlar bilan aloqadorligi.	1.SarsenbayevaR.M. Tarbiyaviyishlar metodikasi.O‘quv qo‘llanma. - T.; 2019.13-bet. 2.Dexanova M.U. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. - T.; 2019	“Boshlang’ich ta’limda tarbiya” fanining mazmuni, mohiyati va shaxs tarbiyasidagi roli haqida ko’rgazmalar tayyorlash.
--	---	--



## O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati

### Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1. Salayeva M.S. Umumi pedagogika. Darslik. Toshkent. “Nodirabegim” nashryoti. 2021-yil.8-b.
2. Abdullayeva Sh. Umumi pedagogika. O‘quv qo‘llanma.Toshkent.O’qituvchi nashryoti. 2021-yil.209-bet.
3. Istamova N . va boshqalar. Tarbiya 1,2,3,4. Darslik. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2020-yil.203-bet.
4. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O’quv qo‘llanma. Toshkent-2019-yil.17-bet.
- 5.Dexanova M.U.Tarbiyaviy ishlar metodikasi.O‘quv qo‘llanma.Toshkent-2019 yil. 23-bet.
6. B.X.Xodjayev. Umumi pedagogika nazariyasi va amaliyotir. Darslik T:. Sano-standart. 2017-yil .9-bet

### Elektron ta’lim resurslari:

- 1.w.w.w.tdpu.uz
- 2.w.w.w.pedagog.uz
- 3.w.w.w.ziyonet.uz
- 4.w.w.w.edu.uz
- 5.tdpu-INTRANET.Ped

Hozirgi davrda mamlakatimizda tarbiyaviy ishlarning mazmuni barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan. Respublikada sog’lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni XXI asr talablariga to’liq javob beradigan har tamonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik hujjatlar, dasturlar va rejalar ishlab chiqilgan. Birgina - Ta’lim to’g’risidagi Qonunning qabul qilinishi yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, istiqbolli vazifalarni hal etishga qodir barkamol avlodni tarbiyalashga yo’naltirilganligini keltirish kifoya.

Tarbiya - yosh avlodni har tamonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo’naltirilgan faoliyat bo’lib, shaxsni aqliy , jismoniy, axloqiy, ma’naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo’lib, insonning jamiyatda yashashini ta’minalash uchun zarur bo’lgan xususiyatlarini tarkib toptirishning jarayonlaridir. Tarbiya shaxsni tarkib toptirishga qaratilgan bo’lib, shaxs va jamiyatning mavjudligini ta’minalaydigan qadriyatlar asosida rivojlanadi.

Tarbiya inson shaxsini shakllantirish, uning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol ishtirokini ta’minalashga qaratilgan barcha ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar majmuuni anglatadi. Tarbiya nafaqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan jarayonlar bo’libgina qolmay, uning yetakchi g’oyalari ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar orqali singdirilgan mafkurani ham o’z ichiga oladi. Zero, tarbiya ta’limga nisbatan kengroq bo’lgan tushunchadir. Bunday tarbiyaning oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishini nazarda tutadi. Shu jihatdan tarbiya ta’lim olish bilan chambarchas

bog’liq holda amalga oshiriladi. Ta’lim – tarbiya orqali shaxda ezgu ma’naviy – axloqiy sifatlar tashkil topadi. Shu o’rinda O’zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: —Albatta, ta’lim – tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va uning rivojini belgilaydigan, ya’ni xalq ma’naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan muhim omildir. Binobarin, ta’lim – tarbiya tizimini va shu asosda ongi o’zgartirmasdan turib, ma’naviyatni rivojlantirib bo’lmaydi..... har qaysi ota – ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko’rish kerak. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo’lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta’lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo’lishi lozim.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish joizki, insonning boy ma’naviy-tarixiy jarayonida samarali foydalanish, o’sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvar, xalqparvar, yuksak ma’naviyatlari etib voyaga yetkazish, insoniy fazilatlarni singdirishda tarbiyaviy ishlarni to’g’ri tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- maqsadning aniq mezonlarda ifodalanishi;
- faoliyat maqsadini amalga oshirishda xizmat qilishi;
- bolalar tarbiyasidagi faoliyatni o’qituvchi, ota – ona va jamoa bilan hamkorlikda boshqaruvni ta’minalash muhimdir.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish va uning salohiyatini oshirish bola qalbida insoniy fazilatlarni singdirish ko’p jihatdan tarbiyachi-tarbiyalanuvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishga bog’liq. Ular quyidagi omillarni qo’llash asosida vujudga keladi:

- tarbiya jarayonini tashkil qilishdagi munosabatlar. Bunda tarbiyalanuvchilarning kundalik hayotiy voqyealari jamoadagi tartib qoida va xulq-atvorlar haqidagi motivlar va ularga bir butun yondoshuv kabilardir;
- tarbiyaviy ishlarning maqsadi, aniqligi va ta’sirchanligi. Tarbiyaviy jarayonni loyihalashtirish, shakl, metod, shart – sharoitlarni oldindan aniqlab qo’yilgan maqsadga muvofiqlashadir;
- tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o’zaro munosabatlari. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning ruhiy holatlari, muloqot va munosabatda bo’lishlari, ruhiy shart – sharoitlar yaratilishi, tarbiyaviy tadbirlarni gigiyena qoidalariiga moslash, estetik talablarga javob berishi, tarbiyaviy ishlarni muvaffaqiyatli tashkil etish funksiyalaridan biridir.

-o’quvchi – yoshlarning faolligi va mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etish. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilishda o’quvchi yoshlarning faolligi ko’p jihatdan ixtiyorilik, tashkilotchilik va ijodkorligiga bog’liq;

- tarbiyaviy ishlar ta’lim jarayonida olgan bilimlariga uyg’un bo’lishi. Tarbiyaviy ishlarni rejulashtirishda turli fanlarning integrasiyasi hisobga olish ijobjiy xarakter kasb etadi. Tarbiyaviy ishlar metodikasi yosh avlodni har tamonlama barkamol avlod qilib tarbiyalash, ular ongiga milliy g’oyani singdirishda har tamonlama ta’sir ko’rsatadi.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir fuqaroning ilm olishi, o’z qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish ta’kidlanadi. Ta’lim to’g’risida qabul qilingan qonunda mакtabning, unda amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiyaning mazmuni amalga oshirilishi lozim bo’lgan tarbiyaning vazifalari belgilab berildi.

Ma’lumki yosh avlodga tarbiya berish jarayonida maktab juda katta ahamiyat kasb etadi. O’quvchilarga tarbiya berish, ularga ta’lim berish bilan bиргаликда amalga oshiriladi. Ammo, tarbiyaning o’z vazifasi, mazmuni, amalga oshirish usul va vositalari mavjud. O’qish va tarbiya jarayonining uzviylicha ta’lim muassasalari oldiga qo’yilgan eng muhim pedagogik vazifalardan biri

hisoblanadi. Shuning uchun 1-sinfdan, maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bevosita o'quv jarayoni bilan bog'langandir.

Har bir fanning predmeti, o'rganish obyekti, amalga oshirishi lozim vazifalari mavjud bo'lganidek, tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining ham predmeti, o'rganish obyekti va amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalari bor.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning asosiy maqsadi, bugungi kun talabiga javob beradigan barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan ekan, ayni paytda bu o'qituvchilarga katta mas'uliyatni yuklaydi. Shu jihatdan ham o'qituvchining pedagogik faoliyat yuritishi davr talabiga javob bermog'i lozim. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning bosh masalalaridan biri ham yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashdan iborat etib belgilangan.

Shu jihatdan ham yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazish uchun Respublikamizda ijtimoiy – tashkiliy, tarbiyaviy ishlar amalga oshirilmoqda. Barkamol avlodni tarbiyalash, ma'naviy, ma'rifiy, tashkiliy uslubiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari bilan murakkab tarbiyaviy ishlar tizimi kundan-kunga takomillashib bormoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tarbiyaviy ishlar shaxs kamolotining uzluksizligini va uzviyligini muvaffaqiyatlari ta'minlaydi. Shu jihatdan tarbiyaviy ishlar tizimi shaxs kamolotining eng muhim va zaruriy omillaridan biri hisoblanadi. Albatta, bunda tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish muhimdir. O'zbekiston mustaqilligi tufayli shaxsni tarbiyalashga, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Uning mazmunida yoshlar tarbiyasi muhim o'rinni tutadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti tomonidan 2008 yilni —Yoshlar yili va 2010 yilni —Barkamol avlod yili 2012 yilni —Mustahkam oila yili deb e'lon qilinishi va ushbu yillar bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risidagi Farmoyishning qabul qilinishi yoshlarni har tomonlama yetuk, jismonan va ma'nani sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalashni maqsad qilib belgilab berdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tarbiya barkamol avlodning uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi. Tarbiyaviy ishlar sog'lom hayot, sog'lom turmush tarzi, sog'lom e'tiqod, barkamollik kabilarning asosiga aylanadi. Barkamol avlodni tarbiyalash mazmunida milliy qadriyatlarga sadoqat, jamiyatdagi tinchlik, xotirjamlikni saqlashga ongi munosabatda bo'lish, tinch va farovon hayot yaratish, ijtimoiy ma'naviyatni yuksaltirishga intilish kabi omillar tarbiyaviy ishlarda asosiy o'rinni egallaydi. Shu sababli bugungi yoshlar dunyoqarashida millat, Ona tuproq, Ona Vatan kabilalar turli xil tarbiyaviy tadbirlar, boy ma'naviy merosimiz haqidagi tushunchalar bilan tarkib topib boradi. Yoshlarni tarbiyalashda ular ongida, millat, milliy axloq, milliy g'urur, milliy tarbiya, milliy g'oya, Vatan tuyg'usi, Vatan qayg'usi, Vatan sog'inchi va shu kabi tushunchalarni sindirib borish, ularning milliy dunyoqarashini kengaytirib borish tarbiya jarayonining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Tarbiyaviy ishlar jarayonida tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga va mashqqa degan edi, ulug' olim Arastu. Shunga asosan tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchilar quyidagilarga amal qilishlari lozimdir:

- tarbiyaviy ishlar jarayonida va tarbiyada ulg'ayotgan inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb bilish, har bir bola, o'smir va yoshlarning o'ziga xosligini hurmat qilish;
- milliylikning o'ziga xos an'ana, vositalariga tayanish, milliy merosga asoslanish;
- o'quvchilar faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish, qiziqarli, to'laqonli bolalar yosh jihatlariga mos turli xil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga qatnashishini ta'minlash, mehnat, ijtimoiy foydali, ko'ngilochar tadbirlar tashkil etish lozim.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining asosiy vazifasi yosh avlodni ma'naviy, axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy merosimizga, umumbashariy qadriyatlarga,

urf-odatlar va an'analarga tayanib, ongli shaxslarni intelektual salohiyatli qilib tarbiyalashdir. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilar jamoasining tarbiyalanganlik darajasini o'rganib, unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mahoratiga ega bo'lish ;

- tarbiyaviy ish va tadbirlar uchun zarur bo'lgan metodlarni tanlab, ko'zlangan maqsadga erishish chora-tadbirlarini ko'ra bilish ;

- ilg'or tajribalarni tahlil qilish va uni o'z faoliyatida ijodiy foydalanish ;

- tarbiyaviy ishlarning o'quvchilar ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirish va takomillashtirish ;

- tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'z bilimini doimiy rivojlantirib borishi lozim. Darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bilan birga MO'D lariga mosligiga e'tibor qaratish zarur bo'ladi.


1. Tarbiyaviy ishlar jarayonida barkamol avlodni tarbiyalash muhim o'rinni tutadi. Aniq maqsadga qaratilgan tarbiya ishida jamoaga va ba'zi bir talablarga ta'sir qilishini tashkil etish tarbiyaviy ishlarning asosini belgilaydi.

2. Tarbiyaviy ishlarning asosiy jihatni barkamol avlodni har tomonlama kamol topishini hisobga olgan holda ularning tarbiyaviy jihatiga e'tiborni qaratish zarur bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchi va tarbiyachilar yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda metodikaga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Tarbiya metodlari. Yosh avlodni tarbiyalashda turli xil metod va vositalardan, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalilanadi. Metod (lotincha-metodos-yo'l so'zidan olingan bo'lib) tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot deb tarjima qilingan. Metodika (yunoncha-metodika) biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig'indisi yoki o'qitish tarbiyalash usullari va vositalari degan tushunchani anglatadi.

Tarbiya metodlari - pedagog-o'qituvchilarning o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, vositalari, tarbiyalanuvchilarga barkamol shaxs xislatlarini singdirish maqsadida tarbiya jarayonini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etish yo'llaridir.

Tarbiya metodlari tarbiyaviy ishlar metodikasi fani ishlarni to'g'ri tashkil etishda muhim vosita bo'lib, bola shaxsining har tamonlama kamol topishi bilan belgilanadi va tarbiyaviy ishlar jarayoniga taalluqli bo'lgan ko'pgina tarbiyaviy ta'sirlarni o'z ichiga oladi. Tarbiya metodlari ijtimoiy jamiyat tamonidan ta'lim muassalari oldiga Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining predmeti va vazifalari o'quvchilarni yuksak darajada tarbiyalash san'atining qirralari, shakllari va yo'llari hamda o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish haqida baxs yuritadi; ta'lim muassasalarida tarbiya ishlarni to'g'ri tashkil etish. O'quvchilarni ma'naviy, axloqiy jihatdan intellektual salohiyatli etib tarbiyalash o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mahoratiga ega bo'lismi, tarbiya ishlarida zarur bo'lgan metodlarni qo'llay bilish, tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'z bilimini rivojlantirib borish, har tamonlama barkamol, erkin, ijodkor, tashkilotchi, mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxsni tarbiyalash vazifasini o'z ichiga oladi. Tarbiya metodlari o'qituvchi va jamoa tamonidan tarbiyalanuvchilarning g'oyaviy va ma'naviy e'tiqodlarini, ma'naviy his tuyg'u va odatlarini tarkib toptirish maqsadida qo'llanadigan shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini anglatadi. Metodlar tarbiyaning maqsad va mazmuniga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik darajasini hisobga olish tarbiya metodlaridan samarali foydalanishning muhim shartlari hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borganda turli xil usul va vositalarni qo'llaydi. Tarbiya metodlarining xilma-xilligi ularni turlarga ajratish, ta'sir qilish zarurligini ko'rsatadi.



**Ma’ruza 2**  
**MAVZU: MILLIY TARBIYA KONSEPSIYASI.**

**R e j a :**

1. Milliy tarbiya tushunchasining mohiyati.
2. Milliy qadriyatlar asosida shaxs dunyoqarashining shakllanishi.
3. Umuminsoniy tarbiyaning mezonlari.

**Tayanch tushunchalar:** urf-odat, rasm-rusum, an‘ana, meros, qadriyat, islom m a‘naviyati, alq og‘zaki janrlari, folklor.

**Mustaqil ta’lim topshirig’i**

Mavzu	Foydalilanligidagi adabiyotlar	Amalga oshirish shakli
Milliy tarbiya tushunchasining mohiyati.	1.Dexkanova M.U. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. - T.; 22-b. 2. Ismatova Nargiza va boshalar. Tarbiya 1,2, 3,4. Darslik. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.: Toshkent – 20209-bet.	Milliy tarbiya tushunchasining mohiyati haqida taqdimot tayyorlash.
Umuminsoniy tarbiyaning mezonlari	1.SarsenbayevaR.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. - T.; 2019.51-bet. 2.Salayeva M.S. Umumi pedagogika. Darslik. - Toshkent “Nodirabegim”. 2021. – 400 bet.	Umummilliq qadriyatlarimiz aks etgan rangli rasmlar ko‘rgazmasini tayyorlash.



**O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati**  
**Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar**

1. R.A.Mavlonova, Б.Нормуродова. Тарбиявий ишлар методикаси. О‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Fan” 2008 y. 88-bet.
2. R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.403-bet.
3. K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.O‘quv qo‘llanma.T:.O‘qituvchi 2010-yil.127-bet.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T:. Fan va texnologiyalar. 2010-yil.13-bet.

**Elektron ta’lim resurslari:**

- 1.w.w.w.tdpu.uz
- 2.w.w.w.pedagog.uz
- 3.w.w.w.ziyonet.uz
- 4.w.w.w.edu.uz
- 5.tdpu-INTRANET.Ped

Tarbiyaviy ishlarning ta'sirchanligi, samaradorligi ko'p jihatdan xalqimizning boy milliy, ma'naviy merosining tarixiy ildizlarini o'rganishga bog'liq. Har bir xalqning ijtimoiy-ma'naviy hayotida azaliy urf-odat, marosim, an'ana tarzida o'ziga xos bir qadriyat meros sifatida namoyon bo'lib, avloddan avlodga yetib keladi. Millatning m a'naviy madaniyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni muhimdir. Milliy qadriyat millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lган juda ko'p qadriyat shakllarini qamrab oladi: «Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa b o'lib, millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an'analari, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklari, iqtisidiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlaridir»

1. Tarbiyaviy ishlar mazmunida milliy qadriyatlarning quyidagi bosqichlaridan ketma-ket foydalanish mumkin. Ular:

- milliy qadriyat haqida tushuncha berish;
- ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy, moddiy boyliklar;
- xalq og'zaki ijodiyoti;
- urf-odat va ularning tarbiyaviy ahamiyati;
- xalq yaratgan an'ana va marosimlarni o'rganish va nishonlash kabilar.

Milliy qadriyatlardan foydalanish, ta'lim-tarbiya jarayoni mazmunini ohib berish o'quvchilarda milliy g'oya, milliy g'urur, milliy iftixon kabi m a'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantiradi.

O'zbek xalq etnografiyasida avlod-ajdodlarimiz komillikka intiluvchi har bir shaxsga nisbatan quyidagi o'git bilan murojaat qilishgan:

*O 'zbegim!*

*Osmoning musaffo, oilang tinch-totuv, dasturxonning to'kin-sochin bo'lsin, farzandlarining komil inson bo'lib voyaga yetsin, har qachon bayram, to'y-tomoshani tark etmasin. Milliy urf-odat va qadriyatlarimizga sodiq qol! A n'ana, marosim, milliy urf-odat o'zbekning o'zligidir!*

An'ana — tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, avloddan avlodga meros bo'lib o'tadigan, kishilar m a'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatadigan madaniy hodisadir. An'ana o'ziga xos ijtimoiy hodisa sifatida, kishilar ongiga singgan (umum yoki ma'lum guruh tomonidan), qabul qilingan tartib va qoidalar majmuasi hisoblanadi.

*Odat (urf-odat)* — kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor, qoidalar ko'nikmasi. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, uy-hovlini tartibga keltirib qo'yish, mehmonlarga alohida hurmat ko'rsatish, bayram

arafasida qariyalar, kasal, ojiz, qiyngangan kishilar holidan xabar olish, qo'ni-qo'shnilarining biror ishiga yordam berish, hasharga borish kabilar o'zbek xalqiga xos yaxshi odatlar hisoblanadi.

Odat ma'lum sharoit ta'sirida vujudga kelib, insonning fe'l-atvorida mustahkamlanib qoladi va keyinchalik doimiy elementga aylanadi.

*Marosim* inson hayotidagi muhim sanalarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatida o'tadigan, umum qabul qilingan tartib-qoidalarga amal qilinadigan tadbir sanaladi.

Masalan, ism qo'yish, nikohdan o'tish, dafn, xotirlash, ekin ekish (urug' qadash), o'rim o'rish marosimlari.

Odat kundalik hayotda doimo kuzatilsa, marosim inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo'lganida vujudga keladi. Marosim kishilar hayotidagi eng muhim voqealar (masalan, tug'ilish, uylanish, o'lim kabilar) bilan bog'liq bo'ladi. M arosimlarni o'tkazishda avloddan avlodga o'tadigan, ramziy va rasmiy an'analar, qoidalarga amal qilinadi. Marosimda, bo'layotgan voqeaga «guvoh» sifatida odamlar chaqiriladi. Odamlar kimningdir g'ami yoki quvonchiga sherik bo'lishadi, kelajakni o'ylab, yaxshi niyatlar qilishadi. Har bir marosimning o'ziga xos tartibi (boshlanishi va

nihoyalanishi) bo‘ladi. Inson hayotida bo‘lib o‘tayotgan muhim voqeani nishonlash jarayonida an‘ana ham, odat ham, marosim ham mujassamlashadi.

An‘ana, odat, marosim bir-biri bilan bevosita bog‘liq hodisa hisoblanadi. Shu bois an‘analarning tarkibiy qismi odat, odatning tarkibiy qismi esa marosim bo‘lishi mumkin. «An‘ana», «marosim», «bayram» atamalari o‘zgarmas tushunchalar emas. Zamon taraqqiyoti va turmushdagi o‘zgarishlar ta‘sirida tushunchalar mazmuni ham kengayib boradi. Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar ta‘sirida talabga javob bermay qolgan an‘ana va bayramlar asta-sekin unutiladi. Mohiyatan xalqchil, ijtimoiy salmoqqa ega bo‘lgan an‘analar taraqqiy etadi.

Masalan, «Navro‘z», «Qovun sayli», «Lola sayli» va h.k. bayramlar zamonaviy talablarga javob bergani uchun ham asrlar davomida yashab kelmoqda.

Xalq turmushining o‘zgarishi unga mos an‘analarni vujudga keltiradi. O‘zbek xalqi hayotida ham yaqin yillar ichida avvaldan mavjud bo‘lmagan ko‘plab ijtimoiy va shaxsiy oilaviy an‘ana, marosim va bayramlar paydo bo‘ldi. Keyingi paytlarda ilmiy adabiyotlarda, davriy nashrlarda «an‘anaviy bayramlar», «yangi an‘analar» so‘zлari ishlatila boshlandi. An‘anaviy bayramlar deganda, ma‘lum vaqtida m untazam o‘tkazib turiladigan azaliy madaniy ommaviy tadbirlar — «Gul bayrami», «Lola sayli», «Qovun sayli», «Xirmon to‘yi» (hozirgi «Paxta bayrami») nazarda tutiladi. Chunki ular qadim zamonlardan buyon mavjud bo‘lgan xalq bayramlaridir.

Yangi an‘analar — hayotimizga kirib kelayotgan va joylarda endigina urf bo‘layotgan tadbirlardir. Odatda, *bayram* deganda, biron-bir muhim hodisa, voqeа, sanani ko‘pchilik bo‘lib, ko‘tarinki ruhda, xursandchilik bilan nishonlash tushuniladi. «Bayram kunlarida odamlar «qisqa» vaqtga bo‘lsa-da, o‘zlarini kundalik mehnattadan, tashvishdan, g‘am-g‘ussadan, qaramlikdan, qarzdan xoli, erkin sezadilar», deydi qadimshunos M. Qodirov.

Bayramlar har bir xalqning o‘ziga xos qadriyatlarini aks ettiradigan ko‘zgu sanaladi. Chunonchi, kishilar bayram chog‘ida chiroyli kiyimlar kiyishadi, lazzatli taomlar tayyorlashib, o‘z pazandaliklari, kiyinish madaniyatları, go‘zallikka tashnaliklarini namoyish etishadi. Bayram kuni hamma ko‘tarinki kayfiyatda bo‘ladi. Odamlar o‘rtasida boshqa kunlarga qaraganda muayyan darajada yaqinlik, hamkorlik, hamjihatlik vujudga keladi. Bayram kuni azal-azaldan tinchlik kuni hisoblangan. O‘sha kuni urush, nizo va mojarolar to‘xtatilgan. Bu kunda kishilar o‘rtasidagi adovat, gina-kuduratlar unutilgan, o‘zaro arazlashganlar yarashishgan. Bayramlarda vujudga keladigan ko‘tarinki kayfiyat kishilarni ertangi kunga umid bag‘ishlashga, kelajakka ishonch bilan qarashga undaydi.

Bayram ijtimoiy-madaniy hayot ko‘zgusi sifatida har bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlarini ham keng namoyish qiladi. *Navro‘z bayrami*. Bu tabiatning uyg‘onishi, ekin ishlaringin boshlanishini nishonlashga qaratilgan bayram bo‘lib, marosimlarda qadimiy zardushtiylik alomatlari saqlanib qolgan. An‘anaga ko‘ra, uylarda hozir ham xuddi qadimdagidek bo‘g‘irsoq pishiriladi va marosim taomi sumalak tayyorlanadi. Bayramdan keyin, odatda, daladagi ekin ishlari boshlangan.

O‘tmishda turli urf-odatlar va marosimlar bajarilar edi: dalaga chiqishdan avval ho‘kizlarning shoxlari va bo‘yinlariga moy surtilgan. Birinchi ko‘chatni mahallaning eng e‘tiborli va keksa a‘zosi ekkan. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, Navro‘z bayramini nishonlash davlat darajasida muhim ahamiyat kasb etdi. Rang-barang teatrlashtirilgan tomoshalarda Navro‘zning falsafiy shoirona talqini, uning xalq tarixidagi o‘rni aks ettiriladi. *Oilaviy an‘analar, bayramlar*. Xalq an‘analarining muhim qismini oilaviy marosimlar tashkil qilgani uchun ularni alohida tadqiq etish ehtiyoji yuzaga keladi. O‘zbek oilalarida chaqaloq tug‘ilganidan to u ulg‘ayib, yangi oila qurguniga qadar sodir bo‘ladigan muhim sanalarga bag‘ishlangan marosimlar tizimi mavjud.

Mazkur tizimga chaqaloqning dunyoga kelishi, unga ism berish, chaqaloq chillasi, beshik to‘yi, soch to‘y, tish to‘yi, birinchi qadam, sunnat to‘yi, muchal yoshi, nikoh to‘yi kabilar kiradi.



## MAVZU: TARBIYA DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI.

### R e j a :

1. Sinfdan tashqari tadbirlarning tarbiyaviy ahamiyati.
2. Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qiluvchining vazifalari.
3. Maktabdan tashqari faoliyat ish usullari.

**Tayanch tushunchalar:** tarbiya, sinfdan tashqari ish, maktabdan tashqari ish, tarbiya fani, tadbir..

### Mustaqil ta’lim topshirig’i

Mavzu	Foydalaniladigan adabiyotlar	Amalga oshirish shakli
Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qiluvchining vazifalari	1. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotir. Darslik T.: Sano-standart. 2017-yil 77-bet.  2. Ismatova Nargiza va boshalar. Tarbiya 1,2, 3,4. Darslik. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.: Toshkent – 2020.89-bet	Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qiluvchining vazifalari haqida taqdimot tayyorlash.
Sinfdan tashqari tadbirlarning tarbiyaviy ahamiyati.	1.Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviyishlar metodikasi.O‘quv qo‘llanma. - T.; 2019.303-bet.  2.Dexkanova M.U. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. - T.; 2019.108-bet.	Sinfdan tashqari tadbirlardan namunalar tayyorlash.



### **O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati** **Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar**

1. Salayeva M.S. Umumiy pedagogika. Darslik. Toshkent. “Nodirabegim” nashryoti. 2021-yil.266-bet.
2. Abdullayeva Sh. Umumiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma.Toshkent.O‘qituvchi nashryoti. 2021-yil.303- bet.
3. Istamova N . va boshqalar. Tarbiya 1,2,3,4. Darslik. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2020-yil.206-bet.
4. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2019-yil.21-bet.
5. Dexqanova M.U.Tarbiyaviy ishlar metodikasi.O‘quv qo‘llanma.Toshkent-2019 yil.177-bet.
6. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotir. Darslik T.: Sano-standart. 2017-yil.105-bet.

### **Elektron ta’lim resurslari:**

- 1.w.w.w.tdpu.uz
- 2.w.w.w.pedagog.uz
- 3.w.w.w.ziyonet.uz
- 4.w.w.w.edu.uz
- 5.tdpu-INTRANET.Ped

Tarbiya jarayonining mazmuni bolalarga beriladigan ma’naviy axloqiy bilimlar tizimi, ishonch, e’tiqod, intizom, xulq-atvorni bir butun holatini tashkil etadi.

Mustaqil O’zbekistonning, istiqlol va istiqboli uchun fidoiylik ko’rsatuvchi avlodni tarbiyalash mazmuni tamoman o’zgacha xarakter kasb etmoqda:

- fuqarolik demokratik jamiyatni barpo etish mohiyatini anglab oluvchi; - vatanini har doim turli oqimlardan himoya etuvchi;

- diniy bag’rikenglik va mehr-muravvatli bo’lish;
- davlat siyosatini tushunish unga fidoiy bo’lish;
- o’zligini anglash, ajdodlar merosini qadrlash;
- yuqoridagi komil insonga xos sifatlarni tarbiyalashda;
- maqsadni aniqligi va uni to’g’ri yo’naltirish madaniyati;
- tarbiyachi-o’qituvchi va tarbiyalanuvchini hamkorlik faoliyati;
- o’zini anglash, mustaqil fikrlovchi e’tiqodligi va ixtiyorlik.

Tarbiyaviy ishlarning mazmunida bir butun yondashishdan bosh maqsad, “Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoiyllari dasturi”dagi g’oyalarni bolalarning ongida o’ziga xos va mos ravishda singdiradi.

-Xalqimizning boy ma’naviy, an’ana, udum, urf-odatlar va ajdodlarimiz merosidan foydalanish.

-O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, adolat, haqiqat va erkinlikni, ishonch-e’tiqodni tarbiyalash.

- Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi mohiyatini izohlash.
- Mehrli-muruvvatli va bag’ri kenglik. Ayniqsa kichik maktab yoshidagi o’quvchilarning ta’limiy- tarbiyaviy faoliyatlari o’ziga xos xususiyatga ega: o’quvchilarda hayotiy tajribalarning kamligi, o’quv-tarbiya jarayonida hodisalarga qiziqish, «yaxshi», «yomon» harakatlarga chuqr munosabat bildira olmasligi kabilar.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarining dars va darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirish o’ziga xos qoidalarga egadir:

1. Har bir sinf jamoasining tarbiyalangan darajasini o’rganish.
2. O’quvchilarning oilaviy hayoti, ota-onaning farzand tarbiyalashdagi burchi va vazifasini qanday his etishi.
3. Kundalik o’zgarishlarga o’quvchilarning munosabati.
4. O’quvchilarning sharqona milliy urf-odat, an’analar haqidagi bilim darjasasi.
5. Qomusiy ma’rifatparvar, mutafakkirlar hamda hozirgi zamon shoir, yozuvchilarning ijodiyotidan namuna bilishlari.

Mazkur qoidalar boshlang’ich sinflarda sodda holda qo’llaniladi. Yuqoridagilarni aniqlashda suhbat, anketa usullaridan foydalanish o’rinlidir. SHundagina har bir o’qituvchilarning betakror, bir-biriga o’xshamagan tarbiyaviy tadbir rejali bunyodga keladi. Bunday rejalar tarbiyaviy ta’sirga ega bo’lib maqsadga erishtira oladi.

### **Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning asosiy omillari:**

1. Vatanga muhabbat va insonparvarlik.
2. Milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish.

3. Ma'naviy tarbiya (axloq va odob).
4. Iqtisodiy tarbiya.
5. Ekologik tarbiya.
6. Go'zallik tarbiyasi.
7. Jismoniy barkamollik (sog'lom avlod uchun).
8. Ota-onalar bilan ishlash.

Yuqoridagi omillarni rejalashtirishda tanlanadigan mavzular quyidagi talablarga javob berishi kerak.

1. Tarbiyaviy tadbirdilar rejasiga undagi mavzular davr talabiga javob berishi.
2. Tanlangan mavzular milliy va umuminsoniy qadriyatlar qamrovida bo'lishi.
3. Tarbiyaviy tadbirdilar uzviylik qoidasiga amal qilgan bo'lishi.
4. Mavzular o'quvchilarning yoshi va bilim saviyasiga mos bo'lishi.

Tarbiyaviy tadbirdarni rejalashtirishda «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoiyllari» dasturi. O'zbekiston Respublikasi «Kamolot ijtimoiy harakati» dasturi mos qilib olindi.

Quyidagi keltirilgan reja taxminiy bo'lib, o'z shartsharoitingizga qarab ijodiy o'zgarishlar kiritish mumkin.

### **1. Vatan g'ururi – kamolot mulkining asosi (I-II sinflar uchun).**

- a) Tug'ilgan uy, ko'cha, shahar va o'lkalarining tarixi.
- b) Bir bolaga yetti qo'shni ota-onsa ekanligi.
- v) Atrof tabiatidagi o'simliklarning nomi va uni muhofaza qilish.
- g) O'lka tarixiga oid (tarixiy, obidalar, kimlar yashagan, iqtisodiy boyligi, san'ati va kelajak rejalar) ma'lumotlar.
- e) Kindik qoni to'kilgan joyning tuprog'i aziz hissini singdirish.

### **2. Turmush madaniyati**

- a) SHarqona oila.
- b) Ota-onsa mehri, ularning borligidan fahrlanish.
- v) Oilada sharqona urf-odatlar, an'analar qonun va qoilalarga amal qilish.
- g) Qariyalar tarixini o'rganish, ularning yaxshi fazilatlari bilan chuqurlashish va g'amxo'rlik qilish.
- d) Turmush va bozor iqtisodiga sharqona munosabat uyg'otish.
- e) Jismoniy barkamollik va sport.

### **3. O'zbek tilining sofligi – xalq iftixori**

- a) Har bir millatni ona tili va unga mehrli milliy g'ururini gul tojisi ekanligi (xalqning maqol, rivoyat, hikoyatlaridan foydalanish).
- b) O'zbek tilining tarixi, rivoji.
- v) O'zbek tilining istiqboli.
- g) «Til bilgan elni biladi» (dunyo tillarining mohiyati haqida).
- d) Millatlararo totuvlik.

### **4. O'zbek milliy urf odat, rasm-rusumlar va marosimlar**

- a) Oilaviy urf-odatlar.
- b) Rasm-rusmlar va ularning tarixi.
- v) Marosimlar ularning turlari, tarixi va mazmuii.

### **O'zbekona insoniy, yuksak axloqiy sifatlar**

- a) Allomalarining o'g'il va qizlarga aytgan nasihatlari.
- b) Qizlik iffati, hayosi, g'ururi.
- v) Oila va jamoat mehnatiga to'g'ri munosabatda bo'lish.

- g) Inson go'zalligini anglatuvchi belgilari.
- d) «Yaxshilik» va «yomonlik»ni keltiruvchi hasob, uning sabablari, obro' qozonish oson ishmi?
- e) Sayoq yurgan tayoq yer. yo) Bozor qilish odobi.
- j) Tabiat go'zalligini saqlash.

O'quvchilarni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish, ularda faol hayotiy mavqeni shakllantirish, o'zlashtirish va bilim sifatini oshirish ko'p jihatdan kuni uzaytirilgan guruuhlarining samarali ishlashiga bog'liqdir.

Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatini to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi, to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarish bilan bog'lanishiga zamin yaratadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko'p qirralidir.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish.
  2. O'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko'p qirrali ishlarni o'quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish.
  3. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish.
  4. Umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirdorda qatnashish.
  5. O'quvchilarning bo'sh vaqlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish. Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma'muriy.
- Bular ko'pincha o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator kishilarni kiritish mumkin:
1. Tarbiyaviy ishlar sohasida erishgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish.
  2. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash.
  3. Tarbiyaviy, ommaviy, siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash.
  4. Sinfdan, maktabdan tashqari ishlarni rejalashtirish, guruhlashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingen axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi. Shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi. O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatga duch keladilar. Shuning uchun ham o'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatları qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Maktabdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoadagi ishlarni o'rganadilar. Ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar. Ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar. Jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga otlanadilar. Maktabdan tashqari faoliyatga quyidagilar kiradi:

1. Og'zaki ish usullari: majlislar, yig'inlar, ma'ruzalar, kutubxonalar, konferentsiyalar, munozaralar, uchrashuvlar, gazetalar, radio va jurnallar.
2. Amaliy ish olib borish usullari turli joylarga sayyohatlarga, sport musobaqalari, tabiatshunoslar to'garaklari, shanbaliklar, yangi kitoblar ko'rgazmalari.

Tarbiyaviy ish pedagogikadan butun qobiliyatlarni ishga solishga taqozo etadi. Sinf rahbarligi kursi bilan maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlар metodikasi kursi bir-biriga bog'liq va uning davomiyligidir. Yuqoridagi qayd etilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar turli qo'llanmalar, asboblar, apparatlar, didaktik materiallardan foydalanishni o'rganadilar, o'z-o'zini tekshirish uchun turli ma'lumot va tayanch materiallarini jalb etish ko'nikmalarini egallaydilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishni rejalashtirish bolalarning yosh xususiyatlariga, mактабning joylashgan shart-sharoitlariga, ijodiy birlashmalariga, ilmiy markazlar bilan o'zaro aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi. Direktor o'rinosarining faoliyati, o'z ifodasini topgan xujatlar ro'yxati, xalq ta'limi tomonidan doimiy ravishda berilib boriladi.

«Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlар» kontseptsiyasi xalq vazirligi tomonidan 1993 yilda tasdiqlangan. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ishlab chiqiladi. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'qituvchining yo'naltiruvchi ta'siri ostidagi o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish asosiga qurilgan va fan kabinetlarida, kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o'tkaziladigan mustaqil mashg'ulotlar yetakchi shaklga aylanishi kerak. Bunda sinfdan tashqari ishda ta'limning moddiy bazasi: qo'shimcha va ma'lumotnomada abiyotlari laboratoriya uskunalarini, ko'rgazmali qo'llanmalar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan oqilona foydalanish ko'zda tutiladi. Ular o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- darslik va qo'shimcha abiyotlar bilan ishslashning xilma-xil shakllarini olgan, nazariy bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlovchi;

- tajribalar, ijodiy tusdagi ishlarni bajarishni, asboblarni loyihalashni, maketlar, modellar va hokazolarni tayyorlashni olgan mustaqil ishslash uchun topshiriqlar sistemasi maqsadga muvofiqdir.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlар metodikasi fani va bo'limiga sinf rahbarlarining ishlari, mактаб ma'muriyatining tarbiyaviy ishlari kiritiladi. Bunda o'qituvchilarning o'quvchilar bilan muomilasi, adolatlari bo'lishi, ta'sir ko'rsata olishi kerak.

O'quvchi yoshlarni hozirgi zamon ma'naviyati bilan ongini sug'orish, ya'ni singdirish kerak. O'quvchilarni qadriyatlarimiz asosida урф-an'analarimiz asosida tarbiyalash har bir o'qituvchining vazifasi.

O'quvchi atrofini o'rab turgan vositalar, yaxshi-yomon odatlar, o'kituvchilar, mактабning muhiti, o'quvchilar tarbiyasini to'g'ri, ongli ravishda o'rganish va qabul qilish. Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

To'garak turlari:

1. Fan to'garaklari.
2. Mohir qo'llar.
3. Duradgorlik.
4. Sport musobaqalari.
5. Badiiy havaskorlik.

Ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. Tarbiyaning bosh maqsadi yosh avlodni ma'naviy, axloqiy tarbiyalashda xalqning boy, milliy ma'naviy an'analarga, урф-an'odatilari hamda qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy ishlarni amalda ishlab chiqishdir. Tarbiyaning asosiy vazifasi- shaxsning aqliy-axlooqiy tarbiyalashda erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda quyidagi pedagogik talablar mavjud:

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining to'garak qatnashchilari ongida yuksak ma'naviy axloqiy fazilatlar mujassamlashgan bo'lishi kerak.

To'garak qatnashchilarini doimiy ravishda fan va madaniyatning so'nggi yutuqlaridan xabardor qilib turish, ular ongini ijodiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qilish o'rinn tutadi. To'garak qatnashchilarida mustaqillik tushunchasi shakllangan bo'lishi, ular davlatimiz ramzlarini, madhiyasini, urf-odatlarimizni yaxshi bilish kerak. Maktabdan tashqari ta'lim o'qishlariga, hohishlariga asoslangan holda darsdan bo'sh vaqtarda o'quv tarbiya jarayonini to'ldiradi va quyidagi yo'nalishlar bo'yicha to'garak qatnashchilariga talablar qo'yilishi kerak:

1. Vatanga muhabbat, komil inson tarbiyasi;
2. Estetik ta'lim;
3. Sayyohli yo'nalishi bo'yicha to'garaklarga qatnashish.
4. Ekologik ta'lim yo'nalishi bo'yicha to'garaklar;
5. O'quvchilarni ma'naviy axloqiy yo'nalishi bo'yicha;
6. Xuquqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha;
7. Texnik ijodkorlik yo'nalishi bo'yicha;
8. Istiqlol bolalari va iste'dodli yoshlar;
9. Iqtisodiy ta'lim.

O'quvchilarning mustaqilligi turli darajada bo'lganida mustaqil tayyorgarlik amalga oshirilish mumkinligini hisobga olish muhimdir, albatta bu esa ular shaxsining shakllanishiga shubhasiz ta'sir ko'rsatadi. Ayrim o'quvchilarning ishdagi faol va mustaqil holati tarbiyachining aralashuvini talab etmaydi, chunki o'quvchilarning o'zлari oldilarida turgan vazifalarini va ularni hal etish yo'llarini ancha yaxshi tushunadilar. Bolalar tarbiyachi yordamisiz ishlaydilar. Bu yerda tarbiyachining aralashuvi maqbul emas. Chunki bunday holat bolalarning mehnatsevarligini, bilish ehtiyojlarini shakllantirishda eng katta imkoniyatga egadir.

O'quvchi mustaqil harakat qilib, lekin o'z ishini tarbiyalashning fikri va bahosiga bog'liq qilib qo'ygan paytda tobe mustaqil holat vujudga keladi. Ish qiziqish va ishtiyoy bilan bajarilsa ham mustaqil ishni bajarayotgan harakatlarida ishonchszilik jihatlari mavjud bo'ladi.

3. Sinf rahbarining rahbarligi va nazorati ostida harakat qiladigan o'quvchilar toifasida majburiy ijro etish holati paydo bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishga unchalik qiziqish bildirmaydilar. Ular ko'pincha sinf rahbarining yordamini so'rab murojaat qiladilar, kuchli o'quvchilarning qo'llab-quvvatlashidan foydalanishga intiladilar, agar bunday qo'llab-quvvatlash bo'lmasa, ishni davom ettirishga irodalarini ishga solmaydilar. Bunday o'quvchilarda tashqaridan majbur qilish vaqtida harakat qilish odati mustahkamlanadi. Agar bunday holat barqaror bo'lib qolsa, u o'quvchining faqat aqli emas, shu bilan birga ma'naviy rivojlanishiga ham to'sqinlik qilishi mumkin.

Maktabda va sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni bir-biriga hurmati, axloqiy sifatlari jamaa orasida shakllanib boradi. Bunda o'quvchilarning bir-biriga bo'lган muomala madaniyati ham shakllanadi. O'quvchi o'qituvchiga taqlid asosida yoki do'stlari orasida o'rgangan tarbiyasi muomilasiga ta'sir qilish mumkin. O'qituvchi o'quvchilar orasida muomala-madaniyatni shakllantirish uchun avvalambor o'quvchining o'ziga bo'lган muomalasini etiborini o'rganishi kerak.

O'quvchi maktab qoidalariga rioya qilish bilan birga, o'qituvchi talabiga ham javob berishi lozim. O'qituvchi talablariga:

1. Darslarga to'liq qatnashish.
2. O'quv qurollari bilan ta'minlanganligi.
3. O'qituvchini diqqat bilan eshitish.
4. Topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish.
5. Tashkiliy ishlarga faol qatnashish.
6. Sinf intizomiga rioya qilish.

## 7. Tozalikka rioya qilish.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni nazoratsiz ijro etish holati rasmiy ijrochilik, ishtiyoq va havas bilan mehnat qilishni istamasligini yashirishga intilayotgan o'quvchilarda kuzatiladi. Bunday holatning uzoq vaqt mavjud bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, aks holda o'quvchilarda ishiga nisbatan rasmiy munosabat jihatlari paydo bo'ladi, bu esa ularni mehnatdagi tashqi faollikni yo'qqa chiqaradi.

Sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarda o'quvchilarning hatti-harakatlari oldindan juda qattiq tartibga solib qo'yilganligi xususida e'tirozlar bildirilmoqda. Mustaqillikni tarbiyalash vazifasi qo'yilmagan, bolaning har bir qadami pedagogning irodasiga bo'ysungan joylarida ana shunday holat mavjuddir. Xuddi shuning uchun mustaqil tayyorgarlik samaradorligi, o'kuvchilarning mustaqilligini rivojlantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladigan o'qituvchi, sinf rahbari o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish vositalarini puxta o'ylab tanlaydilar, ularning ishlashi uchun oqilona shart-sharoit yaratishga intiladilar.

Maktab o'quvchilarining mustaqil tayyorgarligiga pedagogik rahbarlik shunday qurilish kerakki, u o'quvchilarni charchatib qo'ymasin, doim bir xil tusda bo'lmasin, yoki haddan tashqari oson, aqliy va irodaviy kuch-g'ayratini sarflashni talab qilmaydigan bo'lmasin. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazishda tarbiyachi eng muhim vazifa o'quvchilarni o'quv vazifalarini hal etishga o'rgatishdan, buning uchun harakat usullarini to'g'ri tanlashdan, o'z hatti-harakatlariga rahbarlikni faoliyatini nazorat qilishdan, mustaqil ish ko'nikmalarini boshqa muhim hayotiy vaziyatlarga o'tkazishdan kelib chiqishdan lozim ekanligini nazarda tutish lozim.

Bunda mustaqillik mazmuniga fikrlash faoliyatining mustaqilligi, intizom, uyushqoqlik va o'z-o'zini nazorat qilish kabi to'rt tarkibiy qismi kirishini hisobga olish muhimdir. Mazkur jihatlarni shakllantirish ustidan nazoratni amalga oshirish sinfdan tashqari ishlarga rahbarlik qilayotgan o'qituvchining muhim va murakkab vazifalaridan biridir. Buning uchun o'quvchi faoliyati natijalarini hisobga olishni va bu jarayonni tahlil etishni uyuştirish zarur.

O'qituvchi sinf-dars faoliyati uchun xos bo'lgan shakllarni istisno etib, nazorat qilishning bir qancha usullarini qo'llashi mumkin. Eng kuchli va qobiliyatli o'quvchilarga homaki yozuv bilan ishslash xuquqi beriladi. Unda qoida ko'rsatiladi, bu qoidani tasdiqlovchi misollar keltiriladi, o'quv vazifasi qayd etiladi. Yozuv juda qisqa bo'ladi, lekin u o'quvchining fikrlashi qanday borganligini ko'rsatadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'quvchilarni ayrim ko'nikmalarga o'rgatishni nazorat vositasi deb hisoblash kerak.

O'z-o'zini tekshirish, o'zaro tekshirish usullariga o'rgatish o'qituvchining o'quvchilar bilan shunday aloqasini talab etadiki, bunda ularning fikrlash ishi jarayoni ravshan bo'ladi. O'quvchilarning o'zlari harakatni taklif etadilar vash u bilan pedagogga mo'ayyan ma'lumot beradilar. Sinf rahbari ishida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash tarbiyaning yetakchi tamoyilidir. Bolalar jamoasini shakllantirish metodikasi yangi pedagogikada to'la ishlab chiqilgan.

Bu metodikaning umumiylasoslari pedagogika kurslarida bayon etilgan jamoa va jamoada shaxsni tarbiyalash nazariyasiga tayanadi. Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish metodikasi ishlab chiqilgan. Uning umumiylasoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish, faollarni tarbiyalash, o'quv-mehnat, ijtimoiysiyoziy va ommaviy-madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish, sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobjiy an'analarni yaratish va ko'paytirish.

Ta'riflangan bu qoidalar har qanday jamoani shakllantirish va rivojlantirish uchun qo'llanma hisoblanadi.

4. O'rta umumta'lim maktablarida sinfda va maktabdan tashqari ishlarda sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyuştiradi.

Sinfda va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi to'g'ri shakllanishiga va axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarish bilan bog'lanishaga zamin yaratadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchining vazifalari ham ko'p qirralidir.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi: Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish.

O'quvchilarni maktabdan va sinfdan tashqari ko'p qirrali ishlarni pedagogik jamoa, o'quvchilar, tashkilotlar, sinf faollari yordamida yo'lga ko'yish. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'naliishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar o'quvchilar, tashkilotchilar sinf faollariga yordam ko'rsatish. Umummaktab va maktablararo tarbiyaviy tadbirlarga qatnashish.

O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish. Bu borada tashkilotchilar faolligini 3 ta asosiy tomonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, umumiy va ma'muriy.

Bular o'zaro uzviy bog'langan bo'ladi. Tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator ishlarni kiritish mumkin:

1. Tarbiyaviy ishlar sohasida erishilgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish;
2. Tarbiyaviy ishlarni maqsad va vazifalarini aniqlash.
3. Tarbiyaviy, ommaviy-siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmuni hamda shakl usullarini aniqlash.
4. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni guruhlashtirish boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

Shular asosida yangi bilimlarni hosil qiladi. O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatlarga duch keladilar. Shuning uchun ham maktabdan tashqari faoliyatları qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy bo'ladi. Maktab tashqaridagi ishlarda o'quvchilar jamoadagi ishlarni o'rganadilar. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni maktabning ma'naviyma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rribosari o'z ishini reja asosida olib boradi va uning bajarilishini ham nazorat qilib boradi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni maktabning umumiy rejasi, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, yetakchi ota-onalar qo'mitasi, ish rejalarini ishini ham e'tiborga olishi kerak. Ish reja maktab direktori tomonidan tasdiqlangan. Ish rejasida boalalarning yosh xususiyatlariga maktabning joylashgan shart-sharoitiga, ijodiy birlashmalariga ilmiy markazlar bilan o'zaro tarqalgan aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi. Direktor o'rribosarining faoliyati o'z ifodasini topgan hujjatlar ro'yxati xalq ta'limi vazirligi tomonidan doimiy ravishda berilib boriladi.

A. Jo'raevning «Tarbiyaviy darslarni o'tish» risolasida mustaqillik g'oyasi bilan bog'langan tarbiyaviy tadbirlardan qoidalarga asoslangan qonunlar belgilangan. Ijodkor rahbar hamda ilg'or o'qituvchi tarbiyachilar o'z faoliyatlar ijarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda quyidagi tamoyillarni asos qilib oladilar:

- tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish;
- ma'naviyatni yosh avlod ongiga singdirish e'tiqodga aylantirishdan iborat ekanligi;
- tarbiya jarayoni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lab bola qalbiga va ongiga ta'sir ko'rsatish;
- tarbiyaviy ishlarni o'quvchilar jamoasi jipslashtiruvchi omillar bilan boyitib tarbiyaning ta'lim bilan uzviyligini ta'minlash;
- tarbiyaviy jarayonda bolalarni tarbiyalash darajasini aniqlash va ijobiy tomonlarini o'stirish;

-bola shaxsiga hurmat va talabchanlik;

-bolalarning yosh va ruhiy holatini hisobga olish;

-tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish tomonlari barkamol insonni tarbiyalashda keng imkoniyatlarga ega bo'lib, uni qay darajada olib borish sinf rahbari va tarbiyachining pedagogik mohiyatiga bog'liq.

Sinf rahbarining o'quvchilarga nisbatan mehr va muhabbat, pedagogik jamoasiga va ota-onalarga nisbatan talabchan bo'lgan holda ish tutishda va muntazam o'z ustida ishlab, sabr-bardoshli, o'z fikrlarini puxta bayon qilib, o'zgalarni o'ziga jalb qila oladigan xislatlarni o'ziga mujassamlaydi.

Davlat va hukumatimiz tomonidan qabul qilingan barcha hujjatlar mohiyatini, Prezident asarlarini yaxshi bilishi, uni o'quvchi-yoshlar orasida targ'ib eta olishi, xalq pedagogikasi an'analarini, o'zbek xalqi milliy urf-odatlari, qadriyatlari, allomalari o'gitlarini yaxshi bilishlari lozim.

– Mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatini yaxshi bilishi va doimo uni o'z faoliyatida hisobga olishi, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ilmiy asoslari hamda yangicha usul va metodlarini yaxshi bilishi;

– radio, televiedenie va ommaviy axborotning boshqa vositalari orqali berilgan eng so'nggi yangiliklardan boxabar bo'lishi hamda ularning mohiyatini o'quvchilarga yetkaza olishi;

– sinfdan tashqari tadbirlarni tayyorlash va o'tkaza bilishi;

– tuman, shahar, viloyat, respublika miqyosida o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etishi;

– mактабда o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borayotganlarga metodik tavsiyalar berib borishi;

– muntazam ravishda o'z malakasini oshirib turishi, o'z sohasi bo'yicha o'tkaziladigan seminarlarda ishtirok etish. Fuqarolik faoliyati o'z davlati oldidagi huquq va burchlarini tan olishni, jamiyat belgilagan yashash va axloq me'yorlariga ongli rioxaya etishni, mehnat va jamoada faollikni, ma'naviy yetuklikni barqaror etadi:

– islohotlarning taqdiri va samarasini uchun javobgar, yurtimizning ertangi kuni va istiqboli uchun fidoyi shaxslarni shakllantirish borasida ustuvor davlat siyosati yurituvchi;

– siyosiy onglilik va ijtimoiy faollik, ya'ni davlatning ichki va xalqaro siyosatini tushunish va idrok qilish. Vatanparvarlik va baynalmilallikni his etish, ijtimoiy siyosiy hayotda faol qatnashishga shay turish;

– xalq, davlat oldidagi fuqarolik burchi, ya'ni qonunchilik tamoyillarini, o'zining Vatan, mahalla, oila oddidagi huquq va burchlarini bilishi, ularga qat'iy amal qilishi. Qonunchilikning buzilishiga murosasiz munosabatda bo'lish;

Tarbiya jarayonining mohiyatini chuqur bilib, uni tashkil etishda tashabbus ko'rsatish, ishbilarmonlik va epchillik, barcha yangi va ilg'or narsalarni amalda samarali qo'llay bilish mакtab o'quvchisi shaxsini rivojlantirish jarayoniga rahbarlik qilish printsiplaridan biridir.

Samarali sinf rahbarlik uslubini mакtab hayoti va faoliyatiga tatbiq, etishishshg namunasi bo'lган kollegial va yakka rahbarlikning birga qo'shib olib borilishi bolalar takdiri, ularning tarbiyasiga pedagoglar jamoasi javobgarligini va direktorning shaxsiy javobgarligini ta'minlaydi.

Sinf rahbarlikning zarur printsiplari rejalilik bo'lib, uning yordamida pedagogik ta'sirlar tizimi va tarbiyaviy ishda izchillikka erishiladi. Rejalilik sinf rahbariga tarbiyaning barcha masalalarini aniq amalga oshirish istiqbollarini namoyon qiladi.

Mazkur ta'limotga asosan mакtabdan tashqari ishlarni rejalaشتirish va uning amalga oshirilishiga rahbarlik hamda nazoratni uyuştirib borish mакtab ichki boshqaruв tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinfdan va mактабдан ташқари ишларинг умуммактаб рејасини ма'навиј ва ма'рифат бо'yicha direktor o'rнbosari rahbarligida, sinf rahbarlari, metodik birlashmasi, tajribali o'qituvchilar, mакtab kutubxonasi, o'quvchi-yoshlar tashkiloti, o'quvchilar uyushmasi, ota-onalar komiteti hamda to'garak rahbarlarining faol ishtirokida tuzish hamda uni mакtabning yig'ilishida muhokamadan o'tkazib tasdiqlash maqsadga muvofiqdir.

Mакtabning tarbiyaviy jarayoniga rahbarlik qilishda direktor boshlang'ich va o'quv sinflar tarbiyaviy ishida izchillikka rioya qilishga alohida e'tibor beradi, bu bilan ta'lim jarayonida ham, shuningdek, darsdan tashqari vaqtida ham tarbiyaning uzlusizlik va pritsipini amalga oshiradi.



## Ma'ruza 4 MAVZU: MILLIY URF-ODAT, QADRIYAT VA AN'ANALAR-TARBIYA ASOSI.

### R e j a :

1. Urf-odat,qadriyat va an'analar haqida tushuncha.
2. Qadriyat turlari.
3. Shaxs ma'naviy yuksalishida qadriyatlarning ahamiyati.

**Tayanch tushunchalar:** qadriyat, ma'naviy qadriyat, ta'lim, tarbiya, oliv qadriyat, an'ana, milliy qadriyat.

### Mustaqil ta'lim topshirig'i

Mavzu	Foydalilaniladigan adabiyotlar	Amalga oshirish shakli
Urf-odat,qadriyat va an'analar haqida tushuncha.	1. Salayeva M.S. Umumiy pedagogika. Darslik. - Toshkent "Nodirabegim". 2021. – 300 bet. 2. Ismatova Nargiza va boshalar. Tarbiya 1,2, 3,4. Darslik. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.: Toshkent – 2020	Urf-odat,qadriyat va an'analar haqida tushuncha.haqida taqdimot tayyorlash.
Qadriyat turlari.	1.Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviyishlar metodikasi.O'quv qo'llanma. - T.; 2019.120-bet. 2.Dexkanova M.U. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. - T.; 2019	Milliy urf-odatlar va qadriyatlarning o'rnini tasvirlovchi ko'rgazmalar jamlamasini tayyorlash.



### O'quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

1. R.A.Mavlonova, B.Normurodova. Тарбиявий ишлар методикаси. O'quv qo'llanma. Toshkent, "Fan" 2008 y. 104-bet.
2. R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.67-bet.
3. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil.205-bet.

c

## **Elektron ta’lim resurslari:**

- 1.w.w.w.tdpu.uz
- 2.w.w.w.pedagog.uz
- 3.w.w.w.ziyonet.uz
- 4.w.w.w.edu.uz
- 5.tdpu-INTRANET.Ped

Mamlakatimiz istiqlolining dastlabki kunlaridanoq, buyuk ma’naviyatimiz va qadriyatlarimizni, xalqimizning yaratgan boy madaniy merosini avaylab-asrash va keyingi avlodga yetkazish oldimizda turgan muhim masalalardan biridir. Ma’lumki, har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodni qanday ta’lim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog‘liq.

Qadriyatlar - inson uchun ahamiyatli bo‘lgan millat manfaatlari yo‘lida xizmat qiladigan yerkinlik, ijtimoiy adolat, tenglik, haqiqat, ma’rifat, go‘zallik, yaxshilik, halollik, burchga sodiqlik singari fazilatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Qadriyatlar o‘zining mazmun-mohiyatiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi, ya’ni:

- tabiiy qadriyatlar (yashash uchun zarur bulgan tabiiy shart-sharoitlar);
- iqtisodiy qadriyatlar (ishlab chiqarish kuchlari va vositalari);
- ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar (yerkinlik, tenglik, adolat, tinchlik, hamkorlik);
- ilmiy qadriyatlar (bilimlar, tajribalar, yutuqlar);
- falsafiy qadriyatlar (g‘oyalar, mafkuralar, konsepsiylar);
- badiiy qadriyatlar (san’at, adabiyot, madaniyat);
- diniy qadriyatlar (iyomon, ye’tiqod, vijdon, savob).

Shu bilan birga, fanda qadriyatlarning milliy va umuminsoniy turlarga ajratilishi an’ana tusiga kirgan. Milliy qadriyatlar ma’lum bir millat, xalq va yelatlarning o‘z tarixiy taraqqiyotida yaratadigan barcha moddiy va madaniy (ma’naviy) boyliklari yig‘indisidan iboratdir.

Qadriyatlar turli-tuman bo‘lib, bular ichida “eng oliv qadriyat – inson” hisoblanib, qolgan barcha qadriyatlar unga xizmat qiladi. Inson qadriyatining ma’naviy, tarixiy hamda ta’limiy jihatlari o‘ziga xos yangicha fikrlash va yondoshishlarga asoslanadi. Jamiyatda milliy qadriyatlarni o‘z qalbida mustahkam saqlash, atrof-muhit, tabiat va hayotni go‘zal, farovon qilish, demokratiya asoslari hamda jamiyatda amal qilayotgan progressiv g‘oyalar buyuk qadriyat hisoblanadi. Inson qadriyati uning dastavval o‘z-o‘ziga va shu jamiyatga bo‘lgan hurmati hamda munosabati, xulq-atvori bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Bu insonga o‘z xulq-atvorini tartibga solishi, o‘ziga nisbatan talabchanlik va nazoratni kuchaytirishga imkon beradi. Insonning shaxsiy qadrqimmati milliy qadriyatlardan kelib chiqadigan ijtimoiy xususiyatlardan bo‘lib, uni yuksaklikka olib boruvchi olivjanob bir kuchdir. Shu jihatdan qadriyatlar insonning ijtimoiy erkinligini va ma’naviy pokligini ta’minlovchi bir buyuk manbadir. Bir so‘z bilan aytganda, mutafakkir olimlar yuksak ma’naviy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar doirasida talqin yetdilar va targ‘ib qildilar, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ma’naviy omillarni yuksak baholadilar. Shu ma’noda o‘sib kelayotgan yosh avlodda yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirish zaruriyati yuzaga keldi. Axloq kishilik jamiyat tarixiy taraqqiyoti davomida vujudga kelib, tarkib topgan, takomillashib kelgan me’yor va qoidalardan iborat bo‘lib, ular kishilarning jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini tartibga soladi. Bu me’yor va tartibqoidalar kishilardan jamiyat uchun zarur bo‘lgan axloqqa ega bo‘lishlikni talab qiladi. Axloq insonning dunyoqarashi, xulqini belgilovchi insoniy fazilatdir. Shu bois dunyoqarash o‘zgarmaguncha inson ham o‘zgarmaydi.

O‘zbek milliy pedagogi Abdulla Avloniy axloqqa quyidagicha ta’rif beradi: “Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligin, yomon xulqlarning yomonligini dalil va isbotlar ila bayon qiladigan kitob axloq deyilur”.

Axloq - inson hayotida o‘z-o‘zini idora qilish me’yorlarini, boshqalar bilan munosabatda bo‘lish madaniyatini, halol ishlab, to‘g‘ri hayot kechirish mezonlarini o‘rgatadi. Axloq - tarixiy hodisa. Axloqiy qonun-qoidalalar barcha zamonlar uchun bir xil, o‘zgarmas bo‘lishi mumkin yemas. Muayyan jamiyat uchun ayrim axloqiy qoidalalar to‘g‘ri bo‘lsa, boshqa davrga kelib noto‘g‘ri bo‘lib qolishi mumkin. O‘zbekona, milliy axloqda ota-bobolarimizning tarixiy tajribalari, davrlar sinovidan o‘tgan saboqlari va bizga doimo madad bo‘lib turgan ruhiy quvvatlari jamuljamdir. Mustaqil mamlakatimizning kelajagi uchun ma’naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur. Barkamol insonni axloqiy tarbiyalash, voyaga yetkazish haqida mutafakkirlarimiz bir qator asarlar yaratishgan. Chunonchi, Kaykovusning “Qobusnom”, Sa’diyning “Guliston”, “Bo‘ston”, Amir Temurning „Temur tuzuklari“, Abdurahmon Jomiyuning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Husayn Voiz Koshifiyuning “Axloqi muhsiniy” va boshqalarni ko‘rsatishimiz mumkin. O‘zbekiston mustaqillikka yerishgandan so‘ng ta’limtarbiya sohasida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ta’lim-tarbiyada milliy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish asosiy o‘rinni egalladi. Tariximiz, madaniyatimiz, milliy urf-odatlarga e’tibor kuchaydi. Bugungi kun yoshlari mustaqilligimizni mustahkamlashda o‘z e’tiqodi, g‘ayrat-shijoati, madaniyati, bilimi va ularni tatbiq etish mahorati bilan ajralib turadilar. Ular jamiyatda, jamoada xalqlar va millatlar o‘rtasida do‘stlik, sog‘lom turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan muhitni vujudga keltirishga intiladilar.

Komil insonni shakllantirishda maktabda, oilada sog‘lom ma’naviy muhit barqaror bo‘lishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Chunki sog‘lom muhit natijasidagina axloqiy fazilatlar tarkib topadi. Kishi o‘z hayotida axloqiy kamolotga qanchalik ko‘p intilsa, shunchalik o‘z xato-kamchiliklarini anglab boradi. Turon zaminimiz xalqlari axloqiy tarbiya sohasida boy an’analarga ega.

Axloq-odob insonning jamiyatga bo‘lgan munosabatining negizini tashkil etadi. Shuning uchun ham o‘quvchida jamiyatga bo‘lgan hurmatni yuksaltirish mustaqilligimizni mustahkamlashga, axloqiy madaniyat yegasi bo‘lishga, o‘zini-o‘zi anglab etishga, yaxshi insonlarga bo‘lgan e’tiqodni rivojlantirishga olib keladi. Maktab o‘quvchilari dars va darsdan tashqari jarayonlarda do‘stlik, hamjihatlik, hamkorlik, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, birovning dardiga darmon bo‘lish kabi fazilatlar xalqimiz va millatimiz kuch-qudratining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotning negizi yekanligini o‘z o‘quvchilariga tushuntirishlari darkor. Ma’naviy-axloqiy tarbiya - ma’naviy ongni bir maqsadni ko‘zlab tarkib toptirish, axloqiy tuyg‘ularni rivojlantirish hamda xulq-atvor ko‘nikmalari va odatlarini hosil qilishdan iborat. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi: jamiyat talablariga bog‘liq bo‘lib, bu talablar, o‘z navbatida, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va jamiyatda yoshlarni o‘qitish va tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodda ma’naviy axloq va e’tiqodni shakllantirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim. Yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tuzimini takomillashtirishda boshlang‘ich maktab muhim o‘rin egallaydi. Insonning jamiyatga bo‘lgan munosabatini shakllantirish, salbiy illatlarga qarshi nafrat uyg‘otish, ongli intizomni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish kabilar axloqiy tarbiyaning vazifalaridir. Axloqiy tarbiya vazifalaridan yana biri insonning jamiyatga bo‘lgan munosabatini yuqori pog‘onaga ko‘tarishdir. Iymon va insof, so‘z va ish birligi, insonparvarlik yangi qurilayotgan jamiyatning asosiy xususiyatlari bo‘lib qoladi. Shunday ekan, jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashish mas’uliyatini har bir fuqaro teran his etishi va unga amal qilishi lozim.

Yoshlarni tarbiyalashda sharqona va milliy axloq-odob normalari asosida ish yuritish bilan birga jamiyatga hurmat, mustaqillikni mustahkamlash, insonlarga insoniy munosabatda bo‘lish kabi fazilatlarni singdirish taqozo etiladi. O‘quvchining jamiyatga bo‘lgan munosabatida milliy birlik, birdamlik va hamkorlik tuyg‘ulari, turli xalqlarga bo‘lgan hurmat kabilar yaqqol namoyon bo‘lishi

zarur. O'zbekiston mustaqilligi, yurtimiz ravnaqi yoshlarni o'qish, izlanish va mehnatdan qochmaydigan, har qanday qiyinchiliklardan hayiqmaydigan, salbiy illatlarga nafrat bilan qarash ruhida tarbiyalashni talab qiladi. Shunga ko'ra bugungi jamiyatimizda yashayotgan har bir yosh kelgusida shu o'lkaning haqiqiy egasi bo'lib yetishishi, uning gullab-yashnashi haqida qayg'urishi, erishgan yutuqlarini mustahkamlashi lozim.

Diyorimizda mustakqillik tantanasi tufayli ta'lim-tarbiya tizimida tub o'zgarishlar vujudga keldi. Milliy qadriyatlarni tiklash, milliy ma'naviyatni yuksaltirish, ayniqsa, sharqona odob-axloq an'analariga ye'tiborni kuchaytirish shular jumlasidandir. O'lkamizda buyuk rejalar, buniyodkorlik ishlari aql-idrok, sabr-qanoat bilan, tarixiy an'analarimiz, tajribalarimizni hisobga olgan holda qadam-baqadam amalga oshirilmoqda.

An'ana - bu o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida o'z o'mini topgan, avloddan-avlodga o'tadigan, takrorlanadigan, hayotning barcha sohalarida (umum yoki ma'lum guruh tomonidan) qabul qilingan tartib va qoidalardir.

Odat ("urf-odat") - kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari. Masalan:

- kichiklarning kattalarga salom berishi;
- yerta turib uy-hovlini tartibga keltirib qo'yish;
- mehmonlarga alohida hurmatda bo'lish;
- bayram arafasida kasal, ojiz, qiynganlardan habar olish;
- yordam lozim bo'lganlarnikiga hasharga borish kabilar o'zbek xalqining yaxshi odatlari hisoblangan.

Agar an'ana ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning hamma sohalariga xos bo'lib, hodisalarning juda keng doirasini qamrasa, odat ijtimoiy hayotning ma'lum sohalarida, ya'ni:

- kishilar turmushi;
- mehnati;
- xulq-atvori;
- muloqoti;
- oilaviy munosabatlarda ko'proq mavjud bo'ladi.

Marosim - an'ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib, inson hayotidagi muhim voqyealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik, tantanavor vaziyatda o'tadigan o'zining umumiyligini qabul qilingan ramziy harakatlariga ega bo'lgan hayotiy tadbir. Masalan:

- ism qo'yish marosimi;
- nikohdan o'tish marosimi;
- xotirlash marosimi;
- urug' qadash marosimi;
- o'rimga kirish marosimi va boshqalar.

Odat kundalik hayotning turli vaqtida uchrashi mumkin bo'lsa, marosim yesa inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo'lganda vujudga keladi.

### **Shaxs ma'naviy yuksalishida qadriyatlarning ahamiyati**

Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z o'quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratishi, ya'ni ularni o'qishga, ta'lim olishga qiziqtirishi va ishtiyoq uyg'otishi bilan birga ularning idrok yetish, fikrlash qobiliyatlarini, dunyoqarashini kengaytirish kabi sifatlarini o'stirishga o'z kasbiy faoliyatini to'liq safarbar yetmog'i lozim. Bunda ular o'z o'quvchilarining ruhiy holati va imkoniyatlari, layoqati, yetukligi (yoshi nuqtayi nazaridan), ma'naviy yehtiyoji, yashash muhiti (oiladagi turmush tarzi va ular yashaydigan jamaoa - mahalladagi muhit umumsog'ligi) kabi omillarni ye'tiborga ola bilish qobiliyatiga yega bo'lmog'i lozim.

Bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z kasbiy sohalarida quyidagi xislatlarga yega bo‘lishi lozim bo‘ladi: o‘z o‘quvchilarini sevish va ular bilan ishlashga qiziqish; pedagogik faoliyatni sevish va bu faoliyatni o‘zining hayotiy yehtiyojiga aylantirish; ruhiy va pedagogik jihatdan ham ziyrak, kuzatuvchan, sinchkov bo‘lish; pedagogik taktik va tasavvurga hamda tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lish;adolatlilik, dilkashlik, talabchanlik va qat’iyatlilikni uyg‘un holda olib bora olishlik; maqsadga intilishda to‘g‘ri yo‘lni tanlay olishlik; vazminlik, dilkashlik, o‘zini idora qilishlik, shuningdek, kasbiy faoliyatga layoqatning yuksakligi va shu kabilar.

Shuning bilan birga bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi yoshlardagi burchga mas’uliyat (javobgarlik hissi)ni tarbiyalash sir-asrorlarini mukammal yegallamog‘i lozim. Ushbu sohada olib borgan izlanishlarimiz natijalarining ko‘rsatishicha, bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ma’naviy qiyofasi shakllanishida, asosan, quyidagilarga e’tibor berish kerak ekan:

- oila, mahalla va maktabni muqaddas deb bilish;
- bola xatti-harakatini tahlil qila bilish va rejalahtirilgan ta’lim-tarbiya, bola ongi va tasavvuriga mos qilib, halol va harom, to‘g‘rilik va yegrilik, yaxshi va yomon, mardlik va nomardlik, ma’naviyatlilik va vaxshiylik kabi tushunchalarining mazmun-mohiyatini singdira olish qobiliyatiga yega bo‘lish;
- bolaning yerkin, mustaqil va to‘g‘ri, keng ko‘lamli fikrlashini shakllantirishning shakl, usul va vositalarining optimal variantlarini tanlay olish;
- o‘tmish boy milliy-ma’naviy merosimizga hurmat uyg‘ota bilish uslubiyatini yarata bilish;
- milliy g‘ururni uyg‘otish, davlat ramzlariga hurmat va unga mos g‘ururni shakllantirish, fidoyilikni shakllantirishning sir-asrorlarini o‘rgata bilish;
- o‘z o‘quvchilarini go‘zal, ziyrak, aqli, ongli, milliy g‘ururli, sezgir, sinchkov, farosatli, madaniyatli, ma’naviyatli va shu kabi xislatlarni shakllantirishga innovasion yondashuvlar qila olishga erishish;
- o‘z o‘quvchilarini vatanparvar, baynalminalchi, fuqarolik burchini chuqur his qiluvchi va shuningdek, milliy istiqlol g‘oyalariga sodiq ma’naviyatli kishilar darajasida tarbiyalashga yangicha munosabatlarni shakllantirish va shu kabilar.

Umuminsoniy qadriyatlar o‘zining mazmuni, mohiyati, keng miqyosda amal qilinishi, dunyodagi ko‘plab xalqlar (elatlar, millatlar)ning o‘tmishdagi, hozirdagi hamda istiqboldagi (kecha > bugun > ertaga tizimi bo‘yicha) taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorlikda ekanligi, o‘zida jahon sivilizasiyasining yaxlit va bir butunligini ifodalaganligi bilan mintaqaviy va milliy qadriyatlardan tubdan farq qiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar alohida xalqlarning va millatlarninggina emas, balki bashariyat (insoniyat)ning mulkidir. Demak, umuminsoniy qadriyatlar eng oliy qadriyat bo‘lmish odamning o‘zidan boshlab, uning turmush tarzi, hayot mazmuni, oilasi, jamoasidagi o‘rni bilan bog‘liq bo‘lgan butun insoniyat va jamiyatga tegishli bo‘lgan jihatlar ekan. Umuminsoniy qadriyat jamiki insoniyatga xos bo‘lgan, ularning insoniy fazilatlari, xislatlarini ifodalaydigan an'analar, urfatodatlar, rasm-rusumlar, fikrlar, g‘oyalar, qarashlar, ta’limotlar va shu asosda yuritiladigan faoliyat bo‘lib, undan ta’lim-tarbiya sohasida samarali foydalanish ko‘plab istiqbolli muammolarni hal qilishga imkoniyat yaratadi. Shuning bilan birga umuminsoniy qadriyatlardan samarali foydalanish bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining dunyoqarashini kengaytirishga va hattoki jahon sivilizasiyasi taraqqiyotiga ham ijobiy ta’sir qiladi.



## Ma’ruza 5

### MAVZU: TARBIYA DARSALARIDA O‘QUVCHINING O‘Z USTIDA ISHLASH IMKONIYATINI TASHKIL ETISH.

### **R e j a :**

1. O'z ustida ishslash va o'z-o'zini tarbiyalashning psixologik-pedagogik asoslari.
2. O'z-o'zini tarbiyalash metod va vositalari.
3. O'qituvchi irodasi hamda xis-tuyg'usini tarbiyalash va ularni mustaqil tarbiyalash usullari.

**Tayanch tushunchalar:** qadriyat, ma'naviy qadriyat, tarbiyalash metod, ta'lim, tarbiya, oliy qadriyat, an'ana, xis-tuygusini, milliy qadriyat.

### **Mustaqil ta'lim topshirig'i**

<b>Mavzu</b>	<b>Foydalaniladigan adabiyotlar</b>	<b>Amalga oshirish shakli</b>
O'z-o'zini tarbiyalash metod va vositalari.	1. Salayeva M.S. Umumi pedagogika. Darslik. Toshkent "Nodirabegim". 2021. – 448 bet.	O'z-o'zini tarbiyalash metod va vositalari haqida taqdimot tayyorlash.
O'qituvchi irodasi hamda xis-tuyg'usini tarbiyalash va ularni mustaqil tarbiyalash Usullari	1. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviyishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. - T.; 2019.301-bet. 2. Dexanova M.U. Tarbiyaviyishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. - T.; 2019.77-bet.	Tarbiyaviy tadbir ishlanmasidan namunalar tayyorlash.



### **O'quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati**

#### **Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar**

1. Salayeva M.S. Umumi pedagogika. Darslik. Toshkent. "Nodirabegim" nashryoti. 2021-yil.308-bet.
2. Abdullayeva Sh. Umumi pedagogika. O'quv qo'llanma.Toshkent.O'qituvchi nashryoti. 2021-yil.86-bet.
3. Istamova N . va boshqalar. Tarbiya 1,2,3,4. Darslik. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2020-yil.198-bet.
4. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviyishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent-2019-yil.44-bet.
5. Dexanova M.U. Tarbiyaviyishlar metodikasi.O'quv qo'llanma.Toshkent-2019 yil.303-bet.
6. B.X.Xodjayev. Umumi pedagogika nazariyasi va amaliyotir. Darslik T:. Sano-standart. 2017-yil.428-bet.

#### **Elektron ta'lim resurslari:**

- 1.w.w.w.tdpu.uz
- 2.w.w.w.pedagog.uz
- 3.w.w.w.ziyonet.uz
- 4.w.w.w.edu.uz
- 5.tdpu-INTRANET.Ped

O'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalashi uchun, avvalo o'zini atroficha chuqur o'rganishi, o'z ishidagi yutuk va kamchiliklarni ko'ra olishi kerak. O'z-o'zni o'rganish va boshqa kishini anglash uchun ham zarurdir. Boshqa yutuqlarni o'rganmay, o'zini boshqalar bilan qiyos qilmay turib, o'zini shaxs sifatida o'rganish mumkin emas. O'zini anglash, o'zini baholash xususiyati boshqa kishilar bilan munosabat jarayonida, birgalikdagi faoliyat vaqtida tarkib topadi.

Pedagogik vazifasi-faqat irodaviy fazilatlar doirasini ko`rsatib berishdan, ularning muhim axloqiy prinsplari bilan ichki aloqasini olib berishdan tashqari o`z irodasini o`zi tarbiyalashga intiluvchi o`quvchiga yordam berish, irodaviy fazilatlarni rivojlantirishning qanday usullari kam samarador va qaysi birlari jiddiy yordam bermasligini ko`rsatishdan iboratdir. Agar pedagogik adabiyotda ta`rif-tasvirlanayotgan yoshlar qo'llayotgan sodda va yasama usullarga e'tibor beradigan bo`lsak, yana xam muhimdir. O`quvchilardan biri «sabr-toqatini rivojlantirish» uchun kinokomediya ko`rsatilayotganda kulmaslikka harakat qildi, kimdir qo'lini pichoq bilan kessa yoki dunyo bo'ylab sayohat qildi va hokozo? Irodani mustakil tarbiyalashning ana shu usullari samarasizligi eng avvalo shundaki, o'spirin bir lahzalik «irodaviy xatti-xarakat»ni amalga oshirib, o`zining irodasi kuchli ekanligi to`grisidagi fikrni tasdiqlay oladi. Aslida esa irodani kundalik hayotda, o'qishda va birinchi navbatda uchraydigan qiyinchiliklarni muntazam ravishda bartaraf etishni tashkil etadi. Buning ustiga mehnat, o'qish, sport faoliyatining har bir daqiqasi irodani chiniqtirish uchun o`quv, mehnat va boshqa faoliyatni amalga oshirishga xalaqit beradigan bir daqiqalik istaklarni bartaraf etish uchun sharoit yaratadi.

Eng avvalo o`qituvchi o`zida pedagogik qobiliyatning qanday xislatlari borligini o`rganishi kerak. Pedagogik faoliyatga muhabbati yuksak o`qituvchi ishga chin ko`ngildan berilib ishlaydi, hechqanday formalizmga yo'l qo`ymaydi. O`z kasbini sevgan o`qituvchi doimiy ravishda g`oyaviy-siyosiy saviyasini oshirish va bilim doirasini kengaytiradi, o`z predmetini chuqur bilish ustida qunt bilan ishlaydi.

Ma'lumki, insoniyat kamolotga chorlovchi imkoniyatlari shunchalik ko'pki, ularga erishish maqsadlari intilishida sabr-toqat bilan o`z ustida ishlash orqali erishishi mumkinligini tarixiy faktlarda ko'ramiz.

Buyuk nemis pedagogi D. Disterverg xar bir o`qituvchi o`z-o`zini tarbiyalashni o`z oldiga sharaflı vazifa qilib belgilashi lozim.

Rus pedagogi A.B. Lunacharskiy; «Pedagog uzida insoniyat idealini shakllantirishi lozim» - degan edi.

Aynan insoniyatning go'zal fazilatlarini o`zida shakllantirish har bir pedagogning kasbiy tayorgarligining poydevorini tashkil etadi. Ushbu poydevorda pedagogning kasbiy mahorati o`z ustida ishlash tufayli kundan-kunga o'sib borishi mumkin.

A.S. Makarenko kasbiy takomillashtirish masalasida shunday degan edi. «Men pedagogik talantga ega edim. Pedagogikaga kutilmaganda kirib keldim va o'rgandim. Men o`z ishimning ustasi darajasida ko'tarildim O`z ishimning ustasi darajasiga xar bir intiluvchi pedagog erishishi mumkin.» Bunda unga yordam berishi, o`zi ustida ishlash asosiy rol o`ynaydi.

Otto Yulyevich Shimit umrining xar bir daqiqasidan sermahsul foydalanadi. Yerning va sayyoralarning paydo bulishi nazariyasining asosi. U o`z-o`zini tarbiyalash bilan shug'ullanib, inson imkoniyatlari keng ekanligini isbotladi. A.A Lyubishev, shunday degan, inson uchun yomon, bo'sh, ortiqcha vaqt bo'lishi mumkun emas. U o`z umrining daqiqalarini ongli holda xisoblashdan qo'rmas edi.

K.D Ushinskiy o`z-o`zini tarbiyalash orqali quydagilarga erishdi.

1) xotirjamlik 2) so'zda ishonch va to'g'rilikka. 3) xatti-xarakatga mulohaza bilan yondoshish 4) qatiylik 5) o`zi haqida sababsiz biror og'iz gapirmaslik. 6.) lozim narsalardangina foydalanish. 7) har kuni kechasi o`ziga o`zi hisobot berish. 8) biror marotaba maqtanmaslik.

Shuni aytish joizki, ko'plab insonlar o`zining bebaxo vaqtini bekorga o'tkazib yuboradi. Inson o`z odatlarning bir xillik kun tartibi hukimronligi ta'siriga kirib, o`zining rejalarini keyingi kunga yoki xafaga yoki yillarga qoldira boshlaydi. O`z-o`zini ishontirish, sobit qadam iroda orqaligina o`zining qobiliyatlarini namayon etishga erishish mumkin. O`zini tarbiyalashning psixologik

sharoitlardan biri o‘z-o‘zidan norozilik bulib, uni L.N. Tolstoy, «. . . Men telba, o‘zgalarga qizig‘i yo‘q, chidamsiz va bolalardek uyalchangman».

O‘z-o‘zini tarbiyalash o‘z faoliyatini tahlil qilishdan va o‘z shaxsini takomillashtirishdan boshlanadi. O‘qituvchi o‘z ustida ishlashi, o‘z-o‘zini tarbiyalashda quydagi uslublardan foydalanadi:

O‘z-o‘zini bilish:

- a) o‘zini kuzatish.
- b) o‘z xarakatlarini tahlil etishi.
- d) o‘z-o‘zini sinashi.
- e) o‘rtoqlarining fikrini tushuna olish

o‘ziga baho berish:

- a) o‘zini kuzatish.
- b) o‘ziga xarakteristika berish.
- d) o‘z-o‘zini taqdirlash.

O‘z-o‘zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi. O‘z shaxsiy fazilatlarini tahlil qilishga, xatti-xarakatlarini uylashga o‘rgatadi. O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun o‘zining yurish-turishi, intizomi, ijobjiy odatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishini kuzatib boradi. O‘z-o‘zini baholash o‘qituvchini, o‘z imkoniyatlarini baholashda, o‘zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

O‘qituvchi o‘z-o‘zini tarbiyalash bilan birga o‘z ustida tinmay ishlab, o‘zining g‘oyaviy-siyosiy ongini doimiy ravishda o‘stirib va pedagogik mahoratini takomillashtirib boradi.

M.I.Kalinin o‘qituvchilarga qarata shunday degan edi: «O‘qituvchi o‘zini butun kuch-quvvatini, imkonini, o‘zida bor hamma qimmatbaho narsalarni o‘z uquvchilariga, xalqqa beradi. Ammo, o‘rtoqlar, agar siz o‘zingizda bor narsalarning hammasini bugun, ertaga, indinga bersangiz-u, lekin o‘zingizda bunda o‘z bilimlaringizni, o‘z kuchingizni, o‘z quvvatingizni yana va yana to‘ldirib bormasangiz, u holda o‘zingizda hech narsa qolmaydiku, axir. O‘qituvchi, bir tomondan, o‘zida borini beradi, ikkinchi tomonidan, hayotdan, fandan hamma yaxshi narsalarni olib xazm qiladi va bu hamma yaxshi narsalarni yana yangidan bolalarga beradi».

Ilg‘or o‘qituvchi hamma vaqt pedagogika sohasidagi yangiliklarni bilishga intiladi, boshqa o‘qituvchilarning tajribalaridan foydalanishga hamda o‘z shaxsiy tajribalaridan foydalanishga, hamda o‘z shaxsiy tajribalarini umumiylashtirishga harakat qiladi.

Agar shaxs izlansa, o‘z qobiliyatlari ustida ishlasa, o‘zidagi yaxshi fazilatlarni kamol toptirsa, uning obro‘sisi, mavqeい ham shu darajada yuksaladi va doimo el nazarida bo‘ladi. O‘qituvchi o‘zida kuzatuvchanlikni, g‘amxo‘rlikni tarbiyalashi lozim. O‘qituvchining mustaqil bilim egallashi va malakasini oshirishi zaruriy shartlardandir. Sharq mutafakkirlari o‘qituvchi o‘zi o‘qib tursagina – o‘qituvchi bo‘la oladi, agar o‘qishni to‘xtatib qo‘yar ekan, deb haqqoniy aytganlar.

Iroda va xarakterni shakllantirishda o‘z-o‘zini tarbiyalash. O‘qituvchilik faoliyatida o‘qituvchi xarakteri muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda iroda, his-tuyg‘ularini boshqarish katta ahamiyat kasb etadi. O‘zini-o‘zi tarbiyalash ma‘lum natijalarga olib kelishi lozim. Bunda: o‘zini idora eta olish, yaxshi kayfiyat, o‘ziga buyruq berish, ishontirish, shaxsiy rejimga rioya qilish va o‘z qoidasiga ega bo‘lish.

L.N.Tolstoy o‘z-o‘zini tarbiyalashda quydagi qoidalarga amal qilar edi. Nima belgilasa hech narsaga qarmay tezkorlik bilan bajara. Nimani bajarsa yaxshi bajar.

Doimo aqliy, o‘z imkoniyati doirasi asosida faoliyat ko‘rsatishga harakat qilardi».

V.Shekspir shunday yozgan edi. «Uyqu ona tabiatining g‘aroyib, shirin taomidir tanavvul qilish me‘yorini bilish lozim».

O`z-o`ziga buyruq berish, o`z-o`zini tarbiyalashning muhim usullaridan biri. Masalan, A.Meresyev «Olg`a, olg`a chidash kerak!» . . .

U.G.Shuls faraziga ko`ra o`z-o`zini tarbiyalash programmasi (dasturi):

Bir kunlik yoki xaftalik ish rejasini tuzish, uni bajarish;

Umidsizlikka tushmaslik, kamchilikdarni bartaraf etish;

O`ziga, muvaffaqiyatga ishonish;

«Men o`zimga ishonaman», «Men buni qilishni xoxlayman», «Men qila olaman»

kabi o`z-o`zini ishontirish formulasini qo`llash.

O`zini tarbiyalash:

Jiddiy, o`ylab ish ko`rish;

Ma`ruza, seminar darslarida e`tiborsizlikka berilmaslik;

«Men diqqat bilan eshityapman», «Mening diqqat e`tiborimda» formulasini qo`llash.

O`z-o`ziga buyruq berish. «Pedagog fikrini kuzatib borish lozim».

O`ziga-o`zi hisobot berish, kun yoki xafta yakunini qilish.

Xulosa, ma`lumki, jamiyat taraqqiyotida ta`lim-tarbiya, uning mazmunini, maqsad vazifalari muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir tuzim ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy taraqqiyot o`z yo`nalishini belgilashda yosh avtorga nimani o`qitish kerak? Qanday o`qitish lozim? Kimlarni o`qitishi kerak? Kabi savollar jamiyat oldidagi ko`ndalang qo`yiladigan savollarga javob izlab kelingan. Mazkur savollarga javob topish, ya`ni ta`limni yangilash, uning tizimini, mazmunini qayta qurish, yangi xolatga yo`naltirish Respublikamizning ustivor yo `nalishlaridan biridir. Albatta, bu yo`nalish keng qamrovli, bosqichma-bosqich ravishda amalga oshiruvchi jarayondir.

Yoshlarda mustaqil ravishda bilim olish va uni hayotga qo`llash ko`nikmalarini hosil qilish, axloq va odobni yaxshilash zarurati talabalik davrida shakllanadi.

Yoshlarni talaba bo`lganiga qadar ota-onasi, maktab o`qituvchilar, karindosh-urug`i, mahalla-kuy nazorat qilib borsa, talaba bo`lgandan keyin bu nazorat susayib ketadi. Bu holatni talabaning o`zi anglab yetishi lozim, shundan keyin boshqaruv nazariyasining asosiy tamoyili, tushuncha va qoidalarini egallagan holda o`zini-o`zi tarbiyalay boshlashi kerak.



## Ma`ruza 6 MAVZU: TA`LIM- TARBIYA JARAYONIDA OILA, MAHALLA VA TA`LIM MUASSASASI INTEGRATSIYASI.

### R e j a :

1. Mahalla tarixi.
2. O`quvchilarni mehnatsevarlikga o`rgatishda maktab, oila va mahalla hamkorligi.
3. Oila, maktab, mahalla hamkorligining shaxs ma`naviyatini shakllantirishdagi o`rni.

**Tayanch tushunchalar:** mahalla, oila, ma`naviy qadriyat, ta`lim, tarbiya, makatab, an`ana, xis-tuygusini, milliy qadriyat.

### Mustaqil ta`lim topshirig`i

Mavzu	Foydalaniladigan adabiyotlar	Amalga oshirish shakli
Mahalla haqida tushuncha.	1. Ismatova Nargiza va boshalar. Tarbiya 1,2, 3,4. Darslik. G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.: Toshkent 2. 2020 Salayeva M.S. Umumiy pedagogika. Darslik.	Mahalla haqida tushuncha mavzusida taqdimot tayyorlash.

	- Toshkent “Nodirabegin”. 2021. – 283 bet.	
Oila, maktab, mahalla hamkorligining shaxs ma’naviyatini shakllantirishdagi o’rni.	1.Dexkanova M.U. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O’quv qo’llanma. - T.; 66-bet. 2.2019SarsenbayevaR.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O’quv qo’llanma.T.; 2019.309 bet.	Oila, maktab, mahalla hamkorligining shaxs ma’naviyatini shakllantirishdagi o’rni haqida ko’rgazmalar tayyorlash.



### **O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati Asosiy darslik va o‘quv qo’llanmalar**

1. R.A.Mavlonova, Б.Нормуродова. Тарбиявий ишлар методикаси. О‘quv qo’llanma. Toshkent, “Fan” 2008 y. 401-bet.
2. R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.105-bet.
3. K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.O‘quv qo’llanma.T.:O‘qituvchi 2010-yil.307-bet.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T:. Fan va texnologiyalar. 2010-yil.209-bet.

#### **Elektron ta’lim resurslari:**

- 1.w.w.w.tdpu.uz
- 2.w.w.w.pedagog.uz
- 3.w.w.w.ziyonet.uz
- 4.w.w.w.edu.uz
- 5.tdpu-INTRANET.Ped

Mahallalar qadim-qadimdan ezgulik beshigi, tarbiya o‘cho- g‘i, yashash tarzi, milliy udumlar, urf-odat va an’analalar shakl- langan maskan bo‘lib kelgan. Odamlarni bir-biriga mehr-oqibat- li, muruvvatli, saxovatli qilib qo‘yishda, o‘ziga xos jamoani shakllantirishda mahallalar juda muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, bugungi kunda mahallalar davlat boshqaruvining birin- chi bo‘g‘inlari, asosiy ustunlari sifatida e’tirof etilayotgani ham bejiz emas. Mahalla — yurtimizda asr-asrlar mobaynida shakllan- gan tamoman o‘ziga xos, butunlay sharqona o‘zini o‘zi boshqa- rish tizimidir.

O‘rta osiyo muhitida jamoa, mahalla bo‘lib, bir-biriga mehr- oqibatli bo‘lib yashaydigan insonlar, davr qanchalik o‘zgar- masin, tarix sinovidan o‘tgan o‘z qadriyatlariga sodiq bo‘lib ya- shashni ma’qul ko‘rar ekan, buni zamonoviy fikrlaydigan, dun- yoga teran nazar tashlaydigan odam to‘g‘ri tushunishi, tan oli- shi va uni hurmat bilan qabul qilishi lozim. Azaldan o‘zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo‘lib kelgan. O‘zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim- yesirlarning bo- shini silash, to‘y-tomosha, hashar va ma’rakalarni ko‘pchilik bilan bamaslahat o‘tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo‘lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an’analalar, avvalambor, mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov „Yuksak ma’na- viyat — yengilmas kuch“ asarlarining birinchi bobidagi „Ma’na- viyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar“ deb nomlangan fas- lida mahalla boshqaruvi, uning ma’naviyatimizni shakllantirish- dagi o‘ziga xos o‘rni va

mavqeyiga alohida to‘xtalib o‘tadilar. Bu asarda mahallaning azaldan milliy qadriyatlar maskani bo‘lib kelgani aytilib, jumladan, shunday yoziladi: „Xalqimizga xos o‘zini o‘zi boshqarish tizimining bu noyob usuli qadim-qadim- dan odamlarning nafaqat tilida, balki dilida, butun hayotida chuqur joy egallagani bejiz emas. Biz „Mahalla — ham ota, ham ona“ degan hikmatli naqlni ana shu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilamiz“.

Shuningdek, muallif mustaqillik yillarida mahalla hayoti bilan bog‘liq ko‘plab qadriyatlar, udum va an’analaramiz qayta tiklanib, zamon talablari asosida boyib borayotganini alohida qayd etadilar. „Mahalla“ tushunchasining Konstitutsiyamizga kiritilishi esa, Yurtboshimiz tarafidan siyosatning xalqchilligiga dalolat sifatida tilga olinadi, bunga „Kuchli davlatdan—kuchli jamiyat sari“ degan tamoyilning amaliy ifodasi sifatida qaraladi. Milliy tariximizga xolis baho berishga kirishdik. Bir vaqtlar hukmron mafkura badnom qilgan ne-ne zotlar nomi tiklandi. Bular orasida sohibqiron Amir Temur, buyuk avliyolarimiz — Xoja Abdulkholiq G‘ijduvoni, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahor-uddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy va boshqalar, buyuk islom olimlari — Imam Buxoriy, Burhoniddin Marg‘iloniy, Imam Moturidiy, Imam Termiziy va boshqalar, sho‘ro qatag‘oniga uchragan, asarlarni o‘rganish taqiqlab qo‘yilgan Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon va boshqalar bor.

Bola shaxsining shakllanishida butun ijtimoiy voqelik, xususan, uning o‘zi tug‘ilib o‘sgan oila muhiti hal qiluvchi vazifani bajaradi. Oiladagi turmush madaniyati, mehnat xarakteri, ota-onaning axloqiy saviyasi ijtimoiy masalaga, bolaning komil in- son bo‘lib yetishishiga ta’sir ko‘rsatadi. Mehnat tarbiyasi hozirgi kun tarbiyasining zarur sharti, shaxsdagi professional barkamollikning asosidir. Mamlakatimizda umum davlat ishi bo‘lgan ana shu tarbiya, ya’ni o‘quvchi yoshlarni ijtimoiy ishlab chiqqa- rishning turli sohalardagi mehnat faoliyatiga tayyorlash, asosan, maktabning o‘rtaliga va yuqori sinflarida amalga oshiriladi. Lekin bu ishning muvaffaqiyatli bajarilishi boshlang‘ich sinflarda va oilada turli darajada tayyorlanishga bog‘liq. Bolalarga mamlakatimizda har qanday mehnat sharaflı ekanini, halol mehnat qilgan kishi yuksak qadrlanishini, mehnatdan qochadigan axloqsiz odamlar- ni hech kim hurmat qilmasligini, boshqalar hisobiga yashash, umuman, aqli, zukko odamga to‘g‘ri kelmasligini maktabdan, ota-onalarning suhbatlaridan va ularning kuzatishidan iloji boricha ertaroq bilib olishlari lozim. Mehnat tarbiyasini oilada ham muvaffaqiyatli tashkil etishga imkoniyatlar ko‘p. Bolanining boshlang‘ich mehnat faoliyatida ota-onalarning mehnatga bo‘lgan munosabatlari, harakatlari namuna sifatida xizmat qiladi. Bolalar artofidagi „mehnat“ni ko‘rib tursa ham mehnatsevarlik fazilati tarkib topaveradi. Bunda ota-onalar o‘ylab, ehtiyyotkorlik bilan ish ko‘rishlari lozim. Masalan, bolalarni mustaqillikka o‘r- gatishda ularga kiyinish usullarini tushuntirib, ko‘rsatib berish lozim. Bola eshikdan kirib kelgan ustki kiyimlarini tartibsiz holda yechib tashlamasdan, aksincha, maxsus kiyim ilgichga ilishga odatlanishlari zarur. Oilada bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, maktab, mahalla bilan hamkorlikda ularning yoshlariga mos topshiriqlar berib borish, kundalik vazifalarni taqsimlab, mehnatsevarlikni tarbiyalash maqsadga muvofiq hi- soblanadi.

*O‘quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi vazifalari.*

*Bolalarga ta’lim berish jarayonini amalga oshirish borasida kichik Vatan bo‘lmish mahallaning vazifalari:*

- mahalla faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan masalalarni muhokama qilishda, oqilona yechimlarni topishda faollilik ko‘rsatishi;
- mahalla o‘z hududidagi ijtimoiy va iqtisodiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlab, ularni qo‘llab-quvvatlab va farzandlarining bilim hamda olishlariga bosh-qosh bo‘lishi;

— ma’nan nosog‘lom oilalarni mahalla yig‘inlarida muhokama qilish, jamoatchilik choralarini ko‘rishi;

— mahalla hududidagi o‘quv-tarbiya muassasalariga iqtisodiy yordam ko‘rsatilishini qo‘llab-quvvatlashi;

— ota-onalar orqali bolalarni tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g‘urur, vatanparvarlik, milliy odob, baynalmilallik kabi xislatlarni singdirishni har tomonlama rag‘batlantirishi;

— mahallada istiqomat qilayotgan xalq ustalari, san’atkorlar, ziyolilar va barcha ijod ahlining imkoniyatlaridan foydalanib, turli to‘garak va „Usta-shogird“ rusumida bilim va kasb berish faoliyatini tashkil qilishi;

— mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari tomonidan mahallada istiqomat qilayotgan va moddiy qiynalgan yoshlar uchun ish joylari tashkil qilishi;

— har bir yosh fuqaroda O‘zbekistonga, uning tabiatiga muhabbat, obodonchiligi uchun javobgarlik ruhini shakllantirishi.

*O‘quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi jarayonida mактабning vazifalari:*

Bolalarga ta’lim-tarbiya berishda maktab va pedagoglarning asosiy vazifalari O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlis to monidan qabul qilingan „Ta’lim to‘g‘risida“gi Qonunining, „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ va respublika rahbariyatining dasturiy fikrlari mazmunidan kelib chiqqan bo‘lishi kerak, ya’ni:

— maktabda bolaga biror-bir kasb-korni egallashi uchun mustahkam poydevor yaratish;

— o‘quvchi-yoshlarning sport turlari bilan shug‘ullanishlariga yordam berish, ularning bo‘sh vaqtlarini tashkil qilish;

— bolalarga ta’lim berishni ilg‘or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy o‘quv-uslubiy dasturlar asosida tashkil etish, o‘quv- tarbiya jarayonlarini jahon andazalariga mos ravishda ta’minalash;

— o‘quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlari tahlilidan, iqtisodiy va ijtimoiy muhitdan kelib chiqib, ularni turli soha bo‘yicha kasb asoslari yo‘naltirish va ta’limda tabaqaqlashtirilgan yondashuvni joriy etish;

— Yoshlarni (16 yosh va undan yuqori) dunyo andazalariga mos bilim olishlari, kasb tanlashlari, mustaqil hayotga tayyor- garliklarini ta’minalash. Ularning imkoniyatlari darajasida ta’lim olishlariga, tanlagan kasblari bo‘yicha ish bilan ta’minalashlariga, iqtisodiy mustaqil bo‘lishlariga shart-sharoit yaratish. Vatan, davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik burchlarini ado etishga javobgarlik hissini to‘la shakllantirish, mustaqil oila ko‘rishga tayyorlash.

*O‘quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligini amalgalashuvni mexanizmi:*

„Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ning 4- bo‘lim 6- bandida „Muassasa tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiylarning vakillarini o‘zichiga oluvchi vasiylik va kuzatuv jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi“, deb belgilab berilgan. O‘zaro hamkorlik ishlarini boshqarish uchun joylarda o‘z tarkibiga mahallalar faollari, obro‘li ota-onalardan, o‘quv-tarbiya muassasalarining tajribali xodimlaridan, mahalla hududida joylashgan turli tashkilotlarning xodimlaridan iborat muvofiqlashtiruvchi jamoatchilik kengashlari tuzilishi kerak. Jamoatchilik kengashi o‘z zimmasiga olgan vazifalardan kelib chiqib o‘z tarkibida turli yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatadigan kichik tashab- buskor guruhlarni tuzishi mumkin. Jamoatchilik kengashi

ma’ lum bir muddatga mo‘ljallangan ish dasturini tuzish va uni mahalla yig‘inida tasdiqlab olib, amalga oshirishi zarur bo‘ladi. Qayd etilgan tadbirlar davra suhbatlaridan, biror-bir mavzuga yoki muammoga qaratilgan kengash va majlislardan, mahalla ahlini birlashtiruvchi, ularni sog‘lom turmush tarziga yetaklovchi ko‘rik-tanlovlari, musobaqa, bellashuv, uchrashuvlar va turli sanalarga bag‘ishlangan anjumanlardan iborat bo‘lishi mumkin. Joriy qilingan jamoatchilik kengashi o‘z faoliyati to‘g‘risida mahalla ahliga har chorakda bir marotaba hisobotberadi. Zarurat tug‘ilganda o‘quv-tarbiya muassasalarini, mahalla faollari, mahalla hududida joylashgan tashkilot, korxona va idoralarning ta’lim- tarbiya yuzasidan olib borilayotgan ishlari to‘g‘risida hisobtlarni tinglab, ularga amaliy va nazariy yordam berishi ish samarasiga va uning izchilligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kengash mahalla hududida istiqomat qilayotgan, o‘z farzandlari tarbiyasiga befarq ota-onalarga nisbatan davlat boshqaruv idoralari, huquqni himoya qilish tashkilotlari bilan hamkorlikda turli ma’muriy choralarni qo‘llashi mumkin.

Kengash tashabbusi bilan biror-bir dolzarb mavzuda favqulodda mahalla yig‘inlari, o‘quv-tarbiya muassasalarining pedagogik kengashlari yoki boshqa zarur tadbirlar tashkil qilib o‘tkazilishi mumkin. Kengash mahalla hududida o‘zbek milliy tarbiya an’anlarini tiklash, turli madaniy tadbirlar o‘tkazish, bolalar va kattalarning bo‘sh vaqtlanini tashkil etish borasida maktablar, o‘yingohlar, madaniyat muassasalarini, sport inshootlari, o‘smirlar klublari, maktabgacha va maktabdan tashqari muassasalar ishini muvofiqlashtiradi. Kengash o‘tkazilgan tadbirlarni tahlil qiladi, bu borada uslubiy maslahatlar tayyorlaydi va bu tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida yoritadi. Kengash yosh avlodni tarbiyalashda mahalla, maktab va oila hamkorligi tasarrufiga kirgan masala va muammolarni mahalla hududidagi o‘quv-tarbiya muassasalarini, tashkilot va idoralari ishi rejulashtirilishi va amaliyot dasturlariga kiritilishida ularning bahamjihatligini ta’minlaydi. Yuqorida aytilganidek, ota-onalarning mehnatga bo‘lgan munosabati bolaga kuchli tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Oiladagi va o‘zidan katta sinfdoshlari, mahalladagi faollarning mehnatsevarligi kichiklarga mehnat namunasiga aylanadi. Ota-onalar, maktab bolaning qiziqishi va maylini o‘z vaqtida payqab, ulardan iste’dodni rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishlari lozim. Bu esa bolalarda kattalar mehnat yutuqlaridan faxlanish hissini tarbiyalab, ularga ergashishga undaydi.

Oilada olib borilgan yaxshi mehnat tarbiyasi bolalarning muvaffaqiyatli o‘qishiga yaxshi zamin bo‘lib xizmat qiladi. Ota- onalar shuni unutmasliklari kerakki, maktabda ham bolalar bilan mehnat tarbiyasi olib boriladi, mehnat va ijtimoiy foydali mehnat darslari o‘tiladi. Mehnat ko‘nikmasiga ega bo‘lmagan bolalar bu darslarda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishadi. O‘g‘il-qizlarni barcha mehnat turlariga tayyorlashda maktab, oila, mahalla hamkorligida bolalarni yangi hayotga tayyorlash faqat ijobiy natija beradi. Vaqtning qadriga yetish, daqiqalarni e’zozlash, uning barcha imkoniyatlaridan oqilona foydalanish hozirgi kunning muhim shioriga aylangan bir paytda ota-onalarning, kattalarning ibrati bolalar uchun o‘rnak bo‘lishi kerak.

„Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“da uzluksiz ta’limga alohida e’tibor berilgan. Uzluksiz ta’limning boshlang‘ich nuqtasi oila hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining „Ta’lim to‘g‘risi“dagi Qonuning 5- bob 30- moddasida ota-onalar yoki qonuniy vakillarning vazifalari quyidagicha ko‘rsatib o‘tilgan: „Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolalarning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o‘rtalik, maxsus, kasb-hunar ta’limini olishlari uchun javobgardir“.

Ana shulardan kelib chiqib, har bir ota-onalik, maktab, mahalla farzandlar oldidagi fuqarolik burchlarini his etishlari lozim. Jamiyatimiz uchun yuqori malakali, raqobatga qodir

mutaxassislarini tayyorlash uchun maktab, ota-onalar va mahalla hamkorlikda olib boriladigan kasbga yo‘naltirish ishlarini takomil- lashtirish, yangi shakl va usullarni izlab topish va bunga keng jamoatchilikni ham jalb etish kerak. O‘quvchi mактабда та’лим tarbiya olish bilan birgalikda shaxs sifatida shakllana boradi. O‘zining jamiyatdagi о‘rnini sinfdoshlari, qolaversa, murabbiy, mahalladagi ilg‘or hunarmandlar bilan taqqoslay boshlaydi. O‘zi dagi yaxshi jihozlarni namoyon etishga intiladi va o‘zgalar ichida ajralib turishga harakat qiladi. Xuddi shu paytdan boshlab umumiy о‘rta ta’lim mактабларida faoliyat ko‘rsatuvchi о‘qituvchilar, sinf rahbarlari, mehnat ta’limi о‘qituvchilari kasb-hunarga yo‘llash sohasidagi dastlabki ma’lumotlarni bera boshlashlari lozim. O‘quvchilarning o‘zları uchun munosib kasblar tanlashlarida ota-onalarning roli alohida o‘rin tutadi. Sinf rahbari, mактаб ruhshunosi kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassis va mактаб shifokori bilan hamkorlikda ish olib borib, o‘quvchining psixologik-pedagogik xaritasidan yozilgan tashxis natijalariga asoslanib, kasbiy maslahat berishlari lozim. Buning uchun, avvalo, ota-onalarning o‘z farzandlari haqida fikrlarini bilish kerak.

Pedagogik faoliyatimiz va tajriba-sinov ishlarimiz natijasida umumta’lim mактабларida xalqimizning milliy, tarixiy an’analaridan, qadriyatlaridan foydalanish darajasini va saviyasini aniqlashimiz uchun mahalla bilan hamkorlikda ish olib borish faqat ijobjiy natija beradi. Ma’lumki, mahallalarda hunarmandchilik texnika rivoji bilan birgalikda takomillasha bordi va turli ixtisosliklar: kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, miskarlik, binokorlik, sartaroshlik, o‘ymakorlik, zargarlik, zardo‘zlik, bo‘yoqchilik, tunikasozlik kabilar ajraldi. Mahallalarda ochilgan bunday hunarmandchilik shoxobchalariga bolalarni qiziqtirish, mактаб, oila, mahalla hamkorlikda, hunarmandchilikka oid ko‘rgazmalar tashkil etish, ushbu tanlovda ishtirot etgan o‘quvchilar mehnatiga ijobjiy baho berish o‘quvchilarning o‘sha kasbni egallashlari uchun aniq manba bo‘lib xizmat qiladi. Qadimgi manbalarda aks ettirilgandek, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Xiva va Qo‘qon shaharlarida me’morchilik, quruvchilik inshootlari keng rivojlangan. Shu bois hunar va kasb haqida mahalla oqsoqollari, momolar ham o‘zlarining hayotlarini farovon o‘tkazishlarida o‘rgangan hunarlari foya bergenini ta’kidlashadi. Mактаб, oila, mahalla hamkorlikda mehnat ta’limi avlodni mehnat qilishga tayyorlashni shakllantirish, kelajagi buyuk davlat qurishda amaliy ishtirot etishga intilish ko‘nikmasini tarkib toptiradi. Barchamizga ma’lumki, yosh o‘quvchilar qaysi ustoz shirinso‘z, yaxshi muomalada bo‘lsa, bola qalbiga yo‘l topa olsa, unga bog‘langan holda o‘sha kasbga bo‘lgan qiziqishi ortadi. O‘z kasbiga fidoyi bo‘lgan har bir o‘qituvchi o‘zining tarbiyalayotgan o‘quvchisining kelajagiga bafarq bo‘la olmaydi.



## Ma’ruza 7 MAVZU: TARBIYA JARAYONINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR.

### Reja :

1. Ta’lim- tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvning zaruriyati.
2. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’lim-tarbiya.
3. Ilg‘or xorijiy ta’lim tizimlari.

### Mustaqil ta’lim topshirig’i

Mavzu	Foydalilanidigan adabiyotlar	Amalga oshirish shakli
Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’lim-tarbiya.	R. Maylonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar	Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’lim-tarbiya haqida taqdimot tayyorlash.

	metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.401-bet.	
Ilg‘or xorijiy ta’lim tizimlari. .	1. M.Quronov. Milliy tarbiya. Toshkent. Manaviyat. 98-bet.203-bet. 2.Dexkanova M.U. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. - T.; 2019.199-bet.	Ilg‘or xorijiy ta’lim tizimlari. haqida ko’rgazmalar tayyorlash.



### O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati

#### Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1. Salayeva M.S. Umumiy pedagogika. Darslik. Toshkent. “Nodirabegim” nashryoti. 2021-yil.47-bet.
2. Abdullayeva Sh. Umumiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma.Toshkent.O’qituvchi nashryoti. 2021-yil.166-bet.
3. Istamova N . va boshqalar. Tarbiya 1,2,3,4. Darslik. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2020-yil.98-bet.
4. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2019-yil.77-bet.
- 5.Dexqanova M.U.Tarbiyaviy ishlar metodikasi.O‘quv qo‘llanma.Toshkent-2019 yil. 234-bet.
6. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotir. Darslik T:. Sano-standart. 2017-yil **.101-bet.**

#### Elektron ta’lim resurslari:

- 1.w.w.w.tdpu.uz
- 2.w.w.w.pedagog.uz
- 3.w.w.w.ziyonet.uz
- 4.w.w.w.edu.uz
- 5.tdpu-INTRANET.Ped

Hozirgi sharoitda innovatsion faollik oliy ta’limning ham mazmun hamda tashkiliy tuzilmaviy jihatdan qayta ishlab chiqish bilan bevosita bog‘liq. Bu jarayonlarning asosi bo‘lib oxirgi uch, o’n yillikda pedagogik ta’lim nazariyasini tezkor ishlab chiqilishi bo‘ldi. <sup>8</sup>(A.A.Abdulina, Ye.V.Bondarevskaya, V.I.Zagvyazinskiy, V.S.Ilin, N.M.Kan-Kalik, V.A.Slastenin va b.q) Pedagogik ta’lim rivojlanishining zamonaviy innovatsion yo‘nalishlarini ichida xususiy innovatsion nazariyani shaxsiy (xususiy) yo‘nalishli ta’lim sohasidagi ishlanmalarni, ta’limni tashkiliy-tuzilmaviy modelini, ta’limni ko‘p darajali tizimini rivojlantirishni ajratib ko‘rsatish mumkin. Hayotiy kelajakni amalga oshirish uchun inson ongli tarzda qayta o‘z-o‘zini faoliyatini yo‘lga qo‘yadi va buning uchun ta’lim jarayoni imkoniyatlaridan foydalanadi. Ayniqsa, bu jarayon talaba yoshi davri, yoshlik davri ayni ushbu jarayonni yo‘lga qo‘yish uchun muhim bosqich davri hisoblanadi. Ushbu konsepsianing keyingi g‘oyasi pedagogik sub’ektivlikni rivojlanishi bilan bog‘liq: talaba “o‘rganuvchi”, “o‘quvchi”, “o‘qitadigan” pozitsiya orqali o‘tadi. Agar oliy o‘quv yurti “o‘qish joyi va vaqt emas, balki yigit va qizlarni katta bo‘lish maydoni”(D.B.Elkonin) deb qaralsa, u holda ushbu oliy o‘quv yurtidagi pedagogik jarayon uni amalga oshirish orqali ta’lim olayotgan talabaning o‘z-o‘zini rivojlantirishini faollashtiruvchi, hech bir narsa bilan qiyoslab bo‘lmaydigan pedagogik jarayonni ijodiy-o‘zini qayta qurish sub’ekti ham talaba, ham pedagog uchun imkoniyatlar hisoblanadi.

O‘qituvchi faoliyati ham o‘zgaradi: “usta” ishlari orqali bilimlarini pedagogik texnologiya asosida yetkazishdan, talabalarda pedagogik qobiliyatni shakllantirish maqsadida birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi “maslahatchi” pozitsiyada talabalar bilan birgalikda uning kelajak kasbiy faoliyatini loyihalovchiga aylanadi. Shunga ko‘ra integrativ ta’lim texnologiyalarini yo‘lga qo‘yish dolzarb bo‘lib qoladi. Ushbu masalada ta’limni loyihalash bilan shug‘ullanuvchi muammolar instituti bugungi kundagi dolzarb masalada yetakchilik qilmog‘i zarur. Bundan tashqari oliy ta’limda har bir fanlarni o‘qitish sohasida pedagogika va psixologiya fanlari bloki tezkor texnologik izlanishlarni amalga oshirish bilan shug‘ullanishlari kerak. Pedagogik ta’lim amalga oshirishining tashkiliy-tuzilmaviy modeli haqida alohida to‘xtalish kerakligi e’tiborga loyiq. Bular: kichik darajadagi, ko‘p bosqichli va ko‘p darajadagi modellarga qaratilishidan iborat. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan har bir model mustaqil yaxlit ta’lim sifatida qaralib, ular o‘zlarining jilg‘alariga ega bo‘lib, aniq ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy xolatlar bilan bevosita bog‘liq. Kichik darajadagi tizim – bu oliy ta’limdagi an’anaviy tizim hisoblanib, u qat’iy hisoblanib, bunda tor mutaxassislar tayyorlanib, ta’lim jarayonida o‘qitish variantlarini tanlash imkoniyati mavjud emas. Ko‘p bosqichli tizimda o‘rta maxsus ta’lim tizimi asosida oliy ta’lim olish uchun imkoniyatlar mavjud bo‘lib, o‘zaro bog‘lovchi o‘quv rejasi ishlab chiqilgan. Ushbu tizim ixcham hisoblanib, bitiruvchilarini uchinchi kursga qabul qilish bilan bog‘liq ko‘plab muammolar kelib chiqadi: qaysi mablag‘ asosida o‘qitish, birinchi o‘rinda pedagogika bilim yurti va pedagogika kollejlarida talabalarni egallagan bilimlari sifati masalasi turlicha gumon uyg‘otadi. 1997 yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonunga muvofiq oliy ta’limning ko‘p bosqichli tizimi yo‘lga qo‘yildi. Oliy ta’limning ko‘p bosqichli tizimini ishlab chiqish va joriy etishni kuchli innovatsion jarayon sifatida belgilash mumkin. Ushbu masalada G‘arbiy Yevropa mamlakatlari tajribasi har tomonlama tahlil etilib, baho berildi va O‘zbekiston Respublikasi sharoitida o‘zimizning mentalitetimizdan kelib chiqib, oliy ta’limning o‘ziga xos ko‘p bosqichli tizimi yaratildi. Oliy pedagogik ta’limni ko‘p bosqichli mazmuni bizning sharoitimizda ikki darajali model:

- umumiy (bazaviy-bakalaviriat va to‘liq (magistratura) ko‘rinishida amalga oshirilib, har biri o‘ziga avtonom hisoblanadi;
- yaxlit tizim ko‘rinishiga ega; bozor iqtisodiyoti talablariga to‘la javob beradi;
- ta’limni ko‘pgina yo‘llari orqali egallash imkonini beradi;
- o‘qiyotganlarni akademik va kasbiy yo‘naltirishga rag‘batlantiradi;
- o‘z-o‘zini anglash, uning qimmatli yo‘nalishlarini va hayot tarzini belgilash asosida shaxs rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratib beradi. O‘qitish asosiga ta’limiy-kasbiy dasturlar qo‘yilgan bo‘lib, ular beshta blok-model prinsipidan tashkil topgan:
  - ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar fanlar, matematik va tabiiy-ilmiy fanlar, umumkasbiy fanlar, ixtisoslik fanlari hamda qo‘srimcha fanlar tizimidan iborat. Texnologik jihatidan kasbiy ta’limning mazmuni, metodlari va metodikasini tanlashga madaniy yondashuv bilan bevosita bog‘liq.
  - Ushbu dasturlarni ishlab chiqilishida har bir blokning vazifasi, bloklar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tashkiliy, didaktik-texnologik ishlar va malakali mutaxassislar bilan hamkorlikda amalga oshirilgani ko‘zga tashlanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, fakultetlarda oliy ta’limdagi ko‘p bosqichli tizim (OTKT) asosida ishlash va an’anaviy tizim bilan ishlash qiyosiy taqqoslab ko‘rilganda, talabalar (OTKT) yangicha ta’lim tizimida ongli, ijodiy ishlashga ko‘proq e’tibor qaratgani, talabalarda ta’lim motivatsiyasi darjasini yuqori ekanligi ko‘zga tashlanadi. Oliy ta’limni fakultetlari va kafedralarida tuzilmaviy-funksional va mazmunli-texnologik qayta qurish amalga oshiriladi. Umuman olganda oliy ta’limda individual-ijodiy va jamoaviy-ijodiy faoliyat sohasida

bugungi kunga kelib sezilarli tajribalar to‘plandi, o‘quv pedagogik jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida sub’ekt-sub’ekt munosabatlari rivojlanishida o‘zgarishlar sodir bo‘layotganini kuzatish mumkin. Ushbu tizim orqali talabalarni mustaqil ishlashga ishtiyoqi ortib, reyting tizimida ularning faol ishtiroki ta’milansa, ikkinchi tomondan pedagoglar tomonidan talabalar faoliyatini boshqarishda metodik madaniyat darajasi o‘sib borishi kuzatiladi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida har jihatdan rivojlangan kishini tarbiyalash muammosi hozirgi kunning asosiy talabi bo‘lib turibdi. Chunki, jamiyatda yuz berayotgan inqilobiy o‘zgarishlarni insonning o‘zini o‘zgartirmasdan amalga oshirib bo‘lmaydi. Ammo, yangi kishini tarbiyalash o‘z-o‘zidan emas, balki ijtimoiy munosabatlar yangilanishi jarayonida amalga oshadi. Bu jarayonda maktablar tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalari yetakchi o‘ringa chiqib olgan hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda maktablar tizimini, ta’lim mazmunini yangilash zaruratga aylandi. Eskicha o‘qitish usullari va metodlari ma’nан eskirib, ta’limning ilg‘or pedagogik texnologiyalarga asoslangan metodlari va shakllariga ehtiyoj kuchaydi. Qadimgi ajdodlarimiz olamning murakkab tabiiy jarayonlarini o‘rganib borar ekan, insonni, uning ma’naviy-axloqiy kamolotini olamdan tashqarida emas, balki shu olamning ichida deb qaraydilar. Ularning fikricha, odam – olam ichidagi kichik olam bo‘lib, unda katta olam (olami Kubro) ning barcha xususiyatlari o‘z aksini topgandir. Bu hol olamni to‘la tasavvur qilishdan oldin odamni, inson olamini yaxshi bilishni taqozo etadi. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, hozirgi davr rivojlangan mamlakatlarida insonni tabiatning oliy mahsuli sifatida, olamning bir parchasi deb qarashda biryoqlamalikka berilib ketish kuzga tashlanadi.

Ta’lim - tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolutsiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsata oladigan jamiyat a’zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb – hunarga yo‘naltirishda davlat xizmatini hamda o‘rta ta’limning ko‘p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta’lim mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni qo‘llash, ta’limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yul oshish, uning muhim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o‘rganish ayni muddaodir.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta’limning mamlakat ishki siyosatiga faol ta’sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e’tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarda matab ehtiyojini iqtisodiy ta’minalashga ajratilayotgan mablag‘ miqdori yildan yilga - oshib bormoqda.

Yaponlarda masalan, «maktab muvaffaqiyati va farovonlik timsoli» gina bo‘lib qolmay, «u insonlarni yaxshilaydi», degan fikr ishonch va e’tiqodga aylangan. Ta’lim to‘g‘risidagi g‘amxo‘rlik taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat – e’tiborida bo‘lgan. Shuning uchun ham AQSH ning sobiq Prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M.Techcherni, Fransiya Prezidenti F.Mettiranlarni matab islohotining tashabbuskorlari deb bejiz aytishmaydi. F.Mitteran matabni «Jamiyatini harakatlantiruvchi kuch» deb hisoblagan. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko‘p sonli ilmiy muassalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning ikki mingdan ortiq. Fransiya, AQSH, Yaponiyada ta’lim tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar Universitetlar pedagogik tadqiqot markazlari shug‘ullanmoqdalar. Ular faolitini esa xalqaro ta’lim markazlari, masalan, AQSH da xalqaro instituti muvofiqlashtirib bormoqda. Ko‘pchilikning faoliyati o‘quv dasturini takomillashtirish va qayta qurishga qaratilgan. Matab dasturlarini o‘zgartirish ikki asosiy yo‘nalishda: ekstensiv va intensiv yo‘l bilan amalga oshiriladi. Birinchi holatda o‘quv muddati uzaytiriladi, o‘quv materiallari hajmi ko‘paytiriladi; ikkinchi holda esa mutlaqo

yangi dastur yaratiladi. Bu o'rinda ikkinchi yo'l, ko'pchilik mutaxassislarining e'tiroficha, maqbul hisoblanadi. 1961 yilda «Bosh yangi bazis» tamoyillari asosida AQSH o'rta maktablarni islohot qilish boshlangan edi. Buning mohiyati shundaki, ingliz tili va adabiyoti (to'rt yil), matematika (to'rt yil), tabiiy bilimlar (uch yil), ijtimoiy fanlar (uch yil), kompyuter texnikasi (yarim yil) kabilardan iborat besh yo'nalishdagi majburiy ta'lim joriy qilindi.

XX asrning 80- yillarda majburiy ta'lim hajmini qisqartirish jarayoni yanada chuqurlashtirildi. Hatto ayrim kollejlarda bu sohada uch yangi: ingliz tili va adabiyoti, matematika, ijtimoiy bilimlar bazislari asosida ish olib borilmoqda. Ta'limning boshqa turlari esa iqtisoslashtirish davrigacha amalga oshiriladigan bo'ldi. Amerikadagi ko'zga ko'ringan «Found Karnegi» pedagogik markazi bu dasturni XXI asr dasturi deb baholamoqda. O'quv dasturlarini qayta qurish jarayoni G'arbiy Yevropa davlatlarida ham amalga oshirilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada ta'lim vazirligining tavsiyalariga muvofiq o'quv rejasni va dasturini ta'lim muassasalarining o'zлari belgilaydilar mazkur tavsiyalarga muvofiq 50 foiz o'quv soatlari o'qitilishi shart bo'lgan «yadro» predmetlar: ingliz tili adabiyoti matematika, din darsi jismoniy tarbiyaga ajratiladi. O'quv soatlарining boshqa qismi esa o'qitilishi shart hisoblanib, tanlab olingan predmetlarga (gumanitar, tabiiy matematik) ajratiladi. 80-yillardan boshlab Buyuk Britaniyada ham AQSH dagi singari o'rganilishi majburiy bo'lgan fanlar doirasini kengaytirildi. Ingliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar o'quv setkasining yadrosini tashkil etadigan bo'ldi. Qolgan predmetlarni tanlab olish o'quvchilar va ota-onalar ixtiyoridadir. «Yangi dunyo» ning pedagogik g'oyalari Fransiya va Germaniya ta'limiga ham sezilarli ta'sir etayotir. Germaniya to'liqsiz o'rta maktablarida asosiy predmetlar bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan o'quv dasturlari ham amalga oshirilayotir. Bu o'quv dasturi tobora to'liqsiz o'rta maktab doirasida chiqib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda. Fransiya boshlang'ich maktablarida ta'lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, aholishunoslik, tabiiy fanlar, mehnat ta'limi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi predmetlarga bo'linadi.

Yaponiya maktablari ikkinchi jahon urushida keyinroq Amerika ta'limi yo'lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o'quv dasturida qator farqlar ko'zga tashlanadi. Yaponiyada o'quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va o'quv fakultativ kurslar kiritilgan.

Germaniya maorifidagi asosiy muammo sobiq GDR dagi ta'limni bir xil milliy me'yorga solishdan iboratdir. Asosiy vazifa sobiq GDR dagi ta'lim tuzilmasini yangi me'yorga va o'Ichovga tushirish, oddiy usul bilan GFR dagi ta'lim tizimiga o'tkazib o'qishdan iborat. Ammo, buning ham o'ziga xos muammolari bor. Birinchidan mablag' masalasi bo'lsa, ikkinchidan sobiq GDR dagi ta'lim jarayoni qatnashchilarining bu o'zgarishga munosabatidir. Germaniyada ta'lim davlat va jamiyat tomonidan ardoqlanayotgan soha bo'lib, u mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishga barakali hissa qo'shib kelmoqda. Maktabgacha tarbiya Germaniya ta'lim tizimida muhim bosqich hisoblanib, uning 100 yildan ortiq tarixi bor. Germaniyada bolalar bog'chalari ta'limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat ta'lim tizimi tarkibiga kirmaydi.

Eski yerlardagi (sobiq GDR ga kirmagan yerlar) 24000 dan ortiq bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalar, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasidadir. Ota onalar ham qisman pul to'laydilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning 80 foizi bolalar bog'chasiga qatnaydi. Bog'chalarda ta'lim tabaqlashtirib olib boriladi. Germaniyada bolalar bog'chalarida odatda bolalar tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning ikkinchi yarmida esa uyda, oilada bo'ladilar. Kuni uzaytirilgan guruuhlar ham mavjud.

Majburiy ta'lim 6 yoshdan 18 yoshgasha bo'lgan bolalarga tegishli, bu jarayon 12 yil davom etadi. Bundan 9 yillik (ba'zi bir yerlarda 10 yil) maktabda to'la haftalik o'qishini bitiradi, keyin hunar texnika bilim yurtlarida to'la bo'lmanan haftalik o'qishida o'qiydilar. O'qish davlat maktablarida tekin. Xususiy maktablar ansha kam. Boshlang'ish maktab. O'qish 6 yoshdan boshlanadi va 4 yil davom etadi (Berlinda 6 yil). Dastlabki ikki yil o'qish davomida bolalarga baho qo'yilmaydi. Boshlang'ish maktabda 4 yillik o'qishdan keyin o'quvshilar yo'naliш bosqishidagi maktabga o'tadilar. Bu yerda 5-6 sinf bosqishdagi yo'naliш maktab tipiga bog'liq yoki bog'liq bo'lmanan holda maxsus dastur asosida o'qitiladi bunda bolalarning ota-onalari maktab tipini tanlash yoki o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Hunar ta'limi Germaniya ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Buning sababi, Germaniyada yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talabning kuchliligidir. To'liqsiz o'rta maktabni bitiruvchilarning (9-10-sinflar) 79 foizi, to'liq o'rta maktabni bitiruvchilarning esa 20 foizi hunar ta'limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Germaniya hunar ta'limi tizimi turli tipdag'i o'quv yurtlari va o'qitishning turli shakllariga ega. Eng ko'p tarqalgan va rivojlangan shakli hunar ta'limining —Dual tizimidir. Bu tizimda tayanch maktablarning 50 foizi va to'liq o'rta maktablarning 16 foizi o'qishni davom ettiradi.

Maxsus hunar bilim yurtlari va o'rta maxsus bilim yurtlariga bu mamlakat tayanch maktablarining 25 foizgacha bitiruvchilari kiradilar. Bu turdag'i o'quv yurtlarining bitiruvchilari texnika oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirishlari mumkin. Oliy ta'lim muassasalarining xususiyatlari, cherkov va bundesvegga tegishlilaridan tashqari bo'lgan oliy o'quv yurtlari viloyatlar boshqaruvida bo'ladi. Ularni yerlar bosh rahbari nomidan oliy ta'lim federatsiyasi boshqaradi. Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Ular qonun doirasida o'z ustavlarini qabul qiladilar Oliy o'quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylanadigan Prezident boshqaradi. Ko'pchilik viloyatlarda talabalar mustaqil ravishda o'z-o'zini boshqaradilar. Oliy o'quv yurtlarida o'qish diplom olish, magistr unvonini olish yoki davlat imtihonlari topshirish bilan yakunlanadi. Shundan keyin o'qishni davom ettirib, doktorlik ilmiy darajasini olish uchun imtihon topshiriladi. Ta'lim sohasidagi siyosat aholining ko'plab qatlami uchun oliy o'quv yurtlari darvozasini keng oshdi. Federatsiya va viloyatlar nemis oliy o'quv yurtlarida chet elliklar o'qishidan manfaatdordir. 1991 yili ular 76000 ni tashkil etgan. Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida yetakchi o'rnlardan birini egallaydi. Uning ta'lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega. Fransiya ta'limining asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlarining kamol topishini taminlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash bozor munosabati sharoitida o'quvchilarni tadbirdorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish va shunga xos kasbga yo'naltirishdan iborat. Boshlang'ich sinflardagi o'qish ertalabki va tushdan keyingi qismlarga bo'linadi.

Fransiyada boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb etiladi. Fransuz maktablarida nafosat ta'limiga ham alohida ahamiyat beriladi. Bunday ta'lim uch tartibdan iborat: musiqa, tasviriy sanat va sport. O'quvchilar 11yoshda boshlang'ich maktabni tugallab o'rta maktabga o'tadilar.

Fransiyada oliy ta'lim professional ta'lim berish keyingi 20 yil davomida qaror topdi. Fransiyada oliy ma'lumot va ixtisoslik beruvchi oliy texnologik institutlar mavjud. Fransiya ta'lim tizimlarida maktabdan va sinfdan tashqari muassasalar ko'zda tutilmagan. Biroq maktablarda va liseylarda turli to'garaklar mavjud. O'quvchilar uchun turli sport seksiyalari sayohatlar, musobaqalar o'quv muassasasining o'zida tashkil etiladi. Fransuz yoshlari, Fransiyaga bilim olish uchun kelgan chet el fuqarolari quyidagi bilim maskanlarida oliy ma'lumot oladilar:

Universitetlar;  
Oliy texnologiya maktablari;

Oliy muhandislik maktablari;  
Oliy arxitektura maktablari;  
Oliy tijorat maktablari;  
Siyosiy fanlar oliy maktabi;  
Oliy pedagogik va filologiya bilimgohlari;  
Oliy tibbiyot o`quv muassasalari;  
Oliy badiiy maktablar;  
O`zluksiz ta`lim [malaka oshirish]

Fransiyada oliy ma'lumot va ixtisos beruvchi oliy texnologik institutlar mavjud. Ular odatda sanoat, maishiy xizmat ko`rsatish, informatika mutaxassisliklariga ixtisoslashtirilgan. O`qish muddati 2 yil bo`lib, darslar haftasiga 30-35 soatni tashkil etadi. O`qish davomida 8 haftalik ishlab chiqarish amaliyoti ham ko`zda tutilgan.

Fransiyada mingdan ortiq ana shunday insitutlar faoliyat ko`rsatib, qishloq ho`jaligi ishlab chiqarishi, san`at, informatika, ma`muriy boshqaruv, buxgalterlik hisobi, amaliy san`at bo`yicha mutaxassislar tayyorlaydilar. Bunday insitutlarga kirish imtixonsiz amalga oshiriladi.

### **GERMANIYADA MAKTAB VA OLIY TA`LIM**

Ta`kidlab o`tish lozimki, Germaniyaning bozor iqtisodiyotiga o`tish yo`li bizning Respublikamizdagiga o`xshab ketadi. Jahonning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy rivojlanishiga katta hissa qo`shib kelayotgan dunyoning iqtisodiy rivojlangan davlatlari ichida kuchli davlatlar qatoriga kirgan Germaniyada ham ta`lim tizimi o`z rivojlanish bosqichiga ega. Maktabgacha ta`lim tizimi Germaniya ta`lim tizimida muhim bosqich hisoblanadi. Uning yuz yildan ortiq tarixi mavjud. Majburiy ta`lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo`lgan bolalar uchun. O`qitish davlat maktablarida tekin, o`quvchilar darslik va o`quv qo`llanmalari bilan tekin ta`minlanadi. Germaniyada maktab ta`limi qanday qurilgan va o`qitish faoliyati qanday tartibda tashkil etiladi? Boshlang`ich maktabda to`la to`rt yillik o`qishdan keyin o`quvchilar yo`nalish asosidagi maktablarda ta`limni davom ettiradilar. Asosiy maktab dasturi yilma –yil tahlil etib boriladi. Germaniyada o`z vaqtida ta`lim ola olmagan katta yoshdagilar uchun bilim olishga imkoniyat yaratib qo`yilgan. Kechki gimnaziyada sanoat, qishloq xo`jaligi kabi sohalarda ishlovchilar 3-6 yil davomida o`quv ko`rsini o`taganidan keyin etuklik attestatini olish uchun imtixon topshiradilar. Germaniyada hunar ta`lim tizimi katta ahamiyatga ega chunki, Germaniya yuqori malakali ishchilarga bo`lgan talab yuqori hisoblanadi. Germaniya ta`lim tizimining o`ziga xos tomonlaridan yana biri hunar diplomlari oliy o`quv yurtlariga kirib o`qish huquqini bermaydi. O`qishga qabul qilish imtixonsiz maktab ta`limi to`g`risidagi hujjatga asoslangan holda amalga oshiriladi. Oliy o`quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylangan prezident boshqaradi. Oliy o`quv yurtlarida tatqiqotning asosiyo yo`nalishi fundamental amaliy tadqiqot bo`lib, ularga boshqa ilmiy tekshirish institutlari, sanoat laboratoriyalari yaqindan yordam beradi.

Oliy ta`lim muassasalarining xususiyatlari, cherkov va bundesverga tegishlilaridan tashqari bo`lgan oliy o`quv yurtlari viloyatlar boshqaruvida bo`ladilar. Ularni yerlar bosh rahbari nomidan oliy ta`lim federatsiyasi boshqaradi. Federatsiya oliy ta`lim tizimiga taalluqli umumiyl prinsplarni tartibga solib turadi. Jumladan, federasiya oliy o`quv yurti qurilishi va oliy o`quv yurtidagi tadqiqotlarning bir qismini mablag` bilan ta`minlashni o`z ustiga oladi. Oliy maktab o`z-o`zini boshqarish huquqiga ega. Ular qonun doirasida o`z ustavlarini qabul qiladilar.

**Agar biz AQSh pedagogikasidagi:**

- bolani o`z kuchi va imkoniyatiga ishonch ruhida tarbiyalash;
- o`quvchining eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ro`yobga chiqarish uchun ko`rash;
- bolani kamsitmaslik, insoniy qadriyatlarini va g`ururini yerga urmaslik;
- Vataniga faxr va iftixor ruhida tarbiyalash va h.k.

### **Yaponiya ta'limidagi:**

- bolani maktabga puxta tayyorlash;
- kichkintoylar ta'lim va tarbiyasiga ota-onalar masuliyatini kuchaytirish;
- o`quvchilarni nafosat, jismoniy kamolotiga berilayotgan e'tibor;
- o`qituvchi kadrlarga yuksak talabchanlik;
- yosh iqtidor soxiblari bilan olib borilayotgan izchil ishlar;


### **Germaniya ta'limidagi:**

- tabaqalashtirib o`qitishga berilayotgan jiddiy e'tibor;
- o`qituvchilarning mehnat ta'limini mustahkamlash;
- kasbga yo`naltirish;

### **Fransiya ta'limidagi :**

- maktabgacha davridanoq o`quvni predmetlashtirib tashkil etish;
- boshlang`ich ta'limni uch bosqichda puxta amalga oshirish;
- o`quvni didaktik vositalar bilan ta'minlashga berilayotgan katta e'tibor;
- o`quv muassasalarning turli firmalar, konsernlar, korxonalar mustahkam aloqalari va boshqa ibratli jihatlar bizning ta'limga ham kuchsa, bizning pedagogikamiz olg`a qarab dadil qadam bosgan bo`lar edi.

Albatta, ta'limga har qanday yangilik, o`zgarish jiddiy tahlillar, tajribalar asosida kirib keladi. “Zo`rlab tiqishtirish” bizning uslubiyat emas. Ayni paytda ta'limni bir saviyada qotib qolishiga ham yo`l qo`yib bo`lmaydi. Keyingi paytlarda ilmiy asoslanmagan, sinab ko`rilmagan “Islohotlar” ni joriy etish, yangi o`quv muassasalari to`g`risida ham ta'lim vazirligi tasdiqlagan Nizomdan chetga chiqish hollari ro`y bermoqda, aksariyat shunday “isloh” qilingan maktablar, sinflar ko`zlagan samaradorlikni bermaganligi uchun oddiy maktablar va sinflarga aylantirilmoqda.



## **Ma’ruza 8** **MAVZU: BOSHLANG’ICH TA’LIMDA TARBIYA JARAYONINING MAZMUNI VA MOHIYATI.**

### **R e j a :**

1. Tarbiyaning ijtimoiy hodisa va pedagogik jarayon ekanligi.
2. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish metodikasi.

**Tayanch tushunchalar:** tarbiya, ta'lim, ong, tushuncha, milliylik, mafkura.....

### **Mustaqil ta’lim topshirig’i**

Mavzu	Foydalaniladigan adabiyotlar	Amalga oshirish shakli
-------	------------------------------	------------------------

Tarbiyaning ijtimoiy hodisa va pedagogik jarayon ekanligi va mazmuni.	1. Salayeva M.S. Umumiy pedagogika. Darslik. - Toshkent “Nodirabegim”. 2021. – 200 bet.	Tarbiyaning ijtimoiy hodisa va pedagogik jarayon ek anligi taqdimot tayyorlash.
Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish metodikasi.	1.SarsenbayevaR.M. Tarbiyaviyishlar metodikasi.O‘quv qo‘llanma. - T.; 2019.307-bet. 2. R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.290-bet.	Boshlang’ich sinflarda o’tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlardan namunalar tayyorlash.



### O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1. Salayeva M.S. Umumiy pedagogika. Darslik. Toshkent. “Nodirabegim” nashryoti. 2021-yil.118-bet.
2. Abdullayeva Sh. Umumiy pedagogika. O’quv qo‘llanma.Toshkent.O’qituvchi nashryoti. 2021-yil.306-bet.
3. Istamova N . va boshqalar. Tarbiya 1,2,3,4. Darslik. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2020-yil.248-bet.
4. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O’quv qo‘llanma. Toshkent-2019-yil.303-bet.
- 5.Dexqanova M.U.Tarbiyaviy ishlar metodikasi.O’quv qo‘llanma.Toshkent-2019 yil.200-bet.
6. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotir. Darslik T.: Sano-standart. 2017-yil.209-bet.

#### **Elektron ta’lim resurslari:**

- 1.w.w.w.tdpu.uz
- 2.w.w.w.pedagog.uz
- 3.w.w.w.ziyonet.uz
- 4.w.w.w.edu.uz
- 5.tdpu-INTRANET.Ped

Tarbiyadan ko’zlangan asosiy maqsad, har tomonlama ma’naviy rivojlagan aqliy va axloqiy barkamol shaxsn shakllantirishdan iborat. Shunga ko’ra tarbiyaviy faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari usullari shu maqsadga eisisni ko’zda tutadi. Tarbiyaviy ish ma’lum maqsadni ko’zlovchi va uzlusiz davom etadigan jarayondir. Ko’pincha bir necha maqsad va vazifa birdaniga bajariladi, bu esa o’quvchilar jamoasining aqliy va axloqiy o’sishini ta’minlaydi.

Shaxsni shakllanishi manfaatlari har bir pedagogik tadbirni tarbiyani umumiylar maqsalri bilan bog’lashni, uni rejali tarzda va qat’iy sur’atlarda amalga oshirishiga harakat qilishni talab etadi.

Umumiy ta’lim maktabi yangi pedagogik tafakkur egasi munosib shaxs o’z ishining ustasi bo’lgan o’qituvchiga muxtoj maktabda o‘quvchilarga gumanitar ijtimoiy fanlardan ta’lim berishda tarbiyaga ko‘proq e’tiborini karatmog’i lozim.

Ayniqsa, hozirgi O‘zbekiston tarixi, adabiyotini o‘qitish jarayonida bevosita tarbiyaga oid bulgan ilmiy ma’naviyatga, milliy rux, urf-odat va shuningdek, umumbashariy qadriyatlarga alohida urg’u berish zarur. O’qituvchi o‘quvchi qalbimga yo’l topish uchun bilimi va ishi bilangina emas, ayni paytda odob-axloqiy, madaniyatli, rostgo’lylik va shirin-suxondonligi bilan namuna bo’lishi lozim.

Yo‘q Yuqorida aytganimizdek, tarbiya-tarbiyachi va tarbilanuvchini o‘z ichiga olgan ikki yoqlama jarayondir. Ijtimoiy tarbiyaga o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e’tiqodi, ma’naviy va siyosiy g’oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongi va xislari va irodasiga ta’sir ko’rsatish usullari kirdi. Bu usulning mohiyati shundaki, ular orqali jamiyat o‘quvchilar ongiga qanday talablar qo‘yayotgani yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish xayot mazmunini tushib olishga ko‘maklashish uchun ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar ishlataladi. O‘quvchilar siyosiy onglik va ijtimoiy faollik, ya’ni davlatni ichki va xalqaro siyosati qoidalarini tushuntirish va idrok qilishini tarbiyalash lozim. Tushuntirish - bu ijtimoiy ongini shakllantirishda eng ko‘p ishlataligan usuldir. Tushuntirish vazifasi o‘quvchilarni yuksak madaniyatli, g’ururli qilib tarbiyalashda yordam berishdan iborat. Tushuntirishda o‘quvchilarga mamlakatimiz fuqarosining o‘z davlatiga nisbatan xuquqlar va burchlar bilan bog‘langanligi borasida ma’lumotlar beriladi. Bunda davlat bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasiga sadoqat ruhida tarbiya berishning ahamiyati katta. Shu sababli o‘quvchilarga davlat bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, konstitutsiyasi mohiyati tushuntiriladi. Faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirish mumkin. Bola rivojlanishining o‘zligini belgilashining asosiy omili - bu faoliyatdir. Faoliyat nuqtai nazardan yondashish qoidasi mакtab hayotining hamma jabhalarida ta’lim-tarbiya jarayoniga singib ketadi. Faoliyat o‘quvchilarni bilimlarini mustaqil egallashga undaydi, ularni qaysi ixtisosga moyilliklarini aniqlashga, ijodiy faoliyat tajribasini hissi qadriyat munosabatlarini o‘zlashtirishga yordam beradi. O‘quvchilarni birinchi sinfdan boshlab imkoniyat darajasida foydali mehnat bilan shug‘ullantirilshga erishish lozim. Bunday mehnat ko‘pchilik, jamoa bo‘lib bajarilganida yaxshi natija beradi. Tarbiya soatlarimizda o‘quvchilarimizga marosimlarimizni tushuntirib borishimiz lozim. Topishmoq, she’r, tez aytish, dostonlar bolalar ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Yosh avlodimizga, dinimizni o‘rgatishimiz kerak, mакtablarda esa bu an’anarimiz, qadriyatlarimizni qadrlash kerak, hadislardan parchalar yodlatish, hayitni qadimgi bayram ekanligini, uni yanada yaxshiroq tayorgarlik bilan o‘tkazish, milliy liboslar xaqida suhbatlar o‘tkazish kerak. Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo‘lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo‘ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. Bola kattalarning tajribalarini sust holda emas, balki faol ravishda o‘zlashtiradi uning ongi, xarakati, tirishqoqligi katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Pedagogika shaxsni kamolotga yetishini murakkab va ziddiyatli jarayon deb biladi. Shaxsning kamolotga yetishishida nasl-irsiyat, ijtimoiy muhit xam, maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya va nihoyat o‘zining mustaqil faoliyati ham muhim ahamiyatga ega. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa o‘sha jamiyat xayotidagi qonun va qoidalarga asosan kamol topadi. Shu jamiyatning moddiy va ma’naviy boyligidan bahramand bo‘ladi. Demak, shaxsning kamolga yetishivi jamiyat rivojiga chambarchas bog‘liqdir. Inson kamolotida irsiyatning ta’siri kattadir. Irsiyat deganda - bolaga ota-onha va umuman yaqin ajdodlardan ya’ni nasldan-naslga o’tadigan biologik xususiyat va o‘xshashliklar tushuniladi. Shaxs xulqining rivojlanirishda biologik omillarning ta’sirini yuksak baholab, shaxsni naslga bog’lab o‘rganuvchi oqimlardan yana biri bixeziotizm bo‘lib, u XX asrdan boshlab psixologiya fanida keng tarqaladi. Bunga amerikalik pedagog va ruxshunos E.Torndayk asos soldi. Uning fikricha, shaxsning barcha xususiyatlari, shu jumladan ong va aqliy qobiliyati ham nasldan-naslga o’tadi. Demak, bola shaxsining rivojlanishiga naslning ta’siri deganda ota-onaga, avlod-ajdodlarga o‘xshashligini ifodalovchi biologik belgilarning takrorlanishini tushunmoq kerak. Har bir bola ota-onasidan meros sifatida biologik ko‘rinishlariga (tananing tuzulishi va uning mutanosibligi, sochi, ko’zi, terisining rangi, bo‘y-basti va boshqalar) ega bo‘lib dunyoga keladi. Bular jismoniy xususiyatlardir.

Ayni vaqtida bolaga insonlarga xos xususiyatlar ham irsiyat yo‘li bilan tug’ma o’tadi. Ammo bular tug’ma imkoniyatlar bo‘lib, ularning rivojlanishi uchun inson bolasi insoniy muhitda, odamlar orasida yashab, ular bilan aloqa qilishi, ijtimoiy mehnatda ishtirot etmog‘i lozim. Chunki inson


biologik mavjud sifatidagina emas, balki ijtimoiy mehnatda ishtirok etmog‘i lozim. Shuningdek irsiy yo‘l bilan o‘tgan aqlning o‘sishi, kamol topishi uchun aqliy faoliyat, shart-sharoit ham bo‘lishi lozim. Bolaning kamolga yetishida muhitning ta’siri katta. Fiziologiya va ruxshunoslik fanining ko‘rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror-bir qobiliyatning ro‘yobga chiqishi va rivojlanishi manbai-layoqati bilan tug‘iladi. Layoqat o‘z holicha rivojlana olmaydi, uning rivojlanishi uchun qulay muhit kerak. Muhit deganda kishiga ta’sir etadigan tashqi vositalarning yig‘indisini tushunamiz, bunga tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti va boshqalar kiradi. Hamda ular bolalarning rivojlanishiga alohida ta’sir etadi. Bola tug‘ilishi bilan ijtimoiy hayot sharoitlari, tayyor ijtimoiy ong shakllarga duch keladi. U mehnat sharoitining ta’sirida o‘sadi-ulg‘ayadi. Kishilarning o‘zaro muloqotlari natijasida bolada nutq shakllanadi, o‘sadi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ijtimoiy muhit kishilarning faol ishtiroklari, faoliyatlar natijasida tarixan o‘zgarib boradi. Demak, boladagi irsiy belgilarning u ishi, kamol topishi insonlar muhiti, yashash sharoiti va tarbiyaga bog‘liq desak bo‘ladi. Bunga tarixdan misollar juda ko‘p. Alisher Navoiy onasidan – shoir, Eynshteyn - fizik, Ulugbek - astronom, Ibn Sino - tabib bo‘lib tug‘ilmagan, albatta ulardagi qobiliyat kurtaklarning rivojlanishi, istedodiga aylanishida ijtimoiy muhit, ta’lim-tarbiya muhiti rol o‘ynagan. Agar inson bolasi ijtimoiy muhitga emas boshqa muhit, aytaylik, xayvonlar muhitiga tushib qolsa unda irsiy belgilarning ayrim biologik ko‘rinishlari shaklangan lekin insoniy fikr, faoliyat, xatti-xarakat bo‘lmaydi. Odob-axloq, xulqiy sifatlar faqat muhit va tarbiyaning o‘zaro ta’siri asosida vujudga keladi. Shuning uchun irsiyat rivojlanishiga ta’sir etadi, ammo hal quluvchi omil bo‘la olmaydi. Jamiyatning bolalar ongiga ta’sir o‘tkazishi asosan ta’lim-tarbiya orqali amalga oshiriladi. Bola yoshligidan atrofdagi kishilar bilan muloqotda bo‘lib, bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni egallaydi. U dastlab oila sharoitida va maktabgacha tarbiya muassasalarida keyinchalik mактабда та’лим tarbiya oladi. Bolani o‘rab oлган muhit, mehnat va til oqibat natijasida tarbiya vositasiga aylanadi. Bunda muhitning ta’siri stixiyali ekanligi xisobga olmoq lozim. Shu sababli inson kamolotida ta’lim va tarbiyaning yetakchilik qilishiga imkon berish darkor.

Chunki ta’lim tarbiya jarayonida kishi organizmining o‘sishi va muhitning stixiyali ta’siri bera olma ydigan narsalarni o‘rganib oladi. Lekin o‘kish va yozishni maxsus ta’lim yo‘li bilangina o‘rganadi, maxsus mehnat va texnika bilim, ko‘nikma va malakalari faqat ta’lim jarayonida egallanadi. Ta’lim tarbiya yordamida hatto kishining ba’zi tug‘ma kamchiliklardan kerakli tomonga o‘zgartirish mumkin, chunonchi ba’zi bir bolalar ayrim kamchiliklar bilan tug‘iladi. Lekin maxsus o‘qtirilgan ta’lim-tarbiya yordamida ularning aqli to‘la taraqqiy qiladi.

Demak, bizning asosiy va eng muhim vazifamiz bolalarni qobiliyat va iste’dodlarini o‘z vaqtida payqab olish va ularni kamol topishlari uchun qulay sharoit, ta’lim-tarbiya berishdir. Inson tirik-biologik mavjudoddir. Demak, uning rivojlanishiga tabiat qonunlari, biologik va ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlar uzviy ta’sir etadi, insonni kamol toptiradi. Bu tushunchalarni bir-biridan ajratish mumkin emas. Chunki shaxs faoliyatiga, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasigina emas, balki kasalligi yoki biror boshqa fojiali holat ham ta’sir etishi mumkin. Odamning mukammal inson bo‘lib yetishuvida o‘zining maqsad asosidagi xatti-xarakati, iroda sifatlarining kamol topishi natijasida ayrim nuqsonlarni bartaraf etishi mumkin, qiyinchiliklarni yengib chiqishi mumkinligini esdan chiqarmasligi lozim.

## Ma’ruza 9

### MAVZU: TARBIYANING UMUMIY METODLARI, SHKLLARI VA VOSITALARI.



R e j a :

1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha.

2. Tarbiya metodlarining maqsadi va mazmuni.

3. Tarbiya metodlarining shakl va vositalari.

**Tayanch tushunchalar:** tarbiya, tarbiya metodlari, tarbiya metodlarining turlari, ijtimoiy ongi shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar, odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish metodlari, tarbiyada rag‘batlantirish va jazolash metodlari.

### Mustaqil ta’lim topshirig’i

Mavzu	Foydalaniladigan adabiyotlar	Amalga oshirish shakli
Tarbiya metodlari haqida tushuncha..	1. Salayeva M.S. Umumiy pedagogika. Darslik. - Toshkent “Nodirabegim”. 2021. – 233 bet. 2. Ismatova Nargiza va boshalar. Tarbiya 1,2, 3,4. Darslik. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.: Toshkent – 2020	”Tarbiya metodlari haqida tushuncha.“ mavzusida taqdimot tayyorlash.
Tarbiya metodlarining shakl va vositalari.	1. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviyishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. - T.; 2019.107-bet. 2. Dexkanova M.U. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. - T.; 2019	Tarbiya metodlarining shakl va vositalari haqida ko‘rgazmalar tayyorlash.



### O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1. Hasanboeva O., Djamilova N. Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi. – T.: 2008.123-bet.

2. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2010 y..304-bet.

3. M.Quronov. Milliy tarbiya. Toshkent. Manaviyat. 2007

4. Kukushin V.S. Teoriya i metodika vospitaniya. – Rostov-na-Donu.: Feniks, 2006.

5. “Pedagogika” fanidan ma’ruzalar matni.(tuzuvchi M.Inomova). T.: TDPU 2000.388-bet.

### Elektron ta’lim resurslari:

1.w.w.w.tdpu.uz

2.w.w.w.pedagog.uz

3.w.w.w.ziyonet.uz

4.w.w.w.edu.uz

5.tdpu-INTRANET.Ped

**Tarbiya metodi** (yunoncha «metodos» – yo‘l) tarbiya maqsadiga erishishning yo‘li. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarining ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullaridir.

Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga biron ta tarbiyachining kuchi etmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o‘zining imkoniyatiga ko‘ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o‘zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi. Tarbiya metodlarini bunday xususiy takomillashtirish **tarbiya usullari** deb ataladi. Tarbiya usullari – umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi. Obrazli aytganda, usullar – bu qo‘yilgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi o‘zining tarbiyalanuvchilari bilan yo‘l ochadigan o‘rganilmagan so‘qmoq. Agar uni boshqa tarbiyachilar ham foydalana boshlasa, u holda asta-sekin usullar keng ustunli yo‘llar – metodlarga aylanishi mumkin. Tarbiya metod va usullarini bilish, ularni to‘g‘ri qo‘llay olishni egallah – bu pedagogik mahorat darajasini belgilovchi muhim tavsiflardan biri. Tarbiya metod va usullarining aloqadorligi ana shunda.

Amaliyotda **tarbiya vositalari** tushunchasi ham ajratiladi. Usullar deganda ta’sir ko‘rsatishlar birligi, vosita deganda, usullar yig‘indisi tushuniladi. Vosita – bu usul ham emas, metod ham emas. Masalan, mehnat – tarbiya vositasi, biroq uni ko‘rsatib berish, mehnatni baholash, ishdagi xatoni ko‘rsatish – bu usullar. So‘z (keng ma’noda) – tarbiya vositasi, biroq replika taqkoslash – usullar. Bu bilan bog‘liqlikda ba’zan tarbiya metodlari qo‘yilgan maqsadni muvafaqqiyatli amalga oshirish uchun foydalaniladigan usul va vositalar tizimi sifatida aniqlanadi. Xuddi shuningdek metodning tuzilishida usullar va vosita albatta mavjud bo‘ladi. Metodning ijobiy va salbiysi bo‘lmaydi, tarbiya jarayonida ma’lum yo‘lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo‘llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog‘liq.

**1. Tarbiyaning maqsad va vazifalari.** Maqsad nafaqat metodlarni oqlaydi, balki ularni aniqlab beradi. Maqsad qanday bo‘lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo‘lishi zarur.

**2. Tarbiya mazmuni.** Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to‘ldirilgan bo‘lishi mumkin. SHuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog‘lash g‘oyat muhimdir.

**3. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.** U yoki shunga o‘xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog‘liqlikda hal qilinadi. Yosh bu oddiygina qancha yashaganligi son ko‘rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va ahloqiy sifatlarning rivojlanganlik darjasini o‘z aksini topadi. Aytaylik, mas‘uliyat tuyg‘usini boshlang‘ich ta’lim, o‘rtta ta’lim va o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim olayotgan o‘quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo‘llaniladi.

**4. Jamoaning shakllanganlik darjasи.** O‘zini o‘zi boshqarishning jamoa shaklining rivojlanishi bilan bog‘liqlikda pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodlari ham o‘zgarmasdan qolmaydi. Bizga ma’lumki boshqaruvning moslashuvchanligi tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvafaqqiyatli hamkorligining zaruriy sharti.

**5. Tarbiyalanuvchilarning individual o‘ziga xosliklari.** Umumiy metodlar, umumiy dasturlarning o‘zi tarbiyaviy o‘zaro ta’sir etishning asosi bo‘la olmaydi. Ularni individual va shaxsiy tuzatish zarur. Insonparvar pedagog har bir shaxs o‘ziga xosligini rivojlanishiga, o‘ziga

xosligini saqlashga, o‘zining «Men»ini amalga oshirishiga imkon beradigan metodlarni qo‘llashga harakat qiladi.


**6. Tarbiyaviy shart-sharoitlar.** Unga moddiy, psixofiziologik, sanitar-gigienikdan tashqari sinfda yuzaga keladigan munosabatlар: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishlidir. Ma’lumki, mavhum shart-sharoitlar bo‘lmaydi, ular hamisha aniq. Ularni birlashuvি aniq holatlarda ko‘rinadi. Tarbiya amalag oshadigan sharoit pedagogik vaziyatlar nomini oldi.

**7. Tarbiya vositalari.** Tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan tashkil topadi. Metodlar ular bilan mustahkam bog‘langan va birgalikda qullaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham mavjud. Masalan, metodlarni samarali qo‘llanilishi uchun zaruriy yordam beruvchi ko‘rgazmali qo‘llanmalar, tasviriy san’at asarlari va musiqa san’ati, ommaviy axborot vositalari.

**8. Pedagogik malakani egallaganlik darajasi.** Tarbiyachi odatda faqat o‘zi biladigan va qo‘llashni egallagan metodlarni tanlab oladi. Ko‘plab metodlar murakkab bo‘lganligi bois, o‘kituvchida ko‘p kuch ishlatalishni talab etadi. Bunday mas’uliyatdan bo‘yin tovlaydigan pedagoglar ularsiz faoliyatni tashkil etishga harakat qiladi. Natijada turli obrazli, xilma-xil maqsad, vazifa, sharoitlardan kelib chiqib metodlardan foydalanishga qaraganda samarasi past bo‘ladi.

**9. Tarbiya vaqtı.** Qachonki, vaqt kam , maqsad esa katta bo‘lsa, «kuchli harakatlantiruvchi» metodlar qo‘llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning «ayaydigan» metodlaridan foydalaniladi. Tarbiyani «kuchli harakatlantiruvchi» va «ayaydigan» metodlarga bo‘linishi shartli: birinchisi tanbeh berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o‘rgatish bilan bog‘liq.

**10. Kutiladigan natija.** Metodni tanlayotganda, tarbiyachida muvafaqqiyatga erishishiga ishonch bo‘lishi kerak. Buning uchun qo‘llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko‘ra bilish kerak.



Tarbiya turlari.

**Aqliy tarbiya.** Aqliy tarbiyani shakllantirishda faqat tushuncha va faktlardan foydalanishning o‘zi yetarli emas, buning uchun fikrlash, isbotlash, xulosa chiqarish, umumlashtirish, tizimlashtirish, taqqoslash, asosiy ma’lumotni ajratib olish kabi jarayonlarni ham faol qo‘llash lozim

bo‘ladi. Aqliy mehnatni to‘g‘ri tashkil qilish o‘quvchilarga mustaqil bilim olishda eng muhim element bo‘lib hisoblanadi. Aqliy tarbiya o‘quvchilarda aqliy mehnatni to‘g‘ri tashkil etish, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘zo‘zini nazorat qilish malakasining hosil bo‘lishiga ko‘maklashadi. Aqliy tarbiya o‘quvchilarda didaktikani jamlab olish xususiyati, xotirani mustahkamlash, fikrlash operatsiyalarini ratsional o‘tkazish kabi malakalarni o‘stiradi. Aqliy tarbiyasi yetuk, o‘tkir zehnli, zukko va zakovatli insonlarni xalqimiz donishmand kishilar deb ataydilar. Donishmandlik —bu donolik. Donolik —bu insonning eng buyuk va olivjanob fazilatidir. Donolik noyob ne’matdirki, u har kimga ham nasib etavermaydi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, xalq donoligida „Aql toji oltindan, oltin har kimda ham bo‘lmas“, deyiladi.

**Axloqiy tarbiya.** „Axloq“, „xulq“ va „atvor“ so‘zlar arabcha so‘z bo‘lib, ular o‘zbek tilida ham o‘z ma‘nosida qo‘llaniladi. Ayrim odamlar „Axloq —kishilarning har bir jamiyatga xos xulq me’yorlari majmuyi“ deyishsa, boshqalar esa „Axloq—ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, hamma sohalarda kishilarning xatti-harakatlarini tartibga solish funksiyasini bajaradi“, deyishadi. Axloq me’yorlari xulq-atvorning regulyatori sifatida odat me’yorlariga zid xatti-harakat axloqsizlik harakati deb qaraladi. Shunisi ham borki, huquq majburiy bo‘lsa, axloq ixtiyoriydir. Axloqiy tarbiya odamlarni nomusli vijdonli, adolatli, vatanparvar, mehnatsevar bo‘lishga o‘rgatadi. Axloqiy tarbiyada yaxshi xulqni takomillashtirish uchun kurashiladi. Xalq ta’limi tizimida o‘qitish tarbiyalanuvchilarning axloqiy mukammallashishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ularda ong bilan xulq birligi tarbiyalanadi.

**Mehnat tarbiyasi.** Mehnat tarbiyasi oldida turgan asosiy vazifa o‘quvchilarga mehnat ta’limiga oid ilmiy bilimlar berish, mehnat qurollari bilan muomala qilishga o‘rgatib, hayotga, ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashdir. Bu vazifalarni ikki turkumga ajratish mumkin. Birinchidan, mehnatga bo‘lgan munosabat jarayonidagi zarur bilim va ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Yoshlarda xalqi, vatani manfaati yo‘lida mehnat qilish xohishini tarbiyalab, mehnatga hayotiy zarur faoliyat deb qarashlarini tarkib toptirishga erishiladi. Ikkinchidan, guruh vazifalari, mehnat faoliyatini bajarish jarayonida zarur bo‘ladigan bilimlar o‘zlashtiriladi, fan asoslari, politexnik ta’lim o‘rganiladi. Mehnat tarbiyasi tushunchasi umumiy bo‘lib, bu tushuncha bir qancha xususiy tushunchalarni o‘z ichiga oladi.

Birinchisi, politexnik ta’lim —bu ishlab chiqarishning barcha sohalariga taalluqli bo‘lgan ilmiy asoslarni va prinsiqlarni, mehnat ko‘nikma va malakalari, oddiy mehnat qurollari bilan muomala qilish kabilarni o‘zlashtirishni taqozo qiladi.

Ikkinchisi, bu —umumiy mehnat. Umumiy mehnat o‘quvchilarni mahsulot ishlab chiqariladigan faoliyatga jalb etishni taqozo qiladi.

Uchinchisi, ijtimoiy-foydalı mehnat. Bu mehnat turi ko‘pchilik foydasiga ishlashni nazarda tutadi (temir-tersak, makulatura yig‘ish, sinf, mакtabni ta’mirlashga yordam berish, mакtab uchastkasida ishslash).

To‘rtinchisi, o‘z-o‘ziga xizmat qilish. U maishiy xizmat turiga kirib, sinf, mакtab ozodaligini saqlash, ish joyini, kiyim-kechagi, o‘quv qurollarini ozoda, tartibli saqlashni nazarda tutadi.

Beshinchisi, uy mehnati, bu ham maishiy mehnat turiga kirib, uyda ozodalikka rioya qilishni, ota-onaga uy ishlarida yordam berishni taqozo qiladi.

**Jismoniy tarbiya.** Jismoniy tarbiya shaxsni har tomonlama rivojlantirish tizimidagi o‘z vazifasini bajarish bilan birga, u quyidagi asosiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan: salomatlikni mustahkamlash, inson organizmini chiniqtirish va o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishiga yordam berish; harakat ko‘nikmalarini va malakalarini shakllantirish hamda takomillashtirish; o‘g‘il bolalarni armiya safariga tayyorlash; badantarbiya va sportning mohiyati hamda ijtimoiy roli haqidagi ma’lumotlardan xabardor qilish. Jismoniy tarbiyaga, ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgandan buyon davlat darajasida ahamiyat berilmoqda. Jismoniy tarbiya va sport ishlariga hukumatimiz tomonidan katta g‘amxo‘rlik qilinmoqda.

**Estetik tarbiya.** Hayotda tabiat go‘zallikning manbasidir. U estetik tuyg‘ularni, bolalarning kuzatuvchanligini va tasavvurini rivojlantirish uchun juda boy material beradi. Bundan tashqari, san’at ham estetik tarbiya vositasi hisoblanadi. San’at orqali estetik tarbiyalash pedagogikada badiiy tarbiya deb ataladi.

Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya lotincha „estezio“ —go‘zallikni his qilaman) —o‘quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go‘zalliklarini anglash, idrok etish va to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘stirish, ularda go‘zallikka muhabbat uyg‘otish, ular tomonidan go‘zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon. Nafosat tarbiyasi „badiiy tarbiya“ sifatida ham qo‘llaniladi. Umuman, nafosat tarbiyasi keng ma’noga ega bo‘lib, faqat san’at vositasidagina emas, balki hayot, mehnat, ijtimoiy munosabatlar, tabiat va boshqalar vositasida go‘zallikni his qilishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni o‘z ichiga oladi. Badiiy tarbiya esa, san’at (adabiyot, musiqa, qo‘sinq, tasviriy va san’atning boshqa yo‘nalishlari) vositasida shaxsda estetik his-tuyg‘ularni shakllantirishni nazarda tutadi. Nafosat tarbiyasi insonda go‘zallikni his qilish tuyg‘usining shakllanishiga yordam beradi, uni rivojlantiradi. Inson doimo o‘z hayotini go‘zallik asosida qurishga intiladi. Nafosat tarbiyasi axloqiy, aqliy, huquqiy, ekologik, jismoniy va mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

**Ekologik tarbiya-** Davr talabiga ko‘ra, yana boshqa yo‘nalishda ham ish olib borish talab etilmoqda. U ham bo‘lsa ekologik tarbiya masalasidir.

Ekologik tarbiya, albatta, ekologik bilim asosida shakllanadi, lekin u o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega. Ekologik tarbiya insonda tabiatga nisbatan to‘g‘ri, oqilona munosabatni shakllantirish masalasi ustida ish olib boradi va o‘z oldiga o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishdek maqsadni qo‘yadi. Ekologik tarbiyaning mazmuniga ekologik onglilik, ekologik his-tuyg‘ular (tabiatga, insonlarga, hayotga nisbatan munosabatlar) kiradi.

Demak, ekologik tarbiya inson hayotida, jamiyatda, vatanda muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik tarbiyaning shakllanishiga ekologik bilimlarni egallash bilan bir qatorda ekologik munosabatlarni ham shakllantirib borish zarur.

**Huquqiy tarbiya.** Huquqiy tarbiya—bu shaxsga nisbatan huquqiy ongni, huquqiy munosabatlarni, qonunga itoatkor xulqatvor ko‘nikmalarini va odatlarni shakllantiruvchi uyushgan, aniq maqsadni ko‘zlagan ifodasidir. Huquqiy tarbiyani bolaning kichik yoshidan boshlab amalga oshira boshlash, huquqiy axborotlarning birinchi darajali tus olishiga erishish, shaxsning umumiy dunyoqarashi va ijtimoiy yo‘naltirilganligining tarkibiy qismi tarzida huquqiy qarashlariga asoslanishi zarur.

O‘sib kelayotgan yosh avlod huquqiy tarbiyasining xususiyatlari yangi jamiyatning o‘z xarakteri, turmush tarziga asoslanadi. Ularning tamoyili jihatdan yangi, yanada murakkab muammolarni hal

etish zarurligini ifoda etadi. Avvalo, huquqiy tarbiya yosh avlodni kamol toptirishning samarali vositasi sanaladi.

Yuqorida qayd qilingan mulohazalar huquqiy tarbiyaning yaxlit tizimi quyidagilardan iboratligini ifodalaydi:

Birinchidan, huquqiy tarbiya subyektlariga: davlat idoralari, jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalari, mansabdar shaxslar va boshqalar kiradi.

Ikkinchidan, huquqiy tarbiya obyektlariga: mansabdar shaxslar, fuqarolar, ichki ishlar idoralari xodimlari kiradi.

Uchinchidan, huquqiy tarbiya mazmuniga: huquqiy ta'lim, huquqiy targ'ibot va tashviqot ishlari kiradi.

To'rtinchidan, huquqiy tarbiya shakllariga: ma'ruzalar, seminarlar, suhbatlar, viktorinalar kiradi.

Beshinchidan, huquqiy tarbiya metodlariga: ishontirish, rag'batlantirish, majburlash kabilalar kiradi.

Oltinchidan, huquqiy tarbiya vositalariga: matbuot, radio, televideniya, adabiyot va san'at asarlari, ko'rgazmali tashviqot hamda targ'ibot vositalari kiradi.

### Ma'ruza 10



### MAVZU: BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MUVAFFAQIYATGA ERISHISHGA INTILISH MOTIVI SHAXSNING USTIVOR XUSUSIYATI SIFATIDA (1-4 TARBIYA DARSI)

#### R e j a :

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining iste'dodini rivojlantirish omillari.
2. Muvaffaqiyatga erishgan shaxslarning olti siri.

**Tayanch tushunchalar:** tarbiya, tarbiya metodlari, tarbiya metodlarining turlari, faoliyatda mashqlantirish metodlari, tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari.

#### Mustaqil ta'lim topshirig'i

Mavzu	Foydalilaniladigan adabiyotlar	Amalga oshirish shakli
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining iste'dodini rivojlantirish omillari	1. Salayeva M.S. Umumiyyat pedagogika. Darslik. - Toshkent “Nodirabegim”. 2021. – 108 bet. 2. M.Quronov. Milliy tarbiya. Toshkent. Manaviyat.	“Boshlang'ich sinf o'quvchilarining iste'dodini rivojlantirish omillarihaqida” taqdimot tayyorlash.
Muvaffaqiyatga erishgan shaxslarning olti siri.	1. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil.88bet	Muvaffaqiyatga erishgan shaxslarning olti sirini alohida-alohida tushintirib,tasvirlash.

	2.Dexkanova M.U. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. - T.; 2019	
--	---	--



## O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1. R.A.Mavlonova, Б.Нормуродова. Тарбиявий ишлар методикаси. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Fan” 2008 y.307-bet.
2. R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.293-bet.
3. K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.O‘quv qo‘llanma.T.:O‘qituvchi 2010-yil.116-bet.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T:. Fan va texnologiyalar. 2010-yil.266-bet.

### Elektron ta’lim resurslari:

- 1.w.w.w.tdpu.uz
- 2.w.w.w.pedagog.uz
- 3.w.w.w.ziyonet.uz
- 4.w.w.w.edu.uz
- 5.tdpu-INTRANET.Ped

Abdulla Avloniy inson aqliy kamoloti xususida to’xtalar ekan, quyidagilarni bayon etadi: «Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g’oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki, ilm bizga o’z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko’rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o’tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur». Alloma bilim insonni jaholatdan qutqarishning eng samarali vositasi ekanligiga ham urg’u beradi: «Ilm bizni jaholat qorong’usidan qutqarur, madaniyat, ma’rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe’llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g’ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog’liqdur». Abdurahmon Jomiy o’zidan keyin turli fan, adabiyot, jumladan pedagogikaga doir o’lmas meros qoldiradi. U o’z asarlarida, ayniqsa, nasriy yo’lda yozilgan “Baxoriston” asarida ta’lim-tarbiya masalalari xususida fikr bildirdi.

Jomiying fikricha, ilm inson uchun xayotiga yo’l ochuvchi va uni o’z maqsadiga erishtiruvchi omildir. Ilm va hunarni yoshlikdan egallash kerak. Ilm insonga hamma narsani oson va puxta anglab olishga yordam beradi, mehnatni yengillashtiradi. Jomiy yoshlarni ilmlarni egallahsga da’vat etdi:

Jomiy o’z pedagogik qarashlarida kishilarniadolat, xushmuomalalik va dono so’z bilan zulmkorlarga ta’sir etishga da’vat etadi.

Yuqoridagi misralarda qilingan nasihat da’vat garchi shoxlarga qaratilgan bo’lsa ham, xar bir ish va xolatda tadbir va aql bilan ish tutish, do’stlarga yaqinroq bo’lish, yomonlik qilishdan saqlanish,adolatli bo’lish xar bir insonga qarata qilingan xitobdir.Jomiy manmanlik, kekkayishlarni qoralaydi, g’ururlikni nodonlikning belgisi deb biladi. Inson xatto, boshqalardan biror sifati bilan yuqori darajali bo’lsa ham, kamtar bo’lishi kerak deydi.

Jomiy manmanlik nodonlik belgisi ekanligini uqtirib, yoshlarni bu illatlardan xoli, pok bo'lishga undaydi. Jomiy to'g'ri so'zlikni inson uchun zaruriy eng yaxshi xususiyat hisoblaydi, izxor etiladigan fikr so'z va harakat bilan uzviy birlikda bo'lmg'I kerak. Shoирning ta'kidlashicha, dilkashlik, shirinso'zlik, ochiq chexralik va quvnoqlig kishilarga yaxshi, yoqimli kayfiyat baxsh etadi.

Ulug' adib o'z asarlarida hasislikni, o'grilikni keskin qoralaydi, oqilona yashash, ortiqcha boylikni muxtojlarga berish, qanoatli bo'lish g'oyalarini olg'a suradi. Jomiy deydi:

Do'st tanlash, do'stlikning samimiyligi xaqidagi fikrlarida Jomiy odamlarining o'zaro munosabatlariga e'tibor bergenini ko'ramiz. Ulug' mutafakkir do'stlarning do'stligi haqida:

Jomiy ilmlarni egallashda tajribaga aloxida e'tibor beradi, xayotda foydalanilmagan ilmni jonsiz, keraksiz ilm hisoblaydi. U ta'lim oldigayosh avlodni jamiyatga, odamlarga foydali xizmat qiladigan qilib yetishtirishni asosiy vazifa qilib qo'yadi.

Jomiycha, kitob o'tmish donishmand avlodlar bilan o'z davri yoshlari o'rtasida vosita, insonga eng yaqin do'st, erta tongdagi yog'du, ustoz va marabbiydir. Jomiyning bu fikri shu jihatdan muhimki, shoир kitobning bilim manbai, insoniyat donishmandligi xazinasi deyish bilan birga, donishmandlar o'z asarlarini xayotiy tajriba va kishilar ijodi mevasi sifatida kelgusi avlodlar uchun qoldirganliklarini aytadi. Shu sababli ham yoshlarda kitobga muhabbat, uni o'qishga qiziqish tarbiyalanishi kerak.

Jomiy kitobni bilim manbai der ekan, muallimni kelgusi yosh avlodga bu sifatlarni xosil qiluvchi ustoz sifatida ulug'laydi, ularni hammadan ko'ra ortiq hurmat qilishga da'vat qiladi. Shu bilan birga, Jomiy xar bir muallim chuqur bilim, aql, eng yaxshi axloqiy fazilatlar sohibi bo'lishi kerakligini ham aytadi. Jomiy bunday ideal o'qituvchiga Aleksandr Makedonskiyning tarbiyachisi Arastuni (Aristotelni) misol qilib ko'rsatadi. Demak, aqliy va axloqiy jixatdan komil o'qituvchi xar bor o'qituvchida aqliy qobiliyatni rivoj toptira oladi.

"...Mirzo Ulug'bekning umumbashariy qadriyatlarga qo'shgan hissasi beqiyos bo'lib, u bugungi kunda ham hayotimizda ulkan ahamiyat kasb etmoqda va O'zbekistonning xalqaro obro'sini oshirish yo'lida katta xizmat qilmoqda. Buyuk ajddodimiz Ulug'bek nomi berilgan ma'naviyat maskanlari, mahallalar, ko'chalar va shaharlar juda ko'p. Yurtimizda dunyoga kelib ko'z ochayotgan har o'n chaqaloqning biriga ezgu niyat bilan Ulug'bekning muborak ismi berilyapti deb aysak, mubolag'a bo'lmaydi.

Bularning barchasi — millatimizning buyuk allomaga bo'lgan cheksiz hurmati va ehtiromlaridan darak beradi."

Mirzo Ulug'bek xizmatlaridan yana biri shundaki, u avvalo yosh avlodning aqliy va ma'rifiy tarbiyasiga katta ahamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarni egallashga da'vat etdi, har qanday johillik va bilimsizlikka qarshi kurashdi. U insonning imkoniyatlari cheksiz ekanligiga ishora qilib, yoshlarni ilm egallashga, insofli va himmatli bo'lishga, halollik va rostgo'ylikka da'vat etadi. Ulug'bekning bilimlarini nafaqat kitoblardan, balki bevosita hayotning o'zidan ham olishni tavsiya etadi.

Ulug'bek yangi-yangi ilmiy kashfiyotlar qilishni inson uchun oliy fazilat deb biladi. U Movarounnahr shaharlarini, xususan Samarqand va Buxoroni ilmu ma'rifat dargohiga aylantiradi. Ulug'bek "Bilimga intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir" degan shiorni ilgari suradi va uni madrasaning peshtoqiga yozdirib qo'yadi. Madrasada esa ilmning turli sohalarining o'qitilishiga jiddiy e'tibor beriladi.

Masalan, Samarqand madrasasida ilohiyot ilmlari: qur'on, Hadis, Tafsir, fiqh bilan birga riyoziyot, handasa ilmi, hay'at (falakiyot), tibbiyot, tarix, geografiya, ilmi aruz, ilmi qofiya, arab tili kabi dunyoviy ilmlar o'rgatilgan.

Ulug'bek ilm fami ravnaqi uchun kurashgan, ta'lim-tarbiya rivojiga hissa qo'shgan fuqarolarni doimo rag'batlantirib, o'qituvchi-ustoz, mudarrisiga hurmat ehtirom bilan qarashni targ'ib etgan. Uning mana shu say'i harakatlari tufayli ta'lim-tarbiya sifati yaxshilana bordi, madrasalarda o'qish-o'qitish ta'limni jonlantirishga katta ahamiyat berildi. Madrasadagi o'quv tizimi isloh qilinib, unda falakiyot, matematika, geografiya kabi aniq fanlarni o'qitishni joriy etdi, ta'lim mazmunining sifatini oshirdi, madrasalarda o'qish muddatini 15—20 yildan 8 yilga tushirdi. Ulug'bek o'z pedagogik qarashlarida bolalarning jismonan sog'lom, harbiy hunarni puxta egallagan, jasur, mard bo'lib yetishuviga alohida ahamiyat beradi. Ulug'bekning fikricha, ta'lim-tarbiyada matematika, falakiyot fanlari bolaning aqliy qudrati va qobiliyatini o'stirishda muhim vosita bo'lsa, tarix va adabiyot fanlari esa bolalarning vatanparvar bo'lib yetishishlariga xizmat qiladi.

Ulug'bek ta'lim-tarbiyada mudarrislarning odil va halol bo'lishiga, o'z pedagogik mahoratlarini, bilimlarini oshirib borishga, har bir mashg'ulotni yuksak saviyada o'tkazishga da'vat qiladi, ana shu bilangina o'quvchilarda bilimga qiziqish orttirish mumkinligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, tarbiyachi avval o'zini tarbiyalashi, bilim va malakalarini egallashi lozim.

Ulug'bek bolalarni tarbiyalashda uy sharoiti va ota-onalarning faoliyatiga yuqori baho beradi, ularni hayotda chidamli, mehnatsevar qilib tarbiyalash juda zarur deydi. Buning dalili sifatida "Zij" ustida ishslash paytidagi qiyinchiliklar haqida shunday deydi: "Yulduzlar jadvalini tuzish maqsadida biz kechayu kunduz ishладик, o'z mo'ljallagan maqsadimizga yetguncha biz o'zимизга qadar yaratilgan jadvallarni taqqosladik, qayta tuzdik va shu tariqa yuz qaytalab tuzatishlar kiritgach, o'n sakkiz yildan so'nggina o'z ko'zlagan niyatimizga yetdik"

Biz, asosan Davoniying insonning haqiqiy kamolotga yetishida aqliy va axloqiy shakllanishi masalalariga to'xtalamiz. Avvalo, Davoniy va boshqa mutafakkirlarga ergashib o'zining axloqiy qarashlarini o'z salaflari kabi talqin etdi. Masalan, Abu Nasr Forobiy, Ibn Miskaveyx, Nasriddin Tusiy, Ibn Sinolar kabi inson kamolotga erishishiha adolat, donolik, shijoat singari yuksak fazilatlarga ega bo'lishi, hissiy bilim bilan bir qatorda narsa va hodisalarning mohiyatini idrok qilishni to'g'ri talqin etdi. Davoniy insonning kamolga erishishi uning boshqalar bilan munosabatiga ham bog'liq ekanligini ta'kidlaydi, jamiyatda, ma'lum ijtimoiy muhitda, boshqalar bilan aloqada shallanib tarbiya topgan inson o'zi yashagan jamiyatda adolat hukmon bo'lsa, unda baxt-saodatga erishishi mumkin, deydi. Shuning uchun u "Axloqi Jaloliy" asarida jamiyatni adolatli — fozil shaharga va johil shaharlarga bo'ladi. Forobiy kabi Davoniy ham fozil shahar boshqaruvchisida o'nta eng yaxshi fazilat mujassamlangan bo'lishi kerak, deydi. Bular: birinchisi — hukmdor odamlarni e'zozlashi; ikkinchisi — davlat ishlarini adolatli ijro etishi; uchinchisi — hirs va shahvatga berilmasligi; to'rtinchisi — hukmdorlikda shoshma-shosharlik va g'azabga yo'l qo'ymasligi, balki shafqat va muruvvatga asoslanishi; beshinchisi — xalqning ehtiyojini qondirish uchun xudoning irodasidan kelib chiqishi; oltinchidan — xalq ehtiyojini qondirishga oid ishlarni bajarishga harakat qilishi; yettinchisi — halqqa nisbatan odil bo'lishi; sakkizinchisi — har bir ishni maslahatlashib, kengashib hal etishi; to'qqizinchisi — har bir kishini uning qobiliyatiga monand lavozimga tayinlashi, qobiliyatsiz kishilarga yuqori lavozim bermaslikni; o'ninchisi — adolatli farmonlar chiqarishi, qonunni buzishga yo'l qo'ymaslik kabilardir. Shuningdek, Devoniy hukmdorning diniy majburiyatlarga ham rioya etishi kerakligini ta'kidlagan. Ko'rinish turibdiki, adolatli shox timsoli Davoniy istagan axloqiy kamol topgan shaxsdir.

Davoniy "Axloqi Jaloliy"da ijtimoiy-siyosiy masalalarga qayta-qayta murojaat etadi. Chunonchi, jamiyatning paydo bo'lishi, davlat va uni boshqarish masalalari, adolatli va adolatsiz podsholar, ilm-fan taraqqiyotining jamiyatda tutgan o'rni, aqliy va axloqiy tarbiya, insonda ijobjiy xislatlarni tarkib toptirish masalallari va boshqalar shular jumlasidan.

Davoniy o'z asarida insonni ijtimoiy mavjudot sifatida qaraydi, inson faqat jamiyatda, kishilar orasida, ular bilan munosabatda shakllanadi, degan fikrni ilgari suradi. U o'tmish olimlarining ta'lim-tarbiyaga oid asarlaridagi an'analarni rivojlantirgan holda o'z qarashlarini o'tkir ruhshunos olim sifatida ham talqin etadi, uning fikricha bola yaxshi fazilatlarni ta'lim-tarbiya natijasida egallashi mumkin. Chunki, bolada his-tuyg'u juda erta shakllana boradi, u ulg'aya borgan sari ayrim juz'iy narsalarni ham ajrata boshlaydi, tana a'zolari mustahkamlanadi, narsa va hodisalarni bir-biridan ajrata boshlaydi, yaxshilik va yomonlik to'g'risida tasavvurga ega bo'la boshlaydi, aqli to'lishib, ongi o'sadi, deydi olim. Ana shu paydo bo'lган sezgi va aql orqali tashqi dunyon bilishi mumkin deydi.

Bola o'ta ta'sirchan va taqlirchan bo'lishini ta'kidlar ekan, olim yaxshi fazilatni ham, yomon fazilatni ham u tezda qabul qilaverishi mumkinligini alohida uqtirib o'tadi. Bola qalbini naqsh solinadigan, sur'atlarni osonlikcha tushirish mumkin bo'lган taxtaga o'xshatadi. Davoniyning fikricha bolaning tarbiya olishi, odob-axloqli bo'lishi uning keyingi tarbiyasiga ham bog'liq. Chunki hayotda har kuni bola ko'radigan, muloqotda bo'ladigan narsalar uning xulqiga yaxshi va yomon ta'sir etadi. Bolada har kuni kerak bo'ladigan insoniy xislatlar: yurish-turish qoidalari, xushmuomalalik, ota-onva boshqa katta yoshlilarni hurmat qilish, to'g'rilik va rostgo'ylikni o'rganish, shirinsuxanlik, kamtarlik, so'zlashuv odobiga rioya qilish kundalik turmushda o'rganiladi. Shunga ko'ra bunday xislatlarni bolalarda har kuni tarbiyalanib borilishi muhim. Bunday tarbiyada esa ota-onva oldiga katta vazifalar qo'yiladi. Ota va ona bola tarbiyasida bab-baravar mas'uliyatlidir, deydi Davoniy.

Ota bolaning yaxshi fazilatlarni egallab, kasb-hunar o'rganib borishi, ilm-fanni chuqur o'zlashtirib olishi uchun moddiy asos, ya'ni kiyim-kechak, kerakli buyumlar bilan ta'minlaydi.

Ona bola tarbiyasida asosiy qiyinchiliklarni boshidan kechiruvchi sanaladi. U bolaga yashash uchun quvvat beradi, ehtiyyotlab asraydi, mehr-shafqatini ayamaydi. Bolaga oddiy axloqiy qoidalarni o'rgatish, yurish-turish, yeyish-ichish qoidalariiga rioya etish, o'z qilmishi oldida javob berish mas'uliyatini his etishini tarkib toptirishda ota va ona burchlidir.

Bola tarbiyasida ota-onva bilan bir qatorda maktabga chiqqandan so'ng muallim ham javobgar sanaladi, deydi olim. Buning uchun muallimning o'zi ham yaxshi tarbiya topgan bo'lishi shart. Shu o'rinda Davoniy muallimning xislatlariga, bola va uning o'rtasidagi munosabatlarga alohida e'tibor beradi. Davoniy muallimni "Ma'naviy padar" deb ataydi. Chunki ota bolani jisman hayotga keltirib, jismonan tarbiyalasa, muallim uni ma'naviy jihatdan kamolotga yetkazadi, deydi olim. Ruh qanchalik badanga yaqin tursa, muallim ham tarbiya borasida ota-onaga shunchalik yaqin deb ko'rsatadi. U ota-onva tarbiyasi bilan muallim tarbiyasini taqqoslar ekan, muallimning tarbiya usuli, metodlari ota-onanikidan yuqoriroqdir, deb ta'kidlaydi. Chunki, ota-onva tarbiya usullari, metodlari bilan muallimchalik quronmagan bo'ladi, muallim esa tarbiya berish bilan birga ilm cho'qqilarini egallahda ham zahmat chekadi va shogirdning olgan ta'limi va tarbiyasi umrbod uning hayot yo'lini belgilab beradi, deb aytadi.

Shu o'rinda Davoniyning aqliy tarbiya haqidagi qarashlarini keltirish o'rinnlidir. Chunki olimning qarashlarida aqliy tarbiya va bilimlarni egallah masalalari muhim o'rinni egallyaydi. Bolalarga bilim berish yoshlikdan boshlash zarurligini ta'kidlaydi. Mutafakkirlarning fikrini davom ettirgan holda Davoniy ham inson aqlining qudratiga, uning ijtimoiy hodisalarni bilishiga, aql ilohiy ulug' bir ne'mat, haqiqat mezoni ekanligiga ishonadi. Chunki inson aql yordamida o'z hatti-harakatini, faoliyatini boshqaradi.

Davoniyning fikricha, aql ijtimoiy hayotning barcha sohasida, xoh davlat ishida, xoh ilmni o'rganishda, xoh ijobiy xulq-odob qoidalarni egallahda bo'lsin, xoh shirinsuxanlik, she'riyatda

bo'lsin, faol qatnashadi. Uning bu aqidasi, ya'ni aqliy bilishga tayanishi ilm-fan, ma'rifat, ta'limgartibiyta va axloq masalalarini talqin etishida ko'proq namoyon bo'ladi.

Davoni shuning uchun ham bolalarga ta'limgartibiyta berishda aqliy tarbiyaga katta o'rin beradi. Ilm kishilarni yomon odatlardan, razil ishlardan saqlaydi, ilm bilan shug'ullanish har bir inson uchun hech qachon kech bo'lmaydi, deydi Davoni. Aflatundan: "qancha vaqtgacha ta'limgartibiyta va ilm o'rganish yaxshi? — deb so'rabdilar. U: nodonlikning va johillikning ayb ekanligi qay vaqtgacha bo'lsa, ilm o'rganish o'sha vaqtgacha yaxshidir" — deb javob bergen ekan.

Muvaffaqiyatga erishgan shaxslarning 6 siri.

Aksariyat yetuk insonlarning hayoti va karerasi shuni ko'rsatmoqdaki, muvaffaqiyatning asosiy kaliti — bu vaqtini to'g'ri taqsimlash. Nima uchun ba'zi odamlar jahonga mashhur ishbilarmon va dunyoni o'zgartirishga qodir yetakchiga aylanadi-yu, boshqalar esa shuncha mehnat qilishiga qaramay, bir nuqtadan siljiy olmaydi? Buning sababi ko'pincha e'tibordan chetda qoladi, deyiladi World Economic Forum'da.

Muvaffaqiyatga erishgan ishbilarmonlar o'z vaqtlarini kelgusida ularni yangi bilimlar, ijodiy qarorlar va kuch-quvvat bilan ta'minlaydigan narsalarga sarmoya qilishadi. Dastlab ularning muvaffaqiyati sezilmasligi mumkin, biroq oxir-oqibat, uzoq muddatli sarmoyalar samarasini o'laroq, ular misli ko'rilmagan cho'qqilarni zabit etishadi.

Natijada to'g'ri taqsimlangan vaqt ajoyib daromad keltiradi, shuning uchun uni serdaromad deb atash mumkin. Grafikda vaqtimizni qanday sarflashimizga qarab ishda qanday natijalarga erishishimiz yaqqol ko'rsatib berilgan.

Masalan, Uorren Baffet yuz minglab xodimga ega kompaniyalarga egalik qilsa-da, o'z vaqtini to'liq ishga bag'ishlamagan. Milliarderning so'zlariga ko'ra, u ish vaqtining 80 foizini kitob mutolaasi va fikr yuritishga sarflaydi. Bunga sarflangan vaqt to'g'ri qarorlar va biznesni muvaffaqiyatli yuritish uchun zarur bo'lgan bilimlar bilan ta'minlaydi.

"*Eng yaxshi daromad bilimga kiritilgan sarmoyadir*".  
*Benjamin Franklin, siyosiy arbob, ixtirochi, yozuvchi*  
Muvaffaqiyatli kishilarning o'rnak olsa arzigulik foydali odatlari bo'ladi. Quyida uzoq muddatli istiqbolda foyda keltirishda yordam beruvchi bir necha samarali maslahat bilan bo'lishamiz.

## 1. Kundalik tuting

Ko'p muvaffaqiyatli kishilar odatda shaxsiy kundaliklarini yuritishadi. Masalan, Benjamin Franklin har tongda o'ziga o'zi savol bergan: "Bugun qanday yaxshi ish qilishim kerak?" Har kuni kechqurun esa o'z kunini "Bugun qanday yaxshi ish qildim?" degan savol bilan tugallagan. Stiv Jobs ko'zgu oldida turib, "Agar bugungi kun hayotimdagagi oxirgi kuni bo'lganida bajarishni rejalshtirgan ishlarimni qilarmidim?" deya qiziqqan. Menejment masalalari bo'yicha iqtisodchi va maslahatchi Piter Druker qaror qabul qilayotib, bundan nimalar kutayotganini yozib borgan, bir necha oydan keyin esa ularni amaldagi natijalar bilan taqqoslagan. Opra Uinfri esa o'zining har kunini minnatdorchilik kundaligini yuritish bilan boshlaydi - bunda u nima uchun hayotdan minnatdor ekaniga doir besh sababni qog'ozga tushiradi. Albert Eynshteyn o'zidan keyin 80 mingdan ortiq sahfiali turli qo'lyozmalarni qoldirgan. AQShning ikkinchi prezidenti Jon Adams butun hayoti davomida kundalik tutgan, umri oxiriga borib ularning soni 50 taga yetgan.

O'z fikrlaringiz, rejalaringiz va hayotingizdagи voqealarni yozib borib, siz yanada e'tiborli va ziyrak bo'lib borasiz, fikrlash xususiyatingizni rivojlantirasiz va to'g'ri qarorlar qabul qilishni o'rganasiz.

## 2. Tanaffus qiling.

"Mizg'ib olish uchun bir yoki bir yarim soatlik uyqu ma'lumotni o'zlashtirish xususiyatiga xuddi sakkiz soatlik uyqu kabi ta'sir ko'rsatadi", - deya ta'kidlaydi uyquni o'rganish bilan shug'ullanuvchi

mutaxassis Sara Mednik. Olimlarning so‘zlariga ko‘ra, ertalab o‘quvchi odamlar kun davomida bir soatlik tanaffus qilib, uxbab olsa, kechki payt nazorat testlarini 30 foizga yaxshi bajarishadi. Bu odad Albert Eynshteyn, Tomas Edison, Uinston Cherchill, Jon Kennedi, Ronald Reygan, Jon Rokfeller va boshqa ko‘plab yetuk shaxslarga xos bo‘lgan. Masalan, Leonardo da Vinci uyquni ko‘plab 10 daqiqalarga "maydalab", yarim fazali uyqu rejimini tajriba qilgan. Napoleon har bir jang oldidan uxbab olishni ma’qul ko‘rgan. Mashhur aktyor Arnold Shvartsenegger har kuni tushlikdan keyin uxbab oladi. Zamonaviy ilm-fan bu odadning foydasini tasdiqlaydi. Kun davomidagi tanaffuslar nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki ijodiy fikrlash salohiyatini ham rivojlantiradi. Ehtimol, shuning uchun ham Salvador Dali va Edgar Allan Po bu usuldan foydalangandir.

### 3. Kuniga kamida 15 daqiqa piyoda yuring.

Muvaffaqiyatlari odamlar o‘z kun tartibida albatta sport bilan shug‘ullanishga vaqt ajratishadi. Piyoda sayr ham ajoyib mashq bo‘lishi mumkin. Charlz Darwin kuniga ikki mahal sayr qilgan: peshinga yaqin va soat 16:00da. Betxoven tushlikdan so‘ng uzoq sayrga chiqqan va ilhom kelib qolsa, qog‘ozga muhrlash maqsadida o‘zi bilan birga qalam hamda qog‘oz olib yurgan. Charlz Dikkens kuniga 10 kilometrdan ortiq piyoda yurgan, bu unga ishga ko‘milib, toliqib qolmaslikka yordam bergan. Stiv Jobs muhim uchrashuvga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida piyoda sayr qilishni odad qilgan. "Faqat sayr vaqtida kelgan g‘oyalargina qadrli bo‘ladi". Fridrix Nitsshe, mashhur faylasuf. Uzoq sayrlarning foydasini yaxshi bilgan shaxslar orasida Aristotel, Maxatma Gandhi, Jyek Dorsi, Tori Byorch, Hovard Shults, Oliver Saks va Uinston Cherchill nomlarini keltirish mumkin.

Bu odadni o‘zlashtirish kerak. Olimlar sayrning tetiklashtirishi, miyani tozalashi, ijodiy salohiyatni oshirishi va hatto umrni uzaytirishini tasdiqlashdi. 12 yil davom etgan tadqiqotga ko‘ra, kuniga 15 daqiqadan piyoda yurgan 65 yoshdan katta kishilarda o‘lim ko‘rsatkichi 22 foizdan past bo‘lgan.

### 4. Ko‘proq kitob o‘qing.

Hayotiy shart-sharoitlarga qaramay, har birimiz dunyoning eng badavlat kishilaridan biri bo‘lgan Bill Geytsning sevimli resursi bo‘lgan kitoblarni o‘qish imkoniga egamiz. Bu o‘z bilim darajamizni oshirishning tejamkor va juda samarali usulidir. Uinston Cherchill kuniga bir necha soat biografik, tarixiy, iqtisodiy va falasafaga oid kitoblarni mutolaa qilgan. Teodor Ruzvelt band kunlari 1tadan va ishdan bo‘sish kunlari 2-3 tadan kitob o‘qigan. Mark Kyuban kuniga 3 soatdan ortiq kitob o‘qiydi. Milliarder Devid Rubenshteyn haftasiga 6tadan kitob o‘qiydi. Ilon Mask yoshligida haftasiga 2tadan kitob o‘qigan. Disney bosh direktori Bob Ayger esa har kuni tonggi 4:30da kitob o‘qish uchun uyg‘onadi. Bu ro‘yxatni cheksiz davom ettirish mumkin. O‘qish xotirani yaxshilaydi, empatiya darajasini oshiradi va stress darajasini kamaytiradi, shu tariqa oldimizga qo‘yilgan maqsadlarimizga erishishga yordam beradi.

### 5. Qiziqishlaringiz bo‘yicha suhbatdosh toping.

Yozuvchi Joshua Shenkaning fikricha, ijodiy salohiyat boshqa odamlar bilan muloqot qilish natijasida rivojlanadi. U o‘zining Powers Of Two kitobida birligdagagi sa'y-harakatlar natijasida katta cho‘qqilarni zabit etgan duetlar haqida so‘zlab bergan. Masalan, Jon Lennon va Pol Makkartni, Mariya va Per Kyuri, Stiv Jobs va Stiv Voznyak.

Psixologlar Daniel Kaneman va Amos Tverski birligdagagi uzoq sayrlaridan birida axloqiy iqtisodiyotning yangi nazariyasini ishlab chiqishgan va bu Kanemanga Nobel mukofotini olib kelgan.



## MAVZU: BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH. ( 1-4 TARBIYA DARSI)

### R e j a :

1. O'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari
2. Tarbiyaning ijtimoiy hodisa va pedagogik jarayon ekanligi.
3. Boshlang'ich sinflarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish.

**Tayanch tushunchalar:** tarbiya, tarbiya metodlari, tarbiya metodlarining turlari, kompetensiya, tayanch kompetensiya.

### Mustaqil ta'lim topshirig'i

Mavzu	Foydalaniladigan adabiyotlar	Amalga oshirish shakli
Tarbiyaning ijtimoiy hodisa va pedagogik jarayon ekanligi.	R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlар metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.148-bet.	Tarbiyaning ijtimoiy hodisa va pedagogik jarayon ekanligi haqida taqdimot tayyorlash.
Boshlang'ich sinflarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish.	1.Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviyishlar metodikasi.O'quv qo'llanma. - T.; 2019.266-bet. 2.Dexanova M.U. Tarbiyaviy ishlар metodikasi. O'quv qo'llanma. - T.; 2019.88-bet.	"Boshlang'ich sinflarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish haqida ko'rgazmalar tayyorlash.



### O'quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

1. Salayeva M.S. Umumiy pedagogika. Darslik. Toshkent. "Nodirabegim" nashryoti. 2021-yil.113-b.
2. Abdullayeva Sh. Umumiy pedagogika. O'quv qo'llanma.Toshkent.O'qituvchi nashryoti. 2021-yil..253-bet.
3. Istamova N . va boshqalar. Tarbiya 1,2,3,4. Darslik. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2020-yil.146-bet.
4. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlар metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent-2019-yil.188-bet.
- 5.Dexanova M.U.Tarbiyaviy ishlар metodikasi.O'quv qo'llanma.Toshkent-2019 yil.213-bet.
6. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotir. Darslik T.: Sano-standart. 2017-yil.361-bet.

### Elektron ta'lim resurslari:

- 1.w.w.w.tdpu.uz
- 2.w.w.w.pedagog.uz

O'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish uchun ta'lim texnologiyalarini tanlashda o'quv fani o'qituvchisi taqvim mavzu rejada mazkur sindf uchun belgilangan tayanch kompetensiyalarni belgilab oladi. Shundan so'ng, o'rganilishi zarur bo'lgan mavzu va shakllantiriladigan kompetensiyalarni hisobga olgan holda darsni o'tish metodi, usuli tanlanadi.

Interfaol yondashuv. O'qituvchilar dars jarayonini yaxshi tashkil etish uchun qulay muhit yaratadi. O'quvchilarning o'zaro fikr (axborot) almashishlariga imkon beriladi. Yechimini kutayotgan masalalarni hamjixatlikda muhokama etadilar, yechadilar. Vaziyatdan chiqishda hamkorlikda yechim topadilar. Olgan axborotlari asosida bilimlarini bir-birlariga namoyish etadilar.

Loyihalash metodi. Loyihalash metodi - o'quvchilar uzlusiz ravishda murakkablashib boradigan amaliy topshiriqni rejalash, konstruksiyalash va bajarish jarayonida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladijan o'qitish tizimidir. Ta'lim oluvchilar keng miqyosdagi muammoli (ijodiy, axborot, kommunikatsiya va h.k.) masalalar bilan bog'liq loyihalarni bajaradilar. Mazkur metodning yuqori samara berishi uchun loyihani bajarishda o'quvchilarda motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi, shart hisoblanadi.

Loyihalash metodi orqali o'quvchilarda quyidagi shaxsiy kompetensiyalar shakllanadi: komandada ishslash; ishchanlik; ma'suliyatni his etish; o'ziga ishonch; o'qitishlilik; tezkor fikrlash; jarayon rivojini ko'ra bilish; mushohada qila bilish; uzoqni ko'ra bilish; tashxislash; motivatsiya. Tanqidiy tafakkur metodi Muammoli modulli ta'lim metodi.

Muammoli modulli ta'lim metodi olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashni nazarda tutadi. Mazkur metod o'qitishning turli modellarining didaktik asosini tashkil etib, o'qitish vositalari va pedagogik texnikaning qo'llash usulari bilan farqlanadi. U o'quv predmetini nisbatan kichik bo'laklarga – modullarga bo'lishni ifodalaydi. O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim. Ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi va ijtimoiy taraqqiyotda faol ishtirok etuvchiodamni Shaxs deb ataladi. Individ sifatida dunyoga kelgan odam keyinchalik shaxsgaaylanadi. Individ tushunchasida kishining nasl-nasabi mujassamlashgandir.

Loyihalash metodi - o'quvchilar uzlusiz ravishda murakkablashib boradigan amaliy topshiriqni rejalash, konstruksiyalash va bajarish jarayonida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladijan o'qitish tizimidir.

Ta'lim oluvchilar keng miqyosdagi muammoli (ijodiy, axborot, kommunikatsiya va h.k.) masalalar bilan bog'liq loyihalarni bajaradilar. Mazkur metodning yuqori samara berishi uchun loyihani bajarishda o'quvchilarda motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi, shart hisoblanadi.

Quyidagi shaxsiy kompetensiyalar shakllanadi: komandada ishslash; ishchanlik; ma'suliyatni his etish; o'ziga ishonch; o'qitishlilik; tezkor fikrlash; jarayon rivojini ko'ra bilish; mushohada qila bilish; uzoqni ko'ra bilish; tashxislash.

KLASTER (Klaster-tutam, bog'lam)-axborot xaritasini tuzish yo'li - barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi. Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog'oz varag'ining o'rtafiga asosiy so'z yoki 1-2 so'zdan iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi. Birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog'liq so'z va takliflar kichik doirachalar "yo'ldoshlar" yozib qo'shiladi. Ularni "asosiy" so'z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu "yo'ldoshlarda" "kichik yo'ldoshlar" bo'lishi mumkin.

Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g‘oyalar tugagunicha davom etishi mumkin. Toifa-xususiyat va munosabatlarni muhimligini namoyon qiluvchi (umumiy) alomat. Ajratilgan alomatlar asosida olingan ma’lumotlarni birlashtirishni ta’minlaydi. Tizimli fikrlash, ma’lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko’nikmalarini rivojlantiradi. Toifalarni jadval ko’rinishida rasmiylashtiradilar. Foyalarni ma’lumotlarni toifaga mos ravishda bo’ladilar. Ish jarayonida toifalarning ayrim nomlari o’zgarishi mumkin. Yangilari paydo bo’lishi mumkin. Ish natijalarining taqdimoti .

BBB Jadvali - Bilaman/ Bilishni hohlayman/ Bilib oldim. Mavzu, matn, bo’lim bo’yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi. Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishdilar. Alovida kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar. "Mavzu bo'yicha nimalarni bilasiz" va "Nimani bilishni hohlaysiz" degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo'naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1- va 2-bo'limlarini to'ldiradilar.

Ma’ruzani tinglaydilar, mustaqil o’qiydilar.

Mustaqil kichik guruhlarda jadvalning 3-bo'limini to'ldiradilar.

VENNA diagrammasi 2- va 3-jihatlarini hamda umumiylarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi. Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi.

VENNA diagrammatuzish qoidasi bilan tanishdilar. Alovida kichik guruhlarda diagramma Vennani tuzadilar va kesishmaydigan joylarni (x) to'ldiradilar. Juftliklarga birlashadilar, o’zlarining diagrammalrini taqqoslaydilar va to'ldiradilar. Doiralarni kesishuvchi joyida, ikki-uch doiralar uchun umumiylar bo’lgan, ma’lumotlar ro’yxatini tuzadi.

1. Aylana yoki to’g‘ri to’rtburchak shakllaridan foydalanishni o’zingiz tanlaysiz.
2. Chizmaning ko’rinishini - mulohazalar zanjirini to’g‘ri chiziqli, to’g‘ri chiziqli emasligini o’zingiz tanlaysiz.
3. Yo’nalish ko’rsatkichlari sizning qidiruvlariningizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo’lgan yo’nalishingizni belgilaydi.

Boshlang’ich sinflarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi markazining 2013 yil 22-avgustdagи “Umumta’lim maktablari fanlari bo’yicha uzuksiz ta’limning Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish to’g‘risida”gi qo’shma qaroriga asosan umumiylar bo’yicha amaliyotchi o‘qituvchilar, metodistlar va yetakchi olimlar tomonidan o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo’naltirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlarining loyihasi ishlab chiqilgan edi.

Qo’shma yig‘ilishining qaroriga asosan, bitta sinfda bir paytda bir necha fanlar bo’yicha DTS va o‘quv dasturlari loyihalarni tajriba-sinovdan o’tkazish belgilandi. Unga ko’ra, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim va Xalq ta’limi vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazining 2014 yil 15-avgustdagи “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining umumta’lim fanlari bo’yicha o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo’naltirilgan Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini loyihalari tajriba-sinovdan o’tkazish to’g‘risida”gi qo’shma buyrug‘i qabul qilindi. 2014-2015-o‘quv yilidan Qoraqolpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarda tashkil etilgan respublika miqyosida 70 ta umumiylar bo’yicha muassasasida, shuningdek, Xalq ta’limi vazirligi

tasarrufidagi 6 ta aniq fanlarga, filologiya fanlariga, profilli mehnat ta’limiga, tabiiy fanlarga, xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan Davlat umumta’lim maktablarida tajriba-sinov ishlari olib borildi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasbhunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan bugungi kunda amalda foydalanilayotgan “Umumiy o’rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi (boshlang’ich ta’lim:ona tili, o‘qish, matematika, tabiiyot (1-4-sinf)” 2017 yil 6-aprelda 187-son qaror bilan ijroga kiritildi. Unga ko’ra davlat ta’lim standartining maqsadi va vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan: Davlat ta’lim standartining maqsadi - umumiy o’rta ta’lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma’naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Ko’rinadiki, ushbu maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun tayanch kompetensiyalarni shakllantirishimiz zarur. Kompetensiya nima? Kompetensiaviy yondoshuv deganda nimani tushunamiz? Dastlab shu savollarga javob berishimiz maqsadga muvofiqdir. Kompetensiya (lot. compete – erishayapman, munosibman, loyiqlaman) – 1) muayyan davlat organi (mahalliy o’zini o’zi boshqarish organi) yoki mansabdar shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi;

2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba. Biz bu ta’riflarning ikkinchisiga to’xtalamiz va kompetensiya tushunchasining avvaldan bizga ma’lum bo’lgan bilim, ko’nikma va malakaga yaqin tushuncha ekanligini anglaymiz. Ta’limda kompetensiaviy yondoshuv deyilganda, o‘quvchilarning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli xildagi malakalarini samarali ravishda qo’llashga o’rgatish tusuniladi. Inson o’z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o’z o’rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o’z sohasi, kasbi bo’yicha raqobatbardosh kadr bo’lishi uchun zarur bo’lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo’lishi lozim. Tayanch kompetensiyalarga esa axborotlar bilan ishlash kompetensiysi, o’zini o’zi rivojlantirish kompetensiysi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiysi, milliy va umummadaniy kompetensiysi, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo’lish hamda foydalanish kompetensiyalari kiradi.

Kommunikativ kompetensiyani boshlang’ich sinf o’quvchilarida shakllantirish juda muhimdir. Ma’lumki, mafkuraviy tarbiyaning eng ta’sirchan vositalaridan biri muloqot hisoblanadi. Chunki inson qalbida va ongida shakllanadigan dunyoqarash, e’tiqod, iymon, vijdon, mas’uliyat kabi fazilatlar tarbiyasida radio-televideniya, gazeta-jurnallar, badiiy hamda ilmiy adabiyotning o’rnini e’tirof etgan holda shuni aytish mumkinki, yuzma-yuz kechadigan fikralmashuv, insonning yuzi va ko’ziga qarab turib aytildigan bama’ni so’z va hissiyotlarning o’rni beqiyos. Shuning uchun ham ota-onada gapni aytishi lozim bo’lsa, bolasining yuzini o’ziga qaratib olib, zarur yuz qiyofasi va ko’zidagi samimiyat bilan fikrini uqtira boshlaydi. Va bunday muloqot, albatta, samarali bo’ladi. Shu bois o’qituvchi-o’quvchi, o’quvchi-o’quvchi va ota-onada – o’quvchi o’rtasidagi muloqot ta’lim-tarbiya jarayonida katta ahamiyatga egadir. Bolalar nutqining rivojlanishi ularning faoliyati, muloqoti bilan uzviy bog’liqidir. Bola jumlalarining mazmuni va shaklidagi o’zgarish uning muloqot shakllari o’zgarishi bilan bog’liq bo’ladi. Ilk bolalik davriga xos situativ nutq ishchan muloqot shaklidan nosituativ bilishga yo’naltirilgan va nosituativ-shaxsiy muloqot shakliga o’tilishi bolalar nutqiga ma’lum bir talablarni qo’yadi. Bu talablar bola nutqining yangi-yangi tomonlarini, turli kommunikativ masalalarni hal qilishi uchun zarur bo’lgan xususiyatlarni tarkib toptiradi. Bolaning nutqi sotsial kontaktlarni o’rnatish funktsiyasini bajara boshlaydi. Buning uchun esa bolada ichki nutq tarkib topishi, monologik xususiyat kasb etib borishi lozim bo’ladi. Bola nutqining

rivojlanishidagi muhim xususiyat - nutq tafakkur quroliga aylanishidan iborat. Bola so'z-lug'at boyligining o'sishida 2 muhim tomon — miqdor va sifat tomonlari mavjud. Lug'at boyligining miqdoriy o'sishi D.B. Elkoninning ko'rsatishicha, bevosita bolaning hayot sharoitlari va tarbiyalanish xususiyatlariga bog'liq. So'nggi yillarda u yoki bu yoshdagi bolalar nutqining lug'at tarkibini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda avvalgi tadqiqotlarga nisbatan yuqoriq miqdoriy ko'rsatkichlar aniqlandi. Kommunikativ kompetensiyada o'quvchining muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirish ham o'z o'rniغا ega. Umuman mакtab o'quvchisining asosiy natijalari bu ish qanchalik muvaffaqiyatli o'tishiga bog'liq bo'ladi. Ulg'ayayotgan kishining hayotdagi mavqeyini shakllantirishda, uning hayot yo'lini belgilashda, o'z vazifasini anglatishda o'qituvchining bolalar jamoasini barpo etish yuzasidan olib boriladigan faol va qat'iy faoliyati zarur hisoblanadi. Demak, bola kommunikativ kompetensiyani egallashi orqali uning nutqi, muomala-munosabat va bilish darajasi oshib boradi.

Axborotlar bilan ishslash kompetensiyasida ta'lim samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborotlar bilan ta'minlashni rivojlantirish uchun texnika va texnologiyani bilish va ulardan foydalana olish, funksiyalari va strukturasini bilishi, texnologiyalarini joriy eta olishi talab qilinadi. Zamonaviy sharoitda shaxs tomonidan ozlashtiriladigan axborotlarning asosiy manbalari - davriy matbuot (gazeta, jurnal va b.), audiovisual ommaviy axborot vositalari (radio, televiedeniya), ovozli va video yozuvlar, axborot-kommunikatsion vositalar (kompyuter tizimi, internet), reklama va hokazolar sanaladi. Ushbu axborot manbalari bilan to'g'ri ishslashni o'rganish uchun ham axborotlar bilan ishslash kompetensiyasini shakllantirishimiz lozim. Zero, bugungi taraqqiyot asrida bolalarni bu kabi vositalardan cheklashning imkonи yo'q. Shuni ham unutmaslik kerakki, global axborotlashuv sharoitida haddan tashqari katta hajmdagi axborotga egalik shaxsga ta'lim berish jarayonini qiyinlashtiradi. Bu qiyinchilik shu bilan bog'likki, birinchidan, yosh avlod katta hajmdagi "axborot maydoni" - rang-barang ma'lumotlarga duch keladi. Yosh xususiyatiga ko'ra esa voyaga etgunga, ma'lum darajada dunyoqarashga ega bo'lgunga qadar shaxs uchun mavjud axborotlarning barchasi qiziqarli hisoblanadi. Biroq shuni alohida qayd etib o'tish zarurki, barcha qiziqarli axborotlarning hammasi ham foydali, shaxs kamolotini ta'minlashga xizmat qiluvchi ma'lumotlar bo'lavermaydi. Ikkinchidan, axborotlashgan jamiyatda to'plangan ma'lumotlar yosh, psixologik xususiyatiga ko'ra qiziquvchan, har qanday holat, voqelik, hodisa, jarayonning mohiyatini anglashga intiluvchi yoshlar tomonidan tinimsiz ravishda o'zlashtiriladi. O'z mohiyatiga ko'ra tizimsiz ravishda o'zlashtirilgan ma'lumotlar shunchaki axborot bo'lib, ular bilim sanalmaydi. Uchinchidan, yoshlarning hali xayotiy tajribaga, barqaror ma'naviy-axloqiy tamoyillarga ega bo'lmay turib, haddan tashqari katta hajmdagi "axborot maydoni"dan uzluksiz ravishda ma'lumotlarni o'zlashtirishlari ortiqcha yuklamalarga ega bo'lishlariga olib keladi. Katta miqdordagi yuklama esa o'z-o'zidan inson miya faoliyatida ma'lumotlarni qabul qilish, ularni o'zlashtirish, qayta ishslashda zo'riqishni yuzaga keltiradi. Ruhiy zo'riqish o'z navbatida tushkunlikni keltirib chiqaradi. Tushkunlikning doimiy rivojlanishi esa asab tizimi kasalliklarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi 1 . O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasini egallash ham boshlang'ich sinflarda muhim ahamiyatga ega. O'zini-o'zi anglashning rivojlanishi har bir bolada o'ziga xos tarzda kechadi. Dunyoning rivojlangan davlatlaridan biri bo'lgan AQSH pedagogikasidagi ta'limotda ham quyidagilarni ko'rish mumkin:

- bolani o'z kuchi, imkoniyatiga ishonch ruhida tarbiyalash;
- o'quvchining eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun kurash;
- bolani kamsitmaslik, insoniy qadriyatlarni va g'ururini erga urmaslik;

-o'quvchining ilk davridanoq kasb-korga yo'naltirish, Vataniga faxr va iftixor ruhida tarbiyalash. Shuningdek, o'qituvchi yo'naltiruvchi rol o'ynaydi va asosiy maqsad intellektni mashq qildirish va mantiqiy fikrlashga o'rgatishdir.

Ma'lumki, bola bilimga qiziqmasdan turib, o'qishga intilmaydi, muvaffaqiyatlari o'qiy olmaydi. Bolada o'z kuchiga va qobiliyatiga ishonch hosil etish, o'qishga jalg etish, ilk yutuqlari uchun rag'batlantirish, ayniqsa, ahamiyatlidir. Boladagi o'qishga qiziquvchanlik qiyinchiliklarni yengishga, faolligini oshirishga, ishonch uyg'otishga va mustaqilligi kamol topishiga olib keladi. Sinf rahbarlarining madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya qilishi, har bir bola shaxsini inson sifatida hurmat qilishi bilan unga nisbatan talabchanlikni unutmaslik, tashkilotchilik malakalariga ega bo'lishi, o'z malakasini tinimsiz oshirib borish bilan ishga ijodiy yondashish talab qilinadi. O'zini-o'zi anglashning rivojlanishi bolaning bilish va motivatsion sohalari shakllanishi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Mana shu sohalarning rivojlanib borishi natijasida bola ham o'zini, ham o'zi egallab turgan vaziyatni anglashga qodir bo'la boshlaydi, ya'ni unda o'zining ijtimoiy "men"ini anglash shakllanadi. Bu hodisa bolaning keyingi yosh bosqichiga o'tishida muhim rol o'ynaydi. Bu davrda bolalarda ixtiyoriy harakatlar rivojlanishi bilan birga irodaviy jarayonlar ham ko'rina boshlaydi (maqsad qo'yish, yo'l-yo'riq hamda vositalarni belgilash, qarorga kelish va qarorni ijro etish). Bolalar irodaviy harakatlarini o'stirish va mustahkamlashda ularni mehnat mashg'ulotlariga jalg qilishning ham ahamiyati kattadir. Bolalarga biron mehnat topshirig'i berilsa, ular ayni chog'dagi o'zlarining mayl-xohishlarini yengib, mehnat topshiriqlarini o'z vaqtida bajarishga intiladilar. Bolalardagi irodaviy harakatlami rivojlantirish maqsadida ularni o'z-o'ziga xizmat qilish, sinfda navbatchilik qilish, gullarni parvarish qilish va tabiat burchaklarida navbatchilik qilish kabi mehnat turlariga jalg qilish zarur. Bunda faqat mehnat topshiriqlari berish bilangina cheklanib qolmay, balki bolalarning bu topshiriqlarni qanday bajarayotganliklarini ham tizimli ravishda tekshirib, nazorat qilib turish lozim. Ana shunday qilgandagina bolalarda javobgarlik hissi yuzaga keladi. Bundan tashqari bolalarda ijtimoiy motivlarning ta'siri bilan bir qator irodaviy sifatlar, ya'ni qat'iylik, mustaqillik, tashabbuskorlik, dadillik kabi sifatlar tarkib topa boshlaydi. Lekin bolalar irodasining bunday sifatlari katta odamlarnikidek mustahkam, ya'ni xarakter xislatlariga aylanib ketgan darajada bo'lmaydi.

Bolalarda ko'rindigan ba'zi iroda sifatlari (qat'iylik, mustaqillik kabi) ko'pincha epizodik xarakter kasb etadi. Bu yoshdagi bolalar bajarayotgan ishlarida biron to'sqinlik uchrab qolsa, o'zlar mustaqil ravishda bartaraf qilishga urinadilar. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi Jamoa rivojlanish darajasidan dalolat beradigan muhim belgilaridan biri – o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga ishtiyoqi hisoblanadi. Kechaga tayyorgarlik ko'rish, shanbaliklarda ishtirot etish kabi maktab tajribasida muntazam uchrab turadigan ishlarda ko'zga tashlanadi. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlanishda o'quvchilarning faqat sinfdan tashqari faoliyatida namoyon bo'ladigan munosabatilarni tahlil etish bilangina cheklanib bo'lmaydi. Sinf rahbari ishining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u oddiy bolalar jamoasini emas, balki o'quvchilar jamoasini shakllantiradi. O'quvchilarning asosiy vazifasi o'qishdan iborat. Shuning uchun sinf rahbari dastavval bolalarning o'qishda o'quvchilarning o'zaro ga qanday munosabatda ekanliklarini, o'zlarini darsda qanday tutishlarini, bir-biriga sidqidildan yordam berish yoki bermasligini kuzatadi va kerakli tadbirlarni qo'llaydi. Maktab o'quvchilarining bilimga qiziqishi ularning hayotiy ehtiyojlariga bevosita bog'liqdir. Maktab hovlisidagi bog', tokzor, issiqxonada o'tkaziladigan amaliy jarayon – daraxtlarni butash, ularga payvand solish, tok kesish, daraxt o'tqazish, issiqxonalarda pomidor, sabzavotlar yetishtirish qoidalari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Bilimga bo'lgan qiziqishni shakllantirish va o'stirishda sinflarni, o'quv xonalarini va maktab binosini jihozlash ham katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda bu jarayon turli qarashlar, did,

dunyoqarashni shakllantiradi, estetik zavq uyg'otadi, tegishli ma'lum sohalarga havas uyg'otadi. Shuningdek, tadbirlar yoki sayohatlar orqali ham ijtimoiy faol fuqarolikni tarbiyalash mumkin. Milliy va umummadaniy kompetensiyani shakllantirishda boshlang'ich sinf o'qituvchisining axloqiy obro'si g'oyat darajada yuqori bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi ana shundagina tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga ega bo'ladi. O'qituvchining shaxsiy fazilatlari, ma'naviy qiyofasi o'quvchilar ongining va xulqining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi uchun malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishning o'zi yetarli emas. U o'z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi insonparvarlik fazilatlari, o'z ishiga sadoqati, intizomi, odamiyligi, axloqiy sifatlari bilan ham ta'sir kuchiga ega. Chunki, o'qituvchilik qobilyati juda ko'p sifatlarni: chuqur bilim, keng fikrlilik, ishga jon dildan ko'ngil qo'yish, bolalarga bo'lgan cheksiz muhabbat, muomala, nazokatlilik, qalb yoshligi, serzavq temperament, oqil vaadolatlilik namunasi, alohida nazokat, sipolik va vazminlik kabi fazilatlarning bo'lishini taqozo qiladi. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasida o'quv mehnatiga ongli munosabatda bo'lishlik ta'llimning ijtimoiy, o'qishning shaxsiy ahamiyatini tushunish demakdir. Odatda muammoli vaziyat vujudga kelganda odam favqulodda hech kutilmagan, notanish, tushunilishi murakkab bo'lgan, noma'lum narsa va hodisalar bilan uchrashadi. Aqliy zo'r berish natijasida iroda sifatlarini ishga solish orqali munozarali vaziyat anglashilgan masalaga aylanadi. O'zlashtirishning past bo'lishi, aksariyat hollarda, o'quvni tizimli va rejali olib borish iqtidori va ko'nikmasining bolalarda shakllanmaganligidan kelib chiqadi. Sinf rahbarining va fan o'qituvchilarining asosiy vazifasi har bir o'quvchining faoliyatini quydagi shartlar asosiga qurish bilan bog'liq:

1. Faoliyatni reja asosiga qurish.
2. Qunt bilan ishlash.
3. Pala-partishlikka yo'l qo'ymaslik, saranjomlikka o'rganish.
4. Bilim sifatini oshirish.
5. Qiyinchiliklarni yengish.
6. O'quv mehnatida muayyan rejimga itoat etish. Bu o'quv mehnatini o'quvchining dam olishi bilan to'g'ri almashtirib borilishidir.
7. O'qishda o'rtoqlarcha o'zaro yordam uyuştirish. O'rtoqlarcha o'zaro yordam sinfda ulgurmovchilikning oldini oladi, sinf jipsligini oshiradi, jamoatchilik ruhining shakllanishiga olib keladi.
8. Sinf o'qituvchilari bilan hamkorlik. Sinf rahbari ta'llim-tarbiyaviy ishlarni yakka o'zi emas, balki shu sinfda dars beruvchi boshqa o'qituvchilar bilan hamkorlikda olib boradi. Sinf o'qituvchisining asosiy vazifasi har bir o'quvchini mantiqiy fikrlashga o'rgatishdan iboratdir. Ayniqsa, bolalarda o'qish qiyinchiliklarini yengish, tushunib o'qish va kitob bilan mustaqil ishslash, uy vazifalarini bajarishda rioya qilishi lozim bo'lgan intizom, olgan bilimlarini amalda qo'llash kabi zarur sifatlarni shakllantirish katta ahamiyatga egadir. O'quvchilarni o'quv mehnatida muayyan rejaga itoat etishga o'rgatish orqali ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish sifatini oshirish mumkin.

## Ma'ruba 12

### MAVZU: BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJOBIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMI. (1-4 TARBIYA DARSIDI)

R e j a :

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish usullari.

2. O'quvchilarda aqliy tarbiyan shakllantirishning mazmuni.

**Tayanch tushunchalar:** tarbiya, tarbiya metodlari, tarbiya metodlarining turlari, ijtimoiy ongi shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar, odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish metodlari, tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari.

### Mustaqil ta'lif topshirig'i

Mavzu	Foydalilaniladigan adabiyotlar	Amalga oshirish shakli
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish usullari	1. Hasanboeva O., Djamilova N. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi. – T.: 2018.301-bet 2. Ismatova Nargiza va boshalar. Tarbiya 1,2, 3,4. Darslik. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.: Toshkent – 2020	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish usullari haqida taqdimot tayyorlash.
O'quvchilarda aqliy tarbiyan shakllantirishning mazmuni.	R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil.268-b	Tarbiya turlari haqida ko'rgazmalar tayyorlash.



### O'quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta'lif resurslari ro'yxati

#### Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

1. Salayeva M.S. Umumi pedagogika. Darslik. Toshkent. "Nodirabegim" nashryoti. 2021-yil.
2. Abdullayeva Sh. Umumi pedagogika. O'quv qo'llanma. Toshkent.O'qituvchi nashryoti. 2021-yil.287-bet.
3. Istamova N . va boshqalar. Tarbiya 1,2,3,4. Darslik. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2020-yil.206-bet.
4. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent-2019-yil.108-bet.
- 5.Dexqanova M.U.Tarbiyaviy ishlar metodikasi.O'quv qo'llanma.Toshkent-2019 yil.176-bet
6. B.X.Xodjayev. Umumi pedagogika nazariyasi va amaliyotir. Darslik T.: Sano-standart. 2017-yil.146-bet.

#### Elektron ta'lif resurslari:

- 1.w.w.w.tdpu.uz
- 2.w.w.w.pedagog.uz
- 3.w.w.w.ziyonet.uz
- 4.w.w.w.edu.uz
- 5.tdpu-INTRANET.Ped

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish usullari. Bugungi kunda jamiyatimiz uchun har tomonlama rivojlangan fan texnika taraqqiyotini hayotga tatbiq eta oladigan yetuk, malakali kadrlar tayyorlash masalasi turibdi. Maktab ta'liming hozirgi

bosqichida o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, o'sib kelayotgan avlodning ta'lim va tarbiyasidagi eng zarur vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki mehnat har qanday rivojlanish va taraqqiyot jarayonining asosidir. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklari va imkoniyatlariga asoslangan qo'l mehnati hisoblanadi. Shu munosabat bilan mehnat ta'limi jarayoni o'quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, ahloqiy, estetik, iqtisodiy-ekologik va aqliy imkoniyatlarni aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan. Natijada ularni mehnatga tayyorlashni keyingi sinflarda davom ettirilishi uchun aloqadorlik hosil qilinadi. Mehnatning, nafaqat bola tarbiyasida, balki har qanday odamning komil inson bo'lib yetishishida ahamiyati naqadar ulkan ekanligi hammamizga ma'lum. Shuning uchun bo'lsa kerak, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham mehnat to'g'risida alohida moddalar qabul qilingan. Masalan, "Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash... (37-modda), yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar... (38-modda), Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qtoganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'm'not olish huquqiga ega... (39-modda)" kabi huquqiy me'yorlarni misol qilib aytib o'tish mumkin.

Xuddi shunday mehnatga, aynan olganda, mehnat ta'limiga e'tibor xalq ta'limida ham qaratilgan. Shu jumladan, boshlang'ich ta'limda ham har bir sinfda haftada bir soatdan mehnat ta'limi mashg'ulotlari tashkil etilishi belgilab berilgan. Boshlang'ich sinflarda o'tkaziladigan mehnat ta'limining maqsadi – "o'quvchilarning barkamol shaxs bo'lib shakllanishlari uchun ularga mehnat jarayonlari, kasblar asoslarini (texnologiyasini) o'rgatish, ularni kasb tanlash bilan uyg'unlashtirish orqali ularning kasbgacha tayyorgarligiga zamin yaratishdan iborat" dir. Mehnat ta'limining tarbiyaviy maqsadi ham kattadir, ya'ni "o'quvchilarning mehnat ko'nikmalarini egallashlari jarayonida mehnat va kasbga munosabatlarida yuqori axloqiy sifatlarni, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik va tadbirkorlikni shakllantirish" lozim. Mehnat ta'limining hozirgi davrdagi, qolaversa mehnat ta'limi o'qituvchilarining vazifalari ham, bu vazifalarning talab darajasida bajarilishiga ham yosh avlodning barkamol inson bo'lib yetishishlarida muhim o'rinn tutadi. Bu vazifalar tubandagilardan iboratdir: -Tashkiliy vazifalar – "o'quvxona, unda maxsus ish joyi, zarur materiallar, asboblar tashkil qilish.

- -Sanitariya-gigiyena hamda mehnat xavfsizligi talablarini ta'minlash". Uslubiy vazifalar – mashg'ulotlarning yarim va bir yillik o'quv ish rejalarini tuzish,
- mahalliy sharoitlarni hisobga olish,
- o'g'il va qiz bolalarning o'zlariga xos mehnat mashg'ulotlarini va kasb tanlashlarini amalga oshirib borish va boshqalardir.

Boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan mehnat ta'limi fani o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, kasblar bilan dastlabki tanishtirish, kasb tanlashga tayyorlash, mehnatni qadrlash, mehnatga qiziqish hamda mehnatsevarlikni shakllantirish orqali ularning kasbgacha tayyorgarliklarini 5-sinf uchun uzviy bog'lanish zaminini yaratishni ko'zda tutadi. Bular ta'limiy va tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi yo'nalishlar hisoblanadi. O'qituvchi mehnat ta'limi mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarga aqliy, jismoniy, axloqiy, badiiy-estetik tarbiya va ta'lim berish orqali ularning barkamol shaxslar bo'lib yetishishlariga yordam berishi darkor. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini malakasini oshirishga qo'yilgan davlat talablarida kursni bitirgan o'qituvchi mehnat ta'limi fani bo'yicha mashg'ulotlarni ham "talab darajasida o'tish mahoratiga ega bo'lishi" aytib o'tilgan. Ana shu talabdan xulosa chiqarib, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi (mehnat ta'limi fanini o'qitmasa ham) mehnat ta'limi bo'yicha barcha me'yoriy-uslubiy hujjatlarni, davlat ta'lim standarti va dastur talablarini, mashg'ulotlar o'tish shart-sharoitlarini, metodikasini chuqr

bilishi lozim bo‘ladi. Shu bilan birga, (sinf rahbari sifatida ham) o‘quvchlarining mehnat ta’limi dasturida belgilangan bilim, ko‘nikmalarini davlat ta’lim standartlariga binoan o‘zlashtirish holatini dastlabki, oraliq va yakuniy nazorat qilib borishlari kerak. Mehnat ta’limi “Inson va jamiyat” sohasiga kiradi. Bu sohaga jami beshta fan mavjud. Davlat ta’lim standarti beshta fan bo‘yicha umumiy qilib, bir bo‘limda keltirilgan. Bular orasidan mehnat ta’limi bo‘yichaqo‘yilgan talablarni aniqlab olish zarur.

Tubandagi talablar shular jumlasiga kiradi:

- texnik modellashtirishga oid ishlarni bilish;
- uy-ro‘zg‘or ishlarni bajara olish;
- sodda konstrukturlik ishlarni bajara olish;
- duradgorlikka oid sodda va yengil ishlarni bajara olish (o‘g‘il bolalar uchun);
- oddiy bichish-tikish ishlarni bajara olish (qiz bolalar uchun);
- inson mehnatini, faoliyat turlarini anglash.

MO‘D 4-sinfning bitiruvchilariga qo‘yiladi. Shunga qaramasdan, bu ko‘rsatkichlarga o‘quvchilar birinchi sinfdanoq tayyorlab boriladi. Har bir sinfda qanday bilim, ko‘nikma va malakalarni berish dastur talablarida belgilab beriladi. Shuning uchun ham mehnat ta’limidan dars beruvchi o‘qituvchi, avvalo, har bir sinf oxirida o‘quvchilar bilishi, uddalay olishi kerak bo‘lgan dastur talablarini chuqur bilishi shart va har bir mehnat ta’limi mashg‘uloti jarayonida o‘z maqsadini ana shu talablarni bajarishga qaratishi lozim. Masalan, o‘quvchilar birinchi sinfni tugatgandan so‘ng quyidagilarni uddalay olishlari lozim:

- ayrim kasblarda ishlatiladigan asboblar nomlarini va nima maqsadda ishlatilishini bilish;
- yog‘och materiallar olinadigan daraxtlarni tanish va ularning nomlarini bilish;
- ayrim gazlama turlari, nomi, xususiyatlarini va ulardan tayyorlanadigan buyumlarni bilish;
- pazandalikda ishlatiladigan mahsulotlarning turlari va nomlari, nima maqsadda ishlatilishini bilish;
- qandolatchilikda ishlatiladigam xom ashyolar va tayyorlanadigan mahsulotlarni bilish;
- qurilish sohasida ishlatiladigan materiallar nomi, ayrim xususiyatlari va ishlatilish sohalarini bilish;
- qog‘oz va kartondan eng oddiy shakldagi buyumlarni qirqib tayyorlash, ularning rasmini chizish, bo‘yash hamda eng oddiy naqshlar bilan bezash;
- tugma qadash, eng oddiy choklarni tikish, gazlamalarni qirqishni bilish. Ikkinci sinf oxirida kelib o‘quvchilar mehnat ta’limi fani bo‘yicha tubandagilarni bilishlari hamda bajara olishlari darkor. Ayrim kasblar mahsulotlari yoki tayyorlanadigan buyumlar, eskizlarini chizish va oddiy bezaklarini ishslash. Bir nechta kasblar sohasida ishlatiladigan asboblarining tuzilishini hamda ishlatilishini bilish. Ayrim tabiiy materiallardan oddiy tasvirlar va naqshlar tuzish. Yog‘och materiallarning qattiq-yumshoqligi, egilish-sinishga, suvgaga, zaxga va boshqa ta’sirlarga chidamlilagini bilish. Gazlamalarning haroratga, saqlanishga chidamliligi, ularning har xil ta’sirlar natijasida o‘zgarishlarini bilish. Tuproq, loy, sapol va boshqa materiallarning assosiy xususiyatlarini bilish. Oziq-ovqat mahsulotlarining eng oddiy xususiyatlarini bilish. Qog‘oz, karton, gazlamalarni qirqish va kesish asboblaridan to‘g‘ri foydalanish. Kashtachilik va tikuvchilikda qo‘llaniladigan asosiy chok turlaridan tikish. Ayrim ekinlarni o‘sirish va chorva mollari boqishning eng oddiy qoidalarini bilish.

Uchinchi sinf o‘quvchilari o‘quv yili oxirida quyidagi dastur talab va ko‘rsatmalarini bilish va uddalay olishlari lozim. Har xil oddiy buyumlar va mahsulotlar tayyorlash jarayonlari ketma-ketligini hamda xom ashyolarini bilish. Ularni so‘zlar va turli tasvirlar, jadvallar orqali ifodalar olish. Ommaviy ishlatiladigan mehnat quollarining turlarini va ulardan to‘g‘ri foydalanishni bilish.

Ayrim oddiy buyum va mahsulotlarni tayyorlash uchun eskizlar chizish. Qog'oz, karton, gazlama va boshqa materiallardan oddiy shakldagi gullar yasash...

Loydan milliy o'yinchoqlar yasash, ularni bo'yash va naqshlar bilan bezash. Yog'ochdan... oddiy buyumlar va o'yinchoqlar yasash. Gazlamadan oddiy buyumlar tikish... Pazandalik va qandolatchilikning ayrim texnologik jarayonlarini bajarish.

O'simliklar, chorva mollari va parrandalar yetishtirishga doir ayrim vazifalarni bajarish. To'rtinchi sinf oxirida esa tubandagi dastur talablarini MO'D talablari bilan birgalikda bilishlari hamda uddalay olishlari ko'zda tutiladi. (Albatta, o'qituvchi o'g'il bolalar bajaradigan ishlarni alohida, qiz bolalar bajaradigan yumushlarni, talablarni alohida qilib rejalashtirib olishi kerak.) Yog'ochdan oddiy buyumlar tayyorlash jarayoni uchun texnologik jadval hamda grafik tasvirlarni bajarish. Oziq-ovqat tayyorlash jarayoni uchun texnologik jadval hamda ayrim oziq-ovqat mahsulotlarini turli shakkarda tayyorlash uchun eskizlar chizish...

Zargarlik, gilamdo'zlik, kulolchilik va boshqa kasblarda naqqoshlikdan foydalanishning eng oddiy usullarini bilish...

Qo'g'irchoqlar uchun kiyimlar tikish va kashta gullari bilan bezash. Taomlar pishirish uchun sabzavotlarni tayyorlashni bilish. Xamirdan ayrim taomlar tayyorlash jarayonlarini bajarish. Ayrim qandolatchilik mahsulotlarini tayyorlash. Uy-ro'zg'or ishlarini to'g'ri va sifatli bajarish. Qo'l mehnati jarayonida bolalar asosan ishlab chiqarish texnologiya chiqindilari (qog'oz, karton, sim, yog'och, gazmol va boshqalar) bilan: tabiiy va sun'iy xom-ashyolar (maxsus loy, yog'och va plastmassalar, plastilin, elim va boshqalar) bilan, keng iste'mol mollari va xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, tayyorlash uchun mahalliy xom-ashyolar bilan elektr, radiotexnika to'plamlari va hokazolar bilan ishlashga o'rghanadilar.

Bularning hammasi o'quvchilarga qo'l asboblari bilan ishlash, har xil xom ashylardan foydalanishning ma'lum tajribasini to'plashga imkon beradi, bu esa mehnatning qadrini va ma'nosini tushunishga, mehnat kishilariga hurmatda bo'lishga, mehnatning va kasbning u yoki bu turiga qiziqishlarini shakllantirishga yordam beradi. Mehnat ta'limi va kasbga tayyorlash vazifalari boshlang'ich mакtabda butun ta'lim tarbiya sistemasi va barcha o'quv predmetlari yordamida hal etiladi. Bu o'rinda mehnat darslari etakchi rol' o'ynaydi. Maktabda muntazam mehnat ta'limining boshlang'ich bochqichi boshlang'ich sinflardagi mehnat dargohlari va kichik maktab yoshidagi bolalarning qo'lidan keladigan ijtimoiy foydali ishdil. Boshlang'ich maktabdagi mehnat ta'limining asosiy vazifalari mehnatga ahloqiy va psixik tayyorlash, o'quvchilarni boshlang'ich poletexnik bilimlar bilan qurollantirish mehnatga amaliy tayyorlashdir. O'quvchilarni mehnatga ahloqiy tayyorlash deganda, ularning bu mehnat natijalariga hurmat bilan yondoshishlari nazarda tutiladi. Mehnat darslarini, mashg'ulotlarini tashkil etishda o'quvxonasi, asbob-uskunalar, kerakli materiallar, jihozlar, ko'rgazmali vositalarning ahamiyati katta. Shuning uchun ota-onalar qo'mitasi, homiylar ko'magida ustaxona tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lardi. Unda kerakli jihozlar, asboblarning bo'lishiga erishish lozim.

Shundan so'ng o'qituvchi ta'limdagi yangi-yangi usullardan, yangi pedagogik va axborot texnologiyasi unsurlaridan foydalanib, turli metodik adabiyotlar, milliy hunarmandchilik namunalari va boshqa vositalar ko'magida mehnat ta'limi mashg'ulotlarini tashkil etishi kerak bo'ladi. Ayniqsa, o'quvchilarning yordami, ya'ni dars davomida kerakli jihoz va asbob-uskunalarini uydan keltirish orqali olib borish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Mustaqil amaliy ishlarda mahalladagi mohir ustalar, chevarlar, oshpaz, cho'pon, bog'bon va boshqa kasb egalari ko'magidan, maslahatlaridan foydalanish ham yaxshi natija beradi.

### **O'quvchilarda aqliy tarbiyan shakllantirishning mazmuni.**

Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g'oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e'tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo'ladi.

Muayyan dunyoqarashga ega bo'lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub'ektlarga nisbatan ma'lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to'laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas'uliyat tuyg'usiga ega bo'lishi uchun zamin yaratadi. Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzlusiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim o'rinn tutadi.

Shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondoshuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo'lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi. O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobjiy fazilatlarning boyib borishiga yordam beradi. Dunyoqarash o'z mohiyatiga ko'ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo'limgan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzlusiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g'oyalari yotadi.

Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi.

Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muhim o'rinn tutadi. **Aqliy tarbiya** shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bo'lib, uni samarali yo'lga qo'yish asosida dunyoqarash shakllanadi. Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasida yoshlarga aqliy tarbiyani berishga alohida e'tibor qaratilmolqda. 1997 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mazmunida ham yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligiga urg'u beriladi. Yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadr bo'lib yetishish mavjud ilmiy, shuningdek, kasbiy bilimlarni puxta egallash demakdir. Binobarin, chuqur bilimlarga ega bo'lish tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini anglash, ularning ijobjiy va salbiy jihatlarini ko'ra va baholay olishga imkon beradi. Aqliy tarbiya o'quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.

### **Aqliy tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:**

Tarbiyanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish.

Ularda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.

1. Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

2. Bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg'usini shakllantirish.
3. Bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish. Aqliy ta'lim va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqeа-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi. Manbalarning ko'rsatishicha, aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo'lib, quyidagi belgilarga ko'ra aniqlanishi mumkin:

1. Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi.
2. Mavjud ilmiy bilimlarni o'zlashtirib olish jarayoni.
3. Fikrlash ko'nikmasiga egalik.
4. Bilimlarni egallahsha bo'lgan qziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.

Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga keladi. Uning shakllanishida ilmiy qarash va e'tiqod o'ziga xos o'rinni tutadi..

**Ilmiy qarash**(yunoncha «idea»- g'oya, tasavvur, tushunchalar yig'indisi) - muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g'oya bo'lib, u shaxs tomonidan mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o'zlashtirilganda, bilimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. O'quvchilarни ijodiy fikrlashga o'rgatish, ixtirochilik ko'nikmalarini shakllantirish ular tomonidan ilmiy izlanishlarni olib borish va ma'lum ilmiy qarashlarni ilgari surilishiga zamin yaratadi. Aqliy tarbiyani samarali tashkil etish shaxsda ilmiy tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi. **Ilmiy tafakkur**—inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqeа-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuvni anglatadi. **E'tiqod** dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy-falsafiy, tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga cheksiz ishonch bo'lib, uning shakllanishi bir necha bosqichda kechadi. Birinchi bosqichda ular beqaror va vaziyat taqozosiga ko'ra o'zgaruvchanlik xususiyatini kasb etadi. Ikkinci bosqichda ma'naviy-axloqiy qarashlarning barqaror tamoyillariga aylanadi. Mavjud talab, jamiyat tomonidan tan olingen axloqiy qoidalardan chetga chiqish qiyin, ziddiyatlari vaziyatlarda ongli harakatni tashkil etish, irodaviy sifatlarga tayangan holda ish ko'rish taqozo etiladi. Uchinchi bosqichda, e'tiqod barcha vaziyatlarda ham ustuvor ma'naviy-axloqiy tamoyil bo'lib qoladi. O'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlar hayotiy munosabatlar jarayonida keng qo'llanilganda, ularning asl mohiyati chuqur his qilingan va anglangandagina e'tiqodga aylanadi.



### Ma'ruza 13

#### MAVZU: TARBIYA DARSALARIDA O'QUVCHINI O'Z USTIDA ISHLASH JARAYONI.

#### ( 1-4 TARBIYA DARSI)

**R e j a :**

1. "O'z-o'zini tarbiyalash" kontseptsiyasining mohiyati.
2. O'quvchilarning o'z ustida ishlash jarayoni.O'z-o'zini tarbiyalash usullari, usullari va vositalari.

**Tayanch tushunchalar:** tarbiya, tarbiya metodlari, tarbiya metodlarining turlari, ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar, odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish metodlari, tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari.

### **Mustaqil ta'lif topshirig'i**

<b>Mavzu</b>	<b>Foydalaniladigan adabiyotlar</b>	<b>Amalga oshirish shakli</b>
"O'z-o'zini tarbiyalash" kontseptsiysi.	1. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi.O'quv qo'llanma.T.:O'qituvchi 2010-yil 2. Ismatova Nargiza va boshalar. Tarbiya 1,2, 3,4. Darslik. G'afur G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi.: Toshkent – 2020	"O'z-o'zini tarbiyalash" kontseptsiyasining mohiyati haqida taqdimot tayyorlash.
O'z-o'zini tarbiyalash usullari, usullari va vositalari. .	1.SarsenbayevaR.M. Tarbiyaviyishlar metodikasi.O'quv qo'llanma. - T.; 2019.300-bet. 2.Dexkanova M.U. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. - T.; 2019.240-b	O'z-o'zini tarbiyalash usullari, usullari va vositalari haqida ko'rgazmalar tayyorlash.



### **O'quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta'lif resurslari ro'yxati** **Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar**

1. R.A.Mavlonova, Б.Нормуродова. Тарбиявий ишлар методикаси. O'quv qo'llanma. Toshkent, "Fan" 2008 y. 193-bet.
2. R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.301-bet.
3. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi.O'quv qo'llanma.T.:O'qituvchi 2010-yil.209-bet.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil.108-bet

#### **Elektron ta'lif resurslari:**

- 1.w.w.w.tdpu.uz
- 2.w.w.w.pedagog.uz
- 3.w.w.w.ziyonet.uz
- 4.w.w.w.edu.uz
- 5.tdpu-INTRANET.Ped

O'z-o'zini tarbiyalash - bu shaxs tomonidan shaxs sifatida uni maksimal darajada amalga oshirishga qaratilgan ongli faoliyat. O'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini faollashtirishga asoslanib, u aniq amalga oshirilgan maqsadlar, ideallar va shaxsiy ma'nolarning mavjudligini taxmin qiladi. Bu nafaqat ta'lifni mustahkamlash, balki shaxsni shakllantirish jarayonini rivojlantirish bilan ham uzviy bog'liqdir. O'z-o'zini tarbiyalashning zaruriy tarkibiy qismlari shaxsiy rivojlanishni o'z-o'zini tahlil qilish, o'zini o'zi hisobot qilish va o'zini o'zi boshqarishdir. O'z-o'zini tarbiyalash texnikasi o'z-o'zini tartibga solish, o'zini o'zi tasdiqlash va o'z-o'zini gipnoz qilishni o'z ichiga

oladi.O'z-o'zini tarbiyalashning zaruriy sharti - bu o'zi haqida haqiqiy bilimlarning mavjudligi, to'g'ri qadrlash, o'z-o'zini anglash. O'z-o'zini tarbiyalash bir qator sub'ektiv va ob'ektiv sabablar bilan shartlangan: yaxshiroq bo'lishga intilish, jamiyatning fuqarolarga bo'lgan talablari, ularning ma'lumotlari va fazilatlari; ta'lif va tarbiya jarayonida o'quvchiga ta'sir ko'rsatadigan pedagogik ta'sirlar. Ushbu sabablarning ta'siri ostida o'z-o'zini tarbiyalashning ichki old shartlari yaratiladi, ehtiyojar, qarashlar va e'tiqodlar shakllanadi, hayotiy ideallar va maqsadlar aniqlanadi yoki shakllanadi. O'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini faollashtirish asosida o'z-o'zini tarbiyalash aniq qabul qilingan maqsadlar, shaxsiy ma'nolarning mavjudligini taxmin qiladi. O'z-o'zini tarbiyalashning zarur tarkibiy qismlari quyidagilardir: shaxsiy rivojlanishning aks etishi, o'zini o'zi hisobot qilish, o'zini o'zi boshqarish. O'z-o'zini tarbiyalash texnikasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: qoniqish, o'zini o'zi baholash, o'z-o'zini gipnoz qilish, o'ziga ishonish va o'z-o'zini tartibga solish.

Shaxsni shakllantirishda o'z-o'zini takomillashtirishning ahamiyati ko'plab zamonaviy pedagogik va psixologik fan rahbarlari tomonidan tan olingen. A.G.Kovalevning tadqiqotlarida o'zini o'zi boshqarish va o'zini takomillashtirish jarayonlarining mohiyatini asoslash berilgan. V. G. Kutsenko, A. A. Bodalev va boshqa olimlarning asarlarida bolalarni tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalashning o'zaro bog'liqligi, o'z-o'zini tarbiyalash jarayonini tashkil etish usuli ko'rib chiqilgan. P. M. Yakobson asarlarida hissiyotlarni o'z-o'zini tarbiyalash muammosi, hissiyotlar sohasidagi o'zini o'zi boshqarishning psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Nazariyalar, shu jumladan asosiy tushunchalar, motivlarning tavsifi, maqsadlari, vazifalari, vositalari, o'z-o'zini tarbiyalash va takomillashtirish usullari, ushbu jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar P. Ya. Aret, A. G. Kovalev, L. I. Ruvinskiy, I. I. Chesnokova, SM. Kovalev. "O'z-o'zini tarbiyalash" tushunchasida pedagogika insonning ichki ma'naviy dunyosini, uning mustaqil ravishda rivojlanish qobiliyatini tavsiflaydi. Tashqi omillar - tarbiya - bu faqat shartlar, ularni uyg'otish, ularni amalda qo'llash vositalaridir. Shuning uchun faylasuflar, o'qituvchilar, psixologlar aynan uning qalbida uning rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari yotadi deb ta'kidlaydilar. Tarbiya jarayonida o'spirinni o'z-o'zini tarbiyalashga undash zarur.

O'z-o'zini tarbiyalash shaxsiyat rivojlanishining ma'lum bir darajasini, uning o'zini anglashini, o'z harakatlarini boshqa odamlarning harakatlari bilan ongli ravishda taqqoslash bilan birga uni tahlil qilish qobiliyatini nazarda tutadi. Shaxsning potentsial imkoniyatlariga munosabati, o'zini o'zi qadrlashning to'g'riliqi, kamchiliklarini ko'rish qobiliyati insonning etukligini tavsiflaydi va o'z-o'zini tarbiyalashni tashkil etish uchun zarur shardir. O'z-o'zini tarbiyalash - bu sub'ektning o'zini shaxs sifatida iloji boricha ro'yobga chiqarishga qaratilgan, uning shaxsiyatini aniq qabul qilingan maqsadlar, ideallar, shaxsiy ma'nolarga muvofiq ravishda o'zgartirishga qaratilgan ongli faoliyati. O'z-o'zini tarbiyalash insonning haqiqiy qobiliyatlariga, ularning individual xususiyatlarini va potentsialini tanqidiy baholash qobiliyatiga mos keladigan o'zini o'zi qadrlashga asoslangan. Xabardorlik darajasi oshgani sayin o'z-o'zini tarbiyalash shaxsning o'zini rivojlanishir uchun tobora muhim kuchga aylanib bormoqda. O'z-o'zini tarbiyalashning zaruriy tarkibiy qismlari shaxsiy rivojlanishni o'z-o'zini tahlil qilish, o'zini o'zi hisobot qilish va o'zini o'zi boshqarishdir. O'z-o'zini tarbiyalash ma'lum bir rivojlanish yo'lidan o'tadi.

O'z-o'zini tarbiyalashning boshlang'ich bosqichi - tashqi talab bosqichi yosh o'spirinlik davriga xos bo'lib, qisman kichik maktab yoshiga to'g'ri keladi. O'z-o'zini tarbiyalash tarbiya natijasida vujudga keladi, bolaning bu jarayonga faol munosabatini rag'batlantirish kattalar talabidir. Bola kattalar talablarini bajaradi, dastlab e'tiborni harakatlarning naqshlariga (taqlid qilish) yoki tarbiyachilarning "ko'rsatmalariga" qaratadi; u holda harakatning variantini tanlash qobiliyati paydo

bo'ladi; keyinchalik, ushbu ijtimoiy talablar o'zini tutishning tashqi regulyatori va o'zini o'zi boshqarish vositasi sifatida ishlay boshlaydi.

Keyingi bosqich - majburlash bosqichi - odamning u yoki bu holatga bo'y sunib, o'zgarishga majbur bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ushbu bosqichda shaxsiyat o'zgarishi ularning xabardorligidan boshlanadi va allaqachon o'zboshimchalik bilan tartibga solinadi. Bunday holda, taqlid va ko'rsatmalarga bo'y sunish butunlay yo'qolmaydi. Shu nuqtai nazardan shaxsiyat rivojlanishining uchinchi bosqichi ongli o'z-o'zini tarbiyalashdir. Bu shaxsning ichki ehtiyojlari tomonidan boshqariladi. Motivatsiya o'z-o'zini tarbiyalashning etakchi tarkibiy qismiga aylanadi. Ushbu turki interiorizatsiya deb nomlangan jarayon natijasida paydo bo'ladi: tashqi sharoitlar ta'siri ostida o'z-o'zini tarbiyalash harakatlarining tuzilmalari shakllanadi - o'z-o'ziga ishonish, o'ziga motivatsiya, o'z-o'zini tartibga solish va boshqalar, keyinchalik ichki, idealga aylanadi. O'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini majburiyat qilish kabi usullardan foydalanishni o'z ichiga oladi; o'z-o'zidan hisobot berish; o'z faoliyati va xatti-harakatlarini tushunish; o'zligini boshqara olish. O'z-o'zini tarbiyalash inson tomonidan shakllangan maqsadlar, harakatlar dasturi, dasturning bajarilishini nazorat qilish, olingen natijalarini baholash va o'z-o'zini tuzatish asosida qurilgan o'zini o'zi boshqarish jarayonida amalga oshiriladi.

O'z-o'zini tarbiyalash, axloqiy, jismoniy, estetik fazilatlarni, xulq-atvor odatlarini ma'lum ijtimoiy aniqlangan idealga muvofiq ravishda rivojlanirish yoki takomillashtirishga qaratilgan insonning tizimli faoliyati. O'z-o'zini tarbiyalashning mazmuni har doim shaxs yashaydigan va rivojlanadigan ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga bog'liq. Uning o'ziga qo'yadigan talablari va u shakllantirmoqchi bo'lgan fazilatlari hayot sharoitlari bilan belgilanadi, g'oyaviy asoslarni, o'z-o'zini tarbiyalash ideallarini, shuningdek, ularga erishish vositalarini belgilaydi. «... Mening borligim, - deb yozgan K.Marks, - bu ijtimoiy faoliyat; va shuning uchun men o'zimdan nima qilsam, o'zimni ijtimoiy borliq sifatida anglab, jamiyat uchun o'zimdan qilaman. »

A.I. Kochetov o'z-o'zini tarbiyalash kontseptsiyasiga quyidagi ta'rifni beradi - bu ongli va shaxsga asoslangan o'z-o'zini rivojlanirish, bunda jamiyat talablariga muvofiq shaxsning o'zi maqsadlari va manfaatlari, u tomonidan rejalashtirilgan kuchlar va qobiliyatlar shakllanadi. "Shunday qilib, o'z-o'zini tarbiyalash - bu o'z-o'zini rivojlanirish va o'zining asosiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan insonning tizimli va ongli faoliyati. O'z-o'zini tarbiyalash muammosi ko'plab o'qituvchilar va psixologlar tomonidan hal qilingan va hal qilinmoqda. O'z-o'zini tarbiyalash majburiyatlarni ixtiyoriy ravishda, ham shaxsiy, ham kollektiv talablari asosida bajarish qobiliyatini mustahkamlash va rivojlanirish, axloqiy his-tuyg'ular, zarur xulq-atvor odatlari, irodaviy fazilatlarni shakllantirish uchun mo'ljallangan. O'z-o'zini tarbiyalash - bu ta'limning ajralmas qismi va natijasi va shaxsni rivojlanirishning butun jarayoni. Bu inson yashaydigan o'ziga xos sharoitlarga bog'liq.

### **O'z-o'zini tarbiyalash usullari, usullari va vositalari**

Insonning fe'l-atvori va xulq-atvoridagi ba'zi kamchiliklarni bartaraf etish zarurati tug'ilganda, aniq maqsadni belgilash va unga erishish zarurligini asoslash muhimdir. Ushbu maqsadni ongga mahkam o'nashguncha bir necha kun baland ovozda yoki o'zingizga aytish foydalidir. Bundan tashqari, siz o'zingizni o'qitishning batafsil dasturini tuzishingiz va aniq nimaga erishish kerakligini aniqlashingiz kerak. Albatta, oddiy dasturlardan boshlash yaxshidir, masalan: shoshma-shosharlik qilmang, suhbatdoshingizga xalaqit beradigan yomon odatni engib chiqing, so'zingizga rioya qiling. O'z-o'zini tarbiyalash bo'yicha tajriba orttirganingizda, dasturlar yanada

murakkablashishi, takomillashtirilishi va uzoq muddatli bo'lishi kerak. O'z-o'zini tarbiyalash inson ongida u amalga oshirmoqchi bo'lgan harakatlar va xatti-harakatlarning taxminiy aks etishi, u o'zida rivojlantirmoqchi bo'lgan xislatlari va fazilatlarini aniqlash tamoyiliga asoslanadi. Agar shunday "aqliy dastur" shakllantirilgan bo'lsa, u odamni uni amalga oshirish uchun amaliy harakatlar qilishga undaydi, irodaviy harakatlarning namoyon bo'lishi uchun rag'bat yaratadi. Shu sababli, odamning fe'l-atvori yoki xulq-atvordagi ba'zi kamchiliklarni bartaraf etish zarurati tug'ilganda, aniq maqsadni belgilash va unga erishish zarurligini asoslash muhim, ba'zida muddatlarni belgilash ham foydalidir.

O'z-o'zini tarbiyalash shaxsiyat rivojlanishining ma'lum darajasini, uning o'zini anglashini, o'z harakatlarini boshqa odamlarning harakatlari bilan ongli ravishda taqqoslash bilan birga uni tahlil qilish qobiliyatini nazarda tutadi. Shaxsning potentsial imkoniyatlariga munosabati, o'zini o'zi qadrlashning to'g'riliqi, kamchiliklarini ko'rish qobiliyati insonning etukligini tavsiflaydi va o'z-o'zini tarbiyalashni tashkil etish uchun zarur shartdir. O'z-o'zini tarbiyalash inson tomonidan shakllangan maqsadlar, harakatlar dasturi, dasturning bajarilishini nazorat qilish, olingan natijalarni baholash va o'z-o'zini tuzatish asosida qurilgan o'zini o'zi boshqarish jarayonida amalga oshiriladi. O'z-o'zini tarbiyalash usullari – o'z-o'zini tarbiyalash maqsadiga erishish yo'llari, shaxs tomonidan qo'yilgan o'z-o'zini tarbiyalash vazifalarini hal qilish. O'z-o'zini tarbiyalash usullari o'z-o'zini tarbiyalash faoliyatini amalga oshirish mantig'iga mos keladigan ketma-ketlikda taqdim etiladi. O'z-o'zini tarbiyalashning maqsadlari va yo'nalishlarini aniqlash .

Ushbu bosqichdagi asosiy usullar quyidagilar.

### **1.O'z-o'zini bilish - o'zini o'rganish, shaxsiy fazilatlarning rivojlanish darajasini aniqlash.**

**Introspeksiya** – muayyan vaqt davomida harakatlarni belgilash va tahlil qilish va o'z hayotidagi faktlar. O'z-o'zini kuzatish ma'lumotlarini tahlil qilganda, odam qaysi fikrlar, his-tuyg'ular, fazilatlar va munosabatlar harakatlar bo'lganligini ifodalashga e'tibor beradi. O'z-o'zini kuzatish ko'pincha o'zini sinash jarayonida amalga oshiriladi.

**O'zini sinash** - ma'lum bir sifat namoyon bo'lishini talab qiladigan vaziyatda shaxs tomonidan o'zini atayin cho'mdirish. O'zini sinab ko'rish holati u tomonidan maxsus yaratilishi mumkin.

**Introspeksiya** - xulq-atvor faktlarini, ularning ideal bilan o'zaro bog'liqligini tanqidiy baholash. O'z-o'zini tahlil qilish idealni aniqlash - axloqiy, mehnat, estetik va boshqalarni osonlashtiradi. Maktab yoshi haqiqiy odamlar ham ideal bo'lishi mumkin - ota-onalar, o'qituvchi; katta yoshlarda - kino va shou-biznes butlari, o'rtoqlar.

**O'z-o'zini baholash** - shaxsning o'zini, uning imkoniyatlarini, fazilatlarini, boshqa odamlar orasidagi o'rnini baholash qobiliyati (A. V. Petrovskiy), shuningdek o'zini bilish natijasini belgilash (I. I. Chesnokova). Bu maktab o'quvchilarining o'zini qadrlash, individual fazilatlar va ko'nikmalar, harakatlar va harakatlar standartlari haqidagi g'oyalarini o'z ichiga olgan ko'pkomponentli shaxsiy ta'lim; ehtiyojlar, o'z-o'zini bilish va o'zini qadrlash faoliyatiga qiziqish va ijodkorlik.

### **2. O'z-o'zini tarbiyalash rejasini ishlab chiqish bosqichi.**

**O'z-o'zini majburiyat (o'z-o'zini dasturlash)** - o'ziga xos ishlarning rejasi, shu jumladan o'ziga xos fazilatlar g'oyasi, ularning shakllanish darajasi va ularni egallash bo'yicha aniq harakatlar tizimi.

**O'z-o'zini rag'batlantirish** - bu o'z-o'zini tanqid qilish, vaqtida aniqlangan aniq maqsadlarning mavjudligi.

### **3. O'z-o'zini tarbiyalash rejasini amalga oshirish bosqichi.**

**O'z-o'zini o'qitish** - bir kishi ma'lum bir vaziyatda o'z harakatlarini oldindan biladi.

**O'ziga bo'lgan ishonch** - argumentlarni va qarama-qarshi dalillarni ko'rib chiqish, o'z-o'zini muhokama qilish, o'zini oqlash, zanjirni qurish: men qilishim kerak - xohlayman - mantiqiy tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish usullari asosida mumkin.

**O'z-o'zini gipnoz** - o'z nomidan, o'z-o'zini tarbiyalashning yakuniy yoki oraliq natijasining hozirgi zamonida ijobiy shaklda talaffuz qilish. U avtomatik o'qitish shaklida, uxlashdan oldin yoki darhol uyg'onganidan keyin amalga oshirilishi mumkin.

**O'z-o'zini majburlash.** Uning asosiy usuli: o'z-o'zidan buyurtma berish - qat'iy, ramkali qaror; ma'lum irodaviy harakatlarning mayjudligi va ulardan foydalanish, o'ziga bo'lgan ishonchni nazarda tutadi.

**O'z-o'zini rag'batlantirish** - yumshoq shakl; ba'zida odam o'zini o'zi rag'batlantirish usullaridan foydalanadi: kundalikka kirish, uzoq kutilgan voqeа, o'zini maqtash.

### **Maktab o'quvchilarining o'z-o'zini tarbiyalash xususiyatlari**

Yangi tug'ilgan chaqaloq tug'ilganda, biz aytamiz: "Erkak tug'ildi", ya'ni. biz uning biologik tug'iliши haqida gapiramiz. Ammo biologik rivojlanishning keyingi jarayoni o'zlarining kelib chiqishi bilan insonning biologik tabiatini bilan bog'liq bo'lмаган bunday fazilatlarni va xususiyatlarni egallash bilan chambarchas birlashadi (masalan: mahorat, odat, xulq-atvorni va boshqalarni o'zlashtirish). Nomlangan xususiyatlar va fazilatlar faqat in Vivo jonli shakllanishi va insonning ijtimoiy rivojlanishini tavsiflashi mumkin. Shunday qilib, "shaxs" umumiyl tushunchasi torroq va aniqroq tushunchani - "shaxsiyat" ni o'z ichiga oladi.

Biz shaxsiyatni quyidagi xususiyatlarga ko'ra baholaymiz:

1. Muayyan shakllangan ijtimoiy fazilatlar. Masalan: mas'uliyat, qadr-qimmat, individuallik, ijtimoiy faollik, qarashlar va e'tiqodlarning qat'iyligi.
2. Shaxsiyat o'ziga xos xulq-atvori va faoliyatini boshqarish imkoniyatini beradigan ruhiy rivojlanishning shunday darajasi bilan tavsiflanadi. O'zingizning harakatlaringiz haqida o'yash va ular uchun javobgar bo'lish qobiliyati shaxsning muhim va asosiy belgisidir.

A.I.Kochetov "Maktab o'quvchilarining o'z-o'zini tarbiyalashini tashkil etish" kitobida har qanday rivojlanayotgan hodisa singari shaxsiyat ham ziddiyatli, uning ichki dunyosidagi to'qnashuvlar, to'qnashuvlar, tanazzul va taraqqiyotning kuchayishi muqarrar. Shaxsiyat tushunchasi uning harakatlantiruvchi kuchlarini ajratmasdan imkonsizdir. Olimlarning fikri bir xil: qarama-qarshiliklar shaxsning o'z-o'zini tarbiyalashida harakatlantiruvchi kuchdir. Hozirgi vaqtida ilm-fan o'z-o'zini tarbiyalash jarayonining mohiyatiga kirib borish uchun etarli miqdordagi haqiqiy materiallarni to'plagan. O'z-o'zini tarbiyalash mexanizmi quyidagi xususiyatlarga ega: o'quvchi ijtimoiy mezonlarga muvofiq hayot maqsadlarini, ideallarini tanlaydi, o'zini jamiyatdagi hayotga tayyorlaydi, atrofdagi dunyonи yaxshilash bo'yicha jamoaviy faoliyatda takomillashadi. Ushbu o'z-o'zini tarbiyalash omillari o'rtasida murakkab o'zaro bog'liqlik va qarama-qarshiliklar mavjud: hayotning maqsadi bitta bo'lishi mumkin, va ehtiros - boshqa sohada, natijada o'zini yaxshilash istagi va haqiqiy o'zini o'zi tarbiyalash o'rtasida nomuvofiqlik paydo bo'ladi va hokazo. va qarama-qarshiliklarni har doim ham o'quvchining kuchi bilan hal qilish mumkin emas.

A.I.Kochetov o'z ishida o'zini o'zi tarbiyalash parametrlarini belgilaydi:

- a) yo'nalish, ya'ni o'z ustida ishslash motivlari.

v) barqarorlik (tasodifiy, epizodik, doimiy).

d) shaxsni shakllantirishdagi samaradorlik (asosiy va yordamchi funktsiyalarni bajaradi).

O'z-o'zini tarbiyalashda etakchilikning asosiy tarbiyaviy vazifasi shundaki, ushbu qarama-qarshiliklarning echimi bog'liq bo'lgan ijobiy fazilatlarni shakllantirish va o'z-o'zini anglash, g'ayrat, yo'naliш, o'zini boshqarish qobiliyati va boshqalar kabi omillarni amalga oshirish zarur. A.I.Kochetovning "Maktab o'quvchilarining o'z-o'zini tarbiyalashini tashkil etish" kitobida aytilganidek, boshlang'ich maktab yoshida o'z-o'zini tarbiyalashning chegaralari yangi faoliyat turi - ta'limning paydo bo'lishi bilan belgilanadi.

Bu irodali fazilatlarni, mas'uliyatni, kollektivizmni rivojlantirishga qaratilgan va bolani tarbiyaviy vazifalarni muntazam va vijdonan bajarishga o'rgatish bilan bog'liq.

A.I.Kochetov o'z-o'zini tarbiyalashga yordam beradigan qoidalarni taklif qiladi "**Besh ehtiyoj**":

1. Har doim ota-onalarga yordam bering.
2. O'qituvchilarning vijdonan o'qish talablarini bajarish.
3. Rostgo'y bo'ling.
4. Shaxsiy manfaatlarni jamoaviy manfaatlarga bo'ysundirish.
5. Har doim va hamma joyda yaxshi niyat bilan harakat qiling.

**"Beshta mumkin":**

1. Ish juda zo'r bo'lganida zavqlaning va o'ynang.
2. Xafagarchilikni unuting, lekin kimni va nima uchun o'zingizni xafa qilganingizni eslang.
3. Muvaffaqiyatsiz bo'lgan taqdirda ko'nglingizni yo'qotmang, qaysar bo'lsa, baribir ishlaydi!
4. Agar ular sizdan yaxshiroq ishlasa, boshqalardan o'rganing.
5. Agar bilmasangiz so'rang, o'zingizni boshqara olmasangiz yordam so'rang.

**"Bu sizga o'zingizga kerak!":**

1. Rostgo'y bo'ling! Insonning kuchi haqiqatda, uning kuchsizligi yolg'ondir.
2. Mehnatsevar bo'ling! Yangi biznesdagi muvaffaqiyatsizlikdan qo'rwmang. Qat'iy bo'lgan kishi muvaffaqiyatsizliklardan muvaffaqiyatga erishadi, mag'lubiyatlardan g'alaba qozonadi.
3. Hamdard va g'amxo'r bo'ling! Esingizda bo'lsin, agar siz boshqalarga yaxshi munosabatda bo'lsangiz, sizga yaxshi munosabatda bo'lishadi.

4. Sog'lom va toza bo'ling! Ertalabki mashqlarni bajaring, o'zingizni tuting, har kuni sovuq suv bilan o'zingizni beliga yuving, qo'llaringizni toza tuting, kuniga bir soat sayr qiling va ish yoki sportga yana bir soat bering.

5. Diqqatli bo'ling, diqqatni o'rgating! Yaxshi e'tibor o'qishdagi xatolardan va o'yin, ish va sportdagi muvaffaqiyatsizliklardan himoya qiladi.

**"Buni amalgा oshirish mumkin emas!"**:

1. Dangasa va mas'uliyatsiz, zahmsiz o'rganish.

2. Qo'pol munosabatda bo'lish va tengdoshlari bilan janjallashish, yoshlarini xafa qilish.

3. Kamchiliklaringizga toqat qiling, aks holda ular sizni yo'q qiladi. O'zingizning zaif tomonlaringizdan kuchliroq bo'ling.

4. Yaqin atrofdagi bolani xafa qilganda, do'stingizni masxara qilganda, halol odamlarning ko'z o'ngida ochiqdan-ochiq yolg'on gapirganda o'ting.

5. Agar o'zingiz ham o'sha kamchilikka duch kelsangiz, boshqalarni tanqid qiling.

**"Besh yaxshi":**

1. O'zini tuta bilish, adashmaslik, qo'rqlamaslik, mayda-chuyda narsalarga dosh berolmaslik

2. Har kuningizni rejaliashtiring.

3. Sizning harakatlaringizni baholang.

4. Avval o'ylab ko'ring, so'ngra bajaring.

5. Avvalo eng qiyin narsalarni qabul qiling. Qoidalar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Birinchidan, bola beshta shartga muvofiq yashashni o'rganadi. Bu shuni anglatadiki, ushbu qoidalarni aniq bajarishda unga nisbatan yuqori talablar qo'yiladi. Shu bilan birga, nima qilmaslik kerakligi va nima uchun ko'rsatiladi. Biroz vaqt o'tgach, siz beshtasini yaxshi bog'lashingiz mumkin, chunki ularni tushunish va o'rgatish ancha qiyin.



**Ma'ruza 14  
MAVZU: BOSHLANG'ICH SINFLARDA "TARBIYA" DARSLARINI  
INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH.**

**R e j a :**

1. Innovatsion yondashuv asosida ta'lim-tarbiya jarayonida samaradorlikka erishish aspektlari.
2. Innovatsion yondashuv asosida tashkil etiladigan dars ishlanmasini tuzish.

**Tayanch tushunchalar:** tarbiya, tarbiya metodlari, tarbiya metodlarining turlari, innovatsiya, yangilik, aspect, kreativlik.....

**Mustaqil ta'lim topshirig'i**

<b>Mavzu</b>	<b>Foydalaniladigan adabiyotlar</b>	<b>Amalga oshirish shakli</b>
Innovatsion yondashuv asosida ta'lim-tarbiya jarayonida samaradorlikka erishish aspektlari	1. Salayeva M.S. Umumi pedagogika. Darslik. - Toshkent “Nodirabegim”. 2021. – 307 bet. 2. Ismatova Nargiza va boshalar. Tarbiya 1,2, 3,4. Darslik. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.: Toshkent – 2020	Innovatsion yondashuv asosida ta'lim-tarbiya jarayonida samaradorlikka erishish aspektlari haqida taqdimot tayyorlash.
Innovatsion yondashuv asosida tashkil etiladigan darslar	1. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviyishlar metodikasi.O‘quv qo‘llanma. - T.; 2019.258-bet. 2. Dexanova M.U. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. - T.; 2019	Innovatsion yondashuv asosida tashkil etiladigan dars ishlanmasini tuzish



### O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati

#### Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1. Salayeva M.S. Umumi pedagogika. Darslik. Toshkent. “Nodirabegim” nashryoti. 2021-yil.
2. Abdullayeva Sh. Umumi pedagogika. O‘quv qo‘llanma.Toshkent.O‘qituvchi nashryoti. 2021-yil.366-bet.
3. Istamova N . va boshqalar. Tarbiya 1,2,3,4. Darslik. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2020-yil.228-bet.
4. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2019-yil.400-bet.
5. Dexanova M.U. Tarbiyaviy ishlar metodikasi.O‘quv qo‘llanma.Toshkent-2019 yil.109-bet.
6. B.X.Xodjayev. Umumi pedagogika nazariyasi va amaliyotir. Darslik T:. Sano-standart. 2017-yil.328-bet.

#### Elektron ta’lim resurslari:

- 1.w.w.w.tdpu.uz
- 2.w.w.w.pedagog.uz
- 3.w.w.w.ziyonet.uz
- 4.w.w.w.edu.uz
- 5.tdpu-INTRANET.Ped

Ta’lim tizimida yangiliklar kiritish mazmuni va yo‘nalishlari masalasini o‘rganishga kirishishdan oldin “Pedagogik tizim” va “Pedagogik tizimda yangiliklar kiritish” tushunchasini aniqlab olaylik. Pedagogik jarayon bilamizki, pedagogik tizim asosida yo‘lga qo‘yiladi. Pedagogik tizim - bu tashkil etuvchilarning birlashtirilgan majmui bo‘lib, ular o‘zgarishlarda ham barqarorligicha qolaveradi. Agarda o‘zgarishlar (yangilik kiritish) qandaydir mumkin bo‘lgan chegaradan oshib ketsa, tizim buziladi, uning o‘rniga yangi boshqa hususiyatlari tizim yuzaga keladi. Pedagogik tizim - elementlarning juda mustahkam birlashuvindir. Har qanday pedagogik tizimning tuzilishi hozirgi davrda quyidagi elementlar yig‘indisidan iborat bo‘lib, ular o‘zaro bog‘liq holda quyidagi ko‘rinishga ega: o‘quvchi; tarbiyaning maqsadi; tarbiya mazmuni; tarbiya jarayoni; o‘qituvchilar (yoki TTV - ta’limning texnik vositalari); tarbiyaviy ishlarning tashkiliy shakllaridan

iborat bo‘ladi. Bu tizimning tarkibiy qismlaridan har biri har qanday darajada elementlarga bo‘lib, yoyib ko‘rsatilishi mumkin. Ko‘rilgan tizimni mukammal tarkibiy tuzilish emas deb hisoblashga asoslarimiz bor. Ko‘rsatib o‘tilganlarga qo‘sila olmaydiganlar pedagogik tizimning muhim tarkibiy qismlari, shuningdek, “natijalar”, “o‘quv tarbiyaviy jarayonni boshqarish”, “texnologiya”lardan iborat, deb ham hisoblashlari mumkin. Ular berilgan chizmadagi pedagogik tizim modelida ko‘zga tashlanadi. Maqsadlar natijalar bilan mos kelib, uzuksiz jarayon tashkil etadi. Maqsadlarning natija bilan to‘la mos kelishi pedagogik jarayonning ishonchi, o‘lchov ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogik tizim boshqaruv, birlashtiruvchi hamma tarkibiy qismlari nisbatan mustaqil qism hisoblanadi, chunki ular o‘z maqsad va tuzilishlariga egadir. Pedagogik tizimning tashkil etuvchi tarkibiy qismi sifatida alohida omillar birligi deb ta’kidlagan holda ularni ko‘pincha, o‘quv-tarbiya jarayonining texnologiyasi deb ko‘rsatadilar. Bunday yondashishda pedagogik tizim ko‘zlangan maqsadga erishishni ta’minlaydigan mustahkam tashkiliy texnologik kompleks bo‘ladi. Shuni ta’kidlash kerakki, pedagogik tizim har doim ham texnologiyadir. Ana shu belgisi bo‘yicha pedagogik tizimning tarkibiy qismlar ixtiyoriy “to‘plamidan” ajratib olish osondir. Texnologiya - bu qat’iy tashkiliy mantiqqa bo‘ysunuvchi imkoniyatlarini belgilovchi tizimning ichki sifatidir. Shu bilan birga topshiriqni baholash darajasining o‘zidayoq, texnolog ma’lum jarayonlar hamda hodisalarga tayanadi. Ma’lum jarayonlar muvaffaqiyat ifodasining dalili sifatida foydalilanadi, ajoyib xodisalar natijalari esa yangi sabab va formula manbalari sifatida amalga oshiriladi. O‘quv texnologiyalarni loyihalashtirish metodik “tajribalarni umumlashtirishdan” farqli “mumkin emas” xulosasini bermaydi. Texnolog uchun bu faqatgina vaqt va harajatlar masalasidir. Texnolog faqatgina yaxshi ma’lum, tekshirib ko‘rilgan, asoslangan, shubha qilinmaydigan fikrlarga asoslanadi. Texnolog tajribalar o‘tkazmay, aniq ko‘zlangan natijalar bilan ish olib boradi. Texnologiya variantlikka yo‘l qo‘ymaydi uning asosiy vazifasi -aniq kafolatlangan natija olishdir, u har doim ham asosiy yechimida oddiyidir. Asosiy yechimni tushunish qolgan hammasini, o‘zaro zarur elementlar tizimi, tartibining mazmunini ochib beradi. Texnologiyadan hech bir qismini olib tashlab bo‘lmaydi, u yerda ortiqchasi bo‘lmaydi, bo‘lishi mumkin ham emas. Bu juda murakkab holat, har ikkinchi o‘qituvchi izlash - tadqiqotchilik tartibida ish olib boradi va shu bilan bolaning maktabdagi hayoti natijasining noaniqligini kuchaytiradi. Har doim, ayniqsa “aniq” fanlar deb nomlanuvchi yo‘nalish vakillari orasida pedagoglarni harakterlari uchun koyib turuvchilar topiladi va ular har galgidek pedagogika tizimi modellarini reviziya qilish va moderizatsiyalashdan boshlaydilar. Endi quyida pedagogika tizimida sodir bo‘ladigan jarayonlarniig ba’zi prinsipial harakteristikalarida to‘xtalib o‘tamiz.

Pedagogik tiziminining har bir aniq modifikatsiyasi ko‘zlangan natijaga erishishi aniq hususiyat va imkoniyatlarga ega degan qoidadan kelib chiqamiz. Bu imkoniyatlar tiziminining aniq hususiyatlari bilan qat’iy belgilab qo‘yilgan. Bu tarzda biz ta’lim va tarbiyaviy jihatdan ko‘zlangan daraja va sifatga erishmoqchi bo‘lsak, unda shunga mos pedagogik tizim haqida o‘ylashimiz kerak va uning ishlashi pedagogik jarayonning kerakli yo‘nalishi va intensivligini ta’minlashi zarur. Buning natijasi, o‘quv-tarbiyaviy jarayonning yanada yuqoriyoq samaradorligi, har doim pedagogik tizimni takomillashtirish oqibatidir. Bu juda murakkab muammo, ularni ishlab chiqishga dunyoda endi kirishilmoqda. Hozirgi, umumiy ko‘rinishga juda ko‘p ko‘rinishli ko‘rsatgich, “harajat” va “natija”larni to‘plash mumkin bo‘lmoqda va ushbu muammoning foydalilagini aniqlash esa uni iqtisodiy nuqtai nazardan hal qilish imkonini beradi. Intuitiv va sub’ektiv baholarni juda oson noto‘g‘ri deyish mumkin va bu yerda vaziyatdan chiqish faqatgina fikrlarni to‘plashdan iborat bo‘ladi. Har qanday pedagogikaning maksimal umumiy samarasi 100% ko‘zlangan maqsadga to‘la erishilgan xisoblanib, agar tarbiyachilar uchun ilgari erishilgandan pastroq darajada bo‘lmasa mumkin bo‘ladi. Yana biron-bir pedagogik tizim tuzilishiga nazar tashlaylik, u “yomon” va

“yaxshi” pedagogik tizim uchun ham birdir. Uning uchun o‘qituvchi ham birdir. Uni o‘qituvchi, o‘quvchilar munosabatigacha soddalashtiramiz. Bu munosabatlar ilgari o‘rganilgan edi va umumiy xulosa ma’lum: deyarli 50% o‘qituvchidan, 50% esa o‘quvchiga bog‘liq. Bundan kelib chiqadiki, masalan: eng yomon pedagogik tizimning samaradorligi, aytaylik o‘qituvchi, umuman hech qanday harakatlarni amalga oshirmagan holda, ammo tizim ishlasa 50% dan kam bo‘lmaydi. An’anaviy pedagogik tizimning foydali harakat koeffitsenti 60% dan oshmaydi deb hisoblanadi. Bu esa maktab tarbiyalanuvchilarining faqatgina yarmidan ozgina ko‘prog‘i dasturni to‘la o‘zlashtira oladi deganini bildiradi. Yana bir muhim fikr, tizimning umumiyligini nazariyasidan ma’lumki tizimni baravariga bir necha parametrlar bo‘yicha yaxshilash mumkin emas. To‘g‘ri yo‘l yangilikni asta-sekin, uning foydaliliga ishonch hosil qilib, har tomonlama tekshirib ko‘rib, keyingi ishlarni o‘ylab kiritishdan iborat. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki har bir yaratilgan yangilik oldiniga albatta ilgarigisidan ham yomon ishlaydi. Chunki bu jarayonni o‘rganish, moslashish, sustkashlikni yengish kerak. Pedagogik tizimni takomillashtirishning asosiy yo‘llari ikkita: intensiv va ekstensiv. Intensiv rivojlanish pedagogik tizimni ichki imkoniyatlar xisobiga, ekstensiv yo‘l esa qo‘srimcha kuchlar jalb etish - ya’ni, vositalar, asbob-uskunalar, texnologiyalar xisobiga takomillashtirishni ko‘zda tutadi.

Pedagogik texnologiyaning, intensiv rivojlanish imkoniyatlari tugagan deb hisoblanadi: maktabning mavjudligi ming yilliklar davomida hamma yo‘llarni sinab ko‘rib bo‘lgan, hozirgi pedagogolar nasibasi qaytarish, tarbiya mazmuni va vazifasini, mantiqiy chuqur esga olish, uning birlamchi asoslariga chuqur tushib borishdan iborat. Yana bir bor qaytarib aytamiz, agarda maktab hali o‘lмаган bo‘lsa agarda u yashayotgan, rivojlanayogan va bolalarni o‘qitayotgan bo‘lsa, bu faqatgina o‘zining konservativ tabiatini hisobigadir. Ba’zi nazariyotchilar aytadilarki, juda yaqin vaqt ichida pedagogikada innovatsiya bir ma’noni - orqaga, o‘tmishga, o‘ylab va oqilona tarbiyalash, ma’naviy tarbiyalovchi, yangiliklarsiz va tirishishlarsiz tinch tizimga qaytishnigina bildiradi degan fikrni aymoqdalar. G‘arb maktablari ekstensiv yo‘l bilan pedagogik mahsulotni yangi informatsion texnologiyalar, vaqtini turli xil o‘quv faoliyatlariga taqsimlash, sinfdagi differensatsiya va individuallashtirish hisobiga oshirish bilan rivojlanib bormoqda. Shu bilan pedagogik mahsulot sifati yaxshilanmoqdaki, bu savol aniqligicha qolmoqda: ko‘pchilik mustaqil ekspertlar bunga ishonchsizlik bildirmoqdalar. Bu holatdan chiqish yo‘li “O‘zaro bog‘liqlikdagi innovatsiya (yangiliklar)” deb ataluvchi, intensiv va ekstensiv yo‘llarni birlashtirishga imkon beruvchi pedagogik tizim rivojlanishi hisoblanadi. Bu pedagogikaning foydalanish imkoniyatlarini chuqur tekshirishni talab qiladi, bu esa ular turli ko‘rinishdagi turli harakterli va turli darajadagi pedagogik tizim tashkil etuvchilari uchrashgan nuqtada namoyon bo‘ladi. Bo‘sish joylarini yangi texnologiyalar bilan mustahkamlab, pedagogik tizimning umumiyligini yaxshilashga urinsa bo‘ladi. Bunday yondashishda innovatsiya o‘ylab topilgai “tashqi” chora bo‘lib ko‘rilmaydi, balki chuqur mazmunli talab va tizimni bilish, anglab yetilgan qayta tuzish hisoblanadi. Agar shunday nuqtai nazar bilan innovatsion chaqirqlarga qaralsa ularda deyarli yangi jihatlar yo‘qdek tuyuladi. Jumladan, eski muammolarni hal etish uchun yangi “retsept”lar ham yo‘q.

Umuman olganda innovatsion g‘oyalarga insoniyat taraqiyoti jarayoni haqidagi yangi bilimlarga asoslangan, pedagogik muammolarni hal qilishga ilgari qo‘llanilmagan nazariy yondashuvlar, aniq amaliy texnologiyalardan olingan yuqori natijalarini kiritishga majburmiz. Pedagogika fanida berilgan g‘oyalarni ishlanganlik darajasining muvofiqlik jihatlari bo‘yicha umumiyligini qisman innovatsion loyihibar miqdori, shuningdek, pedagogik amaliyotda ulardan foydalanishning tahliliy umumiyligini pedagogik innovatsiyalarga kiritish imkonini berdi. Nazorat shakllari: tayanch konsept bo‘yicha yozma ish, mustaqil ishlarni, baland ovozda so‘rash, magnitafonda, juftlikda o‘zaro nazorat, guruhdagi o‘zaro nazorat va uy nazorati, o‘z-o‘zini

baholash. O‘quvchi tomonidan olingan har bir baho bilimlar uchun maxsus ochilgan ko‘zguga qo‘yib boriladi. U go‘yo o‘quvchiga xizmat qiladigan ro‘yxat vazifasini bajaradi. Baholar yesa ijobjiy shifrlangan tavsifnomaga ahamiyatiga yega bo‘ladi. Bunday tavsifnomani ye’lon qilish katta tarbiyaviy ahamiyatga yega bo‘ladi. Bu tavsifnomaning yeng muhim tomoni shundaki, unda o‘quvchi xohlagan vaqtida har qanday bahoni nisbatan yuqori bahoga o‘zgartirishi mumkin. Ochiq imkoniyat tamoyilining mohiyati ham shunda. Har bir baho, - deb ta’kidlaydi V.F. Shatalov, awalambor, o‘quvchida ijobjiy ye’tiborni qo‘zg‘atadigan vosita, turtki bo‘lib xizmat qilishi lozim. Ikki baho salbiy hislarga sabab bo‘ladi hamda o‘qituvchi va fan bilan ziddiyatni keltirib chiqaradi. Shatalov bunday konfliktli vaziyatlarni bartaraf qiladi. V.F. Shatalov tomonidan ishlab chiqilgan o‘quv faoliyatini tizimi maktab o‘quvchilarida eksperiment qilingan, lekin uning metodikasi matematika o‘qitish doirasidan chiqib, nafaqat tabiiy fanlar, balki gumanitar fanlar: til, tarix kabi fanlarni o‘qitishda ham keng tarqaldi. G.K. Selevko pedagogik texnologiyani rejalashtiriladigan natijalar bilan birga boshqariladigan tizim deb ta’riflaydi. Texnologik jarayon tuzilmasini axborotlarning uch asosiy harakat yo‘nalishi bilan tavsiya etiladi. Bu tuzilmada G.K. Selevko uch shahobchani belgilaydi:

1. Asosiy shahobcha — mazmunning harakati bo‘lib, u axborotning manba (o‘qituvchi) dan qabul qiluvchi (talaba) ga uzatish (o‘quvchilar ye’tiboriga uzatish, o‘quv-bilish faoliyatiga rahbarlik qilish, o‘quvchilar tomonidan bilimlarni idrok yetish, o‘zlashtirish va mustahkamlash). Unda axborotlarni qo‘srimcha boshqarish manbalari — kitoblar, texnik vositalar, kompyuterlar va o‘quvchi tomonidan ularni mustaqil idrok etish (o‘z-o‘zini boshqarish jarayoni) muhim holat hisoblanadi.
  2. Boshqarishga ta’sir o‘tkazish shahobchasi. U o‘z ichiga rejalashtirishni (strategik va taktik), ta’limiy axborotlarning asosiy psixologik harakati korreksiyasini qamrab oladi.
  3. Jarayonlar haqidagi (qayta bog‘lanish, nazorat, baholash, qo‘srimcha axborotlar shahobchasi) axborotlar o‘qituvchidan o‘quvchiga uzatilish shahobchasi.
- O‘quv jarayonining samaradorligi:

- o‘quv axborotlari mazmunining yeng maqbul tuzilmasi;
- boshqarish samaradorligi va bilish faoliyatini tashkil etish;
- axborotlarni o‘zlashtirishda individual o‘z-o‘zini boshqarish imkoniyatlaridan foydalanish;
- axborotlarni o‘zlashtirishning samarali nazoratini tashkil etishga bog‘liq. Tayanch sxemalar izohidan foydalangan holda istiqbolli o‘qitishni boshqarish S.N. Lisenkova texnologiyasi. Bu texnologiya asosida quyidagilar yotadi:

- hamkorlik pedagogikasiga bo‘lgan shaxsiy yondashuv;
- o‘zlashtirish (muvaffaqiyat) - o‘qitish jarayonida bolalar rivojlanishining eng muhim sharti;
- sinfdagi fayz: xayrixohlik, o‘zaro yordam;
- xatolaridan ogoh qilish, lekin xatolar ustida ishslash emas;
- o‘quv materialining ketma-ketligi, izchilligi;
- vazifaning har bir o‘quvchiga qulayligi va ularga alohida-alohida bo‘lib berilishi;
- asta-sekin to‘liq mustaqillikka o‘tish;

- bilag‘on o‘quvchi vositasida bilmaydigan o‘quvchilarni o‘qitish.

S.N.Lisenkova metodikasining xususiyati shundaki, qiyin mavzular dasturda belgilangan soatlarda emas, balki undan oldin o‘rganila boshlanadi. Bu istiqbolli tayyorgarlikdir. Istiqbolli tayyorgarlik o‘rganilishi yaqinlashib kelayotgan qiyin mavzularni yo‘l-yo‘lakay o‘tishning boshlanishidir. Umumlashtirish bu muayyan bilimlar asosidagi mavzuni umumlashtirishdir. S.N.Lisenkova metodikasi asosida materialni o‘zlashtirish uch bosqichda kechadi:

1. Kelgusida o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilimlarni oldindan kichik hajmlarda berib borish;
  2. Yangi tushunchalarni aniqlashtirish, ularni wnumlashtirish va qo‘llash;
  3. Fikrlash usullari va o‘quv xatti-harakatlarining ravonligini rivojlantirish.
- Inge Unt, A.S. Graniskaya, V.D. Shadrikov tadqiqotlarida individual o‘qitish o‘quv jarayonini tashkil etish shakli, modeli sifatida belgilanadi. Unda:
- pedagog faqat birgina talaba bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi;
  - bir talaba faqat o‘qitish vositalari (kitoblar, kompyuter va b.) bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi. Individual o‘qitishda faoliyatning mazmuni, metodlari va surati talabaning xususiyatlariga moslashtiriladi. Shaxsiy yondoshish deganda:
  - pedagogikaning tamoyili bo‘lib, unga ko‘ra pedagog o‘quv — tarbiya ishlari jarayonida talabalarning shaxsiy xislatlarini hisobga olgan holda ayrim talabalar bilan individual model bo‘yicha o‘zaro munosabatda bo‘lish hamda individual xususiyatlarga asoslanish;
  - o‘quv jarayonida talabalarning individual xususiyatini hisobga olish;
  - barcha talabalarning rivojlanishigina emas, balki har bir talabaga alohida rivojlanish uchun psixologik-pedagogik tadbirlaryaratish tushuniladi. O‘qitishni individuallashtirish:
  - o‘quv jarayonini tashkil yetish bo‘lib, unda o‘qitish usullari, suratini tanlash talabaning individual xususiyatlari bilan bog‘lanadi;
  - individual yondashuvni ta ‘minlovchi turli o‘quv-metodik, psixologik-pedagogik va tashkiliy-ma ‘muriy tadbirlardir.

Zamonaviy texnik vositalar yordamida 100-150 kishidan iborat katta guruhlarda yuksak malakali o‘qituvchilar, proffessorlar leksiya o‘qiydilar. 10-15 kishidan iborat kichik guruhlar esa leksiya materiallarini muhokama qiladilar, babs yuritadilar. Individual ishlar esa maktab kabinetlarida, laboratoriylarida o‘tkaziladi. Leksiya mashg‘ulotlariga 40%, kichik guruhlardagi mashg‘ulotlarga 20%, kabinet va laboratoriyalardagi individual ishlarga yesa 40% ajratiladi. Odatdagagi sinf tushunchasi yo‘q, kichik guruhlar ham doimiy emas. Dasturlashtirilgan o‘qitish XX asrning 50-yillari boshida paydo bo‘ldi. U amerikalik psixolog B.Skinner<sup>11</sup> nomi bilan bog‘liq. U materiallarning o‘zlashtirilishini boshqarishning samaradorligini oshirishda, axborotlarni qismma-qism uzatishning mutnazam programmasi asosiga qurish va uni nazorat qilishni tavsiya etdi. V.P.Bespalko bilish faoliyatini tashkil yetish va boshqarish namunasidagi pedagogik texnologiya tasnifini tavsiya etdi. U o‘qituvchi va ta’lim oluvchi (boshqariluvchi) munosabatlarini quyidagicha belgilaydi:

- berk- (o‘quvchilarning nazorat qilinmaydigan va tuzatilmaydigan faoliyati);
- davriy (nazorat, o‘z-of‘zini nazorat qilish, o‘zaro nazorat);

- tarqoq — (frontal) yoki yo‘nalganlik (individuallik);
- goh (og‘zaki) yoki avtomatlar (o‘quv vositalari) orqali.

- Dasturlashtirilgan o‘qitishning beshta asosiy tamoyili farqlanadi:
1. Boshqarish qurilmalarining muayyan bosqichliligi (ierarxiya) tamoyili. Bu programmalashtirilgan o‘qitish texnologiyasining ierarxiya tuzilmasida avvalambor pedagog turadi, va bu fanda dastlabki umumiy mo‘ljal hisoblanadi; o‘qitishning murakkab nostandard vaziyatlarida individual yordam va korreksiya o‘rin oladi.
  2. Qayta aloqa tamoyili. U o‘quv faoliyatining har bir tadbiri bo‘yicha o‘quv jarayonini boshqarishning davriy tashkil yetish tizimini talab qiladi. Bunda awalo to‘g‘ri aloqa o‘rnataladi - zaruriy harakat obrazi to‘g‘risidagi axborot boshqaruvchi obektdan boshqariluvchiga uzatiladi. Qayta aloqa, V.P.Bespalko ta’kidlashicha, pedagog uchungina emas, balki ta’lim oluvchiga ham zarur birinchisiga korreksiya uchun, ikkinchisiga esa o‘quv materialini tushunish uchun. Ichki va tashqi qayta aloqa ham mavjud. Ichki qayta aloqa ta’lim oluvchilarning o‘z natijalarini va o‘zining aqliy faoliyati xarakterini mustaqil korreksiya qilish uchun xizmat qiladi. Tashqi qayta aloqa ta’lim oluvchiga bevosita o‘quv jarayonini boshqaruvchi qurilmalar vositasida yoki pedagog tomonidan ta’sir etishda amalga oshiriladi.
  3. O‘quv materialini yoritish va uzatishda amalga oshiriladigan odimlovchi texnologik jarayon tamoyili. Odimlovchi o‘quv tadbiri — bu texnologik usul bo‘lib, unda o‘kuv materiali programmada axborot bo‘laklari va o‘quv vazifalari (bilim va malakalarni samarali o‘zlashtirishni ta’minalashga xizmat qiladigan va ta’lim oluvchining bilimlarni o‘zlashtirishning muayyan nazariyasini aks ettirgan)ning kengligi bo‘yicha alohida, mustaqil, lekin o‘zaro bog‘langan va optimal bo‘lgan qismlardan iboratdir. To‘g‘ridan-to‘g‘ri va qayta aloqa uchun zarur bo‘lgan axborotlar to‘plami, bilish harakatlari va qoidalarining ta’limiy programma odimini hosil qiladi. Bu odim tarkibiga uch o‘zaro aloqador kadr (zveno) qo‘shiladi: axborot, qayta aloqa tadbiri va nazorat. Odimlovchi o‘quv tadbirderi izchilligi programmalashtirilgan o‘qitish texnologiyasi asosini tashkil etuvchi ta’limiy programmani hosil qiladi.
  4. O‘qitishda individual namuna va boshqarish tamoyili davom ettiriladi. Bu tamoyil ta’lim oluvchining har biriga shunday axborot jarayonini yo‘naltiradi va tavsiya etadiki, u ta’lim oluvchiga mashq jarayonida, tezlikda oldinga siljishga imkoniyat beradi, chunki uning bilish kuchi unga muvofiq ravishda boshqaruvchi tomonidan uzatilgan axborotga, moslashishga qulay bo‘ladi.
  5. Programmalashtirilgan o‘quv materialini uzatish uchun maxsus texnik vositalardan foydalanish tamoyili.

Programmalashtirilgan o‘qitish texnologiyasini ilmiy asoslash bir qator ta’limiy programmalarni farqlash imkoniyatini beradi:

- rayon programmalar;
- tarmoqlanuvchi programmalar;
- soddalashtirilgan programmalar;
- aralash programmalar;

- algoritm;
- blokli o‘qitish;
- modulli o‘qitish;
- bilimlarni to‘la o‘zlashtirish;

Ravon programmalar – bu nazorat topshiriqlari va o‘quv axborotlarining almashinib turuvchi u qadar katta bo‘lmagan bloklari ketma-ketligidir. Ravon programmada ta’lim oluvchi to‘g‘ri javob berishi shart. Ba’zan yehtimol deb topilgan javoblardan birini shunchaki tanlaydi. To‘g‘ri topilgan javobda u yangi o‘quv axborotiga ega bo‘ladi. Agar javob to‘g‘ri chiqmasa, axborotni qaytadan o‘rganishga tavsiya etiladi. Tarmoqlanuvchi programma. Ta’lim oluvchi noto‘g‘ri javob berganda, unga qo‘sishimcha o‘quv axboroti beriladi va u ta’lim oluvchiga nazorat topshiriqlarini bajarish, to‘g‘ri javob qaytarish va o‘quv axborotlarining yangi bo‘laklarini olish imkoniyatini beradi.

Soddalashtirilgan programma. U ta’lim oluvchiga yangi o‘quv materialini murakkablik darajasiga qarab tanlab olish, uni o‘zlashtirish jarayonida u yoki bu tarzda o‘zgartirish, oddiy ma’lumotnomasi, lug‘at va qo‘llanmalardan foydalanish imkoniyatini beradi. Modulli o‘qitish. U modullar bo‘yicha tuzilgan o‘quv programmalari assosida o‘qitishni tashkil yetishdir. Modul kurs mazmunini uch sathda qamrab oladi: to‘la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan. Programma materiallari bir vaqtning o‘zida barcha yehtimol ko‘rilgan kodlarda: rasm, test, ramzlar va so‘z bilan berilishi mumkin. O‘qitish moduli o‘quv materialining avtonom (mustaqil) qismi bo‘lib, quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

- aniq ifodaga ega bo‘lgan o‘quv maqsadi (maqsadli programma);
  - axborotlar banki: o‘qitish programmasi shaklidagi ayni o‘quv materiali;
  - maqsadlarga erishish bo‘yicha metodik qo‘llanma;
  - zaruriy malakalarni shakllantirish bo‘yicha amaliy mashgulotlar;
  - qo‘yilgan modul maqsadiga qatiy muvofiq keluvchi nazorat ishi.
- Bilimlarni to‘la o‘zlashtirish texnologiyasi. O‘quv materiallari bir necha bo‘laklaiga bo‘linadi: o‘zlashtirilishi tegishli bo‘lgan o‘quv unsurlari, undan so‘ng bo‘limlar bo‘yicha tekshirish uchun materiallar ishlab chiqiladi, undan so‘ng o‘qitish, tekshirish — joriy nazorat, korrektirovka va qayta, o‘zgartirilgan tarzda ishlab chiqish - o‘qitish. Hozirgi davr o‘quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish bilan xarakterlidir. Pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim texnologiyalarining ilmiy asoslarini ishlab chiqish, pedagogik innovatsiyalar, mualliflik maktablari va yangi texnologiyalarni eksperiment qilish bilan bog‘liqdir. Bu tajribalar muayyan tizimni ishlab chiqish va umumlashtirishni talab etadi. “O‘qitish tizimining qurama texnologiyasi” saviyasiga va darslarda mavzu bo‘yicha davriylikni rivojlantirishga ko‘ra sind ichidagi o‘qitishning tabaqaqlashtirilishi deb qaraladi, Darslar har bir mavzu bo‘yicha ketma-ket joylashgan besh tipdan iborat bo‘ladi:

- 1) mavzuni umumiyl tahlil qiluvchi darslar (ular leksiyalar deb yuritiladi);
- 2) ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlari jarayonida o‘quv materialining chuqurlashtirib ishlab chiqishini ko‘zda tutgan, tuzilgan seminar mashg‘ulotlari (bunday darslar uchtadan beshtagacha bo‘lishi mumkin);

- 3) bilimlarni umumlashtirish va tartibga tushirish (gurahlash) darslari (mavzular bo‘yicha sinovlar);
- 4) fanlararo materiallarni umumlashtirish (mavzular bo‘yicha vazifalarni himoya qilish);
- 5) dars-praktikumlar.

Keyingi bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarining saviyalariga ko‘ra tabaqalashtirish ishlarini tashkil yetadi. Bu ish yangi materialni berish, uni mustahkamlash va takrorlash, bilim, malaka va ko‘nikmalarni nazorat qilish orqali amalga oshiriladi. Bu texnologiyada uchta tabaqalashtirishning turli darajadagi qiyinchiliklari: “A”, ”V”, ”S” dasturlari ajralib turadi. Dasturlar quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- muayyan darajadagi bilim, malaka va ko‘nikmalarni yegallashni ta ‘minlaydi;
- talim oluvchilarining ma ‘lum darajadagi mustaqilligini ta’minlaydi; ”S” dasturi tayanch standart sifatida qayd qilinadi. Uni bajarish orqali ta’lim oluvchilar fan bo‘yicha o‘quv materialini, uni qayta tiklay olish darajasida o‘zlashtiradilar. ”S” dasturi vazifalarini nisbatan qiyin dasturga o‘tmasdan oldin har bir o‘quvchi bajara olishi lozim.

“V” dasturi mavzuni qo‘llash bilan bog‘liq masalalarni yechish uchun zarar bo‘lgan o‘quv va aqliy faoliyatining umumiyligi va o‘ziga xos usullari bilan birga yegallashni ta’minlaydi. Ushbu dasturga kiritiladigan qo‘shimcha ma’lumotlar birinchi bosqich materiallarini kengaytiradi, asosiy bilimlarni isbotlaydi, namoyish yetadi va oydinlashtiradi hamda tushunchalarning amal qilish va qo‘llanishini ko‘rsatib turadi. «A» dasturi o‘quvchilarining bilimlarini to‘la anglash, ijodiy qo‘llash darajasiga ko‘taradi. Bu dasturda ijodiy qo‘llash istiqboli tobora takomillashib boruvchi ma’lumotlar, chuqurlashtiriladigan materiallar, hamda uning mantiqiy asoslanganligi joylashtirilgan. Materiallarni takrorlashda turli darajadagi vazifalarni yerkin tiklash metodikasi qo‘llanadi. Tabaqalashtirilgan vazifalarni nazorat qilishda individuallikka o‘tiladi va u chuqurlashtiriladi.



## **Ma’ruza 15** **MAVZU: BOSHLANG’ICH SINFLARDA “TARBIYA” DARSLARINI TASHKIL ETISHDA TARBIYAVIY TRENINGLAR.**

### R e j a :

1. Trening haqida tushuncha.
2. Tarbiyaviy treninglarning maqsad va vazifalari.

#### **Mustaqil ta’lim topshirig’i**

<b>Mavzu</b>	<b>Foydalanimadigan adabiyotlar</b>	<b>Amalga oshirish shakli</b>
Trening haqida tushuncha	Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2010 y. 309-bet.	Trening haqida tushuncha mavzusida taqdimot tayyorlash.
Tarbiyaviy treninglarning maqsad va vazifalari.	1.SarsenbayevaR.M. Tarbiyaviyishlar metodikasi.O‘quv qo‘llanma. - T.; 2019.122-bet. 2.Dexkanova M.U. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. - T.; 2019	Tarbiyaviy treninglarning o’tkazish bo‘yicha yo’riqnomalar tuzish.



## O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati

### Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1. R.A.Mavlonova, Б.Нормуродова. Тарбиявий ишлар методикаси. О‘кув qo‘llanma. Toshkent, “Fan” 2008 y. 144-bet.
2. R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.309-bet.
3. K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.O‘quv qo‘llanma.T.:O‘qituvchi 2010-yil.208-bet.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T:. Fan va texnologiyalar. 2010-yil.307-bet.

### Elektron ta’lim resurslari:

- 1.w.w.w.tdpu.uz
- 2.w.w.w.pedagog.uz
- 3.w.w.w.ziyonet.uz
- 4.w.w.w.edu.uz
- 5.tdpu-INTRANET.Ped

Ushbu texnologiya o‘quvchi-talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishslash, o‘rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so‘zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o‘quvchilarni baholay olishga qaratilgan.

Mazkur texnologiya bir mashg‘ulot davomida o‘quv materialini chuqur va yaxlit holatda o‘rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo‘naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo‘lgan mavzularni o‘rganishga yaroqli bo‘lib, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg‘ulot davomida har bir ishtirokchilarining turli topshiriqlarini bajarishi, navbat bilan o‘quvchi yoki o‘qituvchi rolida bo‘lishi , kerakli ballni to‘plashiga imkoniyat yaratadi.

“Bumerang” texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi: xotirani, g‘oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og‘zaki shakllarda bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ta’lim bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagи qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

-jamoa bilan ishslash mahorati:

- xushfe‘llik
- ko‘nikuvchanlik
- o‘zgalar fikriga hurmat
- faollik
- rahbarlik sifatlarini shakllantirish
- ishga ijodiy yondashish
- o‘z faoliyatining samaralimbo‘lishiga qiziqiszini xolis
- o‘zini xolis baholash.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Ochiq savollar- bu savollar muomala, so‘zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas.

Yopiq savollar – bu savollar oldindan “ha”yoki “yo`q” tipidagi to`g`ri, ochiq, javoblarini berishni ko`zda tutadi.

Ko`ndalang so`roq – bir-biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollar qatori bo`lib, bu o`ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni, opponentlar pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir.

Ko`ndalang so`roq paytida munozaraga kirishish mumkin emas. Bu vaqtida faqat savollar beriladi, munozaraga kirishilmaydi.

**Maqsad:** Trening davomida tinglovchilarga tarqatilgan materiallarni ular tomonidan yakka va guruh holatida o`zlashtirib olishlari hamda o`zaro suhbat-munozara orqali, turli savollar orqali tarqatma materiallar, undagi matnlar qay daraja o`zlashtirilganini nazorat qilish. Trening davomida o`quvchilar tomonidan baho ballarini egallahga imkoniyat yaratish.

## O`TKAZISH TEXNOLOGIYASI.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichida o`tkaziladi:

### I-BOSQICH.

- Trening to`g`ridan-to`g`ri tinglovchilarni 4-5 kishidan iborat kichik guruhlarga bo`lishdan boshlanadi;
- Trener har bir guruh va uning har bir a`zosiga mustaqil o`rganish, fikrlash va yodda saqlab qolish uchun alohida- alohida aniq yozma tarqatma material beradi(tarqatma material)da trener tomonidan tanlangan umumiy mavzu bo`yicha biron bir hajmdagi matn berilgan, ularning soni guruhlar va tinglovchilar soniga bog`liq. Agar 4 ta kichik guruh bo`lsa, u holda umumiy mavzu 4 ta kichik matnlarga bo`linib har bir guruhga beriladi.
- Faoliyat samarali bo`lishi uchun har bir tinglovchi esa o`z guruhiga tushgan matnga ega bo`ladi.

### II-BOSQICH.

- Guruhlarga berilgan matnni guruh a`zolari yakka tartibda alohida o`rganishlari, matnni eslab qolishlari, keyin esa kerak bo`lsa boshqalarga yoki trenerga gapirib berishlari, iloji boricha matnni katta kichikligiga qarab 10-15 daqiqa vaqt berabi.O`zi esa guruh va tinglovchilarni ish faoliyatini kuzatadi.

### III-BOSQICH.

- Trener oldindan tayyorlab qo`yilgan raqamlar yozilgan kichik qog`ozlar bilan har bir guruh yoniga kelib guruh a`zolaridan ushbu qog`ozlardan bittadan raqam tortib olishlarini so`raydi.(Qog`ozlar soni guruhdagi tinglovchilar soniga bog`liq, masalan, guruhda 5 kishi bo`lsa, qog`oz dagi raqamlar 1,2,3,4,5 etib tayyorlanadi, agar 4 ta bo`lsa 1 dan 4 gacha...). Guruhlardagi barcha tinglovchilar raqamlar yozilgan qog`ozdan olishlari kerak. Nechta guruh bo`lsa, shuncha guruh a`zolari soniga qarab raqamlar yozilgan qog`ozlar tayyorlanadi.

- Trener raqamlar bo`yicha tinglovchilardan yangi guruhlar tuzishlarini so`raydi. Masalan, hamma 1 raqamini olganlar bitta yangi guruh, 2 raqamlilar ikkinchi guruhnini, 3 raqamlilar uchinchi guruhnini,4 raqamlilar to`rtinchchi guruhnini, 5 raqamlilar, beshinchchi guruhnini tashkil etishlarini so`raydi. Guruh a`zolari yangi guruhga o`tishlarida o`zlari bilan o`rgangan matnlarini oladilar. **IV-BOSQICH.**
- Raqamlar bo`yicha guruhlar tuzilganda har bir yangi guruhda avvalgi guruhlardan bittadan vakillar o`z-o`zidan to`planib qoladi, ya`ni 4ta guruhda 4 xil matn o`rganilgan bo`lsa bu yangi guruhda har bittasidan bittadan vakil to`planadi, umumiy mavzu bo`yicha 4 tinglovchi va 4 xil matn to`planadi.

### V-BOSQICH.

- Yangi tuzilgan guruhning har bir a`zosi endi o`ziga 2 ta vazifa, ya`ni o`qituvchi va o`quvchi

vazifasini oladi va quyidagicha faoliyat ko`rsatadi:

1. O`qituvchi (o`rgatuvchi) sifatida, o`zi avval o`rgangan materialni gapirib beradi, tushuntiradi, o`zi mustaqil o`rgangan materialning asosiy joylariga barchani diqqatini jalb qiladi, boshqa guruh a`zolarining tushunish va o`zlashtirish qobiliyatlarini tekshiradi.

-O`quvchi sifatida, guruh a`zolarini navbatma-navbat so`zlab, tushuntirayotgan, gapirayotgan matnlarini eshitadi, tahlil qiladi, fikrlaydi va yodda saqlab qolishga harakat qiladi. Trener esa ularga o`z matnlarini faqat so`zlab berishlari kerakligini uqtiradi va bunga 20 daqiqa vaqt beradi (matn hajmiga va umumiyligiga mavzuning qiyin, osonligiga qarab vaqt ajratiladi). Bu bosqichda trening boshlanishida tarqatilgan barcha material tinglovchilar tomonidan o`zlashtilgan hisoblanadi.

## **VI-BOSQICH.**

Guruhdagilar bir-birlariga o`z matnlarini gapirib berib, barchalari ushbu matnlarni bilib olishgach, trener o`rganilgan material guruh a`zolari tomonidan qanchalik o`zlashtirib olinganligini teksirib ko`rish uchun har bir guruh a`zosi bir-birlariga o`z matnlaridan kelib chiqqan holda savollar berishlari mumkinligini tushuntiradi. Shunday qilib, guruh ichida ichki nazorat savol-javob orqali o`tkaziladi. Bu esa guruhdagi tinglovchilarni bir-birlariga so`zlab bergen materiallarini boshqalar tomonidan o`zlashtirilganlik darajasini aniqlashga, mustahkamlashga yordam beradi.

## **VII-BOSQICH.**

- Trener barcha tinglovchilarni yana qaytadan avvalgi joylariga qaytishlarini so`raydi, ya`ni yana hamma mashg`ulot boshlkanishidagi guruhlariga qaytadilar.

## **VIII-BOSQICH.**

- Trener auditoriyadagi tinglovchilarning barchasi hamma tarqatilgan yozma materiallar bilan tanish ekanliklari, ular haqida to`liq ma`lumotga ega bo`lganliklarini hisobga olgan holda auditoriyadagi har bir o`quvchidan xoxlagan materialni so`rashi mumkinligini aytadi.

## **IX-BOSQICH.**

- Tinglovchilarga tarqatilgan barcha materialni ular tomonidan qay darajada o`zlashtirilganligi darajadasini aniqlash madsadida trener-o`qituvchi, yoki maxsus guruh, yoki opponent guruhi tomonidan berilgan nazorat savollariga javoblarini reyting ballari orqali baholanishi tushuntiriladi, masalan, savollarga berilgan javoblarini reyting ballari orqali baholanishi tushuntiriladi, masalan, savollarga berilgan javoblar.

Agar to`liq javob bo`lsa-3 ball:

1. Qo`shimcha qilinsa-2 ball:
2. O`tirgan joydan luqma tashlansa-1 ball:
3. Javob berilmasa-0 ball qo`yilishi belgilanadi.

Baho sistemasida.

1. to`liq javob uchun -5 baho
2. qo`shimcha uchun – 4 baho
3. luqma tashlansa – 3 baho

4. javob bermasa – 2 baho
5. umuman ishtirok etmasa -1 baho qo`yishni belgilash mumkin.

Guruh a`zolarining javoblarini yuqorida ko`rsatilgan tartibda baholash, ballarni qoyib borish, umumlshtirish uchun har bir guruh o`ziga guruh qatnashchilardan buirini “hisobchi” etib tayinlashi mumkin (“hisobchi” ham davrada bo`layotgan savol-javoblar muloqotida ishtirok etadi).

#### **X-BOSQICH.**

- Ushbu bosqichda trener tarqatma materiallar asosida tuzilgan savollar (5-6) ta bilan o`quvchilarga murojaat qiladi( savollar iloji boricha hamma matnlarga tegishli bo`lgani ma`qul, shuningdek, trener doskaga guruhlar tomonidan to`plangan ballarni yozadi va mashg`ulotning keyingi bosqichiga o`tadi.

#### **XI-BOSQICH.**

- Trener-o`qituvchi har bir guruhni o`z yozma materiallarining mazmunidan kelib chiqqan holda bittadan savol tuzishlari uchun 5-7 daqiqa vaqt ajratadi.

#### **XII-BOSQICH.**

- Bu bosqichda guruhlar bir-birlariga savollar beradilar, guruhlardagi “hisobchilar” esa guruh a`zolarining javoblarini yuqorida belgilangan tartibda baholab boradilar. Javoblar to`g`ri bo`lsa, savol bergen guruh javobni to`ldirmaydi.

#### **XIII-BOSQICH.**

- Trener-o`qituvchi guruh a`zolari to`plangan ballarni yana bir marotaba doskaga yozadi va to`plangan ballar(baholar)ning umumiyl sonini guruh a`zolariga teppa-teng bo`ladi(yuqorida kelishanganlik asosida).

**IZOH:** Agar to`plangan ballarni guruh a`zolariga teppa-teng bo`lishda o`quvchilar tomonidan norozilik bo`lsa, ya`ni ba`zi guruh a`zolari guruhning faoliyatida passiv bo`lgan bo`lishsa, bunday holatda vaziyatni yechimi guruh a`zolariga yuklatiladi. Guruhning yechimi to`g`ri hissoblanadi, yoki trener-o`quvchi o`z fikrini bildirishi mumkin, chunki u dars jarayonida o`quvchilarning javoblari, faol yoki passivliklarni kuzatib boradi.

Umuman olganda, agar o`quvchi faollik ko`rsatmagan, yoki savol-javoblarda ishtirok etmagan bo`lsa, ham uning shu dars jarayonida biron narsani builib olgani, eslab qolib o`zlashtirganini hisobga olgan holda unga eng kichik ball berilishi mumkin.. Bu o`quvchini keyinchalik shu shakldagi darslarda faolloq bo`lishga undaydi. Yuqoridagi kabi vaziyat vujudga kelsa uni yechimini har bir o`qituvchi sharoitga, faoliyatiga qarab, o`zi hal etishi yoki guruh jamoaga tashlashi mumkin. Ba`zida guruhning “hisobchilari” ballarni qo`yishda noaniqlik yoki qo`shib yozishlari mumkin, natijada, ba`zida guruhlarning umumiyl to`plagan ballari boshqa guruhlarnikidan juda farq qilishi mumkin. O`quvchilarning haqqoniy baholanishlari ularning tanlagan “hisobchi”lariga bog`liq ekanligini trener-o`qituvchi eslatib o`tadi. Agar umumiyl to`plangan ballarni gruh a`zolariga taqsimlanganda shu mashg`ulot uchun belgilangan maksimal balldan ortib ketgan bo`lsa, u holda shu mashg`ulot uchun kerakli ballni olib qolib, ortiqchasini keyingi mashg`ulotlarga yoki yakuniy nazoratga o`tkazish mumkin.

#### **XIV-BOSQICH.**

- Har bir o`quvchiga ballar qo`yilgach (har bir o`quvchi baholangach) trener mashg`ulotga yakun

yasaydi. O`quvchi-talabalarining faoliyatiga baho beradi, berilgan javoblarga o`z fikrini bildiradi va quyidagi savollar bilan ularga murojaat qiladi:

1. bugungi mashg`ulotdan nimalarni bilib oldingiz?
2. Nimalarni o`rgagandingiz?
3. Nimalar sizlar uchun yangilik bo`ldi?
4. Yana nimalarni bilishni istar edingiz?

## **AQLIY HUJUM.**

Aqliy hujum guruhlararo ishlarda qo`llaniladigan, ko`plab g`oyalarni ishlab chiqish mumkin bo`lgan metoddir. Bu haqiqatan ham o`quvchilarning o`quv jarayonida faol ishtirok etishlari, turli g`oyalarni bayon qilish chog`ida boshqalarni ham qizg`in ishga yo`llashlari, turli g`oyalarni bayon qilish chog`ida boshqalarni ham qizg`in ishga yo`llashlari, ilhom bilan ishlashlariga imkon beruvchi va unga rag`batlantiruvchi metoddir. Aqliy hujum shuning uchun ham faollashtirishning muhim usuliki, unda tanho ishslash mumkin emas, birgina g`oya guruhning barcha ishtirokchilarini bir xilda o`ziga tortib oladi. O`qituvchi mavzu yoki savolni ajratib olishi zarur, keyin esa o`quv faolligi 5-10 daqiqa oralig`idagi vaqt chegarasida yengillashtiriladi. Aqliy hujum turli tarzda qo`llanilishi mumkin: masalan, qandaydir mavzuni muhokama qilish uchun, yangi savol qo`yish yoki istalgan qandaydir muammoni hal etish uchun.

## **ASOSIY QOIDALARI QUYIDAGILAR:**

1. Aytيلayotgan barcha g`oyalalar bir-biriga nisbatan muhimlikda tengdir.
2. Kiritilayotgan g`oyalarga nisbatan tanqid mavjud emas.
3. G`oyani taqdim etayotgan paytda so`zlovchining gapini bo`lmaslik.
4. So`zlovchiga nisbatan baholovchi component mavjud emas.
1. METOD-guruhning barcha ishtirokchilariga bir mavzu va bir savol qo`yiladi.
1. O`qituvchi o`quv jarayonida tashabbusni o`z qo`liga shunday tarzda oladi: u auditoriyadagi barcha o`quvchilarga savol beradi va qandaydir maxsus mavzuga daxldor barcha mumkin bo`lgan fikrlarni aytishni so`raydi.
2. Barcha, hatto axmoqona goyalarni ham aytishga ruxsat beriladi. Aytيلayotgan fikrlar ichida birgina asosiy mavzu saqlanib qolishi shart.
3. Birortasining ham fikri sharhanmaydi, tanqid qilinmaydi, baholanmaydi.
4. Asosiy fikrlarni o`qituvchi flip-karta, doskaga yozib oladi yoki ekranda ko`rsatadi.
5. Aqliy hujum tugagach, barcha g`oyalalar to`planishi, guruhlarga ajratilishi yoki kategoriyalarga bo`linishi mumkin.
2. METOD- barcha mavzu va savollar umumiy yo`nalishi saqlangan holda katta guruh tarkibidagi guruhchalariga taqdim etiladi.
1. O`qituvchi umumiy mavzu bo`yicha bir necha, balki 4-6 ta savol tayyorlashi mumkin.
2. Katta guruh kichik guruhchalarga ajratiladi va har bir guruhchaga aqliy hujum o`tkazish uchun alohida savol beriladi.

3. Har bir guruhcha aqliy hujum mahsulotini yozib olish uchun bittadan kishi ajratadi, keyinchalik, jarayon tugashi bilan uni guruhning barcha a`zolariga taqdim etadi.
4. G`oyalar har bir guruhcha tomonidan katta sahifaga markerdan fodalanib yozib linishi mumkin. Shunday sahifa- plakatning yuqorisiga tayyorlangan savollar yozib qo`yiladi. Sahifa-plakat jarayonning oxirida har bir xoxlovchi nima yozilgan va jamlanganligini ko`rishi uchun osib qo`yiladi.
5. Aqliy hujumning bu metodi vaqtning qisqacha davrida bir savolning bir necha jihatli ishlab chiqilishi zarur bo`lgan joyda, ayniqsa, foydalidir.
6. Oqituvchi rahbar-yordamchi sifatida harakat qiladi va bir guruhda ikkinchi guruhga aqliy hujum amalgam oshirilayotgan paytda o`tib turadi.

## AMALIY MASHG`ULOTLAR

### 1-amaliy mashg`ulot

**Mavzu:** Tarbiya fanining maqsad va vazifalari. Asosiy kategoriyalari

Reja:

1. Tarbiya fanini oqitish metodikasining bo`limlari.
2. Tarbiya fanini oqitish metodikasining mazmuni.
3. Tarbiya fanini oqitish metodikasining prinsiplari.

**Maqsad:** Tarbiya fanining maqsad va vazifalari va asosiy kategoriyalari haqida bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish.

### Asosiy darslik va o`quv qo`llanmalar

1. Salayeva M.S. Umumi pedagogika. Darslik. Toshkent. “Nodirabegim” nashryoti. 2021-yil.8-b.
2. Abdullayeva Sh. Umumi pedagogika. O`quv qo`llanma.Toshkent.O`qituvchi nashryoti. 2021-yil.209-bet.
3. Istamova N . va boshqalar. Tarbiya 1,2,3,4. Darslik. G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2020-yil.203-bet.
4. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O`quv qo`llanma. Toshkent-2019-yil.17-bet.
- 5.Dexqanova M.U.Tarbiyaviy ishlar metodikasi.O`quv qo`llanma.Toshkent-2019 yil. 23-bet.
6. B.X.Xodjayev. Umumi pedagogika nazariyasi va amaliyotir. Darslik T.: Sano-standart. 2017-yil .9-bet

Hozirgi kunda yoshlarni barkamol inson, o`z vatanining ilg`or kishisi sifatida tarbiyalash eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan yoshlar davlatimizning kelajagidir.

Yangi asrga qadam qo`yar ekanmiz mamlakatimizda chuqr, keng qamrovli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohatlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat ma`naviy yukasalishi va yangilanishi sari yuz tutgun bir paytda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 3-sentyabrdagi —Respublika ma`naviyat va ma`rifat kengashining qo`llab quvvatlash to`g`risida Farmoni zamiridagi g`oyalar, ulardan kelib chiqadigan asosiy maqsadlar ma`naviyatning ustuvorligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Xalqning ma`naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O`zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma`naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun Insoniyatning ulkan oilasida o`z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg`usi Bilan birgalikda yetilgan. Ma`naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o`giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma`naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi.

Talabalar ikki guruhga ajratiladi. Guruhlar nomlanadi. Quyidagi topshiriqlar beriladi:

1-guruh

1. Tarbiya fanining maqsadi mavzusida taqdimot tayyorlash.
2. 1-sinf “Tarbiya” darsligidan foydalanib, bir soatlik dars ishlanmasi tuzing.
3. Taqdimotga jamoa bo’lib tayyorlaning?  
Eslatma: 1) ishni bajarish vaqt -10 daqiqa  
2) natijalarni A 4 format qog’ozda rasmiylashtiring.

2-guruh

1. Tarbiya fanining vazifalari mavzusida taqdimot tayyorlash.
2. 1-sinf “Tarbiya” darsligidan foydalanib, bir soatlik dars ishlanmasi tuzing.
3. Taqdimotga jamoa bo’lib tayyorlaning?  
Eslatma: 1) ishni bajarish vaqt -10 daqiqa  
2) natijalarni A 4 format qog’ozda rasmiylashtiring.

Guruhlarning bajargan ishlari tahlil qilinadi, baholanadi.

**Topshiriq:** 1-sinf “Tarbiya” darsligidan bir soatlik dars ishlanmasini tuzish.

**2-amaliy mashg‘ulot**

**Mavzu:** Milliy tarbiya konsepsiysi. Tarbiya konsepsiyasining tarbiyaviy jarayondagi ahamiyati.

**Reja:**

1. Milliy tarbiya konsepsiysi.
2. Tarbiya konsepsiyasining tarbiyaviy jarayondagi ahamiyati.

**Maqsad:** Milliy tarbiya konsepsiysi haqida, tarbiya konsepsiyasining tarbiyaviy jarayondagi ahamiyati haqida tushuncha berish.

**Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar**

1. R.A.Mavlonova, B.Normurodova. Тарбиявий ишлар методикаси. О‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Fan” 2008 y. 88-bet.
2. R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.403-bet.
3. K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.O‘quv qo‘llanma.T.:O‘qituvchi 2010-yil.127-bet.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil.13-bet.

Milliy tarbiya asoschilaridan biri Abdulla Avloniyning — Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir! degan so‘zlar fiqrimizga dalil bo‘ladi. Respublikamiz hukumati tomonidan mustaqillikning ilk yillaridanoq, jismonan sog‘lom, ma’nан yetuk shaxs yaratishga e’tibor berila boshlandi. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik dasturlar, rejalar ishlab chiqildi.

Talabalar ikki guruhga ajratiladi. Guruhlar nomlanadi.

Quyidagi topshiriqlar beriladi:

1-guruh

1. Milliy tarbiya konsepsiyasini taqdimot tayyorlash.
2. 1-sinf “Tarbiya” darsligidan foydalanib, bir soatlik dars ishlanmasi tuzing.

3. Taqdimotga jamoa bo'lib tayyorlaning?

Eslatma: 1) ishni bajarish vaqt -10 daqiqa

2) natijalarni A 4 format qog'ozda rasmiylashtiring.

## 2-guruh

1. Milliy tarbiya konsepsiyasi taqdimot tayyorlash.

2. 1-sinf "Tarbiya" darsligidan foydalanib, bir soatlik dars ishlanmasi tuzing.

3. Taqdimotga jamoa bo'lib tayyorlaning?

Eslatma: 1) ishni bajarish vaqt -10 daqiqa

2) natijalarni A 4 format qog'ozda rasmiylashtiring.

Guruhlarning bajargan ishlari tahlil qilinadi, baholanadi.

**Topshiriq:** Milliy tarbiya konsepsiyasi haqida buklet tayyorlash.

## 3-amaliy mashg'ulot

**Mavzu:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars va darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirish o'ziga xos xususiyatlari.

**Reja:**

1. To'garaklar haqida tushuncha.

2. Tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish.

## Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

1. R.A.Mavlonova, B.Normurodova. Тарбиявий ишлар методикаси. O'quv qo'llanma. Toshkent, "Fan" 2008 y. 93-bet.
- 2.R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.404-bet.
3. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi.O'quv qo'llanma.T.:O'qituvchi 2010-yil.130-bet.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil.23-bet.

Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir – biridan ayrilmayduran, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabitdir. (Abdulla Avloniy)

O'quvchilarni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish, ularda faol hayotiy mavqeni shakllantirish, o'zlashtirish va bilim sifatini oshirish ko'p jihatdan kuni uzaytirilgan guruhlarning samarali ishlashiga bogiiqdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni toidiradi. Ularning dunyoqarashi to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarning amaliyot ishlab chiqarishi bilan boo'lanishiga zamin yaratadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko'p qirralidir. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish.

2. o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko'p qirrali ishlarini o'quvchilar tashkilotlari va sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish.
3. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish.
4. Umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish.
5. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish. Bu borada direktor o'rinoosari faolligining uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma'muriy.
  - Bular ko'pincha o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon boiadi. Ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinosarinig tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator ishlami ham kiritish mumkin:
    - a) tarbiyaviy ishlar sohasida erishgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish;
    - b) tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash;
    - c) tarbiyaviy, ommaviy, siyosiy ishlami rejalashtirish va ulaming mazmunini, shakl va usullarini aniqlash;
    - d) sinfdan, maktabdan tashqari ishlami rejalashtirish, guruhlashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash, boshqaruvchi shaxslami aniqlash.

O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi. Shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi. o'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatga duch keladilar. Shuning uchun ham o'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatları qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari doirasi shunchalik keng va ma'naviy o'sishi samarali boiadi. Maktabdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoadagi ishlami o'rjanadilar. Ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar. Ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar. Jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga otlanadilar. Maktabdan tashqari faoliyatga quyidagilar kiradi:

- I. Og'zaki ish usullari: majlislar, yio'inlar, ma'ruzalar, kutubxonalar, konferensiyalar, munozaralar, uchrashuvlar, gazetalar, radio va jurnallar.

2. Amaliy ish olib borish usullari: turli joylarga sayyohatlar, sport musobaqalari, tabiatshunoslar to`garaklari, shanbaliklar, yangi kitoblar ko`rgazmalari.

Tarbiyaviy ish pedagogdan butun qobiliyatlarni ishga solishni taqozo etadi. Sinf rahbarligi kursi bilan mакtabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasi kursi bir-biriga boo`liq va uning davomiyligidir.

Yuqoridagi qayd etilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o`quvchilar turli qo`Hanmalar, asboblar, apparatlar, didaktik materiallardan foydalanishni o`rganadilar, o`z-o`zini tekshirish uchun turli ma'lumot va tayanch materiallarini jalb etish ko`nikmalarini egallaydilar.

II. Sinfdan va mакtabdan tashqari ishni rejalashtirish bolalarning yosh xususiyatlarini, mакtabning joylashgan shart-sharoitlarini, ijodiy birlashmalar, ilmiy markazlar bilan o`zaro aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi. Direktor o`rnbosarining faoliyati o`z ifodasini topadigan hujjatlar ro`yxati Xalq ta'limi vazirligi tomonidan doimiy ravishda berib boriladi.

#### **4-amaliy mashg`ulot**

**Mavzu:** Tarbiya darslarida milliy qadriyatlar, urf-odat va marosimlarni o`rganish, milliy qadriyatlarning shaxs kamolotiga ta`siri.

**Reja:**

1. Tarbiya darslarida urf-odat va marosimlarni o`rganish.
2. Milliy qadriyatlarning shaxs kamolotiga ta`siri.

**Maqsad:** Tarbiya darslarida milliy qadriyatlar, urf-odat va marosimlarni o`rganish, milliy qadriyatlarning shaxs kamolotiga ta`siri haqida bilim, ko`nikma va malakalarini shakllantirish.

#### **Asosiy darslik va o`quv qo`llanmalar**

1. R.A.Mavlonova, B.Normurodova. Тарбиявий ишлар методикаси. О`quv qo`llanma. Toshkent, "Fan" 2008 y. 102-bet.
2. R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.298-bet.
3. K.Xoshimov, S.Ochilov. O`zbek pedagogikasi antologiyasi.O`quv qo`llanma.T.:O`qituvchi 2010-yil.175-bet.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil.289-bet.

#### **“O`ZBEKISTON – MUSTAQIL DAVLAT” mavzusidagi bir soatlik dars ishlanmasi**

**Darsning maqsadi:** - o`quvchilarda mustaqillik atamasi to`g`risidagi fikr va dunyo qarashini kengaytirish, mustaqillik va ma`naviyat tushunchalarini xosil qilish.

**Rivojlantiruvchi** - mavzu bo'yicha tahliliy tasavvur xosil qilish, hulosalar chiqarish va takliflar kiritish mahoratini rivojlantirish, ko'mak beravchi qo'shimcha adabiyotlar bilan ishslash maxorati va ko' nikmalarni shakllashtirish.

**Tarbiyalovchi** - O'zbekiston mustaqillik yo'lidan dadil odimlayotganini tushuntirish orqali o'quvchilarda o'quvchilarda o'z vatanidan fahirlanish xissini uyg'otish.

**Jihozlar va ko'rgazmali vositalar** - prezident Islom Karimov asarlari to'plami, O'zbekiston mustaqilligi to'g'risidagi turli rangli plakatlar, O'zbekiston Respublikasi siyosiy xaritasi, vatan tarixiga oid turli rasmlar, buyuk shaxslar, allomalar portretlari, globus, O'zbekiston mustaqilligiga oid ilmiy asarlar, davlat ramzları.

**Dars turi:** amaliy, nazariy.

**Dars tipi:** aralash.

**Tashkiliy qism:**

**O'qituchini kirish so'zi:**

O'qituvchi Mustaqillik darsining nomi, maqsadi va reja bilan tanishtiradi. Kirish so'zi orqali o'quvchilar diqqatini o'ziga j Alb etadi va ularni uangi bilimlarini o'zlashtirishga tayyorlaydi.

**REJA:**

1. Jamiyat ma'naviyat mamlakat rivoj ida muhim omil.
2. Mustaqillik yillarda milliy merosimizni tiklash yuzasidan amalga oshirilgan tadbirlar.
3. Ogohlilik - davr talabi.
4. Barkamol avlod - Vatan kelajagi.

**O'qituvchi:** - xurmatli o'quvchilar, ma'naviyat deganda nimani tushunasiz?

O'quvchi biror - mamlakat ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay va mustahkamlamay turib yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. Ma'naviyat insonni rahiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan ichki olamni boyitadigan, uning iymo -irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan botiniy kuchdir. Shuning uchun ham mustaqillikni datslabki kunlaridanoq jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish vatanimiz taraqqiyotining ustivor yo'nalishi deb belgilanadi.

**O'quvchi:** - Prezidentimiz Islom Karimov shunday degan edilar: "Moddiy islohatlar, iqtisodiy islohatlar o'z yo'ga. Ularni hal qilish mumkin.

Xalqning ta'minoti ham amallab turish mumkin. Ammo, ma'naviy islohatlar -qullik va mutelik iskanjasidan ozod bo'lish, qaddini baland tutish, ota-bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lish-bundan og'irroq va bundan sharafliroq vazifa yo'q bu dunyoda" ("O'zbekiston XXI asr bo'sahasida" 202-bet)

**O'qituvchi:** - Darxaqiqat, davlat ma'naviy yangilash jarayonini amalga oshirmsandan mustaqillikni mustahkamlash qiyin ekanligini hayot isbotladi. Xalqimizning ma'naviy poydevori - mustaqil davlatimizning tayanchlari juda qadimiy va mustahkam. Mustaqillik sharofati bilan xalqimiz ma'naviy zug'umlardan ozod bo'ldi, erkin fikrga, o'zligimizni anglashga kengyo'lochildi.

Bu davrda boy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Milliy madaniyatimiz, jahon sivilizasiyasi taraqqiyotiga buyuk xissa qo'shgan bobokalonlarimizning ma'naviy merosi xalqimizga qaytarildi, tavallud topgan kunlari butun mamlakat va xalqaro miqyosida nishonlanadigan bo'ldi.

**O'qituvchi:** - Mustaqillika erishganimizdan so'ng mamlakatimiz tarixida katta o'zgarishlar O'z qadr qimmatlarini, milliy davlatchiligidimiz, madaniyatimizni, tilimiz bilan yagona xalq yagona millat bo'lib, jahon ham jamiyatida o'zimizga munosib obro' -e'tiborga qozonishga erishdik.

Yurtimizda YUNESKO bilan hamkorlikda quyidagi buyuk allomalar, davlat arboblari, mutafakkirlar va shoirlarning yubelelari hamda o'lmas qadriyatlarimiz tantanalari nishonlandi.

- 1991-yil - Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligini;
- 1996-yil - Amir Temur tavalludining 660 yilligi;
- 1997-yil - Buhoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi;

- 1998-yil - Axmad Al Farg'oniyning 1200 yilligi;
- 1999-yil - Jaloliddin Mangu Berdi tavalludining 800 yilligi;
- 2000-yil - Avesto yaratilganining 2700 yilligi;
- 2001-yil - Termiz shahrining 2500 yilligi;

Mustaqillik yillarda buyuk shaxslar xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorliklar majmuasi jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga, milliy ong va milliy g'ururni hamda xalqimiz, ayniqsa ongiga mustaqillik mafkurasini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

**O'quvchi:** - Islom xalifaligini tiklab, uning Bayrog'i ostida musulmon xalqlarining yangi imperiyada birlashtirishga qaratilgan intilishlar:

**O'quvchi:** - Jaholatga eltuvchi sayoz g'oyalarni yoyib, xalqni ma'naviy jihatda buzishga intilishadi.

**O'quvchi:** - Turli mafkuraviy vositalar orqali minta-qaviy va davlatlararo mojarolarni keltirib chiqarishga qaratilgan harakatlar

**O' qituvchi:** - Hozirgi zamonda g'oyaviy ziddiyatlarni demokratiya va pluralizm tamoyili asosida hal qilish imkoniyatlari ochila boshladи. Shuning uchun ham prezident Islom Karimov tomonidan yuksak mafkuraviy madaniyatni mujassam etgan g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi faqatgina ma'rifat bilan kurashish haqidagi tamoyil maydonga tashlandi.

Shuning uchun ham yurtboshimiz ta'lif tizimini isloh qilishga alohida e'tibor berdi.

"Ta'lif to'g'risida"-gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Milliy dasturning maqsadi ta'lif sohasini tubdan isloh qilish, uni o 'tmishdan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to' la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimni yaratishdan iboratdi.

Kelajagi buyuk davlat barpo etish, avlodlarga ozod va obod Vatanni meros qoldirish borasidagi olijanob ishlar taqdiri, oxir - oqibatda, yoshlarni ilm fan yutuqlari va zamonaviy kasblarni nechog' lik mukammal egallashiga bog'liq. Binobarin, barkamol avlodni tarbiyalash O'zbekistonda yangi jamiyat barpo etishning eng muhim shartidur. Hulosa qilib aytadigan bo'lsan, mustaqillik - o'zaro hurmat, bir-birini tan olish, qadrlash, umuminsoniy qadryatlarga tayanish, o' z istiqbolini o 'u lash, erkin tafakkurga suyanib yashash salohiyatidir.

#### "MUSTAQILLIK DARSI" DA OLINGAN BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH.

Mustaqillik darsi o'tib bo'lingach, sinf o'quvchilar uch guruhg'a bo'linadi. Ularga o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan topshiriqlar yozilgan kartochkalar topshiriladi. Bundan ko'zlangan maqsad o' quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o'stirish, mantiqiy fikrlashga undash va mavzuni mustahkamlashdir. Guruhlarga berilgan savollarga FSMU texnologiyasi asosida javob berish so'ralari, ya'ni: F -fikrlang: S - sabab ko'rsating: M -misol keltiring: U - umumlashtiring.

Guruh a'zolari berilgan vazifaga b irgalikda tayy orgarl ik ko' rishadi. tayyorlanish uchun 5 daqida ajratiladi. Guruhlar nomidan bittadan o' quvchi guruh a'zolarining fikrlarini bayon qiladi. tayyorlanish jarayonida o' quvchilardan o' z fikrlarini daftarga yozish so'raladi. Guruh a'zlarini birlarining fikrini to' ldirib, baxs -munozaraga kirishishlari mumkin.

**O'qituvchi:** Yurt tinchligi Vatan ozodligi va mustaqilligi bilan chambarchas bog'liqdir. Birovga qaram bo'lgan xalq hech qachon erkin yashay olmaydi. Shuning uchun ham mustaqillik va tinchlikni asrash, mamlakatimizni tajovuzkor kuchlardan himoya qilishga doimo tayyor turishimiz lozim.

Darsni uakunlash va o' quvchilar bilimini baholash:

O' qituvchi darsga yakun uasaydi. Mavzu yuzasidan o' quvchilami qiziqtirgan savollarga javob beradi. Darsda faol ishtirok etgan guruhni, o' quvchilami aniqlab ko' rsatadi, baholami e'lon qiladi.

Topshiriq: Tarbiya darslari uchun bir soatlik dars ishlanmasini tuzish.

### **5-amaliy mashg'ulot**

**Mavzu: O'qituvchi o'z ustiada ishlashi, o'z-o'zini tarbiyalash uslublari.**

#### **Reja:**

1.O'qituvchilik kasbining mazmun mohiyati.

2.Tarbiya darsi uchun dars ishlanma tuzish.

**Maqsad:** O'qituvchi o'z ustiada ishlashi, o'z-o'zini tarbiyalash uslublari haqida bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish.Dars ishlanma tuzish metodikasini o'rgatish.

#### **Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar**

1. R.A.Mavlonova, Б.Нормуродова. Тарбиявий ишлар методикаси. О'quv qo'llanma. Toshkent, "Fan" 2008 y. 203-bet.
- 2.R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.308-bet.
3. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi.O'quv qo'llanma.T.:O'qituvchi 2010-yil.114-bet.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil.62-bet.

**Fan:** Tarbiya

**Sinf: 2            Mavzu: "Odob-inson ziynati."**

**Darsning maqsadi:** Bolalarda odob-ahloq madaniyatini tarbiyalash.

**Darsning tarbiyaviy jihatlari:** Orastalik, rostgo'ylik, madaniy nutqni egallash, mehnatsevarlik, insonparvarlik.

**Darsning turi:** Mustahkamlovchi.

**Darsning usuli:** Suhbat, ko'rgazmalilik, babs-munozara, klaster.

**Darsning jahozi:** Sahna ko'rinish,rasmilar, klaster topshiriq, tarqatma didaktik materiallar(test), sind doskasi.

**Darsning texnik jahozi:** Magnitofon

**Kutilyotgan natija:** O'quvchilarda odob-axloq madaniyati, orastalik, rostgo'ylik, madaniy nutql malakasi, mehnatsevarlik hamda insonparvarlik kabi fazilatlari shakllanib, amalda namoyon bol'adi.

#### **Darsning borishi:**

I. Dars kirish suhbat bilan boshlanadi. O'qituvchi bolalarga avvalgi o'tilgan mavzular: tartibli, intizomli bo'lish, doimo ziyrak va rostgo'y hamda, insonlarga iltifotli bo'lishni eslatadi.(3 daqiqa)

II. 1-sahna ko'rinish namoish etiladi:

Bir xonadonning eshik qo'ng'irog'i jiringlaydi. Uyda bola dars tayyorlab o'tirgan bo'ladi. Eshikni erinibgina "uf" tortib turib, eshikni ochadi. Eshik ortida turgan keksa odamga salomni ham kanda qilib, qarab turaveradi. Shunda mehmon:

- Yaxshimisan bolam. Dadang, oying uydamilar?, -deb so'raydi.
- Yo'q, ular ishga ketishgan,- deb bola qo'pol ohangda javob beradi.
- Ha,shundaymi, men G'azalkent qishlog'idan kelgandim, qarindoshingiz bo'laman,-deydi hijolatomo'z ohangda mehmon.

Bola qariyaga unchalik iltifot ko'rsatmay "kiring" deydi. Keksa kishi stulga o'tirib, olib kelgan mevalarni stolga qo'yadi. Bola esa beparvo, o'tirib darsini davom ettiradi.

Keksa bu manzarani ko'rib xayron, boshini sarak-sarak qiladi.

Shu payt bolaning akasi kelib qoladi va keksa kishi bilan salomlashib, darrov choy qo'yib, dasturxonga taklif qiladi. Shunda mehmon:

Balli bolam, juda chanqab kelgan edim, umringdan baraka top,- deydi va sahna tugab, o'qituvchi o'quvchilardan lavha yuzasidan fikrlarini so'rab, ko'rganlari muhokama qilinadi.

O'quvchilar o'zaro baxslashib, fikrlarini bildirgach, o'qituvchi o'z fikri bilan to'ldirib, javoblarni umumlashtiradi.(7 daqiqa)

### III. 2-sahna ko'rinish:

Bir ayol bolasini ko'tarib ketayotganida hamyon tushib qoladi. Bir ozdan so'ng, ikki bola uni topib olib, qarasalar ichida ancha pul bo'ladi. Buni ko'rib, bolalardan biri:

- Qara-ya, shuncha pullar bor ekan, unga mazza qilib muzqaymoqlar olamiz,-deb, quvonchdan ko'zlar chaqnab ketadi. Ikkinci bola:

- Yo'q, nimalar deyapsan. Ahir, bu hamyon birovники-ку! Uni mahallamiz millitsiya punktiga olib borib beramiz,-deydi. Birinchi bola ham bu so'zlardan so'ng, o'ylab qoladi va ikkisi millitsiya punktiga borib, topilmani topshiradilar. Millitsiya bo'limi hodimi:

- Balli, bolalar, sizga tarbiya bergen ota-onangizga, ustozlaringizga rahmat. Biz mana bu yerga e'lon yozib qo'yamiz va hamyon yo'qotgan odam uni o'qib, olib ketadi.

- Sahna ko'rinish tugagach, o'quvchilar tahlil qilib,fikr bildiradilar va o'qituvchi to'ldirib, fikrlarni umumlashtiradi.(5 daqiqa)

### IV. 3-sahna ko'rinish:

Bir bola darsini tayyorlab o'tiradi va masalani yecholmay:

- Muni, masalamni ishlab ber!-deydi opasiga.
- O'zing o'ylab yechsang bo'ladi-ku, men senga tushuntirib beraman-deydi opasi.
- Yo'q, ishlab ber!- deydi bola yig'lab...
- O'zing ishla!

Bola yig'lab qog'ozni g'ijimlab otib yuboradi va sahna tugaydi.

O'qituvchi: Bolalar,siz bularning odob-ahloqi haqida nimalar deya olasiz?

Bolalar ko'rganlarini tahlil qilib, muhokama qilgach, barcha sahnalardan olingen taasurotlar umumlashtiriladi.(5daqiqa)


### V. O'qituvchi:

- Endi yozuv tahtasiga yaxshi, yoqimli so'zlar va yoqimsiz so'zlarni yozing,-deydi.

Bolalar vazifani bajargach, o'qituvchi:

- Bizning lug'atimizda, nutqimizda qaysi so'zlar bo'lishi kerak?
- Yaxshi, yoqimli so'zlar bo'lishi kerak,-o'quvchilar.
- Balli bolalar, yozuv taxtasiga yozilgan yoqimsiz so'zlarni o'chirib tashlaymiz va faqat yoqimli so'zlarni nutqimizda ishlatamiz.(5 daqiqa)

VI. O'qituvchi yozuv taxtasiga avvaldan ilib qo'yilgan odob-ahloq haqidagi ko'rgazmani ko'rishga bolalarning e'tiborini jalb qiladi:



O‘qituvchi:

-Demak, shoir Obid Rasul ta’riflaganidek

    Odob so‘zi bir so‘z o‘zi,

        Aytaversak turi ko‘p...

Hammangizni odobli, ahloqli, yoqimtoy, bilimdon, mehnatsevar bo‘lasiz deb umid qilaman.

Endi bolalar, men sizga bir topishmoqli she‘r aytaman, siz bu she‘rni kim haqida ekanligini toping.

    Yoqimli kuy sadosi yangraydi va o‘qituvchi she‘rni ifodali o‘qiydi:

\* \* \*

Shirinsiz nega buncha,  
Qalbimda ungan g‘uncha.  
Sizlarga mehrim shuncha,  
Qarab aslo to‘ymayman.

\* \* \*

Siz borsiz-u, men borman,  
Sal ko‘rmasam humorman.  
Sizla baxtga boyman,  
Doim-doim birgaman.

\* \* \*

O‘ynang bag‘rim so‘lim bog‘,  
Ko‘ksim qulamas bir tog‘,  
Sizla doim ko‘nglim chog‘.  
Umidim katta sizdan,  
Mard o‘g‘il, lobar qizdan.

Bolalar bu she‘rni ona haqida ekanini topganlardan so‘ng, o‘qituvchi:

- Barakalla. Bolalar, mana qish fasli tugab, o‘z o‘rnini qaysi faslga beradi?
- Bahor fasliga.
- Balli, bilag‘on bolalar. Endi aytingchi, bahor faslida eng birinchi qaysi bayramni nishonlaymiz?
- 8-mart Onajonlar bayrami.
- Qani aytingchi, bayramga buvijoningiz, onajoningiz va opa-singillaringizga qanday sovg‘alar tayyorlaysiz?
- ...

- Bilasizmi bolalar, o‘z qo‘llaringiz bilan tayyorlagan sovg‘angiz, yozgan tabriknomangiz onangiz uchun juda qadri. Yana eng yaxshi sovg‘a, bu sizning odobingiz, shirinso‘zingiz, mehribonchililingiz va a‘lo o‘qishingizdir...(15 daqiqa)

**VII.** Mana bugungi darsimizda odob-ahloq haqida ko‘p narsalarni bilib oldik. Darsda barchangiz faol ishtirok ettingiz, barakalla...(2 daqiqa)

**VIII.** Uyga vazifa test savollarini javoblarini aniqlab kelishni topshirib, darsni yakunlash.(3 daqiqa)

Mana yuqorida sizlarga berilgan 2-sinf “Odobnoma” darsligi bo‘yicha xilma-xil tuzilgan darslardan namunalarni ko‘rdingiz. Bu darslarning barchasida o‘quvchilarni milliy, madaniy va ma’naviy barkamolligini shakllantirilib, metod va texnologiyalarni xilma-xilligi darslarning samaradorligi va o‘quvchilar faolligi, bilim olishga bo‘lgan intilishini oshirishga yordam beradi. (Yuqoridagi darslar amalda sinalgan va yuqori natijalarni ko‘rsatgan)

O‘quvchilar huquqiy bilim asoslariga oid quyidagi **bilim, ko‘nikma va malakalarini egallashlari shart:**

- asosiy ijtimoiy qonuniyatlar, tushuncha va atamalarni bilish, ularning mohiyatini tushunish;
- ijtimoiy ong, ijtimoiy burch, vazifa, vijdon haqida tushunchalarga ega bo‘lish va boshqalar. Topshiriq: Tadbir ishlanmasini tuzishni o‘rganish.

## **6-amaliy mashg’ulot.**

**Mavzu:**“Oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligi” Konsepsiyasining ahamiyati.Ta’lim muassasasi faoliyatida oila va oila hamkorligi masalalari.

**Reja:**

- 1.Nazariy olgan bilimlarini mustahkamlash.
2. Dars ishlanma tuzishni o‘rganish.

**Maqsad:** Oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligi” Konsepsiyasining ahamiyati.Ta’lim muassasasi faoliyatida oila va oila hamkorligi masalalari haqida tushunchalarni umumlashtirish.

**Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar**

1. R.A.Mavlonova, Б.Нормуродова. Тарбиявий ишлар методикаси. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Fan” 2008 y. 203-bet.
- 2.R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.308-bet.
3. K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.O‘quv qo‘llanma.T.:O‘qituvchi 2010-yil.114-bet.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil.62-bet.

**Fan: TARBIYA**

**Sinf: 3**

**Dars mavzusi:** Bobolarimisning bebaho merosi.

**Dars turi:** Yangi bilim berish

**Qo‘llaniladigan metodlar:** Pinboard, Insert

**Jihozlar:** Flipdoska, tarqatma materiallar, multimedya slaydlar

**Darsning maqsadi:**

talimiy: Yuksak insoniy fazilatlar mohiyatini anglatish, ularga ongli munosabatda bo‘lish, hamma millat vakillariga yaxshi munosabatda bo‘lish bilimini shakllantirish TK2: axborot

manbalari (televizor, telefon)dan to‘g‘ri foydalana olish FK1 suhbatdoshni tinglash, sukut saqlash va o‘z fikrini to‘g‘ri bayon qilish ;

tarbiyaviy; Odob-inson ko‘rki va ma’naviy boyligi ekanligini va mutafakkir ma’rifatparvarlar asarlaridagi hikmat, rivoyat va o‘g‘itlarini, milliy sharqona odob-axloq qoidalari, fazilatlarini, o‘zbekona urf-odat va an’analarining millliy xususiyatlami farqlash va amalga oshirish usullarini o’rgatish.TK4: Davlat ramzlariga hurmat va ehtirom ko‘rsatish;

rivojlantiruvchi; Dars jarayonida egallangan bilimlami aniqlash, umumlashtirish, mustahkamlash.FK1: O‘zbekistonda yashayotgan millatlar va elatlar haqida ma’lumot bera olish

**Dars uslubi:**Yangi bilim beruvchi.muloqot, innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

**Dars jahozi:** kartochkalar, tarqatma materiallar suratlar.

Darsning borishi:

1.Darsni tashkil etish.

1.Tashkiliyqism.a)davomatni aniqlash

b)ob-havo haqida suhbat

2.Yangi mavzu ustida ishlash.

Bizning mamlakatimizda qadimiy va zamonaviy shaharlar juda ko‘p. Samarcand,

Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Qarshi va Margilon shaharlari tariximizning eng qadimgi davridan bugungi kungacha dunyoga dong‘i ketgan buyuk shaharlar qatoridadir.

Shaharlarimiz qadimiy qiyofasini saqlab qolgan holda zamonaviylashib bormoqda. Shuning uchun ham ushbu shaharlarni "Qadimiy va hamisha navqiron" deb ta’riflashadi.

Bizning Vatanimiz - buyuk mutafakkirlar, allomalar, shoirlar yurti.Biz Vatanimiz nomini dunyoga tanitgan Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy va boshqa ko‘plab mutafakkirlarning avlodlarimiz.

Bizning ana shunday Vatanda yashashimizning o‘zi katta baxt.

3.O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

1.Siz nima debo‘ylaysiz? Buyuk ajodolarimiz bunday muvaffaqiyatlarga qanday erishganlar?

2.Yuqorida rasmlarda qaysi allomalarimiz tasvirlangan? Kattalar yordamida ularning kimlar ekanligini aniqlang

4.Darsni yakunlashTopshiriq bajariladi. O‘quvchilar javoblari eshitiladi. Namunali javoblar rag‘batlantiriladi.

5.Uyga vazifa. Mavzuni mukammal o‘rganish, matn mazmuni ustida ishlash.



## 7-amaliy mashg‘ulot

**Mavzu:** Jahoning rivojlangan mamlakatlari tarixi, maqsadli, uzluksiz ma’naviy tarbiyaning tutgan o‘rni.

**Reja:**

1. Uzluksiz va ma’naviy tarbiyaning tutgan o‘rni.
2. Dars ishlanma tuzish metodikasi.

## Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1. R.A.Mavlonova, Б.Нормуродова. Тарбиявий ишлар методикаси. О‘quv qo‘llanma.

- Toshkent, "Fan" 2008 y. 161-bet.
- 2.R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlар metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.318-bet.
  3. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi.O'quv qo'llanma.T.:O'qituvchi 2010-yil.141-bet.
  4. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil.207-bet.

**Fan :** Tarbiya

**Sinf: 2                    Darsning mavzu: So'zlashish odobi.**

**Darsning maqsadlari:**

**1.Ta'limiy maqsad:** Hikoyani mazmun, mohiyatini singdirish orqali o'quvchilarni odob bilan so'zlashishga doir bilimlartini oshirish.

**2.Tarbiyaviy maqsad:** Shirinso'z bo'lish, yoqimli so'zlar, chiroylis o'zlashishni o'yin orqali o'rgatish.

**3.Rivojlantiruvchi maqsad:** Oquvchilarni odobga doir bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

**Darsning turi:** Noan'anaviy.

**Darsning uslubi:** Aralashgan.

**Darsning jahozi:** Test, o'yinga oid jihozlar, syujetli rasmlar, sahna ko'rinish.

**Darsning texnik jahozi:** Video va televizor, magnitofon.

**Kutilyotgan natija:** Berilgan hikoyani o'qish, o'rganish orqali o'quvchilar, shirinso'zlikka, chiroylis muomala ko'nikmasiga ega bo'ladilar va amalda bir-birlari bilan muloqotda lutf bilan, chiroylis o'zlashadilar.

**Darsning borishi:**

**I.** Bu darsni o'tkazish uchun sinf o'quvchilarini uch guruhga bo'linadi (qator bo'yicha) va o'yin mazmuni tushuntiriladi:

- Bolajonlar, bugungi darsimizni o'yin tarzida o'tamiz. Buning uchun sizlarni uch guruhga ajratib olamiz .Har bir guruh berilgan topshiriqlarni tez va to'g'ri bajarganligi, chiroylis nutqi, odob bilan so'zlashishiga qarab baholanadi. Dars davomida eng yahshi guruh, eng faol guruh va eng shirinso'z guruh nomini olishga intiling. Har bir to'g'ri javob uchun qizil jeton, o'rtta javob uchun sariq jetonlar berib boriladi va albatta guruhdagi holatga qarab yuqoridagi aytilgan darajalar berilib, buning uchun ham ballar ortib boradi.

**II. 1-topshiriq:** O'tilgan mavzu bo'yicha test savollari berish (5 daqiqa):

**1.** Berilgan gaplardan eng to'g'ri, odob bilan aytilganini aniqlang.

a) Hozir, oyи boraman;

b) Uf, boraman dedimu;

c) Xo'p bo'ladi oyijon, hozir boraman.

**2.** Kim birinchi bo'lib salom berishi kerak?

a) Kichiklar;

b) Xonaga kirib kelgan kishi;

c) Kim o'zini va boshqalarni hurmat qilsa, albatta birinchi bo'lib salom beradi.

**3.** So'zlashish odobi insonlarga nima uchun kerak?

a) Inson insonligini bildirish uchun so'zlashish odobini bilishi kerak;

b) So'zlashish odobi kichik bolalarga kerak emas;

d) Hayvonlar, qushlar ham bir-biri bilan so‘zlashadi. Ularga so‘zlashish odobi kerak emas-ku! Insonlarga ham shart emas.

4. Til nima uchun kerak?

- a) Odamlarga faqat yaxshi so‘z gapirish uchun;
- b) Yomon so‘zlarni bemalol til orqali gapirish uchun;
- c) Tilning odamga aloqasi yo‘q.

5. Siz tilingizni yomon so‘zlarga ishlatasizmi?

- a) Ha;
- b) Hech qachon;
- c) Har zamonda.

**2-topshiriq:** Darslikdagi yangi mavzu “Shirinso‘z” hikoyasini o‘quvchilarga mustaqil, diqqat qilib o‘qish uchun berish (5 daqiqa). Shu vaqt ichida o‘qituvchi test javoblarini tekshirib oladi.

**3-topshiriq:** O‘quvchilar o‘qigan hikoyalari bo‘yicha sahna ko‘rinish ijro etadilar. Sahna ko‘rinish uchun har bir qatyordan bittadan xohlovchi o‘quvchilarni chiqariladi. O‘quvchilardan biri aftor, biri qizcha, biri onasi rolini ijro etadi. O‘quvchilar o‘qiganlari bo‘yicha o‘z tillarida rollarini ijro etadilar. Sahna ko‘rinishdagi rolini ijrosiga qarab o‘quvchilar jeton bilan taqdirlanadilar.

**4-topshiriq:** Hikoya ustida savol-javob o‘tkazish. Doskada berilgan chizmalarga yaxshi va yomon so‘zlarni o‘quvchilarga yozdirib, to‘ldirish. Bu topshiriqda qatorlarning faolligiga e’tibor beriladi. So‘zlar yozib bo‘lingach, yomon so‘zlarni ustidan chizib o‘chiriladi va bu bilan o‘quvchilar nutqidan ham o‘chirilishi kerakligi ta’kidlanadi. Chizma:

YAXSHI SO‘ZLAR	YOMON SO‘ZLAR
Labbay,...	Bor-e,...

**5-topshiriq:** Videotasma orqali televizorda “Zumrad va Qimmad” multfilmidan parcha namoyish etiladi. So‘ng o‘quvchilar bilan multfilmdan olingen parcha tahlil qilinadi. Nima uchun Zumradga yaxshi sovg‘alar, Qimmatga bo‘s sh sandiq berildi? Shirinso‘zlilik qanday ahamiyatga ega ekan?...kabi savollar bilan suhbat uyuhtiriladi.

**6-topshiriq:** Har bir qatorga alohida syujetli rasmlar beriladi. Har bir qator o‘ziga berilgan rasm yuzasidan hikoyacha tuzadi. Hikoyadagi obrazlarning shirinso‘zligi va so‘zlashish odobiga qay darajada rioya qilganligi hisobga olinadi.

**III.** Guruhlar yig‘gan jetonlarga qarab o‘rinlar berish va taqdirlash. Sinfdag‘i barcha o‘quvchilarni faolligiga va guruhining olgan o‘rniga qarab baholash.

**VI.** Uyga hikoyani o‘qib, yaxshi so‘zlarni yodlab kelishni topshirish.

**V.** Darsni yakunlash.

### 8-amaliy mashg‘ulot

**Mavzu:** Boshlang‘ich ta’limda tarbiya nazariyasining tarkibiy qismlari. Boshlang‘ich ta’limda tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari.

**Reja:**

1. Tarbiya nazariyasi.
2. Tarbiyaviy tadbir ishlanmasini tuzish.

**Maqsad:** Boshlang‘ich ta’limda tarbiya nazariyasining tarkibiy qismlari. Boshlang‘ich ta’limda tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari haqida tushunchalarni rivojlantirish.

### Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1. R.A.Mavlonova, Б.Нормуродова. Тарбиявий ишлар методикаси. О‘кув о‘ланма. Toshkent, “Fan” 2008 y. 133-bet.
2. R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.208-bet.
3. K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.O‘кув о‘ланма.T.:O‘qituvchi 2010-yil.104-bet.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil.222-bet.

### 3-ijodiy faoliyat



1. Muvaffaqiyatga erishish uchun nima qilish kerak?
2. Quyidagi so‘zlar asosida insonning muvaffaqiyatga erishishi to‘g‘risida hikoya tuzing.
3. Yana qanday so‘zlarni taklif qilasiz?



Darslikda berilgan ushbu topshiriq yuzasidan 10 daqiqaga mo’ljallangan savollar va javoblar jamlanmasini tuzish.

### 9-amaliy mashg‘ulot

**Mavzu:** Tarbiya shakllari (turlari) haqida tushuncha. Tarbiyaning umumiy metodlari va vositalari.

**Reja:**

1. Tarbiya haqida tushuncha berish.
2. Tarbiyaviy tadbir ishlanmasini tuzish.

**Maqsad:** Tarbiya shakllari (turlari) haqida tushuncha. Tarbiyaning umumiy metodlari va vositalari haqida tushunchalarni rivojlantirish.

### **Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar**

1. R.A.Mavlonova, Б.Нормуродова. Тарбиявий ишлар методикаси. О‘кув qo‘llanma. Toshkent, “Fan” 2008 y. 221-bet.
2. R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.308-bet.
3. K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.O‘quv qo‘llanma.T.:O‘qituvchi 2010-yil.144-bet.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T:. Fan va texnologiyalar. 2010-yil.102-bet.

**Tadbir mavzu: “Yusuf Xos Hojib deydi”. “Eng ulug’ kunlar**

**Maqsad:** Allomanining mehmonlar haqidagi o‘gitlari, xalqimiz ardoqlab bayram qilib kelayotgan ulug’ kunlar haqida qisqacha ma’lumotlar berish. Ulug’ kunlarni qadrlash, mehr, hurmat bilan qarashni o‘quvchilar qalbiga singdirish.(2 –slayd)

**Dars turi:** musobaqa darslari

**Dars tipi:** aralash

**Darsning shakli:** bahs - munozara

**Jihoz:** Bayramlar aks etgan rasmlar.kompyuter, slaydlar.

**Darsning borishi:**

“Kiyinish odobi” mavzusi, uyga topshirilgan ijodiy ish yuzasidan suhbat o’tkazish. Eng yaxshi ishlarni bajargan o‘quvchilarga rag’batlantirish.

Dam olish daqiqasi o’tkazish.

**Yangi mavzu:**

- Mehmonga chiroyli bo’lib kiyinib bordingiz. Endi o’zingizni qanday tutishingiz kerak? Bu savolga javoblar olgach, buyuk alloma Yusuf Xos Hojibning bu haqda aytgan o‘gitlarini eslab, o‘quvchilar javoblarini to’ldirish.

Mehmonga taklif qilinsangiz, oshni odob bilan yeng boshqalarning osh – ovqatini ta’tib ko’rmang, o’zgalarni zo’rlab ovqatlanishiga undash yaramaydi. Qanchalik to’q bo’lsangiz ham, taklif qilinganingizdan keyin ovqatdan yeyish lozim. Bu sizning qadringizni oshiradi.

Bo’limda o’rganilgan odoblar o‘quvchilarga qanchalik singanligini bilish maqsadida muammoli savollar bilan murojaat etib, o‘quvchilarni bahsga chorlash.

1. Ko’chada ketayotgan edingiz, ko’zingiz yo’lning o’rtasida nima qilishini qo’rqib turgan bolaga tushdi. Shunda siz nima qilasiz?

2. Siz ovqatlanib o’tirgan edingiz. To’satdan yon qo’shningiz hovliqib kirib keldi. Jahlingiz chiqdi. Qo’shningizga qanday muomalada bo’lasiz?

3. 1 – sentabr – Mustaqillik bayrami kuni sizga aylangani taklif qilishdi. Sizning esa eng yaxshi kiyimlaringiz kir, qolgani ham tayyor emas. Shunda siz nima qilasiz.

Javoblar olingach, so'nggi savolga bog'lagan holda "Eng ulug' kunlar" haqida ma'lumot berish. Bayramlarni nishonlash va ulug' kishilarni xotirlash xalqimizning an'anasiga aylanib qolgan. Yangi yilning boshlanishidanyoq ketma – ket bayramlar bo'ladi. Bu bayramlarga bolalar ham o'zlarining sovg'alari bilan qatnashadilar. Archa bayramida Qorbobodan sovg'alar oladilar. Onalar bayramida o'z qo'llari bilan tayyorlagan narsalarini onalariga, buvilariga sovg'a qiladilar.

Hayit kunlari esa buvi – buvajonlari, ota – onalari, kichkintoylarga hayitliklar tuhfa qiladilar.

Xotira kunlarida bizning baxtli – saodatli kunlarda yashashimiz uchun kurashgan eng ulug' insonlar yod etiladi.

Alloma, buyuk insonlar tug'ilgan kunlarida ularni xotirlab kechalar uyushtiriladi.

Yana qanday kunlarda bizning xalqimiz bayramlar qiladilar? Bular qanday nishonlanadi? Qisqacha ma'lumotlar bering, deb o'quvchilarga savol berib, javoblar olish, ularni to'ldirish qo'yilgan baholarni e'lon qilish.

**Ijodiy ish:** "Yozda" sarlavhali kichik insho yozib kelish.

Quyida biz 2 - sinf odobnonma darslarida yil davomida o'tilgan ertak va rivoyatlar yuzasidan o'tkazilgan umumlashtiruvchi darsni interfaol metodida va yangi pedagogik texnologiyaning "Klaster" metodi asosida o'tishni tavsiya qilmoqchimiz.


Ma'lumki, "Klaster" metodidan asosan o'qituvchilar bilimni mustahkamlashda bo'lim yuzasidan umumlashtiruvchi darslarni o'tkazishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu metod bo'yicha o'tiladigan dars:

- o'quvchilarni erkin fikrleshgaga o'rgatadi;
- o'quvchilarning aqliy rivojlanishini o'stiradi;
- mustaqil fikr yuritishga ko'mak beradi;

Dars noan'anaviy shaklda bo'lib, 4 bosqichda amalga oshiriladi.


Topshiriq berishdan avval har bir o'quvchiga tayyor jadval chizilgan varaqlar tarqatiladi.

1 – bosqichda o'quvchilar jadval asosida yil davomida o'qigan rivoyat va ertaklarning nomini yozib chiqadilar. Ular nomi kitobdag'i kabi ketma – ketlikda yozilishi shart emas.



## Dono momo

2 – bosqichni bajarishga barcha o'quvchilar barobar kirishlari shart, bu bosqichda o'quvchilar yuqorida yozgan rivoyat, ertaklarning qahramonlarini esga olib yozishlari lozim



3 – bosqichda o'quvchilar ijobiy timsoldagi qahramonlarni to'g'ri chiziq bilan, salbiy timsoldagi qahramonlarni egri chiziq bilan tutashtirib chiqadilar.

**Uyga vazifa:** Mavzuni o'qish, mavzu yuzasidan test tuzish.

### 10-amaliy mashg'ulot

**Mavzu:** Bolaning o'z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish va o'z-o'zini baholashga qo'yayotgan talablar.

**Reja:**

1. Maktab o'quvchilarining o'z-o'zini tarbiyalash xususiyatlari.
2. Tarbiyaviy tadbir ishlanmasini tuzish.

**Maqsad:** Bolaning o'z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish va o'z-o'zini baholashga qo'yayotgan talablar haqida bilimlarini mustahkamlash.

#### Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

1. R.A.Mavlonova, Б.Нормуродова. Тарбиявий ишлар методикаси. О'кув qo'llanma. Toshkent, "Fan" 2008 y. 183-bet.
2. R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.205-bet.
3. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi.O'quv qo'llanma.T.:O'qituvchi 2010-yil.114-bet.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil.62-bet.

O'z-o'zini tarbiyalash - bu pedagogik yo'naltirilgan jarayon. O'z ustida ishlashga psixologik va amaliy tayyorgarlik bu ta'limganing eng muhim vazifalaridan biridir. Birinchidan, bu

o'quvchilarning o'z hayot tarzini anglashi, faoliyatning ahamiyatini anglashi o'z-o'zini tarbiyalashni talab qiladi. Ushbu bosqichda sinf rahbari o'quvchilarga o'zlarining ijobiylari va salbiy fazilatlarini anglashga, kamchiliklariga toqat qilmasligini tushunishga yordam beradi. Ikkinchidan, mahoratni o'zlashtirish mustaqil ish talaba muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lgan faoliyat sohasida. Uchinchidan, o'z-o'zini tarbiyalash dasturini tuzish. Bu o'zingiz ustida ishlashning juda muhim bosqichi. Bu erda talabaning o'zini qanchalik ob'ektiv baholashi, u maqsadlarini to'g'ri belgilashi va kerakli usullarni tanlaganligini baholash uchun yordam talab qilinadi. To'rtinchidan, tanlangan faoliyatda o'z-o'zini tarbiyalashni tashkil etish. Bu ta'lidan o'z-o'zini tarbiyalashga o'tishning eng muhim bosqichidir. Aniq faoliyatsiz yaxshiroq bo'lishga intilish faqat istak bo'lib qoladi.

Beshinchidan, o'z-o'zini tarbiyalash shaxsni shakllantirishning ajralmas jarayoniga kiritilishi kerak. Ta'limni o'z-o'zini tarbiyalashga o'tishning eng yuqori bosqichi talaba o'z ustida ishlashni xohlagan va bilgan paytdan, o'z-o'zini tarbiyalashning motivlari, maqsadlari va usullari shakllangan paytdan boshlanadi.

### **Tadbir mavzu: Non aziz**

“Non aziz” mavzusidagi tadbirni o'tkazishdan 7 – 10 kun ilgari bug'doy undirib qo'yiladi. Ko'm – ko'k maysa hosil bo'ladi. Xona bayramona bezatiladi. Non haqida shiorlar osiladi. Stol ustida bug'doy boshog'i, maysasi, turli xildagi non namunalari. Turli xil pishirilgan narsalar (somsa, varaqi, chuchvara va hokazo).

Bayramga ota – onalar, ustoz o'qituvchilar taklif etilgan. Ishtirok etuvchi bolalar milliy kiyimlarga yasanib olishgan.

Magnitafonda: tadbir “Non nashidas” ashulasini aytish bilan boshlanadi.

#### **1 – o'quvchi:**

Chin fazilat topdi,  
Dehqon non bilan,  
Dilda shodlik, belda darmon  
Non bilan  
Siylarkan barcha mehmon  
Non bilan  
Ahli inson surdi davron  
Non bilan

#### **O'qituvchi:**

Bolalar mana hoziq tinglangan she'rdan ko'rinish turibdi – ki, bugungi tarbiyaviy soatimiz dasturxonimiz ziynati bo'lgan non haqida boradi.

#### **2 – o'quvchi:**

Bugun bizda tantana  
Shodiyona bugun.  
Non haquda eslaylik  
So'ylaylik bugun

### **3 – o’quvchi:**

Tarbiyaviy soatdan  
 Ko’p tarbiya olamiz  
 Bugungisin nomini,  
 “Non aziz” deb olamiz.

**O’qituvchi:** Xalq mehnatining eng ajoyib namunalaridan biri nondir. U – hayotning asosi, inson aqlu, zakovati va ijodkorligining samarasi, odamlar uchun kundalik oziq, mamlakat boyligi, tinchlik va farovonligining ramzi hisoblanadi.

### **4 – o’quvchi:**

Non – shu uch harfdan iborat bo’lgan so’zda qanchalar ma’no bor. Non – bu hayot, non – bu mo’l – ko’lchilikdir. Dunyo – dunyo bo’lib non ko’ngilga tekkanmikan. Albatta, yo’q, bunday odamning bo’lishi ham mumkin emas. Nega desangiz, non barcha ne’matlar ichida eng xushxo’ri, kishi uchun eng kerakli mahsulotdir.

### **5 – o’quvchi:**

Non haqida o’ylasam,  
 O’yim tamom bo’lmaydi.  
 Siz ham o’ylang bolalar  
 Lekin yomon bo’lmaydi.

### **6 – o’quvchi:**

Har kun – har yerda  
 Insonga do’st qadrdon,  
 Non qadrini bilamiz,  
 Hammamiz ham yoshlikdan.

### **7 – o’quvchi:**

Non – tinch turmush, mo’lllik,  
 To’y – u havas, non bilan,  
 Non haqida so’z borsa  
 Eshitaman jon bilan.

### **O’qituvchi:**

Kimki non va mehnat nimaligini bilmasa, o’z xalqining farzandi bo’la olmaydi. Peshona teri va charchashni his qilmagan kishi, nonning qadriga yetmaydi. Chunki non – zahmatkash dehqonlar jasorati va minglarcha ishchilarning mahorati tufayli bunyod bo’ladi. Non mahsulotlarini ko’paytirish uchun kurashda faqat dehqonlar emas, balki olimlar ham xalq xo’jaligining turli sohalaridagi son – sanoqsiz mehnatkashlar ishtirok etadilar. Har bir bug’doy doni tegirmonda un bo’lguncha 15 km yo’ldan aylanib chiqishi kerak ekan. Mana shu bitta batonga

10 000 ta bug'doy doni sarflanar ekan. Nonni tayyorlashda unni elash, xamir qorish va bunda tuz, xamirturush, sut, shakar solinib pishiriladi. Mana shu ishlar hammasi mashinalar yordamida bajariladi. Aholiga non yetkazib bersih qanchalik bilim, kuch, quvvat, vaqt talab qiladi. Non! Shu non bizlar dasturxonimizga kelguncha, ushatulguncha qanchadan qancha mehnatkash qo'lidan o'tadi. Shuning uchun ham shunchalar shirin, shunchalar tabarrukdir.

### **8 – o'quvchi:**

Mehnat lazzatini surmoqda Vatan.  
To'kinlik rizqi deb yozamiz dasturxon  
Ota – bobolarning odatin qilib  
Hatto, ushog'ini e'zozlaylik har on.

### **O'qituvchi:**

Mana, bolalr, yaqinda 3 – non zavodiga borib, u yerda nonni pishirilishini o'z ko'zingiz bilan ko'rdingiz. Qani bolalar non qanday tayyorlanar ekan? Kim aytadi?

### **9 – o'quvchi:**

Bug'doy uni saralanadi, quritiladi, haydalgan yerga seyalka bug'doyni ekadilar. Dehqonlarimiz tinmay mehnat qiladilar. Bug'doy mana bunday o'sa boshlaydi (undirilgan bug'doy ko'rsatiladi) Keyin gullab boshoq tugadi va mana bunday oltin kabi yetiladi. So'ngra un qilinadi. Qoplanadi va un zavodlariga yuboriladi. U yerda nonvoyalarimiz non yopadilar. Yopilgan nonlarni biz hali shirin uyqumizda yotgan paytimizda mashinalarda magazinlarga tarqatiladi.

### **O'qituvchi:**

Mana qarang bolalar qancha mehnat sarflanar ekan. Siz yaxshi niyat bilan juda ko'p mehnat natijasida tayyorlangan nonlarning isrof bo'lib partalar ostida, hatto ko'chalarda yerga tushib, uvol bo'lib yotishiga qanday qaraysiz?

(Bolalar o'z fikrlarini aytadilar)

### **10 – o'quvchi:**

Qadoq qo'lli dehqonlar  
Terlar to'kib ekishgan  
Shu sababdan har boshoq  
Oltin bo'lib yetishgan

### **O'qituvchi:**

Uzoq safarga yoki Armiya safida xizmat qilish uchun jo'nayotgan kishilarga, akalarimizga non tishlatib qolinadi. Bu kelib rizqingni o'zing yegin, degan ma'noni bildiradi. Tishlangan non go'yoki umid – tayanchi. Bizning xalqimiz nonni shunday ulug'laydi.

### **11 – o'quvchi:**

Xirmon to'lsa dalaga  
Shudir chin g'alaba

Yuzlar yorug' mehmonga  
Ro'zg'or mo'ldir osh nonga

### **12 – o'quvchi:**

Har narsa inson uchun  
Vijdon uchun, shon uchun.  
Ikki so'z – nonu inson  
Mazmuni bor bir jahon.

### **13 – o'quvchi:**

Inson nonni yaratar  
Non insonni yashnatar  
Non shu ko'ngilga tegmas  
Eng aziz, eng muqaddas.

### **14 – o'quvchi:**

Har uyda xizmati,  
Yasha aziz g'allakor  
Oppoq nonning hurmati  
G'alla yurtning quadrati

**O'qituvchi:** Dasturxon deganda ko'z oldimizga ne'matdan oldin non, tabarruk non keladi. Dasturxonga qancha narsa qo'yilmasin: turli konfetlar, olma – uzumlar, har xil ovqatlar, somsalar quyilsa, lekin non qo'yilmasa, bunday dasturxon foydali, zarur dasturxon bo'lmaydi.

Magnitafonda:

Donolarda shunday gap bor. Aytishlaricha bir olimdan non ulug'mi, yoki kitob ulug'mi deb so'rabdilar. U kitob ulug' deb javob beribdi. Kunlar o'tibdi, o'sha odam och qolibdi, madori qolmabdi. So'ngra nima qilishini bilmay kitobiga non almashib yebdi. Bu gap bekorga aytilmagan, chunki non bu hayotdir.

**Ashula:** Non nashidas

O'quvchilar non haqida maqollar aytadi.

Keksa –yu yosh shu non deb

Ter to'kishar o'ylasak

Kim nima der biz uni

Xo'rlab otib o'ynasak

Har bir kichik ushoq ham  
Non, hech to'kib sochmaylik,  
Non shirinlik, non – hayot,  
Tugamas baxt va boylik

### **O'qituvchi:**

Katta qiyinchiliklar evaziga yetishtirilgan nonni isrof qilmasdan uni avaylab – ardoqlashimiz kerak ekan. Dasturxonimizning to’kin – sochinligi va hayotimizning farovonligi hammasi mehnatkash dehqonlarimiz tufaylidir. Shu bilan “Non aziz” mavzusidagi tarbiyaviy soatimizni yakunlaymiz.

## 11-amaliy mashg‘ulot

**Mavzu:** Tarbiya jarayonida diagnostika va korreksion faoliyat mazmuni. Pedagogik diagnostika metodlari.

Reja:

1. Korreksion (maxsus) pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari.
2. Tadbir ishlanmasini tuzish.

**Maqsad:** Tarbiya jarayonida diagnostika va korreksion faoliyat mazmuni. Pedagogik diagnostika metodlari haqida tushuncha berish.

### Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1. R.A.Mavlonova, Б.Нормуродова. Тарбиявий ишлар методикаси. О‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Fan” 2008 y. 301-bet.
- 2.R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.155-bet.
3. K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.O‘quv qo‘llanma.T.:O‘qituvchi 2010-yil.109-bet.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasи va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil.203-bet.

Korreksion pedagogikaning predmeti, vazifalari va mohiyati. Rivojlanishida turli nuqson (kamchilik)lar bo‘lgan o‘quvchilarни korreksion o‘qitish va tarbiyalash bilan korreksion pedagogika (defektologiya) shug‘ullanadi. Korreksion (maxsud) pedagogika (defektologiya — yunoncha defectus — nuqson, kamchilik, logos — fan. ta’limot) — rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega. Maxsus individual tarbiyalash va o‘qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan sanaladi. Ilmiy tushuncha sifatida korreksion pedagogika zamонавиу pedagogika fanida rasman e’tirof etilganiga u qadar ko‘p vaqt bo‘lmadi. Uzoq vaqt davomida pedagogikada «defektologiya» tushunchasi qo‘llanib keltingan.

Korreksion pedagogika (defektologiva) tarkibiga quyidagi sohalari kiradi:

Pedagogik lug’atda «korrektsiya» tushunchasi (yunoncha «korrectio» tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to’liq) sifatida tushunilishi ta’kidlab o’tiladi. Ana shu lug’atda «korreksion pedagogika»ning jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o‘qitish metodlariga muhtoj bo‘lgan, sog‘lig‘i imkoniyatlari cheklangan boluning individualligi va shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan ekanligi qayd etiladi.

Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi - belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o’rtasidagi nomuvofiqlikni yo’qotish yoki kamaytirishdan iborat.

Korreksion-pedaaogik faoliyat yaxlit ta'lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Diagnostika korreksion, korreksion-rivojlantiruvchi, korreksion-profilaktik faoliyatlar bilan birqatorda tarbiyaviy va korreksion-o'qitish, psixokorreksion faoliyatni ham amalga oshirilishini ta'minlaydi. Korreksion-pedagogik faoliyat maxsus ta'lim dasturiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayon.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar kategoriya sifatida shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiy pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimidan iborat. Korreksion - tarbiyaviy masalalarida sinf va sinfdan tashqari ishlarning barcha tur va shakllaridan foydalaniлади. Korreksion —tarbiyaviy ishlar anomal bolalarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladi va mehnat tarbiyasini samarali tashkil etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Mehnat ta'limi jarayonida faqat kasbiy malakalari emas, balki o'z ishlarini rejalashtirish ko'nikmalari, og'zaki ko'rsatmalarga amal qilish malakasi, ishning sifatini tanqidiy baholash va boshqa malakalari tarbiyalanadi. Kamchiliklarini tuzatish yordamida anomal bolalarning normal rivojlangan bolalar bilan aloqalari uchun sharoitlaryaratish muhimdir. Bir qator hollarda anomal bolalar uchun davolash-korreksion tadbirlar (davolash jismoniy mashqlari, masala, artikulyar va nafas olish gimnastikasi, dori-darmonlar qabul qilish va boshqalar) ni tashkil etish zarur bo'ladi. Korreksion-tarbiyaviy faoliyat bolaning idrok etish imkoniyatlarini o'zgartirish, uning emotsiional-irodaviy, individual-shaxsiy sifatlarini yaxshilash, qiziqish va layoqatlari, mehnat, badiiy, estetik va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik xatti-harakat. Korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim o'qishda va maktabda anomal bolalarga o'z vaqtida malakali yordam ko'rsatishni ta'minlovchi differensial ta'lim tizimi bo'lib, uning asosiy vazifasi bola rivojlanishining umumiy darajasini oshirishga qaratilgan bilimlarni tizimlashtirish, uning rivojlanishi va o'qishidagi kamchiliklarni yo'qotish, etarlicha shakllanmagan malaka va ko'nikmalarni shakllantirish hamda bolaning idrok etish borasidagi kamchiliklarni tuzatish. Korreksion-pedagogikaning paydo bo'lishi, tashkil topishi va rivojlanishi. Rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik faoliyat boy tarixiy tajribalarga ega. Anomal (yunoncha anomalo — noto'g'ri) bolalarga jismoniy yoki psixik nuqsonlari umumiy rivojlanishini buzilishiga olib keladigan bolalar kiradi.

**Topshiriq:** Ushbu quyida keltirilgan matndan parcha qaysi sinf darsligining qanday nomli hikoyasidan?



Kech bo'lganda ota-onamning shoshilib chiqib ketishlaridan bezovta bo'ldim. Ular ertalabgacha qaytishmadi... Maktabdan kelib onajonimni qattiq sog'inganim bois, ularga qo'ng'iroq qildim.

Dadajonimning pichirlab gapirishlaridan hech narsani tushunmadim.

Opamning aytishlaricha, onajonimning ustozlari qattiq betob bo'lib qolibdilar. Butun umrini oliv ta'lif muassasasida talabalarga dars berish, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga bag'ishlagan bu rus ayolining farzandlari chet davlatga ish bilan ketgan ekan.

Ota-onam ularni so'nggi yo'lga kuzatishga bosh bo'lishibdi. Kech-qurun juda xafa bo'lib qaytgan onajonimdan: «Nega xafa bo'lasiz? Ular bizning qarindoshimiz emas-ku, ularning odatlari ham, millati ham boshqa-ku?» –

deb so'radim. Bir zum indamay turgan dadajonim: «Bolam, biz insoniylik burchimizni bajardik», – deb javob berdilar.

**Topshiriq:** 3-sinf o'quvchilari uchun tarbiyaviy tadbir ishlanmasini yozish.

## 12-amaliy mashg'ulot

**Mavzu:** Shaxsda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.

**Reja:**

1. Shaxs haqida tushuncha.
2. Tadbir ishlanmasi tuzish metodikasi.

**Maqsad:** Shaxsda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqidagi bilimlarni rivojlantirish.

### Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

1. R.A.Mavlonova, Б.Нормуродова. Тарбиявий ишлар методикаси. О'кув qo'llanma. Toshkent, "Fan" 2008 y. 188-bet.
2. R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.115-bet.
3. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi.O'quv qo'llanma.T.:O'qituvchi 2010-yil.141-bet.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil.132-bet.

Yuksak ma’naviy-axloqiy fazilat va sifatlarga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish davlatimiz siyosatining bugungi kundagi ustuvor yo‘nalishlaridan biri xisoblanadi. YUksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar va sifatlarga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish ko‘p bosqichli, murakkab jarayon bo‘lib, mazkur jarayon shaxs tarbiyasiga innovatsion yondoshuvni talab etadi.

Yuksak ma’naviy-axloqiy fazilat va sifatlarga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish davlat va jamiyatning uzlucksiz ta’lim jarayoniga taqdim etgan buyurtmasidir.

Shaxsning ma’naviy –axloqiy kamolotini shakllantirish, yoshlarning ma’naviy-axloqiy madaniyatini oshirish, ularning yuksak insoniy fazilatları, ichki dunyosini boyitish demakdir.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

- yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy qarashlarini, axloqiy bilim va tasavvurlarini, ma’naviy savodxonligini yanada o’stirish;
- milliy-ma’naviy qadriyatlar, ularning mazmuni, mohiyatiga doir bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish;
- yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy madaniyatini oshirish;
- axloqiy fazilatlarning milliy mustaqillik, yuksak insoniy fazilatlar bilan chambarchas bog‘liq ekaninini hisobga olgan holda ongli va puxta o‘zlashtirilishiga erishish;
- yoshlar ma’naviyatiga xavf tug‘diruvechi ichki omillar: mahalliychilik,tanishbilishchilik,urug‘-aymoqchilik, ilimsizlik, madaniyatsizlik, milliy qadriyatlarni mensimaslik singari illatlarga qarshi kurasha olish xususiyatlarini shakllantirish;
- mustaqillikka xavf tug‘diruvchi tashqi omillar: diniy ekstremizm, aqidaparsatlik, vahhobiylilik, akromiylik, hizbu-tahrir oqimlarining tahdididan o‘zini himoya eta olish va ularga qarshi kurasha olish ko‘nikmalarini hosil qilish;
- milliy- madaniy merosimizga, buyuk allomalarimizning hayoti va ilmiy faoliyatiga, milliy qadriyatlarimizni muntazam o‘rganib borish uchun shaxsiy qiziqishlarini shakllantirish.

Noyob insoniy fazilatlarga, yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan shaxsning ma’naviy kamoloti vatanparvarlik, insonparvarlik, axloqiylik hamda mehnatsevarlik singari ezgu fazilatlar asosida shakllantirib boriladi. O‘z navbatida ularning har biri o‘z tarkibida bir qancha xususiyatlarni birlashtiradi.

Shaxsning ma’naviy-axloqiy fazilatlari ichida “Ma’naviy kamolot” ga alohida urg‘u beriladi.

“Ma’naviy kamolot” deganda har bir shaxsdagi u mansub bo‘lgan halq va millat, qolaversa, butun insoniyatga xos bo‘lgan eng yaxshi, asrlar davomida hayotda o‘zini oqlab, ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilib, bezavol yashab kelayotgan axloqiy-ma’naviy fazilatlarning davr talablari aosida mujassamlashuvi tushuniladi. Bunday fazilatlar orasida ayniqsa, vatanparvarlik, insonparvarlik, axloqiylik, mehnatsevarlik singari tayanch tushunchalar alohida o‘rin tutadi. Yuksak ma’naviyatning yetakchi, asosiy tarkibiy qismlaridan biri bu – vatanparvarlikdir. Vatanparvarlik deganda, insonning o‘z ona yurtini qadrlab shu ona yurt uchun, uning qanday sohasi bo‘lmisin o‘z kuch va g‘ayratini ayamasdan sarflashidir. Vatanparvarlik xalqimizning tarixiy hayotida muhim o‘rin egallagan (Spitamen, To‘maris, Shiroq, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, va boshqalar faoliyati). Masalan,

qadimgi ajdodlarimizdan Metexon (milodning 209 yili) Vatan haqida: «Vatan bizning olish-berish qilsak bo‘ladigan mulkimiz emas. Uning bir parchasida mozorlarda yotgan, o‘tgan avlod-ajdodlarimizning xoklari, o‘zimizva qiyomatgacha tug‘iladigan avlodlarimizning haqlari bordir. U dushmanga berilishi mumkin emas», - degan edi. Bu fikrlar har bir kishini hayratga soladi, albatta. Vatanparvarlik tushunchasini yanada kengroq tushunish uchun xalq og‘zaki ijodi janrlaridan tortib sharq mutafakkirlarimizning nodir asarlarini mukammal o‘rganishimiz lozimdir.

Topshiriq: Quyidagi mavzuni davom ettiring va tadbir ishlanmasintuzing!

### **KOINOTNI ZABT ETGAN BOBOM**

Bundan 1200 yillar avval yashagan bobomiz Ahmad al-Farg‘oniy yerdan turib yulduzlarni o‘rgangan. U bolaligidan kitoblarni sevib o‘qir, bilmaganlarini ustozidan so‘rab o‘rganar edi.

Bag‘dod shahrida ta’lim olgan Ahmad al-Farg‘oniy ko‘p vaqtini kutubxonada o‘tkazgan. U yunon va hind olimlarining kitoblarini o‘qigan, ularni arab tiliga tarjima qilgan va o‘quvchilar uchun sodda tilda sharhlagan. Ahmad al-Farg‘oniyning «Astronomiya asoslari haqida kitob» asari uzoq vaqt davomida jahondagi ko‘plab universitetlarda astronomiyadan asosiy darslik sifatida o‘qitilgan.



Topshiriq: 2-sinf o‘quvchilari uchun tarbiyaviy tadbir ishlanmasi tuzish.

### **13-amaliy mashg‘ulot**

**Mavzu:** O‘quvchilarda jismoniy va intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish va kreativ sifatlarini namoyon qilishning mazmuni.

#### **Reja:**


1. Mavzu yuzasidan nazariy bilimlar asosida savol-javob o‘tkazish.
2. Tarbiyaviy tadbir ishlanmasini tuzish.

**Maqsad:** O‘quvchilarda jismoniy va intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish va kreativ sifatlarini namoyon qilishning mazmuni haqidagi bilimlarni rivojlantirish.

#### **Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar**

1. R.A.Mavlonova, B.Normurodova. Тарбиявий ишлар методикаси. О‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Fan” 2008 y. 308-bet.
2. R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.122-bet.
3. K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.O‘quv qo‘llanma.T.:O‘qituvchi 2010-yil.106-bet.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil.171-bet.

Shaxsga xos kreativlik sifatlari muayyan bosqichlarda izchil rivojlantirilib boriladi. Shaxsning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning individual qobiliyatları, tabiiy va ijtimoiy quvvatini o'z kasbiy faoliyatini sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Shaxsga xos kreativlik sifatlaridan namuna:



Aytib o'tilganidek, barcha shaxslarda bo'lgani kabi pedagoglarda ham kreativlik sifatlari o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Shunga ko'ra, tadqiqotlarda shaxs (jumladan, pedagoglar)da kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yo'llari yoritiladi. Patti Drepeau tomonidan ham shaxs (jumladan, pedagoglar)da kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning to'rtta yo'lli ko'rsatilgan:

- Kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish;
- Amaliy kreativ harakat ko'nikmalarini rivojlantirish;
- Kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish;
- Kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish.

**Topshiriq:** Quyida keltirilgan rasm qaysi sinf darsligidan olingan?



**Maktabda o'zimizni qanday tutishimiz kerak?**  
Rasmlarning tagiga berilgan qoidalardan mosini yozing.

- a) Partada to'g'ri o'tiring;
- b) Daftar-kitoblarning ustida ovqatlanmang;
- c) Maktabga kelganda tabassum bilan salomlashishni unutmang;
- d) Partan-gizning ustini tartibga soling;
- e) Partan-ning ustida va ostida ortiqcha narsalar bo'lmasligi kerak;
- f) Maktab yo'laklarida baqirib gapirmang;
- g) Partanig ustida va ostida ortiqcha narsalar bo'lmasligi kerak;
- h) Maktabga o'z vaqtida kelish kerak. Kech qolmaslikka harakat qiling;
- i) Darslarga tayyorgarlik bilan keling.

**Topshiriq:** 4-sinf o'quvchilari uchun tarbiyaviy tadbir ishlanmasini tuzish.

#### 14-amaliy mashg'ulot

**Mavzu:** Tarbiya darslarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish.

**Reja:**

1. Mavzu yuzasidan nazariy ma'lumotlarga asoslanib savol-javoblar jamlanmasini tuzish.
2. Tarbiyaviy tadbir ishlanmasini tuzish.

**Maqsad:** Tarbiya darslarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish.

#### Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

1. R.A.Mavlonova, Б.Нормуродова. Тарбиявий ишлар методикаси. О'кув qo'llanma. Toshkent, "Fan" 2008 y. 107-bet.
2. R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.213-bet.
3. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi.O'quv

qo'llanma.T.:O'qituvchi 2010-yil.108-bet.

4. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T:. Fan va texnologiyalar. 2010-yil.203-bet.

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilish maqsadida «Ta'lim-tarbiya to'g'risida»gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning amaldagi holati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev bu muammo ilmiy - nazariy va amaliy nuqtai nazardan asoslab, o'quv-tarbiya jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, boshqarish, maqsadga erishish samaradorlikni oshirishning muhim omili deb hisobladi.

Respublikamizda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya islohotlari, mutaxassis kadrlar salohiyotini oshirishga qaratilgan bo'lib, oliv o'quv yurtlarida pedagoglarning metodik mahoratini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilarimiz bu vaziyatdan chiqishda ularni o'z faoliyatiga tanqidiy yondashib, psixologik jixatdan qayta ko'rib chiqib, ularni yangi sharoitda bolalarga samimiy munosabatda bo'lish, ularni rivojlantirishda shaxsiy yondashuv, hamkorlik, hamijodkorlik, individuallashish asosida, ularni ta'lim - tarbiya jarayoniga motivatsiya hosil qilish orqali ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlashga barcha kuchlarini va e'tiborlarini qaratishni talab etadi. Agar o'qituvchi o'zining faoliyatni kuzatib borsa, tahlil qilsa, o'ziga baho bera olsa, o'z faoliyatiga tuzatishlar, yangiliklar krita olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu sababli ham respublikamizda interfaol metodlarni o'quv jarayoniga qo'llash keng joriy etilmog'i kerak. Bu o'z navbatida o'quv jarayonini insonparvarlashtirish, demokratiyalashtirish, liberilizatsiyalashni tashkil etishni taqozo etmoqda. Qisqa qilib aytganda, o'quv jarayoni markazida o'quvchi shaxsi, uning extiyoji bo'lmosh'i lozim. O'quv jarayoni uning hoxish, istagiga qaratilgan, yo'naltirilgan bo'lmosh'i talab etiladi. SHaxsga qaratilgan ta'lim o'quvchini o'quv – biluv faoliyatini tashkil etishning harakatlantiruvchi, qiziqish, extiyojini, hoxish, istaklarini ro'yobga chiqaruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. **Innovatsiya:**

- Yangilanish, o'zgarish;
- Biror – bir yangilikni kiritish;
- Yangilikni o'zlashtirish jarayoni.

**Innovatsiya** – (inglizcha Innovation – yangilik kiritish) – tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, amaliyat va nazariyaning muhim qismi. Innovatsion jarayonning mazmuniy tomonini o'z ichiga oladi (ilmiy g'oyalar va ularning texnologiyalarini amaliyatga kiritish).

Demak, faqatgina innovatsion jarayonlarni pedagogik tizimga bog'lash yoki kiritish orqaligina ta'limda yuqori darajalarga erishish mumkin. Bunda yangiliklarni sekinlik bilan, bosqichma – bosqich kiritish, uni qanchalik foyda keltirishini atroflicha o'ylab, o'lchab amalga kiritish maqsadga muvofiqdir. Innovatsiyalarni pala – partish, tartibsiz, oldindan natija olishni mo'ljallamay amalga oshirish zarar keltirishi ham mumkin.

Zero, innovatsiya chuqurroq bilim olish, o'rganish, o'zlashtirish, keng hajmdagi bilimlarni olishga qaratilmog'i yaxshi natijalar berishi mumkin. Bular doimiy pedagogik muammo bo'lib kelayotgan: o'quv – tarbiyaviy faoliyat motivatsiyasini oshirish, dars jarayonlarida o'quv materialni hajmini oshirish, o'quv jarayonini jadallashtirish, vaqtini tejash, ko'proq ilg'or metodlardan foydalanish, o'quv – tarbiyaviy ishlarda interfaol usullardan foydalanish, ilg'or texnologiyalarni qo'llash,

axborot – kommunikatsion texnologiyalarni joriy qilishdan iborat. Yuqori natijalar beradigan yangi g’oyalar, yangi nazariy bilimlar beruvchi, insonni rivojlanishiga olib keluvchi, tom ma’nodagi innovatsiyalarni yaratish, izlash, joriy etish talab etiladi.

**Topshiriq:** Quyida berilgan matn qaysi sinf darsligidan olingan.....? Davom ettiring.

Bir kuni novvoy qishloq oqsoqolining oldiga borib, do’konchining ustidan shikoyat qilibdi. «Men undan non uchun har kuni 1 kg sariyog’ sotib olaman. Bugun olgan sariyog’ni tarozida tortsam, qadoqda 800 gramm sariyog’ bor ekan. U har gal 200 gramm sariyog’ urib qolsa, mening nonim mazali chiqmaydi, xonavayron bo’laman. Sizning oldingizgaadolat istab keldim», – debdi novvoy oqsoqolga.

Ko’p o’tmasdan do’konchini olib keldilar. O’ziga qo’yligan ayblovni eshitgan do’konchi avvaliga jahli chiqib ketdi. Bir fursat o’tib, xotirjamlik bilan gap boshladi:



### 15-amaliy mashg‘ulot

**Mavzu:** Boshlang‘ich sinflarda tarbiyaviy trening turlari , ularning mazmuni va mohiyati.

**Reja:**

- 1.Trening haqida tushuncha.
- 2.Boshlang‘ich sinflarda trening o’tkazish.

**Maqsad:** Boshlang‘ich sinflarda tarbiyaviy trening turlari , ularning mazmuni va mohiyati haqida bilim, ko’nikmalarni rivojlantirish.

#### Asosiy darslik va o‘quv qo’llanmalar

1. R.A.Mavlonova, Б.Нормуродова. Тарбиявий ишлар методикаси. О‘quv qo’llanma. Toshkent, “Fan” 2008 y. 101-bet.
- 2.R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.183-bet.
3. K.Xoshimov, S.Ochilov. O’zbek pedagogikasi antologiyasi.O‘quv qo’llanma.T.:O‘qituvchi 2010-yil.172-bet.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil.200-bet.

Zamonaviy psixologiya sohalarining muammolaridan biri har tomonlama barkamol shaxslarni tarbiyalash va jamiyatda o'z o'rmini topishiga ko'maklashish, malakalarini rivojlantirish hisoblanadi. Bu boradagi ishlarni amalgalashda albatta, psixologik treningni o'ziga xos o'rni mavjud bo'lib, hozirda mutaxassislar fanning imkoniyatlaridan keng foydalanib kelmoqdalar desak, mubolag'a bo'lmaydi. Natijada, shaxslararo munosabatlar orasida muloqot uslubining o'zgarishi, muayyan kasbiy sohalardagi bilim, ko'nikma va malakalarning ortishi, rahbar, menejer, tadbirkor, kadrlar menejeri, psixolog, murabbiyning faoliyati kabilarda, ayniqsa, shiddatli sharoitlarda juda murakkab faoliyat turlarida yoshlarning peshqadamligi fanning asl mohiyatini tahlil qilishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, bugungi globallashuv davri shaxslarida muloqotga bo'lgan (ishlab chiqarish, ta'lim-tarbiya jarayoni, oilaviy munosabatlar, emotsiyonal sferaning barqarorligini ta'minlash kabilarda) ehtiyojlarning kundan-kunga oshib borishi, ular o'rtasida yuzaga keladigan turli nizoli vaziyatlarni bartaraf etish jarayonida albatta psixologik treninglarning imkoniyatlarini kengligi ham hech kimga sir emas. Psixologik adabiyotlarni tahlil qilganimizda treningga oid turli qarashlarni, amaliy tavsiyalarni uchratamiz. Xo'sh trening o'zi nima? Treningni tashkil qilishdan maqsad nima? Trening shaxs barkamolligini shakllantirib bera oladimi? kabi savollarga duch kelamiz. Avvalo, trening - bu odamning muloqot uslubini o'zgartirishga, uyg'unlashtirishga, kerakli ko'nikmalarini singdirishga va boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladigan yoki ong osti xarakterga ega bo'lgan qarama-qarshiliklarni hal qilishga qaratilgan yorqin, hissiy jihatdan jadal o'quv faoliyat turi deb ta'kidlasak ham xato bo'lmaydi. Trening - bu turli faoliyat sohalarida keng qo'llaniladigan juda mashhur va keng tarqalgan o'qitish shaklidir. Kasbiy muvaffaqiyat ko'plab tarkibiy qismlardan iborat, shu bilan birga, trening texnologiyasi odamning kayfiyatini, muayyan faoliyat turiga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga, o'z-o'zini tarbiyalash va o'zini rivojlantirish zarurligini anglashga yordam beradigan o'quv shakllardan biridir. Hozirgi davrda insonlarni eng tabiiy bo'lgan muloqotga ehtiyoji, uning sirlaridan xabardor bo'lish, o'zgalarga samarali ta'sir eta olishga intilishining kuchayishi, bo'lajak kadrlarni kelgusi faoliyatlarini samarali amalgalashda tayyorlash, shuningdek, rahbar kadrlarni samarali boshqarish usuliga o'rgatish kabi masalalarni echimini topish borasidagi ishlardan biri - bu ijtimoiy psixologiyaning asosiy sohasi bo'lgan psixologik treninglarni tashkil etishdir. Trening tushinchasi ingliz tilidan kelib chiqqan bo'lib, "train", "training" ko'plab ma'nolarga ya'ni: o'qitmoq, tarbiyalamoq, (trenirovka) mashq qilmoq kabi ma'nolarga ega. Xuddi shunday ko'p ma'nolilik treningning ilmiy talqiniga ham mos keladi.

Odatda trening mashg'ulotlari maxsus xonalarda yoki maxsus tanlangan joylarda (tabiat quchog'ida) o'tkaziladi. Lekin joyning tayyorlanishidagi asosiy talab shuki, shu guruh a'zolari bir biriga hissiy yaqin bo'lishlari o'zaro bevosita ta'sir ko'rsatish yoki ko'zlariga boqish imkoniyatlariga ega bo'lishi kerak. Masalan: yumaloq stol atrofida kishilarning to'planishi yuzmay yuz o'tirish va hakozolar. Bu "Men - o'yinda" deb ataluvchi holat bo'lib, ishtirokchilar, boshlovchi ham doira shakldagi stol atrofida joylashadilar va o'rtaga tashlangan mavzu yuzasidan erkin fikr almashish, hattoki, ayrim ishtimoiy rollarga ham kirish imkoniyatiga ega bo'ladi.



Guruh a'zolarining qanday shakli stol atrofida o'tirishlari, yoki birbirlariga nisbatan fazoviy joylashishlariga qarab, shaxslarni o'zlarini ruhiy his qilishlari ham har xil bo'ladi. Masalan: agar trening guruhi a'zolari to'rt burchak stol atrofida joylashgan bo'lsalar bunda har bir a'zoning fazoviy tavvurlari va munosabatlari bahs-munozaraga moyil bo'ladi va bunday holat "Menmunozaradaman" deb ataladi.



Yoki taxminan 1,5 metrga 2 metr diametr yumaloq stol atrofida o'tkazilayotgan suhbatdagi shaxs holati 'Men o'yindaman' deb atalsa yumshoq yuza (Krislo, gilam va devan) ustida xohlagan qulay holat bo'lsa "**Men- o'zimda**" deb ataladi.



Trening muloqotlarida yana bir umumiy jihat borki, bunda muloqot yoki ishtirokchilari o'rtaida samimiy, iliq munosabatlar o'rnatilishi, ular bir-birlarigaishonishlari lozim. Buning uchun boshlovchi o'yin boshida shunday sharoityaratadiki, natijada ishtirokchilar bir-birlarini tanib, iliq munosabatlarga moyillik sezishlari shart.

Shuningdek,mashg‘ulotni katta, keng yaxshi shamollatish imkoniyatiga egabo`lgan shinam xonada o`tkazish lozim. Xonada ishtirokchilar soniga teng miqdorda stullar bo`lishi kerak. Mashg‘ulotda qulay, rohat baxsh etadigan, ko`ngil (dil) ochadigan osoyishta, sokin sharoit yaratilgani yaxshi (ayniqsa,dastlabki, mashg‘ulotlarni o`tkazishda], yarim qorong‘ulik, muloyim) yaxshisi lirik va minor ovozli] musiqa, derazalarga nozik, nafis pardalar tutilgani ma'qul va hakazo.

**Topshiriq:** Boshlang’ich sinflarda tarbiya darslarida o’tkaziladigan trening mashg‘ulotlaridan namunalar tayyorlash.

## **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYA FANIDAN MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI**

Mustaqil ta'lismi va mustaqil ishlari

Mustaqil ta'lismi uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Bakalavr mustaqil ta'lismi tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;

tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;

maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash; masofaviy ta'lismi.

Bakalavr talabaga mustaqil ta'limga mavzulari beriladi, bu mavzular bo'yicha egallanishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, muddati va topshirish shakli aytildi. Ko'rsatilgan muddatda nazariy material konspekti, referati ko'rildi, test yoki savol-javob o'tkaziladi.

Mustaqil ishni tashkil etishda unga mo'ljallangan har bir bo'lim bo'yicha adabiyotlar talaba tomonidan o'rganilishi, mustaqil ish uchun mo'ljallangan nazariy va amaliy bilim mavzularini o'zlashtirish, har bir bo'lim bo'yicha berilgan topshiriqlarning mos varianti talaba tomonidan bajarilishi, Powerpoint, Maple dasturlaridan foydalanib, ularni prezentatsiya ko'rinishida tayyorlab topshirishi talab qilinadi. Jarayon o'qituvchi tomonidan uzlucksiz nazorat qilinadi.

### **Topshiriq-1**

1. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida tarbiya jarayonini tashkil etishning o'ziga xosligi.
2. Tarbiyachi, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorligi.
3. Mustaqillik, mas'uliyat va o'z-o'zini nazorat qilish.
4. Jamoani shakllantirishning istiqbol rejali.
5. Tarbiya metodlarining jamoaning rivojanish darajasiga bog'liqligi.
6. Tarbiya fanini o'qitish texnologiyasida tarbiya treninglari asosida faoliyatini tashkil etish.
7. Tarbiya jarayonida oila, mahalla hamda ta'lum muassalarining o'zaro hamkorligi.
8. Tarbiya jarayonida oila, mahalla hamda ta'lum muassalarining hamkorligini yo'lga qo'yish shakl va metodlari.
9. Ta'lum muassisining ota-onalar va jamoatchilik bilan guruh tarzidagi ishlash shakllari.
10. Ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari.
11. Guruh rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ish shakllari.
12. O'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish.
13. O'quvchilarda mustaqillikni shakllantirish tarbiya jarayoni samaradorligi omili sifatida.
14. O'quvchilarning darsdan tashqari tarbiyaviy jarayonlarda ma'naviy ishlarini tashkil etish.
15. 1-2 – sinf Tarbiya darsligini o'rganish.
16. 3-sinf Tarbiya darsligini o'rganish.
17. 4-sinf Tarbiya darsligini o'rganish.
18. Tarbiya darslarini tashkil etishning pedagogik texnologiyasi.
19. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati.
20. Tarbiya usullari va shakllari.
21. Tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari.
22. Sinf rahbarining maktab jamoat tashkilotlari bilan olib boriladigan ishlar.
23. Maktabdagagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining faoliyati.
24. Sinf rahbarining o'quv faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari.
25. O'quvchilar bilim sifatini oshirish va sinfdagi intizomni mustahkamlash.
26. Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullari.
27. Sinf rahbari ishini rejalashtirish usullari.
28. Sinf tarbiyaviy soatlari haqida umumiylash.
29. Sinf rahbarining namunaviy yillik ish rejasini tuzish metodikasi.
30. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish metodikasi.
31. Jamoa haqida umumiylash.

32. Ota-onalar bilan ishlash metodikasi.
33. Maktabning o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rnbosarining vazifalari.
34. Tarbiya fani asosida sinfdan tashqari tadbirlarni tashkil etish metodikasi.
35. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim - tarbiyalasida tarbiya fanining imkoniyatlari.
36. 3-4-sinflarda Tarbiya darslarini tashkil etishning maqsad va vazifalari.
37. 3-4-sinflarda Tarbiya darslarini tashkil etishning usullari.

### **Topshiriq-2**

1. Tarbiya fanining maqsad va vazifalari.
2. Tarbiya fanini o‘qitishga qo‘yiladigan asosiy talablar.
3. Tarbiya fanidan boshlangich sinf o‘quvchilarining egallashi lozim bo‘lgan tushuncha, bilim, ko‘nikma va malakalar
4. Tarbiya fanidan boshlangich sinf oquvchilariga bilimlar, tushunchalar berish, ko‘nikma va malakalar hosil qilish.
5. Milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasini shakillantirishda Tarbiya fanining tutgan o‘rni.
6. Milliy axloq-odob va qadriyatlar asosida yoshlarni tarbiyalashning nazariy asoslari.
7. Milliy axloq-odob va qadriyatlar asosida yoshlarni tarbiyalash manbalari.
8. Tarbiya fanidan o‘quvchilarining bilim, ko‘nikma va malaka darajasi.
9. Tarbiya fanidan o‘quvchilarining bilim, ko‘nikma va malaka darajasini oshirishda differensial yondashuvning roli.
10. Tarbiya fanidan o‘quvchilarining bilim, ko‘nikma va malaka darajasini oshirishda differensial yondashuvni tashkil etish.
11. Tarbiya fanini o‘tishda integratsiyalishgan darslarni tashkil etish.
12. Tarbiya fanining o‘qitish mazmuni.
13. «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun Milliy dastur asosida ta’limning tuzilishi.
14. Tarbiya fanini o‘qitishning yo‘nalishlari.
15. Tarbiya darslarini o‘ziga xos va mos xususiyatlari.
16. Tarbiya darslarida pedagogik texnologiyadan foydalanish.
17. Tarbiya darslaridagi tarbiyaviy tadbirlarni ta’sirchan va mazmunli otishda o‘qituvchining pedagogik mahorati.
18. O‘qituvchining muomala madaniyati va pedagogic ta’sir ko‘rsatish mahorati.
19. Tarbiya darslarini oqitish uslubiyotining bo‘limlari tavsifi.
20. Tarbiya darslarini oqitish prinsiplari.
21. Tarbiya darslarini oqitish metodlari.
22. Tarbiya darslarini tashkil etishda oquvchilar dunyoqarashini shakillantirish.
23. Tarbiya darslarini oqitish noan`anaviy yondashuv.
24. “Tarbiya darslarini tashkil etish metodikasi” fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
25. Tarbiya fanidan boshlangich sinf oquvchilariga bilimlar, tushunchalar berish.
26. Tarbiya fanining asosiy manbalari.
27. Tarbiya fanini o‘qitishga qo‘yiladigan asosiy talablar.
28. Tarbiya fanini oqitish uslubiyotining bo‘limlari tavsifi.
29. Tarbiya fanini oqitish uslubiyotining mazmuni.
30. Tarbiya fanini oqitish uslubiyotining prinsiplari.
31. Tarbiya fanini oqitish uslubiyotining tekshirish metodlari.
32. Milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasini shakillantirishda Tarbiya fanining tutgan o‘rni.
33. Tarbiya faninig nazariy va milliy asoslari.

34. Tarbiya darslarida yuksak insoniy tushunchalarni shakillantirish.
35. Milliy axloq-odob va qadriyatlar asosida yoshlarni tarbiyalashning nazariy asoslari.
36. Tarbiya o'qish tabiatshunoslik darslarini integratsiyalash.
37. 3-4-sinflarda Tarbiya darslarini tashkil etishda o'qituvchining mahorati va zamonaviy yondashuv.

### **Topshiriq-3**

1. Tarbiya fani asosida sinfdan tashqari tadbirlarni tashkil etish metodikasi.
2. 1-2-3-4-sinflarda Tarbiya darslarini tashkil etish.
3. Tarbiya fanini oqitish metodikasining bo'limlari, prinsiplari va tekshirish metodlari.
4. Sinf rahbarini yillik ish rejasini tuzish
5. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar rejasini tuzish.
6. Jamoa va uning turlari.
7. O'quvchilar jamoasining o'ziga xos xususiyatlari.
8. Maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosarining vazifalari.
9. Sinf rahbarlari va ota-onalar komiteti hamkorligi ishini o'rganish haqida ma'lumot berish.
10. Milliy axloq-odob va qadriyatlar asosida yoshlarni tarbiyalash manbalari.
11. Sharq mutafakkirlarining merosida bolalarni ahloqiy tarbiyalash.
12. Mutafakkirlarning o'lmas merosi oilada bolalarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning muhim omili ekanligi.
13. Tarbiya fanidan o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malaka darajasi.
14. Tarbiya fanidan o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malaka darajasini oshirishda differensial yondashuvning roli.
15. Tarbiya fanidan o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malaka darajasini oshirishda differensial yondashuvni tashkil etish.
16. Tarbiya fanini o'tishda integratsiyalashgan darslarni tashkil etish.
17. Tarbiya darslarini tashkil etishning pedagogik texnologiyasi.
18. Pedagogik texnologiyalarning asosiy ma'nosи va tushunchasi.
19. Tarbiya darslarida yangi pedagogik texnologiyaning mazmuni, mohiyati, ta'rifi
20. Pedagogik texnologiyani qo'llashda o'qituvchi-tarbiyachi qoidalari.
21. Tarbiya darslarini oqitish uslubiyotining bo'limlari tavsifi.
22. Tarbiya darslarini oqitish prinsiplari.
23. Tarbiya darslarini oqitish metodlari.
24. Tarbiya darslarini tashkil etishda oquvchilar dunyoqarashini shakillantirish.
25. Tarbiya darslarini oqitish noan'anaviy yondashuv.
26. Sinfdan tashqari tadbirlarning tarbiyaviy ahamiyati.
27. Boshlangich sinflarda tadbirlarni rejalashtirish va tashkil etish.
28. Tarbiyaviy tadbirlarning bola tarbiyasidagi o'rni.
29. Ertalik bayramlarning o'tkazishga pedagogik talablar.
30. Tarbiya darslarida pedagogik ta'sir ko'rsatishning maqsad va vazifalari.
31. Tarbiya darslarini tashkil etishda pedagogik ta'sir etishning usullari.
32. Tarbiyachiningadolat bilan ish tutish mahorati
33. Tarbiyachining muomala mahorati va odobi.
34. 1-2-sinflarda Tarbiya darslarini tashkil etishning maqsad va vazifalari.
35. 1-2-sinflarda Tarbiya darslarini tashkil etishning usullari.
36. Tarbiya darslarida integratsiyalashgan darslarni tashkil etish.
37. 1-2-sinflarda Tarbiya darslarini tashkil etishda o'qituvchining mahorati va zamonaviy yondashuv.

## GLASSARIY

**Tarbiya** – inson shaxsi ma‘naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan say-haraktlar tizimidir. Tarbiya keng ma‘noda u yoki bu sifatlarning yoki ijtimoiy guruhlarning maqsadlariga muvofiq odamlarning yangi avlodlariga avval avlodlarning ijtimoiy – tarixiy tajribasini uzatish vositasi bilan jamiyatning rivojlanishini ta‘minlovchi vazifasi.

Tarbiyaning tor ma‘nosi – ijtimoiy institutlar doirasida va ta‘sirida ijtimoiy amaliyotniq har bir doirasidagi hayotiy faoliyatiga, ijtimoiy vazifalarni va rollarni bajarishga tayyorlash maqsadida shaxsni ongli, maqsadga yo‘naltirilgan, muntazam shakllantirish jarayoni, ta‘lim tizimining tarkibiy qismi. Tarbiya ma‘naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o‘qituvchining o‘quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o‘zaro ommaviy va nazariy muloqotdir.

**Tarbiya vazifasi** – ma‘naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutilgan holda o‘qituvchining o‘quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyaning qanday metodidan foydalanishga bog‘liq.

**Tarbiya jarayoni** – tarbiya jarayonining mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini asta-sekin ko‘nikmaga aylantirib borish lozim.

**Tarbiya maqsadi** – talaba yoshlarda milliy g‘oya va milliy mafkurani shakllantirishda ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari qo‘llaniladi.

**Tarbiya metodlari** – metod lotincha *metodos* – yo‘l so‘zidan olingan. Metod tadqiqot yo‘li, nazariya, ta‘limot deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida —metod|| so‘zi keng ma‘noda muayyan maqsadga erishish yo‘li tushuniladi.

**Tarbiya tamoyillari** – tarbiyaning maqsadga yo‘naltirilganligi va g‘oyaviylici; tarbiyada demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustunligi; tarbiyada milliy, umumbashariy qadriyatlarning ustunligi; tarbiyada izchillik va tizimlilik, tarbiyani ijtimoiy hayot bilan uyg‘un holda olib borish; tarbiyani mehnat faoliyati bilan bog‘lash; tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish; tarbiyada tarbiyalanuvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish; jamoa va jamoa yordamida tarbiyalash; tarbiyada tarbiyalanuvchi xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib salbiy tomonlarni yo‘qotish.

### **Tarbiya qoidalari:**

- tarbiyaning aniq bir maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyani hayotiy faoliyat bilan bog‘liq hodisa deb bilish;
- shaxs tarbiyasida jamoaning o‘rni borligi;
- tarbiyalanuvchi shaxsiga nisbatan talabchan bo‘lish va uning shaxsini hurmat qilish;
- tarbiyalanuvchining tarbiya jarayonida yoshi va o‘ziga xos xususiyatlarini e‘tiborga olish;
- tarbiyaviy ishlarning izchilligi va muntazam olib borilishiga e‘tibor.

**Tarbiya qoidasi** (TQ) - pedagog ta‘lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalananigan boshlang‘ich holat, rahbarlik asosidir. TQlari deganda o‘qituvchi va tarbiyachilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi qoidalari hisoblanadi. TQ Sharq va Markaziy Osiyo donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogika erishgan yutuqlariga asoslanadi.

TQlarga quyidagilar kiradi:

- tarbiyaning ma‘lum maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyaning insonparvarlik va demokratiya qoidasi;
- tarbiyada milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi qoidasi;
- tarbiyada o‘quvchilarining yosh va individul xususiyatlarini hisobga olish;
- izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta‘sirlarning birligi va uzlusizligi qoidasi.

**Tarbiyaviy jarayon** – rivojlanib borayotgan avlodning katta yoshdagilar tajribasini egallab borish jarayoni bo‘lib, insonlarning rivojlanishini boshqarish hamda ularning shaxsiy xislatlari shakllanishiga zarur sharoitlar yaratib beradi. Ayrim hollarda **tarbiya bilan rivojlanish** o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik yo‘qdek tuyuladi, aslida ular o‘rtasida bog‘liqlik juda murakkab va ahamiyatlidir. Inson shaxsi tarbiya jarayonida rivojlanib boradi, rivojlanish darajasi uning tarbiyasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, ya‘ni, o‘zgartiradi, shakllantiradi. Yaxshi tashkil etilgan tarbiya jarayoni shaxsning rivojlanish darajasini tezlashtiradi va yana tarbiyaga qayta ta‘sir ko‘rsatadi. Shu tarzda insonning butun hayoti davomida bu ta‘sir va aks ta‘sirlar o‘zaro bir-birini to‘ldirib, ta‘minlab boradi.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**"TASDIQLAYMAN"**  
**Buxoro davlat Pedagogika instituti**  
**direktori \_\_\_\_\_ M.I. Daminov**  
**2022- yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_**

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYA**

**FANINING O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100 000 – Ta'lism
Ta'lismohasi:	110 000 – Ta'lism
Ta'lomyo'nalishi:	60110500 – Boshlang'ich ta'lism

**Buxoro**

Fan/Modul kodi <b>BTTar104</b>	O'quv yili 2022-2023	Semestr <b>1</b>	ECTS - Kreditlar <b>4</b>																														
Fan/Modul turi Majburiy	Ta'lif tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4																														
Tasdiqlangan	Institut Kengashining 20__yil__ ___dagi _____-son qarori																																
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)																														
	Boshlang'ich ta'lifda tarbiya fani	60	60																														
2.	<p style="text-align: center;"><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad- Tarbiya darslarini tashkil etish metodikasi fanini oliv ta'lif tizimida o'qitishdan maqsad yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlash, yangilanayotgan O'zbekistonning kelajagi bo'lmish yoshlарimizni yuksak axloq va madaniyatni o'zida mujassam etgan raqobatbardosh shaxsni tarbiyalashdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – Talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- talabalarni axloqli, vijdonli va mehr-shafqatli qilib voyaga yetishishlariga erishish;</li> <li>- talaba maqsad qo'ya olish va unga intilishga undash;</li> <li>- xalqning ko'p asrlik qadriyatlarga rioya qilib kamol toptirish;</li> <li>- milliy g'urur va iftixon, e'tiqod hislarini ularda shakllantirish;</li> <li>- moddiy va ma'naviy merosga hurmat tuyg'ularini qaror toptirishdan iborat.</li> </ul>																																
<table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <thead> <tr> <th rowspan="2">Mashg'ulot turi</th> <th rowspan="2">Ajratilgan soat</th> <th colspan="2">Semestr</th> </tr> <tr> <th>III</th> <th>IV</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>Nazariy ( ma'ruza)</td> <td>30</td> <td>30</td> <td>-</td> </tr> <tr> <td>Seminar mashg'ulotlari</td> <td>-</td> <td>-</td> <td>-</td> </tr> <tr> <td>Amaliy mashg'ulot</td> <td>30</td> <td>30</td> <td>-</td> </tr> <tr> <td>Jami auditoriya soatlari</td> <td>60</td> <td>60</td> <td>-</td> </tr> <tr> <td>Mustaqil ta'lif</td> <td>60</td> <td>60</td> <td>-</td> </tr> <tr> <td>Umumiy o'quv soatlari</td> <td>120</td> <td>120</td> <td>-</td> </tr> </tbody> </table>				Mashg'ulot turi	Ajratilgan soat	Semestr		III	IV	Nazariy ( ma'ruza)	30	30	-	Seminar mashg'ulotlari	-	-	-	Amaliy mashg'ulot	30	30	-	Jami auditoriya soatlari	60	60	-	Mustaqil ta'lif	60	60	-	Umumiy o'quv soatlari	120	120	-
Mashg'ulot turi	Ajratilgan soat	Semestr																															
		III	IV																														
Nazariy ( ma'ruza)	30	30	-																														
Seminar mashg'ulotlari	-	-	-																														
Amaliy mashg'ulot	30	30	-																														
Jami auditoriya soatlari	60	60	-																														
Mustaqil ta'lif	60	60	-																														
Umumiy o'quv soatlari	120	120	-																														
<b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b>																																	
<b>№</b>	<b>Ma'ruza mashg'uloti mavzusi</b>	<b>Ajratilgan soat</b>																															
		<b>Jami soatlar</b>	<b>Ma'r uza</b>	<b>Amali y</b>	<b>Semi nar</b>	<b>Mus taqil ta'li m</b>																											
<b>I -semestr</b>																																	
1.	Tarbiya ijtimoiy-tarixiy zarurat sifatida.	6	2			4																											
	Tarbiya fanining maqsad va vazifalari. Asosiy katigoriyalari.	2		2																													
2.	Milliy tarbiya konsepsiysi.	8	2	2		4																											

	3.	Tarbiya darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi.	6	2			4
		Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars va darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.	2		2		
	4.	Milliy urf-odat, qadriyat va an'analar – tarbiya asosi.	6	2			4
		Tarbiya darslarida milliy qadriyatlar, urf-odat va marosimlarni o'rganish, milliy qadriyatlarning shaxs kamolotiga ta'siri.	2		2		
	5.	Tarbiya darslarida o'quvchining o'z ustida ishslash imkoniyatini tashkil etish	6	2			4
		O'qituvchi o'z ustida ishlashi, o'z-o'zini tarbiyalash uslublari.	2		2		
	6.	Ta'lif-tarbiya jarayonida oila, mahalla va ta'lif muassasasi integratsiyasi.	6	2			4
		"Oila, mahalla va ta'lif muassasasi hamkorligi" Konsepsiyasining ahamiyati.Ta'lif muassasasi faoliyatida oila va oila hamkorligi masalalari.	2		2		
	7.	Tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishda ilg'or xorijiy tajribalar.	6	2			4
		Jahoning rivojlangan mamlakatlar tarixi, maqsadli, uzluksiz, ma'naviy tarbiyaning tutgan o'rni.	2		2		
	8.	Boshlang'ich ta'lifda tarbiya jarayonining mazmuni va mohiyati .	6	2			4
		Boshlang'ich ta'lifda tarbiya nazariyasining tarkibiy qismlari.Boshlang'ich ta'lifda tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari.	2		2		
	9.	Tarbiyaning umumiy metodlari, shakllari va vositalari.	8	2	2		4

	Bolaning o'z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishni kuchaytirish va o'z-o'zini baholashga qo'yayotgan talablar.	<b>2</b>		<b>2</b>		
<b>10.</b>	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida muvaffaqiyatga erishishga intilish motivi shaxsning ustuvor xususiyati sifatida(1-4 sinf tarbiya darsi).	<b>6</b>	<b>2</b>			<b>4</b>
	Tarbiya jarayonida diagnostika va korreksion faoliyat mazmuni.Pedagogik diagnostika metodlari.	<b>2</b>		<b>2</b>		
<b>11.</b>	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish (1-4 sinf tarbiya darsi)	<b>6</b>	<b>2</b>			<b>4</b>
	Shaxsda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning pedagogic-psixologik xususiyatlari.	<b>2</b>		<b>2</b>		
	O'quvchilarda jismoniy va intellectual imkoniyatlarni rivojlantirish kreativ sifatlarni namoyon qilishning mazmuni.	<b>2</b>		<b>2</b>		
<b>12.</b>	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijobiy fazilatlarni shakllantirish mexanizmi (1-4 sinf tarbiya darsi).	<b>6</b>	<b>2</b>			<b>4</b>
<b>13.</b>	Tarbiya darslarida o'quvchini o'z ustida ishlash jarayoni(1-4 sinf tarbiya darsi).	<b>6</b>	<b>2</b>			<b>4</b>
	Tarbiya darslarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish.	<b>2</b>		<b>2</b>		
<b>14.</b>	Boshlang'ich sinflarda "Tarbiya" darslarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish.	<b>6</b>	<b>2</b>			<b>4</b>
	Boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy trening turlari, ularning mazmuni va mohiyati.	<b>2</b>		<b>2</b>		
<b>15.</b>	Boshlang'ich sinflarda "Tarbiya" darslarini tashkil	<b>6</b>	<b>2</b>			<b>4</b>

	etishda treninglar.	tarbiyaviy					
	Jami:		120	30	30		60

**III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular mazmuni kiradi:**  
**I-semestr**

**Tarbiya ijtimoiy-tarixiy zarurat sifatida.** Tarbiya fanining maqsad va vazifalari. Asosiy kategoriyalari. Tarbiya fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Tarbiya fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.

**Milliy tarbiya konsepsiysi.** “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun. Ta’lim to‘g‘risidagi qonunning mohiyati va mazmuni. Konsepsiya tushunchasining mazmuni. Milliy tarbiya konsepsiysi. Tarbiya konsepsiyasining tarbiyaviy jarayondagi ahamiyati.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dars va darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirish o‘ziga xos qoidalarga egaligi.

**Milliy urf-odat, qadriyat va an'analar – tarbiya asosi.** Tarbiya darslarida milliy qadriyatlar, urf-odat va marosimlarni o‘rganish, milliy qadriyatlarning shaxs kamolotiga ta’siri.

**O‘z-o‘zini tarbiyalash** o‘z faoliyatini tahlil qilishdan va o‘z shaxsini takomillashtirishdan boshlanadi. O‘qituvchi o‘z ustida ishlashi, o‘z-o‘zini tarbiyalashda uslublardan foydalanishi.

**Ta’lim-tarbiya jarayonida oila, mahalla va ta’lim muassasasi integratsiyasi.**  
Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda “Oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligi” Konsepsiyasining ahamiyati. Ta’lim muassasasi faoliyatida oila va oila hamkorligi masalalari.

**Tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishda ilg‘or xorijiy tajribalar.**  
Jahon tarbiya konsepsiyalari. Jahoning rivojlangan mamlakatlari tarixi, maqsadli, uzlusiz ma’naviy tarbiyaning tutgan o‘rni. Yaponiyada fuqaroni tarbiyalash – “axloqiy tarbiya” tizimi “xarakterni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim”, “davlat uchun maq’bul axloqiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat”, “fuqarolik axloqi asoslarini tarbiyalash” tizimi. Xitoyda Konfutsiylik axloqining besh asosiy ustuni.

**Boshlang‘ich ta’limda tarbiya jarayonining mazmuni va mohiyati.** “Tarbiya” tushunchasining mohiyati. Boshlang‘ich ta’limda tarbiya nazariyasining tarkibiy qismlari. Boshlang‘ich ta’limda tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari. Tarbiya maqsadining jamiyat ijtimoiy ehtiyoji asosida belgilanishi. Komil inson, malakali mutaxassisni tarbiyalash – bosh ijtimoiy maqsad. Tarbiya qonuniyatlarini va tamoyillari.

**Tarbiyaning umumiy metodlari, shakllari va vositalari.** Tarbiya shakllari (turlari) haqida tushuncha. Tarbiyaning umumiy metodlari va vositalari. Boshlang‘ich sinflarda tarbiya metodlari, vositalari tasnifi va ularni tanlab olish shartlari.

**Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muvaffaqiyatga erishishga intilish motivi shaxsning ustuvor xususiyati sifatida(1-4 sinf tarbiya darsi).** Bolaning o‘z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish va o‘z-o‘zini baholashga qo‘yayotgan talablar. O‘z qobiliyatlarini bilishga va mehnatsevarlikka o‘rgatish. Ijtimoiy motivlarning paydo bo‘lishi. O‘z xalqining va boshqa xalqlarning an’analari, qadriyatlari qiziqishning namoyon bo‘lishi.

**Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish (1-4 sinf tarbiya darsi)** O‘quvchilarni o‘rganish, kuzatish va ta’sir ko‘rsatish. O‘quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish. Tarbiya jarayonida diagnostika va korreksion faoliyat mazmuni. Pedagogik diagnostika metodlari.

**Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijjobiy fazilatlarni shakllantirish mexanizmi (1-4 sinf tarbiya darsi).** Shaxsda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari. Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash kabi fazilatlarni shakllantirish mazmuni. Innovatsion tarbiya texnologiyalarining o‘quvchilarning axloqiy sifat va fazilatlarini shakllantirishda foydalanish.

**Tarbiya darslarida o‘quvchini o‘z ustida ishlash jarayoni(1-4 sinf tarbiya darsi).** O‘quvchida ijtimoiy faoliik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari. O‘quvchilarda jismoniy va intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish va kreativ

	<p>sifatlarini namoyon qilishning mazmuni. Vatan oldidagi huquq, burch va majburiyatlarini anglash.</p> <p><b>Boshlang‘ich sinflarda “Tarbiya” darslarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish.</b> Innovatsion ta’lim muhitida tarbiya darslarini tashkil etishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, mediata’limni yo‘lga qo‘yish. Tarbiya darslarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish. Tarbiyaviy texnologiya turlari va ularning mazmuni.</p> <p><b>Boshlang‘ich sinflarda “Tarbiya” darslarini tashkil etishda tarbiyaviv treninglar.</b> Trening tushunchasi. Tarbiyalanuvchilarining axloqiy fazilatlarini shakllantirishda tarbiya treninglarining ahamiyati. Boshlang‘ich sinflarda tarbiyaviv trening turlari , ularning mazmuni va mohiyati.</p>
3.	<p><b>IV. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba; tarbiya fani haqida bilimga ega bo‘lishi, tarbiya madaniyati, tarbiya nazariyasi va tarixining xronologiyalari haqida tasavvur va bilimga ega bo‘lishi; tarbiya fani tadqiqot metodlari, tamoyillari, ta’lim shakllari, ta’lim tashkil etish texnologiyasini qamrab olgan asosiy qonun va tushunchalar. Dars mashg‘ulotiga qo‘yilayotgan ; tarbiya va ; tarbiya fani haqida talablariga oid xususiyatlarini bilish va ulardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi; Ta’lim jarayonlarida ; tarbiya faniga xos usullarni qo‘llash, ilmiy-nazariy muammolar bo‘yicha yechimlar qabul qilish malakasiga ega bo‘lishi kerak.</p>
4.	<p><b>V. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma’ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishslash;</li> <li>• taqdimotlar qilish;</li> <li>• individual loyihibar;</li> <li>• jamoa bo‘lib ishslash va himoya qilish uchun loyihibar.</li> </ul>
5.	<p><b>VI. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchaparni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish. O‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va oralik nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.</p> <p><i>Oraliq nazorat:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Modul o‘qituvchisi (instruktor) bilan kelishilgan holda fikrlar almashuvi yozma yoki og‘zaki shaklda;</li> <li>– Oraliq nazorat shakllari: munozaralar, shuningdek muhokama qilingan asosiy masalalarni tushunishlarni tekshirish uchun testlar va yozma ishlar.</li> </ul> <p><i>Yakuniy nazorat:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Imtihon – modul’ davomida olingan bilim va ko‘nikmalarni baholash; yozma savollarni yoki o‘quv dasturi (syllabus) materiallari bo‘yicha yozma, xususan nazariy va amaliy jihatlarni o‘z ichiga oladi.</li> </ul>
6.	<p><b>VII. Talabalar bilimini baholash mezoni:</b></p> <p><b>1. Baholash (Kunduzgi va kechki ta’lim shakli uchun)</b></p> <p>1) Birinchi oraliq nazorat – 30 ballni, o‘z ichiga:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– amaliy va seminar mashg‘ulotlarida faol ishtiroti;</li> <li>– kollokvium - savollar orqali tegishli mavzular bo‘yicha og‘zaki savol-javob. Savollar tahliliy xarakterda bo‘ladi, birlamchi va boshqa turdagи manbalardan foydalanish mumkin.</li> <li>– yozma topshiriqlar - kazus echish, jadval, sxema, glossariy tuzish, hujjat loyihasini tayyorlash.</li> </ul> <p>1) Ikkinci oraliq nazorat – 40 ballni (20 ball auditoriya mashg‘ulotlari, 20 ball mustaqil ta’lim), o‘z ichiga:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– fanning o‘quv dasturida ko‘rsatilgan auditoriya mashg‘ulotlaridagi fan mavzularidan tuzilgan savollar;</li> <li>– fanning o‘quv dasturida ko‘rsatilgan mustaqil ta’lim mashg‘ulotlaridagi mavzulardan tuzilgan savollar;</li> <li>– yozma topshiriqlar.</li> </ul>

2) Yakuniy nazorat (yozma javob berish) – 30 ball. Modul davomida olingan bilim va ko‘nikmalarini darajasini baholash uchun yakuniy nazorat 80 daqiqa davom etadigan yozma imtihon shaklida bo‘lib o‘tadi. Biletlarda asosida nazariy savollar va yechish uchun amaliy topshiriqlar beriladi. Yakuniy nazorat savollari auditoriya (kontaktli) va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlaridan olinadi. Savollar tahliliy yondashuvni, chuqur bilim va nazariy tushunishni, hujjatlarning asosiy qoidalari va huquqiy amaliyatda muayyan vaziyatga baho berish ko‘nikmalarini talab etadi.

### **2. Baholash (*Sirtqi ta’lim shakli uchun*)**

1) Birinchi oraliq nazorat – 20 ballni, o‘z ichiga:

- dars mashg‘ulotlaridagi faol ishtiroki;
- savollar orqali tegishli mavzular bo‘yicha og‘zaki savol-javob.
- yozma topshiriqlar.

1) Ikkinci oraliq nazorat – 50 ballni (50 ball mustaqil ta’lim mashg‘ulotlaridan), o‘z ichiga:

- fanning o‘quv dasturida ko‘rsatilgan mustaqil ta’lim mashg‘ulotlaridagi mavzulardan tuzilgan savollar;

– yozma topshiriqlar.

2) Yakuniy nazorat (yozma javob berish) – 30 ball. Modul’ davomida olingan bilim va ko‘nikmalarini darajasini baholash uchun yakuniy nazorat 80 daqiqa davom etadigan yozma imtihon shaklida bo‘lib o‘tadi. Biletlarda asosida nazariy savollar va echish uchun amaliy topshiriqlar beriladi. Yakuniy nazorat savollari auditoriya (kontaktli) va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlaridan olinadi. Savollar tahliliy yondashuvni, chuqur bilim va nazariy tushunishni, hujjatlarning asosiy qoidalari va huquqiy amaliyatda muayyan vaziyatga baho berish ko‘nikmalarini talab etadi.

7.

### **Asosiy adabiyotlar:**

5. R.A.Mavlonova, B.Normurodova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Fan” 2008 y.
6. R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik Nizomiy nomidagi TDPU Riziografida nashr qilindi. Toshkent, 2014 y
7. K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.O‘quv qo‘llanma.T.:O‘qituvchi 2010-yil
8. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil

### **Qo‘srimcha adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston”, 2017.
3. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017yil, 6-son,70-modda.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta’minalash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston”, 2017.
5. R.A.Mavlonova,D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma T.:Fan va texnologiya 2012-yil
6. S.Nishonova, M.Imomova, R.Xasanov. Pedagogika tarixi. Darslik T.: O‘qituvchi 1996-yil
7. M.Ochilov. Muallim qalb me’mori. O‘quv qo‘llanma T.:O‘qituvchi. 2004-yil
8. N.Egamberdieva, Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi O‘zMKN.T.: 2009-yil

<b>Internet saytlari</b>
1. www. tdpn. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Zyonet. uz
4. www. edu. uz
5. tdpn-INTRANET. Ped

## TEST TOPSHIRIQLARI

### 1.Guruh yig'ilishlarining birinchi turi

\*Yig'ilish – munozara

Amaliy yig'ilishlar

Tashkiliy mavzuiy yig'ilishlar

Yakuniy yig'ilishlar

### 2.Tarbiyaviy rejalarini qanday rejalashtirilgan maqqul?

Xaftalik

Choralik

Yarim o'quv yili uchun

\*O'quv yili uchun

### 3.Guruh rahbari birinchi navbatda qanday ishni amalga oshiradi?

Guruhsda dars beruvchi o'qituvchilarning o'quv tarbiyaviy ishlarini o'zaro muvofiqlashtirish

O'quvchilar jamoasini ishini yo'naltiradi

\*O'qituvchilar va o'quvchilar jamoasi faoliyatini muvofiqlashtiradi

Guruhdan tashqari tarbiyaviy ishlarni olib boradi

### 4.Guruhdagi barcha tarbiyaviy ta'sirlarni tashkil qilish, rag'batlantirish hamda kompleks yondashishni amalga oshiruvchi maorif xodimi

O'qituvchi

\*Guruh rahbari

Tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari

Direktor

### 5.Shaxsni jamoada tarbiyalash pedagogikaning etakchi tamoyili nimadan boshlanadi?

Jamoada o'z-o'zini boshqarish organini rivojlantirishidan

Jamoani vujudga keltirishdan

\*Jamoani birlashtirish

Jamo faoliyatini tashkil qilishdan

### 6.O'quvchilar jamoasidagi anqanalaridan elng birinchi anqanalar qaysilar?

Katta guruh o'quvchilarining kichik guruh o'quvchilar ustidan otalik qilish

\*Tug'ilgan kunlarni bayram qilish  
Yozuvchilar bilan uchrashuvlar  
Sevimli qahramonlar bilan uchrashuvlar

#### **7.Guruh rahbari vazifalarini belgilab beruvchi hujjat**

«Ta'lim to'g'risida» gi qonun  
\*«Guruh rahbarining ishi» to'g'risidagi uslubiy xat  
O'rta umumta'lim maktablarining ustavi  
O'quv dasturi

#### **8.Maktabning o'z-o'zini boshqarishda qanday tashkilot asosiy o'rinni elgallaydi?**

\*O'quvchi qo'mitalari  
Ota-onalarning qo'mitasi  
Psixologik xizmat  
Metod birlashma

#### **9.Guruh rahbari tarbiyaviy ish rejasini tuzgandan keyin birinchi navbatda kimlar bilan muhokamadan o'tkazadi?**

Parallel guruhdagi hamkasblari bilan  
Guruh faollari bilan  
Maktab rahbariyati bilan  
\*Ota-onalar faollari bilan

#### **10.Amaliyotda qo'llanilayotgan ish rejasining tuzulishi qaysi bo'lidan boshlanadi?**

Tarbiyalash vazifalaridan  
Tarbiyaviy faoliyat tuzumidan  
\*Tarbiyaviy ishlarning mazmuni  
Guruh tavsifnomasidan

#### **11.Guruh rahbarining rejasi qaysi bo'limlardan boshlanishi tavsiya qilinadi?**

\*O'qishga ongli munosabatni shakllantirish  
Axloq va huquqiy tarbiya  
Mehnat tarbiyasi va kasbga yo'llash  
Estetik tarbiya

#### **12.Ota-onalar bilan ishlash guruh rahbaridan qanday munosabatni dastavval o'rgatishni talab qiladi?**

\*Izchil va qatqiy e'tiborni  
Chidamlikni  
Pedagogik nazoratni  
Ishonch munosabatini o'rgatishni

#### **13.Ota-onalar jamoasining eng katta organi..?**

\*Ota-onalar qo'mitasi  
Ota-onalar yig'ilishi

Ota-onalar majburiyati

Ota-onalar vakolati

**14.Ota-onalar qo'mitasining ishini kim boshqaradi?**

Maktab direktori

Tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari

\*Komissiya raislari

Qo'mitaning raisi

**15.Oila tarbiyasida eng muhim yo'naliш**

Mehnat tarbiyasi

Nafosat tarbiyasi

\*Axloqiy tarbiya

Jismoniy tarbiyasi

**16.O'qitishning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi birinchi tadbir**

\*O'quv qo'llanmalari asosini yaratish

O'qishlar uchun zarur bo'lgan moddiy bazani yaratish

O'quv qurollari bilan taqminlash

Doimiy ish joyini moslashtirish

**17.Guruh rahbari bir yilda necha marta faollar kengashini o'tkazadi?**

2 marta

4 marta

3 marta

\*Har chorakda

**18.O'quvchining uyiga borilganda guruh rahbari asosan qaysi qoidaga e'tibor qilishi kerak?**

\*Xushmuomilada bo'lish

O'quvchidan norozilik bildirmaslik

Qoloqlik sabablarini axtarishga intilish

Meni gapim gap deb turib olish

**19.Tarbiya jarayonida maqsad va vazifalar chegarasi**

Bir necha maqsad va vazifa

Bir vazifa bir qancha maqsad

\*Bir maqsad va bir necha vazifa

Vaziyatga qarab bir necha maqsad va vazifalar

**20.Tarbiyani majmuriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish nima deb ataladi?**

Tarbiyada insonparvarlik, tarbiyani demokratlashtirish

Tarbiyada tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi

\*Tarbiyada uzlusizlik

Barcha javoblar to'g'ri

**21.Tarbiya murakkab jarayon sifatida birinchi navbatda kimlar qatnashadilar?**

O'qituvchilar

\*Ota-onalar

Jamoatchilik

Tarbiyachilar

**22.Tarbiya qoidalarida birinchi navbatda tarbiyaning qaysi jihat o'z ifodasini topadi?**

Tarbiyaning usullari

\*Tarbiya usullariga qo'yiladigan talablar

Tarbiya qoidalari

Tarbiyaning mazmuni

**23.Tarbiyaviy ish qanday jarayon hisoblanadi?**

O'quv jarayonida amalga oshiriladigan

Vaqti-vaqt bilan amalga oshiriladigan

\*Uzluksiz

Doimiy

**24.Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat va o'zaro ta'sir ko'rsatishi tarbiya nazariyasida nima deb ataladi?**

Tarbiya qoidasi

\*Tarbiya qonuni

Tarbiya usuli

Tarbiya jarayoni

**25.Guruh rahbari rejasini tuzishda unga qo'yiladigan asosiy talablar nimadan boshlanadi?**

\*Tarbiyaviy vazifalarning to'g'ri va aniqligi

Bilim berish va uyushtirishni optimal qo'shib yuborish

Ishda istiqbollik va dolzarblikni qo'shib yuborish

Pedagogik rahbarlik va o'quvchilar faolligini birligi

**26.O'quvchi shaxsiyatini aniqlash usullari**

Anketalar orqali

\*Og'zaki savol-javoblar

Maktab rahbari

Test orqali

**27.O'quvchi tarbiyaviy soatlarini o'tkazish usullari**

Anketa suhbat usulida

\*Tarbiyaviy ahamiyatga elga bo'lgan qiziqarli ssenariy asosida

Kundalik yangiliklar bilan tanishtirish

Reja asosida o'tkazish

**28.O'qituvchining o'quvchiga qo'ygan talablari**

Dars qoldirmaslik va kechikmaslik

\*Ma'suliyatlilik va faollikni oshirish

Darsni oxirigacha tartib bilan tinglash

Odobni saqlash

**29.Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasining manbalari**

\*Milliy umuminsoniy qadriyatlar urf-odatlar

Islomiy ta'limot

Ta'lim tarbiyaviy holati

Dunyoviy ta'limot

**30.Guruh rahbarining tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishslash metodikasi**

\*Alohiba suhbat va ishslash usullari

Jamoa bilan ishslash uslubi

Rag'batlantirish uslubi

Jazolash uslubi

**31.Jamoani tashkil qilish qoidalari**

\*Faollarni aniqlash

O'quv jarayonini tashkil qilish

Ijodiy anqanalar yaratish

Iqtidorli talabalar bilan ishslash

**32.Jamoa bu nima?**

\*Maqsadi bir bo'lgan birlashgan guruh

Yangi ijodiy fikrlarga elga bo'lgan guruh

4-5 kishidan iborat bo'lgan guruh

Yangi bilimlarga elga bo'sh guruh

**33.«Kamtar odamlar ko'p gapirishdan qochadilar, ular ko'p eshitmoqni istaydilar eshitmoq kishini boyitadi, ko'p gapirmoq sayozlatadi» Ko'p gapirgan – ko'p yanglishadi Bu misralar kimga tegishli?**

\*A. Navoiy

A. Avloniy

Ibn Sino

M.Oybek

**34.Chaqaloq hayotida qanday voqealar an'anavyi nishonlanadi?**

\*beshikka solish va birinchi qadam

maktabga borish

ism qo'yish

tug'ilgan kun

**35.«Hunarning afzalligi», «Farzandni parvarish qilish haqida» hikmatli so'zlar qaysi kitobdan olingen?**

A .S. Makarenkoning «Balalar tarbiyasi haqida»gi kitobidan  
\*«Qobusnoma» dan  
«Ravshan» dostonidan  
Ibn Sinoning «Tadbiri manzil» asaridan

**36.«Axloq» deganda nimani tushinasiz?**

\*jamiyatda qabul qilingan va jamoatchilik fikri bilan qo'llab quvvatlanadigan inson hulqi normalarining yig'indisidir  
kishining o'z obro'sini ardoqlashi va his tuyg'usini ulug'lashi  
ota-onva oila aqzolarini hurmat qilishi, hollaridan xabar olishi  
gazeta, jurnal o'qib, televizor ko'rish

**37.«Kimki g'oyalardan uzoqlasha borsa, pirovard natijasida faqat sezgilar bilangina qoladi»-deb qaysi shoir bu g'oyani ilgari surgan?**

A. Avloniy  
\*I. Gyote  
A .Navoiy  
V. A .Suxomlinskiy

**38.Tarbiya san'atining o'zi nima?**

\*bu bolalarni sevish san'atdir  
axloqiy sarchashmalarni yanada yorqin namoyon bo'lishi  
insoniy sevgi, insoniy madaniyatdir  
tarbiyani to'g'ri etkazib berishdir

**39.Islomda oilaviy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari nimadan kelib chiqqan?**

musulmonchilik farzlaridan  
\*musulmonchilik talabidan  
hadislardan  
payg'ambarimiz o'gitlaridan

**40.Hozirgi kunda pedagogika fani oldida kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan biri**

\*bozor iqtisodiyotiga o'tishning ma'naviy – ma'rifiy zaminini yaratish  
izlanish olib borish  
malakali kadrlar tayyorlash  
yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash

**41.Yosh avlodning avlod – ajdodlarimizga munosib voris bo'lib tarbiyalanishlarida nimaning ahamiyati beqiyos?**

muhitning  
ma'naviyatning  
ta'limning  
\*milliy va diniy qadriyatlarning

**42.Qaysi qonunda oilaning jamiyat, davlat oldidagi ma'suliyatini aniqlab etadigan komil insonni tarbiyalashdagi o'rniha alohida e'tibor beriladi?**

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da

\*«Ta'lim to'g'risida» gi qonunda

Konstitutsiyada

mustaqillik to'g'risidagi deklaratsiyada

**43.Mustaqil O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashda qaysi manbalardan foydalanish mumkin?**

\*umuminsoniy qadriyatlar, inson taqminoti, milliy urf odatlar

madaniyat va ma'naviyat tarbiyasi orqali

hallollik va sabr toqat orqali

mehr muruvvat, shavqat, haqgo'ylik tarbiyasi orqali

**44.«Peshona teri bilan topilgan bir qora chaqa o'zgalarning ehson etilgan xazinasidan yaxshiroqdir» Ushbu satrlar kimning qalamiga mansub?**

\*A. Navoiy

M. Qoshqariy

B. Naqshbandiy

A. Yassaviy

**45.BMT tomonidan «Bolalar huquqlari konvensiyasi» nechanchi yilda qabul qilingan?**

1996 yil

1997 yil

\*1998 yil

1999 yil

**46.Maktab direktorining vazifalari nimadan iborat?**

\*o'quv-tarbiya jarayonini rejalashtiradi va tashkil qiladi, bu jarayon qanday borayotganligini va uning natijalarini nazorat qiladi

maktab pedagogik xodimlarining ijodiy o'sishi, yangi texnologiyani qo'llash uchun sharoit yaratib beradi

maktab fondi mablag'idan oqilona foydalanishni uyushtiradi

mehnat bo'yicha ishlarni yo'lga qo'yadi

**47.Maktabdan tashqari ishlarda aniq maqsadga qanday erishiladi?**

tarbiyaviy ishlar sohasida erishilgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish orqali

tarbiyaviy ishlarni maqsad va vazifalarni aniqlash orqali

guruhdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni guruhlash orqali

\*maktabda tarbiyaviy ishlarni aniq rejalashtirib, uning mazmuni, shakl va usullarini aniqlab, ma'lum bir tizimga solish orqali

**48.Oilaviy tarbiya – bu**

oilada ota-onalarning bolalarni tarbiyalashi

katta kishilar bolalarni tarbiyalashi  
\*oilada ota-onalar, vasiylar va katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash  
ota-onalar va farzandlarning vazifalari

#### **49. Guruhdan va maktabdan tashqari ishlarning ta'siri nimaga bog'liq?**

\*o'quv jarayonini tashkil eltish saviyasiga, o'quvchilar jamoasining xilma-xil ishlarni qanday yo'lga qo'yilishiga bog'liq  
maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar unda qatnashuvchilarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishiga bog'liq  
o'quvchilarning bilim salohiyati va faolligiga bog'liq  
ijtimoiy faoliyot tarkib topshirish bilan bog'liq

**50 .«Inson va jamoaning g'alabaga erishuvi, yaxshilikning qo'lga kiritilishi, axloqiy va aqliy mukammallikka elrishuvi, inson va jamoaning o'z qo'lidadir» deb qaysi olim aytib o'tgan?**

Abu Ali ibn Sino

\*Farobiy

A Avloniy

A Navoiy

#### **51.Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar - bu**

\*o'quvchilarni darsdan bo'sh vaqtlaridagi o'quv tarbiya jarayonini to'ldiradi va kengaytiradi  
o'quvchilarni mustaqil bilim olishlariga imkoniyat yaratadi  
bolalarni ijodkorlikka daqvat eltuvchi tarbiyaviy maskandir  
o'quvchilarni axloqiy va aqliy tarbiyalash

#### **52.Guruh rahbarining yakka tarbiyada olib boradigan ishidan maqsad nima?**

maktab o'quvchisini o'z-o'zini tarbiyalashga jalb eltish  
\*o'quvchilarni tegishli malaka va ko'nkmalar bilan qurollantirishdan  
o'quvchilarning o'qishdagi mustaqilligini shakllantirish  
ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish

#### **53.Guruh rahbari ishida asosiy markaziy vazifa bo'lib nima hisoblanadi?**

o'quvchilarga tarbiya berish  
\*o'quvchilar jamoasini shakllantirish  
tarbiya usullaridan o'rinali foydalanish  
ta'limni isloh qilish usullarini o'rgatish

#### **54.Maktab, oila va jamoatchilik hamkorligida kimlar qatnashadi?**

o'quvchilar va jamoalar  
o'quvchilar va o'qituvchilar  
o'qituvchilar bilan ota-onalar  
\*o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar, turli jamoalar

#### **55.Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashning eng ishonchli usuli**

anketa tarqatish pedagogik vaziyatlarni vujudga keltirishdan iborat
*o'quvchilarni darsda, darsdan tashqarida, maktabda, maktabdan tashqarida o'zaro faol hamkorlik qilish jarayonida kuzatishdan iborat
bolalarning hulq-atvorini jamoa bo'lib tahlil eltishdan iborat
tushuntirish va suhbat usulidan iborat

#### **56.O'zini-o'zi tarbiyalash deganda nimani tushunasiz?**

- jamiyatda o'z obro-elqtiborini mustahkamlash
- chuqur bilim olish, savilli va malakali bo'lishdir
- \*jismoniy va ma'naviy Yoshlar ittifoqiga etish uchun kurashdir
- o'z ustida ishslash, mustaqil fikrga elgaligidir

#### **57.SHaxs kim?**

- ma'lum bir jamiyat fuqarosi
- o'zining mustaqil fikriga elga bo'lgan inson
- \*individual, intellektual va irodaviy sifatlarga elga odam
- ongli, fikrli jamiyat fuqarosi

#### **58.Qaysi olimlar tomonidan oilaning kommunikativ vazifasini ifodalaganlar?**

- psixologlar
- demograflar
- \*sotsiologlar
- pedagoglar

#### **59.«Agar oila tarbiya usullaridan to'g'ri foydalansa o'z hayotida baxtga elrishadi» - degan misra qaysi olim qalamiga mansub?**

- Firdavsiy
- Abu Rayxon Beruniy
- \*Abu Ali ibn Sino
- Alisher Navoiy

#### **60.Bola tarbiyasi bilan birinchi navbatda kimlar shug'ullanishi kerak?**

- \*ota-onalar
- o'qituvchilar
- maxala
- jamiyat

#### **61.Otaning bolalarga ta'sirining bosh xususiyati nima?**

- mexribonchilik
- \*talabchanlik
- beraximlik
- etiborsizlik

#### **62.Oilaning eng muhim vazifasi bu**

- \*farzand ko'rish va tarbiyalash

tinch totuv yashash  
oilani asrab avaylash  
sabr qanoatli bo'lish

**63.Tarbiyaviy ishlarga yangicha munosabat mustaqillik ma'naviyati negizi asosida o'z aksini nimalarda topmoqda?**

\*huqumat qarorlarida, o'qituvchilarning izlanishlarida va xalq ta'limi tizimidagi islohatlarda olimlar va ijodkorlar izlanishlarida sharq mutafakkirlari ijodida tarbiyachilarining ishlarida

**64.Amir Temur o'zining pand-nasihatlarida yosh avlodni qanday bo'lishiga chorlaydi?**

bilimli bo'lishga  
\*adolatli bo'lishga  
Vatanni dushmandlardan asrashga  
har ishda muvaffaqiyatga elrisha olishga

**65.Bolani jismoniy tarbiyalash, ularga ahloq va mehnat tarbiyasini berish qayerda shakllana boshlaydi?**

maktabda  
bolaga berilgan tarbiyada  
\*oilada  
ko'chada

**66.«Har bir farzand dastlab xudo oldidagi burchini o'tab bo'lgandan so'ng, ota-onasi oldidagi burchini bajarmog'i kerak» - deb Kim aytib o'tgan?**

\*Husayn Voiz Koshifiy  
Alisher Navoiy  
Amir Temur  
Husayn Boyqaro

**67.Ota-onalar uchun mo'ljallangan ma'ruza qanday ahamiyatga elga bo'lishi kerak?**

\*ta'limiy – tarbiyaviy  
farzand tarbiyasida halqimiz qo'llagan usullari  
ma'naviy meros va oila  
milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish va barkamol inson tarbiyasida ota-onalarning o'rni

**68.Passiv o'quvchilar bilan ishslashning eng samarali usuli**

\*passiv o'quvchilar bilan yakkama-yakka ishslash  
passiv o'quvchilarini faol o'quvchilarga biriktirib qo'yish  
ko'proq topshiriqlar berish  
ota-onalar bilan ishslash

**69.Hulqi yomon o'quvchilar bilan ishslashda eng samarali usul**

rag'batlantirish

jazolash
*yakka suhbat
jamoa orqali ta'sir ko'rsatish

#### **70.O'qituvchilarga qo'yilgan talablar**

*nutq va bilimga elga bo'lish, o'quvchilarni xolis baholash, muomila madaniyati yaxshi o'qitish, yaxshi tarbiya berish
ta'lim – tarbiyani to'g'ri tashkil eltish
o'z fanini yaxshi bilish

#### **71.Jamoa bu –**

*ikki yoki undan ortiq maqsadi bir bo'lган uyushma
yoshi, saviyasi, kelib chiqishi, irqi bir xil bo'lган uyushma
bilim saviyasi bir xil bo'lган uyushma
qiziqishlari bir xil bo'lган uyushma

#### **72.Tarbiyaviy soat necha qismdan iborat va ular qaysilar?**

2 qismdan: ma'rifiy, baholovchi
1 qismdan: yo'naltiruvchi
*3 qismdan: ma'rifiy, baholovchi, yo'naltiruvchi
4 qismdan: yo'naltiruvchi, ma'rifiy, baholovchi, ma'naviy

#### **73.O'quvchining har tomonlama o'sishi va rivojlanishi nimaga bog'liq?**

*o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro muamola munosabatiga
o'quvchining bilimiga
o'quvchining tarbiyasiga
o'qituvchining bilim va tarbiyasiga

#### **74.Guruh rahbari ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashda qaysi ish shaklidan ko'proq foydalanadi?**

guruh tarzidagi ish shakli
*ommaviy tarzdagi ish shakli
yakka tartibdagi ish shakli
hamma javob to'g'ri

#### **75.Ota-onalar Kengashi saylanadigan majlis – bu**

tashkiliy yig'ilish
guruh majlislari
*chorakdagi yakunlovchi majlislar
majlis – munozaralar

#### **76.Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda birinchi bo'lib nimaga elqtibor berish kerak?**

jamoaning bilim darajasiga
*guruh jamoasining ruhiy holati, yaqni har bir o'quvchining shaxsi, faoliyati, qiziqish darjasiga

guruhdagi intizomga  
faqat guruh jamoasining faoliyatiga

**77. Guruh rahbari bu**

- o'quvchilarni birlashtiruvchi shaxs
- o'quvchilarga bilim beruvchi shaxs
- \*o'quvchilarni birlashtiruvchi, bilim beruvchi, bolalar bilan kechalarni o'tkazuvchi va tarbiyalovchi shaxs
- o'quvchilarni tarbiyasini nazorat qiluvchi shaxs

**78. Guruh tarbiyaviy soatlariga 2–guruh uchun qancha vaqt berilgan?**

- 20 daqiqa
- 15 daqiqa
- \*30 daqiqa
- 40 daqiqa

**79. Guruh rahbari ishlari kim tomonidan nazorat qilinadi?**

- maktab rahbari
- \*ma'naviyat – ma'rifat ishlari bo'yicha rahbar o'rribbosari
- o'quv ishlari bo'yicha rahbar o'rribbosari
- o'quvchilar tomonidan

**80. Xulqi yomon o'quvchilar bilan o'qituvchi qanday ishlashi kerak?**

- o'quvchilar oldida uyaltirish kerak
- \*yakkama-yakka suhbat olib borishi kerak
- aktiv, faol, yaxshi o'qiydigan o'quvchilarga biriktirish kerak
- ko'proq vazfalar berishi kerak

**81. O'z - o'ziga ta'sir qiluvchi usullar**

- o'z - o'ziga buyruq berish
- o'z - o'zini majbur qilish
- o'z - o'ziga ta'sir qilish
- \*o'z - o'zini ishontirish

**82. Guruh tarbiyaviy soatlarini olib borish necha qismdan iborat va ularni ko'rsating?**

- \*3 qismdan: ma'rifiy, baholovchi, yo'naltiruvchi
- 2 qismdan: ma'rifiy, baholovchi
- 1 qismdan: yo'naltiruvchi
- 4 qismdan: yo'naltiruvchi, ma'rifiy, baholovchi, ma'naviy

**83. «Guruhdan va matabdan tashqari tarbiyaviy ishlar» konseptsiyasi xalq ta'limi vazirligi tomonidan nechanchi yilda tasdiqlangan?**

- 1991 yili
- \*1993 yili
- 1994 yili

1992 yili

**84.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Ijtimoiy ma'naviy muxitni yanada sog'lomlashtirish diniy tadbirlari to'g'risida» gi qarori qachon qabul qilingan?**

\*1998 y 26 mart

1997 y 10 aprel

1999 y 4 yanvar

1998 y 26 aprel

**85.Voyaga yetmaganlarning xuquqini muxofaza qilish O'zbekiston Respublikasining qaysi qonunida ko'rsatilgan?**

Milliy dasturda

ma'naviyat va qo'shimcha ta'llim boshqarmasidagi qonunda

bolalar va o'smirlar ma'naviyat markazi ta'llim qonunida

\*ta'llim to'g'risidagi qonunda

**86.Guruh rahbari o'quvchilar faolligini oshirish uchun kimlar bilan aloqani mustaxkamlash lozim?**

o'quvchilar bilan

\*ota-onalar bilan

passiv o'quvchilar bilan

aqlochi o'quvchilar bilan

**87.Guruh tarbiyaviy soatlari qayerda o'tkaziladi?**

\*doimiy guruhda

maktab hovlisida

aktiv zalda

ma'naviyat xonasida

**88.Milliy madaniyat, milliy til, milliy urf – odatlar va qadriyatlarimizning asoslarini o'rgatadigan asosiy maskan**

oila

\*maktab

mahalla ,

jamiyat

**89.Tarbiya bu –**

ta'llim, o'qish tizimi, inson yashash faoliyati

\*har bir insonning hayoti yashashi jarayonida ortirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarini ijobiy ko'nikmasini o'zgalarga berish jarayoni

barkamol avlodni o'qitish, salohiyatini oshirish

ta'llim oliga qo'yilgan vazifalarni bajarish

**90.SHaxs eng avvalo qayerdan shakllana boradi?**

maktabdan

ko'chadan

\*oiladan

bog'chadan

**91. Maktabda guruh rahbari o'quvchilarga tarbiyaviy ishlarni qanday amalga oshirishi mumkin?**

\*tadbirlar, mushoiralar, uchrashuvlar

kechalar, uchrashuvlar, bellashuvlar

konkurslar, har xil o'yinlar

suhbatlar, to'garaklar

**92. O'quvchilarni o'rganishning eng samarali usuli**

test

suhbat

anketa

\*kuzatish

**93. O'qituvchiga qo'yiladigan talablar:**

muamola madaniyatiga elga bo'lish kerak

bilimga elga bo'lishi kerak va o'quvchilarni holisona baholay olish kerak

tarbiyali bo'lishi, pedagogik mahoratga elga bo'lishi kerak

\*barcha javoblar to'g'ri

**94. Guruh majlisi kim tomonidan o'tkaziladi?**

direktor o'rribosari

\*guruh rahbari

aqlochi o'quvchi

ota-onalar tomonidan

**95. O'quvchi shaxsini o'rganishda elng ko'p qo'llanadigan, elng qulay usul qaysi?**

\*suhbat

anketa

test,

kuzatish

**96. Guruh rahbarining ish rejasini kim tuzadi?**

maktab direktori

\*guruh rahbari

o'quvchilarning ota-onalar komiteti

ma'naviyat – ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rribosari

**97. Guruhdan tashqari o'qish bu -**

\*darsliklardan foydalilmagan holda boshqa adabiyotlardan foydalanim dars o'tish

darsliklardan foydalangan holda dars olib borish

darsliklardan foydalangan holda tarbiya ishlarni olib borish

**98.O'quvchilarda imtizomlilikni tarbiyalashning usul va metodlari qaysi?**

guruhda o'quvchilar imtizomliliginu mustahkamlash

xulqi yomon o'quvchilar bilan ishslashda jazolash va rag'batlantirish usullarini qo'llash

\*ota-onalar va maktab hamkorliligi jamoasi bilan ishslash

jamoa bilan ishslash

**99.Jamoani tashkil qilishda nimalarga e'tibor beriladi?**

\*talablar qo'yishi, faollarni aniqlash va tarbiyalash

o'quv jarayonini tashkil qilish

sog'lom jamoa fikrini shakllantirish

tarbiyaviy ishlarda rag'batlantirish

**100.O'quvchilar intizomini mustahkamlashda guruh rahbarining roli?**

intizom to'g'risida tarbiyaviy soat o'tkazish

intizomsiz o'quvchilar bilan intizomli o'quvchilarni birga o'tirg'izish

\*tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil qilish

ota-onalar bilan ish olib borish

## Baholash mezonlari

### **1. Baholash (Kunduzgi va kechki ta'lim shakli uchun)**

1) Birinchi oraliq nazorat – 30 ballni, o‘z ichiga:

- amaliy, laboratoriya va seminar mashg‘ulotlarida faol ishtiroki;

- kollokvium - savollar orqali tegishli mavzular bo‘yicha og‘zaki savol-javob. Savollar tahliliy xarakterda bo‘ladi, birlamchi va boshqa turdagи manbalardan foydalanish mumkin.

- yozma topshiriqlar – tezislar yechish, jadval, sxema, glossariy tuzish, hujjat loyihasini tayyorlash.

1) Ikkinci oraliq nazorat – 40 ballni (20 ball auditoriya mashg‘ulotlari, 20 ball mustaqil ta’lim), o‘z ichiga:

- fanning o‘quv dasturida ko‘rsatilgan auditoriya mashg‘ulotlaridagi fan mavzularidan tuzilgan savollar;

- fanning o‘quv dasturida ko‘rsatilgan mustaqil ta’lim mashg‘ulotlaridagi mavzulardan tuzilgan savollar;

- yozma topshiriqlar.

2) Yakuniy nazorat (yozma javob berish) – 30 ball. Modul davomida olingan bilim va ko‘nikmalarni darajasini baholash uchun yakuniy nazorat 80 daqiqa davom etadigan yozma imtihon shaklida bo‘lib o‘tadi. Biletlarda asosida nazariy savollar va yechish uchun amaliy topshiriqlar beriladi. Yakuniy nazorat savollari auditoriya (kontaktli) va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlaridan olinadi. Savollar tahliliy yondashuvni, chuqur bilim va nazariy tushunishni, hujjatlarning asosiy qoidalari va huquqiy amaliyotda muayyan vaziyatga baho berish ko‘nikmalarini talab etadi.

2. Baholash (barcha ta’lim shakli uchun)

Ballar (Foiz)	Baho	Izoh
100 – 90	5-baho	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tarbiya darslarini kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlarini bilishi va uni to‘liq tahlil qilish;</li> <li>- O‘zbekistonda bu sohaning bugungi kundagi ahvolini bilishi va uni to‘liq tahlil qilish;</li> <li>- taktikasi tasnifini to‘liq va aniq ta’riflab berish;</li> <li>- TARBIYA darslarini modellashtirishni o‘rgatish metodi, shakli va vositalarini to‘liq bilish</li> <li>- Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fani haqida tushunchaga ega bo‘lishi</li> <li>- Milliy qadriyatlar urf-odatlar ,umuminsoniy vazilatlarni to‘liq bilishi</li> <li>- Tarbiya faning boshqa fanlar aloqadorligini bilishi zarur Tadbirlar o‘tkazish <b>bilimlarga to‘liq ega bo‘lish kerak.</b></li> <li>Ko‘nikma – talabalar Boshlangich ta’limda tarbiya fanlarini tashkil etish <b>ko‘nikmasiga to‘liq ega bo‘lishi kerak.</b></li> <li>Malaka – talabalar tarbiya ishlarini tashkil etish mashg‘ulotlarni tashkil qilish va o‘tkazish: tayyorgarlik ko‘rish.Darslarda interfaol metodlardan foydalanib darsda faol qatnashishi kerak.</li> </ul>

		Tarbiya darslarida o'qituvchining o'z ustida ishlash imkonyatlarini bilish <b><i>malakasiga to'liq ega bo'lishi kerak.</i></b>
89,9 – 71	<b>4-baho</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Boshlang'ich sinfda Tarbiya darslarini kelib chiqishi va bilishi va uni tahlil qilish;</li> <li>- O'zbekistonda bu sohaning bugungi kundagi ahvolini bilishi va uni tahlil qilish;</li> <li>- Tarbiya darslarini tashkil qilish aniq ta'riflab berish;</li> <li>- Tarbiya darslarini tashkil etishni, o'rgatish metodi, shakli va vositalarini bilishi;</li> </ul> <p>O'quvchilarни vatanga muhabbat ruhida tarbiyalab ularni insoniylik sifatlarini bilishlozim;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- jismoniy sifatlarni takomillashtirish yo'li va usullarini bilish Boshlang'ich sinfda tarbiya darslarini pedagogik ahamiyati bilishi.</li> <li>- Boshlang'ich sinflarda tarbiya darslarini tashkil qilish va o'tkazish <b><i>bilimlarga ega bo'lishi kerak.</i></b></li> </ul> <p>Ko'nikma –talabalar ushbu fandan mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish jismoniy mashqlar hatti harakatlarini bajarishni amalga oshirish <b><i>ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.</i></b></p> <p>Malaka –tarbiya darsida intrfaol metodlardan foydalanib mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish: tayyorgarlik ko'rish. Mashqlarni tanlash va tashkil etish. Mashg'ulot jarayoniga rahbarlik qilish.Dars mashg'ulotni yakunlash va uni natijalarini aniqlash hamda <b><i>malakasiga ega bo'lishi kerak.</i></b></p>
70 – 60	<b>3-baho</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Boshlang'ich ta'limda tarbiya darslarini tashkil etishning kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlarini bilishi va uni qisman tahlil qilish;</li> <li>- O'zbekistonda bu sohaning bugungi kundagi ahvolini bilishi va uni qisman tahlil qilish;</li> <li>- tarbiya darslari tashkil qilishni qisman bilishi aralash, tasnifini qisman va aniq ta'riflab berish;</li> <li>- Boshlang'ich sinflarda tarbiya darslari metodi, shakli va vositalarini qisman bilishi;</li> <li>- Tarbiya darslaridamusobaqalarini o'tkazish, qonun – qoidalari va usullarini qisman bilishi;</li> <li>- darslarda interfaol metodardan foydalanishni–qisman bilishi kerak</li> <li>- darslarni to'g'ri tashkil qilishni tartibini qisman bilishi lozim;</li> <li>- tarbiyaviy sifatlarni takomillashtirish yo'li va usullarini qisman bilishi.</li> </ul> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Boshlang'ich sinflarda tarbiya darslarining tashkil qilishning turkumlari, davrlari, pedagogik ahamiyati qisman bilishi.</li> <li>- Tarbiya darslarinii tashkil qilish va o'tkazish <b><i>bilimlarga qisman ega bo'lishi kerak.</i></b></li> </ul> <p>Ko'nikma – talabalar Tarbiya darslarini tashkil qilish fanidan mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish jismoniy sifatlarni hatti harakatlarini bajarishni amalga oshirish <b><i>ko'nikmasiga qisman ega bo'lishi kerak.</i></b></p> <p>Malaka – Tarbiya darslarini mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish: tayyorgarlik ko'rish. Mashqlarni tanlash va tashkil etish. Mashg'ulot jarayoniga faol qatnashish.Boshlang'ich sinflarda tarbiya, darslarini yakunlash va uni natijalarini aniqlash hamda to'<b><i>malakasiga qisman ega bo'lishi kerak.</i></b></p>
59 – 49	<b>2-baho</b>	Belgilangan talablarni umuman bajarmasa, aniq tasavvurga ega bo'lmaslik va ularni amalada bajarib bilmaslik.

*Oraliq nazorat:*

- Modul o‘qituvchisi (instruktor) bilan kelishilgan holda fikrlar almashuvi yozma yoki og‘zaki shaklda;
- Oraliq nazorat shakllari: munozaralar, shuningdek muhokama qilingan asosiy masalalarni tushunishlarni tekshirish uchun testlar, yozma ishlar va amaliy bajarish shaklida.

*Yakuniy nazorat:*

- Imtihon – modul’ davomida olingan bilim va ko‘nikmalarni baholash; yozma savollarni yoki o‘quv dasturi (syllabus) materiallari bo‘yicha yozma, xususan nazariy va amaliy jihatlarni o‘z ichiga oladi.